Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024
№6



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 348 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G‘afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o‘qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari 16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna

Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda 20
Muxiddin Kalonov

"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish 24
Muhammadiyeva Maftuna

Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati 27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna

Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash 31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloyevich

Перспективы развития средств размещений в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана 40
Ахмедходжаев Равшан Темурович

Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari 49
Toyirov Yunus Alamovich

Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari 55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich

Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish 62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna

Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati 67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich

Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi 71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich

Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari 76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li

Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya 81
Yuldashev Iskandar Bahromovich

Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar 86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari 93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov

Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari 97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov

Sociological Assessment of Migration Processes 102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli

Current issues of business management in the context of digitalization of the economy 112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich

Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ 118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce 125
Abirkulova Sohibjamol

Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan) 130
Bakhrom Nomazov

Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati 136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna

Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy 142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli

O‘zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli 148
Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi

Agroklasterlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta’mirlash xarajatlarini tahlil qilish 155
G‘afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug‘ofur o‘g‘li, Narzullayev Nodirbek Aziz o‘g‘li

Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks 160
Juraev K. T.

Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish 164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich

Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati 169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o‘g‘li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa’dulla Namozovich

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning joriy holati tahlili 175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna

Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish 181
Raxmatov Akmal Anvar o‘g‘li

The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan) 187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna

Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar 192
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich

Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region 196
Shakhzod Zokhidov

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish 202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna

Yangi O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari 207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich

Temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘llari 211
Nasimov Shavkat Vasiyevich

O‘zbekistonda banklararo raqobat 219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna

O‘zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta’minlashni takomillashtirish 225
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari 229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati 233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich

Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to‘g‘risida hisobot tuzishning bosqichlari 237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich

Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari 241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich

Tog‘ turizmini rivojlantirish manfaatlari yo‘lida investitsiya resurslarini to‘plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari 245
Xidirov Alimardon Dagarovich

The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English 248
Nilufar Turdiyeva

Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati 252
Suleymanov Farrux Raximjon o‘g‘li

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o‘zgarishlar dinamikasi 256
G. Sh. Qo‘ldosheva, A. J. Toshboyev

Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации 260
Каюмова Паризода

Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari 266
G. I. Abdulxamidova

Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива 272
Shahzad Zokhidov

Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise 275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich

Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан 282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи

O‘zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari 289
Gafurov Ubaydullo Vaxabovich

Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi 296
Dilnoza Meyliyeva

Cross Cultural Preoblems in International Business Negotiations 301
Xoldarova Fariza Tuxtabayevna

Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribani qo‘llash 304
Haydarova Shoxista

Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari 310
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna

Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish 315
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna

Spin korxonalar – texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida 320
O‘rinov Dilshodjon Axmadjonovich

Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta’minlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni takomillashtirish strategiyasi 324
Xolbekova Feruza Rasulovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Iqtisodiy o‘sish va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikning nazariy asoslari.....329
Hasanova Nigora Hasan qizi

Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг Республики Узбекистан.....334
Юлдашев Жамшид Абрарович

Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish.....340
S. A. Karabayev

Axborot telekommunikatsiya tarmog‘i korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligi.....334
Temirov Anvarxon Abdulazizxonovich

OLIY TA’LIM ISLOHOTLARIDA – MUHANDISLIK MAKTABLARINI INSTITUTSIONAL RIVOJLANTIRISH ASOSLARI





Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich Sharipov
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Axborot xizmati rahbari

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonning ulkan islohotlarida rivojlanayotgan sohalaridan biri oliy ta’lim tizimini innovatsion isloh qilish, uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish va muhandislik maktablarini tashkil qilishning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, innovatsiya, muhandislik, islohot, dastur, taraqqiyot, ta’lim, rivojlanish.

Abstract: The article analyzes the innovative reform of the higher education system in New Uzbekistan, its improvement based on international standards, increasing the quality of education, the importance of the organization of engineering schools in the economy of our country.

Key words: higher education, innovation, engineering, reform, program, progress, education, development.

Аннотация: В стате анализируеця значение инновационного реформирования системы высшего образования, ее совершенствования на основе международных стандартов, повышения качества образования и организации инженерных школ в экономике страны, одной из развивающихся отраслей великих реформ Новый Узбекистан.

Ключевые слова: высшее образование, инновации, инженерия, реформа, программа, развитие, образование, развитие.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lida davlatimiz yuksak pirovard maqsadlarini ko‘zlagan holda, oliy ta’limni innovatsion isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab sohani moddiy-texnik modernizatsiya qilish, kreativ fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta’limni xalqaro nufuzli oliygohlar bilan integratsiyalashtirishga keng yo‘l ochmoqda. Bunga davlat byujetining salmoqli qismini ajratmoqda. Natijada ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslanib ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda innovatsiyalarga hal qiluvchi kuch sifatida qaralmoqda.

Globallashuv sharoitida mamlakatni texnologiyalar va turli nou-xaular taraqqiy ettira oladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda xususiy oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy

o‘quv yurtlarining soni 210 tadan oshdi. Mamlakatlararo talabalar almashinuvi, professor-o‘qituvchilar malakasini chet elda oshirish, rektorlar forumlarini uzviy o‘tkazish an’anaga va samarali ish jarayoniga aylandi.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Aholi fikrini o‘rgangan holda, sirtqi va kechki ta’lim shakllarini qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilish barobarida talab va ehtiyojga qarab nazariya va amaliyot birlashtirilmoqda.

Ta’lim mamlakat iqtisodiyotini hal qiluvchi kuchi sifatida qaralib, amaliyot bilan nazariyani bog‘lash, zamon bilan hamnafas rivojlanish, ayniqsa, sanoatni harakatga keltiruvchi muhandislik sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Muhandislik ta’limini takomillashtirishdan maqsad kechagi muhandis bilan bugungi muhandisning o‘rtasida katta farq bor. Kechagi muhandis mavjud predmetlarni boshqarsa, uning ishlashini nazorat qilgan bo‘lsa, bugungi Muhandislik oliy maktablarida tayorlanayotgan kadrlar zamonaviy texnika-texnologiyalar va IT asosida yuqori formatlardagi murakkab operatsiyalarni amalga oshira oladigan, innovatsion robototexnologiyalarni yarata oladigan, sohaga ijodkorlik bilan yondashuvchi ixtirochilar va yetuk muhandislar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLIL

So‘nggi yetti yillikda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan aholi farovonligini oshirish, daromadli ish o‘rinlari yaratish, mahalliy mahsulotlarni xom ashyo sifatida emas, balki “ipidan ignasigacha” tayyor mahsulot sifatida xalqaro bozorlarga eksport qilish maqsadida salmoqli investitsiyalar kiritilib, yiliga 3 mingta sanoat korxonasi ishga tushirilishiga erishildi. Natijada tabiiy resurslar va qishloq xo‘jaligi mahsuloti arzon narxda chetga eksport qilinib, tayyor tovar sifatida qimmat narxda import qilinishining oldi olinmoqda.

Bu sohada mahalliy va xorijiy olimlar quyidagi fikrlarni ilgari surib keladi. Xususan, mahalliy olimlaridan P.T.Magzumov, N.A.Muslimov, U.N.Nishonaliyev, N.Mahmudovlar o‘z tadqiqotlarida ta’limning birinchi buyurtmachisi iqtisodiyot ekani, iqtisodiyotning har bir loyihasini amalga oshirish uchun asosiy uchta resurs lozim bo‘ladi, bular, moliyaviy, moddiy va kadr resurslar ekani ta’kidlangan. Muhandislik maktablari mamlakatda sanoat tarmoqlarini, oilaviy tadbirkorlikni va biznesning rivojlanishda samarali usul ekani, Yaponiya tajribasini misol bo‘lishi, kasbiy ta’limining rivojlanish dinamikasi tahlil qiladi.

Ingliz olimi D.Lokkning ta’lim vazifalari va ta’lim maqsadlarini tushunishi, ta’limdagi amaliylik haqidagi tor tushunchadan juda uzoq edi, uning shogirdi nafaqat tijorat ishlarini muvaffaqiyatli olib borishga tayyor bo‘lishi, balki uning fuqarolik fazilatlaridan ham xabardor bo‘lishi kerak, degan fikrda edi. Kasbiy ta’lim mas’uliyati amaliy faoliyatga moslashishi, “o‘z mamlakatiga qanday foydali bo‘lishini o‘rganishga qiziqish bildirish” lozim, deb hisoblardi. Ya’ni barcha ta’lim oluvchilarning asosiysi maqsadi amaliyot bilan bog‘lash, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish vositasi sifatida harakat qilishi kerak.

Yangi O‘zbekiston sharoitida Muhandislik maktablarining tashkil qilinishi, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holada, uni yanada institutsional o‘rganishni taqozo etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yetti yilda davlatimiz rahbari tmonidan olib borilayotgan industrial islohotlar natijasida respublikamizda taxminan 150 ming ish o‘rni tashkil qilinib, klasterlar, kooperatsiyalar va qo‘shma korxonalar soni hamda hajmi kengayib, qo‘shimcha qiymat yaratilmoqda.

Xususan, o‘tgan to‘rt yilda 1 ming 727 ta amaliy, innovatsion, fundamental va startap loyihalarga 2,2 trillion so‘m[1] yo‘naltirilib tadqiqot, tajriba-konstruktorlik uchun xarajatlar 2 barobar ko‘tarilgani e’tirof etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri savollariga bergan javobida ta’kidlaganidek, “Mustaqil taraqqiyot borasida erishgan ulkan yutuqlar bilan birga, yo‘limiz ayrim xato va kamchiliklardan ham xoli bo‘lmaganini ochiq aytish lozim. Mustabid tuzumdan voz kechib, demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan jarayonlar, murakkab va tahlikali davrning o‘zi turli muammo va vazifalarni oldimizga ko‘ndalang qo‘ydi. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun bilim va tajribamiz, iroda va qat’iyatimiz ba’zan yetsa, ba’zida yetmagan holatlar ham bo‘ldi.

Shu bois mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish, buning uchun yangi islohotlarni amalga oshirish obyektiv zarurat, eng muhim strategik vazifaga aylandi”[2]. Agar yetakchi burilish pallasini his qila olmasa, jamiyat turg‘unlikda qolib ketadi. Shuning uchun ham tarixchilar shaxsning tarixdagi rolini alohida e’tirof etib, uni alohida ilmiy mavzu sifatida o‘rganadi. Shu ma’noda xalqimiz yetakchi masalasida shukrona aytib kelmoqda. Har qanday yutuqning garovi – bu tinchlikdir. Shunday ekan, jamiyatimizning barqaror rivojlanishida millat yetakchisining xizmatlari katta, buni xalqimiz qadrlaydi.

1 stat.uz›img/gazeta/-122.pdf
2 president.uz›oz/lists/view/4547

Davlatimiz rahbari tomonidan Oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi faol innovatsion loyihalarni amaliyotga konstruktiv tatbiq qilish, qo'shma ta'lim dasturlarini bosqichli kengaytirish, akademik almashinuv va professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, qayta tayyorlash va "Ilg'or muhandislik maktablari"ni institutsional tashkil etishda xalqaro talablarni o'rganish ilgari surilmoqda.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad muhandis kadrlar tayyorlashni takomillashtirishning institutsional rivojlantirishdir.

Ta'lim sohasida muhandislik maktablarining o'rni shundaki, joriy yilda 21 trillion so'mlik davlat investitsiya loyihalari ishlab chiqarishga yo'naltirilib, 37,5 milliard dollarlik xorijiy va hududiy investitsiya loyihalari[3] ishga tushirilishi belgilangan. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari oldiga nazariya va amaliyotni bir vaqtda birlashtirib olib borish ustuvor vazifa sanaladi.

Ilgari oliy ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish o'z bo'larchilikka kelib qolgan edi, aytaylik, qabul jarayonlari o'sha mutaxassislik kerakmi yoki yo'q, uni hech kim tahlil qilmasdan kvota chiziqlari o'rtacha o'lchamda taxminan chizib berilardi.

Endi qabul jarayonlarini mahalliy hokimliklar, investorlar bilan kelishilgan holda belgilab olish chora-tadbirlari bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bu borada tizimli ishlar olib borilishi, institutsional o'rganilishi katta samara beradi.

Bugungi kunda texnologik rivojlanishga davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaralib, qator qarorlar, farmonlar qabul qilinishi barobarida tadqiqot, tajriba-konstruktorlik xarajatlari 2 barobar ortdi. Tahlillarga ko'ra, ushbu mablag'larning 41 foizi davlat ulushi bor korxonalarga, 34 foizi xususiy sektorga va 25 foizi oliygohlarga to'g'ri kelgani oliy ta'lim muassasalarida muhandislik sohalari bo'yicha ishlar hali orqada ekanini ko'rsatadi.

Bugun oliy ta'lim olib borilayotgan tub islohotlarda oliygohlar fundamental tadqiqotlar o'tkazish bilan cheklanib, iqtisodiyot uchun amaliy ishlanmalar juda kam joriy qilingani yaqqol ko'rinib qolmoqda. Shu sababli oliy ta'limda bor kuch ta'lim sifatini oshirishga qaratilib, amaliyot bilan ishlab chiqarish integratsiyasiga muhtoj.

Shu bois muhandislik yo'nalishida yuzlab startap va innovatsion loyihalar amalga oshirilmay kelayotgani, oliygoh bilan sanoat o'rtasida uzilish borligi, rektorlar korxonalarga borib, yangi texnologiyalar bilan tanishmayotgani, uskuna va dastgohlarni o'rganmayotgani, hokim va vazirlar esa o'rtada ko'prik bo'lib, buni tashkillashtirmayotgani tanqid qilindi va uning yechimlari davlatimiz rahbari tomonidan ko'rsatib berilmoqda.

Masalan, oliy ta'limdagi 36 ta davlat oliygohida muhandislik yo'nalishida 264 ming bakalavr, 3 ming magistr o'qib, yiliga 67 ming nafar talaba bitirmoqda[4]. Ammo ayni paytda ba'zi fanlar va mutaxassislar davlat talablariga mos emasligi, ehtiyojga yarasha mutaxassislar yetakchi xorijiy texnika oliygohlarida o'qitilmoqda.

Globallashuv raqobati sharoitida xalqaro talablar hisobga olinib tayyorlanmagan muhandislarning 60 foizi boshqa sohalarda ishlamoqda, ayni paytda mamlakatdagi jadal investitsion loyihalarni samarali boshqarishga 4 mingta muhandisga talab bor, bu ko'rsatkichlar oliy ta'limdagi islohotlarda jadal sur'atlarda innovatsion rivojlantirishni talab etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023–2024-o'quv yilida "yengil sanoat konstruksiyasi" yo'nalishida 153 nafar mutaxassis yetishtirgan Buxoro, Jizzax, Surxondaryo, Farg'ona va Toshkent shahridagi muhandislik oliygohlari 2024–2025-o'quv yilida mahalliy hokimlik, investorlar bilan qo'shimcha qiymat masalalarini ko'rib chiqib, ko'proq kvotalarni qabul qilishi maqsadga muvofiq.

Oliy ta'limda tub burilish yasash uchun bugun nafaqat kvotalarni ko'rib chiqish, balki o'zini oqlamayotgan kafedralarni innovatsion tarmoqlarga birlashtirish, keraksiz fanlarni qisqartirish va yangi fanlarni kiritish, professor-o'qituvchilarning xorijda malakasini oshirish, yuklamalarni optimallashtirish va jahondagi eng so'nggi innovatsion o'quv qo'llanmalarni tarjima qilib, fan sifatida keng joriy qilish dolzarbdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pirovardida ta'lim klasterlari, kooperatsiyalarini kengaytirish, tajriba-ishlab chiqarish korxonalarini (spin-of) ochib, davlat va ishlab chiqaruvchi mablag'larini jalb qilish, tadqiqot o'tkazish, raqobatbardosh mahsulot yaratib, tijoratlashadi.

Ta'limni qayta isloh qilishda innovatsion "tarmoq – korxona – oliygoh" muhandislik dasturi barcha oliy ta'lim muassasalariga pirovard maqsadlarni belgilab beradi. Bu esa muhandislikka ixtisoslashgan hamkor korxonalarda kafedralar ochish, dual ta'limni yo'lga qo'yishga asos bo'ldi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy yilda muhandislik oliygohlari bilan texnika sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar belgilab berilgan 10 ta o'quv yurtida "Oliy muhandislik maktablari" ochilishi mamlakat iqtisodiyotini mexanizmlashtirib, inson kapitalini samarali ishlab chiqarish va sanoat taraqqiyotiga yo'naltradi.

"Oliy muhandislik maktablari"da ikki yillik amaliy magistratura ochilib, ishlab chiqaruvchilarning buyurtmasi asosida nomzodlar saralab olinishi mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror o'sishini ta'minlaydi.

3 president.uz›uz/lists/view/7333
4 president.uz›uz/lists/view/7333

Mamlakatimizdagi yirik sanoat korxonalarining buzilib ketishi natijasida hamkorlik aloqalari uzilib, ta'lim o'z yo'lida, ishlab chiqarish o'z yo'lida faoliyat yuritar edi. Bugungi kunda mamlakatimizda yirik va o'rta ishlab chiqarish korxonalari qad ko'tardi, oliy ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik integratsiyasi yo'lga qo'yildi. Natijada texnika oliy o'quv muassasalari talabalari nafaqat yangi texnologiyalar bilan tanishish, balki ularni boshqarish amaliyotiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Профессионалный поиск. Заполните необходимые поля: Все поля Автор Заглавие Содержание. ...Книги (изданные с 1831 г. по настоящее время). Сведения об ответственности. Пер. с англ. Ю. М. Давидсона. Вступ. статя. ["Пед. теория Локка" с. 3-65] А. Ф. Шабаевой.
2. Saprıkin D. L. Znachenie i smısl ponyatiya "obrazovanie" // Vestnik MGU. Серия 7. Философия. – 2008. – № 1. S.5.
3. Сантаяна Д. Скептицизм и животная вера. –СПб, –2001. –С 8.
4. Губарев В.В. Системное представление качества образования / В.В.Губарев // Стандарты и качество. –2015. – № 4. – С. 40 – 45. –С.8.
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi // Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2013.



XUFIYONA IQTISODIYOT MAMLAKATIMIZ RIVOJIGA TO‘SIQ BO‘LMOQDA

Muxiddin Kalonov
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada xufiyona iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotida keltirishi mumkin bo‘lgan zararlari atroflicha tahlil qilingan. Bundan tashqari, xufiyona iqtisodiyotning mamlakat iqtisodityotidagi ulushing oshishi sabablari hamda uni boshqarish bo‘yicha nazariy bilimlar berilgan.

Kalit so‘zlar: yalpi ichki mahsulot, yashirin iqtisodiyot, xususiy mulk, ishsizlik darajasi, jamg‘arma.

Abstract: In this article, the damage that the secret economy can cause in the country’s economy is analyzed in detail. In addition, the reasons for the increase in the share of the secret economy in the country’s economy and theoretical knowledge on its management are given.

Key words: gross domestic product, hidden economy, private property, unemployment rate, savings.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется ущерб, который может нанести тайная экономика экономике страны. Кроме того, приводятся причины увеличения доли тайной экономики в экономике страны и теоретические знания по ее управлению.

Ключевые слова: валовой внутренний продукт, скрытая экономика, частная собственность, уровень безработицы, сбережения.

KIRISH

Mamlakatimizda pul-kredit, valyuta, soliq va tashqi savdo siyosati sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo shu bilan birga, ekspertlarning baholashlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘tkazilayotgan so‘rovlar iqtisodiyotdagi yashirin aylanmaning yuqori darajada saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta’mirlash, turarjoy xizmatlarini ko‘rsatish kabi sohalarda bu ko‘zga tashlanmoqda. Albatta, bunday holat vijdonli tadbirkorlarning manfaatlariga putur yetkazmoqda. Eng yomoni ular uchun teng bo‘lmagan biznes yuritish shartlarini yuzaga keltirmoqda.

Davlatimiz rahbari shu yil 16 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot muammosini bugungi kunda eng dolzarb masala ekanini tilga oldi. Unda aytilgan ma’lumotlarga ko‘ra, xizmatlarda 140 trln. so‘m, qurilishda 50 trln. so‘m, sanoatda 40 trln. so‘m mahsulot “soyada” qolib ketmoqda.

Agar ular joyida bo‘lsa, bu orqali yalpi ichki mahsulotga 135 trln. so‘m, davlat budjetiga esa 30 trln. so‘m miqdorida tushum qilish mumkin edi. Xususan, 27 mingta qurilish korxonasining 41 foizi yoki 10 947 tasi hisobotida faqat bir nafar ishchisini rasmiy xodim sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, shundan, 2249 tasi Toshkent shahrida, 1087 tasi Toshkent viloyatida, 837 tasi Samarqand shahrida va boshqa hududlarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu korxonalar tomonidan o‘tgan yil davomida 4 trln. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xufyona iqtisodiyot mavjudligiga dastlab XX asrning 30-yillarida e’tibor bera boshladilar. XX asrning 70-yillaridan boshlab xufyona iqtisodiyotni ilmiy tadqiq qilish boshlandi. Xufyona iqtisodiyotni tahlil qilish rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ingliz sotsiologi K.Xart tomonidan birinchilar qatorida boshlandi U “uchinchi dunyo” mamlakatlarida ko‘plab shaharliklarning rasmiy iqtisodiyotga aloqador emasligini aniqladi. U norasmiy

iqtisodiyot atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. Daromad olishning formal va noformal shakllari o‘rtasidagi farq ish haqi va o‘zini o‘zi ish bilan band qilish asosida topilgan daromad o‘rtasidagi farq sifatida izohlandi. P.Gutman (AQSH) xufyona iqtisodiyot ko‘lamiga va roliga e’tibor qilish lozimligini asosladi.

Fernando de Soto “Boshqa yo‘l” asarida xufyona iqtisodiyotni xalqning korrupsiyalashgan davlatning qashshoqlashayotgan aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga layoqatsizligiga nisbatan stixiyali va ijodiy reaksiyasi (javobi) deb atadi. U tarnsaksiya xarajatlarini oshkoralik (legallik) va nooshkoralik (nolegallik) kriteriyalari asosida guruhlashni taklif etgan.

Shveysariyalik iqtisodchi Ditter Kassel bozor xo‘jaligida yashirin iqtisodiyot rivojlanishining uchta ijobiy funksiyalarini ajratib ko‘rsatgan. Birinchisi bu qonuniy va yashirin iqtisodiyot o‘rtasida resurslarni qayta taqsimlash yordamida iqtisodiy kon’yunkturada darajalar o‘rtasidagi farqlarni tekislash rasmiy iqtisodiyotda inqiroz bo‘lgan davrda ishlab chiqarish resurslari o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki “soya”ga oqib o‘tadi va inqiroz tugagandan so‘ng rasmiy ko‘rinishga o‘tadi. Ikkinchisi nomaqbul ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yumshatish, xususan, norasmiy bandlik kam ta’minlanganlarning moddiy holatini yengillashtiradi. Uchinchisi xufyona iqtisodiyot o‘zining resurslari bilan rasmiy iqtisodiyotni ta’minlab turishi norasmiy daromadlardan rasmiy sektorda tovar va xizmatlarni sotib olish uchun foydalaniladi, aylantirib, poklab olingan jinoyatchilik kapitali soliqqa tortiladi.

Afsuski, yashirin yoki soyadagi iqtisodiyot faqat O‘zbekistonda emas, butun dunyoda mavjud. Iqtisodchi olim E. Feyg yashirin iktisodiyot ko‘lami 1970-yillarning oxirida AQSH rasmiy yalpi ichki mahsulotining uchdan bir kismini tashkil etishini baholadi. Bu baho AQSH Kongressining Iqtisodiy qo‘mitasida maxsus muhokama qilindi.

1991-yilda Jenevada Yevropa tahlilchilarining yashirin va norasmiy iqtisodiyotga bag‘ishlangan konferensiyasi bo‘lib o‘tgan. Uning materiallari asosida rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot statistikasi bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalari nashr etilgan. Shundan beri ko‘pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot muammolari keng tadqiq etilmoqda. Uning ko‘lami YAIMga nisbatan 2016 yilda Italiyada 21,1 foizni, Shvetsiyada 20,4 foizni, Fransiyada 14, Germaniyada 13 foizni tashkil etgan.

Bu ko‘rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarda ancha yuqori, jumladan, Tailandda 71, Misrda, Boliviyada 66 va Panamada 62 foizni tashkil etgan. Yaqin paytlargacha Rossiya 28 ta davlatni o‘z ichiga olgan reytingda to‘rtinchi o‘rinni egallab, eng yirik beshta yashirin iqtisodiyotga kirdi. Xalqaro sertifikatlangan buxgalterlar assotsiatsiyasi (ACCA) tomonidan taqdim etilgan global soyaning rivojlanishini baholash va prognoz qilishga bag‘ishlangan tadqiqotga ko‘ra, uning hajmi 33,6 trillion rublni yoki mamlakat YAIMning 39 foizini tashkil qiladi.

Rossiyadagi yashirin iqtisodiyot dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, dunyo o‘rtacha ko‘rsatkichidan deyarli 84 foizga yuqori. Faqat Ukraina YAIMning 46 foizi, Nigeriya YAIMning 48 foizi va Ozarbayjon YAIMning 67 foiz ko‘rsatkichi bilan yirikroq yashirin iqtisodiyotga ega. Shri-Lanka 38 foiz bilan beshinchi o‘rinda. ACCA ekspertlari yashirin iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, soliqqa tortish yoki nazorat qilish tizimidan tashqarida bo‘lgan iqtisodiy faoliyat va ulardan olinadigan daromadlar sifatida belgilaydilar.

Yashirin iqtisodiyot sektori hajmining eng kichik ko‘rsatkichlari AQSH (YAIMning 7,8 foizi), Yaponiya (10 foiz) va Xitoyda (10,2 foiz) qayd etilgan. ACCA hisob-kitoblariga ko‘ra, 2016-yilda yashirin iqtisodiyotning global yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 22,66 foizni tashkil qilgan. Kelgusi yillarda u pasaydi: 2017-yilda 22,5 foizga, 2020-yilda 22,1 foizga tushdi va 2025-yilda 21,4 foizgagacha kamayishi kutilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda xufyona iqtisodiyot (shadow economy) asosan davlat hisobi va nazoratidan tashqarida rivojlanadigan hamda pirovardida rasmiy statistikada aks etmaydigan xo‘jalik faoliyatiga tushunilishi tahlil qilindi. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanish sabablari va omillari davlatning soliq siyosatidagi kamchiliklari, bozorning tovar va xizmatlar bilan to‘yinmaganligi, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o‘rtasidagi muvozanat va balansning mavjud emasligi iqtisodiyotning siklik tebranishlari, aholi xarid qobiliyatining pastligi, tranzaksiya xarajatlarining yuqoriligi hamda qonunchilik bazasining takomillashmaganligiga ilmiy yondashildi. O‘rganish jarayonida mavzu bo‘yicha statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo‘llanildi. Tahlil davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat iqtisodiyotning ijtimoiy tomonini oladigan bo‘lsak, bu yo‘nalishga jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilishi darajasi, aholining ijtimoiy-psixologik kayfiyati, davlatning xususiy mulk va sektorga munosabati, aholining tabaqalanishi darajasi, ishsizlik darajasi, kam ta’minlangan aholi qatlamlarining ko‘lami, mehnat migrantlarining ko‘pligi, mehnat munosabatlari, mehnat sharoitlari, ish haqi tizimi hamda ijtimoiy kafolatlar, pensiya ta’minoti kabilar kiradi.

Tarmoqlar va sohalari o‘rtasidagi muvozanat. Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga insonning qarama-qarshi tabiati, undagi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash, soliq siyosatidagi kamchiliklar, bozorning tovar, xizmatlar bilan to‘yinmaganligi, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o‘rtasidagi muvozanatning mavjud emasligi, aholi xarid qobiliyatining pastligi, qonunchilik bazasining takomillashmaganligi, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmining mukammal emasligi, davlatning xususiy mulk va sektorga munosabati, ishsizlik darajasi, byurokratiya, davlat xizmatchilarining kompetentlik va mas’uliyatlilik darajasi, tadbirkorlarga ma’muriy bosim, homiylik qilishga majburlash kabi omillar sabab bo‘ladi.

Yashirin yoki soya iqtisodiyoti, juda jo‘n qilib tushuntirganda, haqiqiy daromadini kam ko‘rsatib davlat g‘aznasiga kam soliq to‘lash yoki oldi-sotdisini, bajarilgan ish yoki xizmati haqini umuman davlatdan yashirish maqsadi ko‘zlangan iqtisodiy faoliyatdir.

Tan olish kerakki, kontrabanda yo‘li bilan olib kirilgan sigaretani “peshtaxta” ostida sotayotgan va bundan topgan daromadini hech qaysi hujjatda qayd etmaydigan do‘kondor dunyoning eng rivojlangan Amerika yoki Britaniyadek mamlakatlarida ham topiladi. Faqat aksar rivojlangan mamlakatlarda soya iqtisodiyotining ulushi uncha katta raqamni tashkil etmaydi. Hukumatlar bu ulushni kamaytirish choralarini ko‘rishga intiladilar. Soyadagi yoki qog‘ozga tushmagan iqtisodiyot sobiq ittifoqining qusurli “rejalashtirish” iqtisodiyotidir.

Sobiq ittifoqda inson hayoti uchun zarur tovarlar har doim taqchil bo‘lgan. Zavod, fabrika yoki boshqa yirik korxonalarning omborlarida esa avtomobil yoqilg‘isi yoki ehtiyot qismlari keragidan ortiq saqlangan. Tadbirkorlik jinoyat sanalgan, korrupsiya urchigan bunday jamiyatda haydovchi o‘z xizmat avtomobiliga quygan tekin benzinining bir qismini sotib shaxsiy daromad topishi oddiy holga aylangan. Soya iqtisodiyotiga bag‘ishlangan tadqiqotlardan birida 1970-yillarda yirik shaharlardagi benzinning 33 foizdan 65 foizgachasi o‘g‘irlangan benzin bo‘lgani aniqlangan.

Qo‘shib yozish bilan ham davlat xazinasidan pul olish imkoniyati bo‘lgan, minglab sondagi chorva mollari hech joyda qayd etilmagan. Bunda oddiy odamlarning davlat va davlatning moliyaviy tashkilotlariga ishonmasligi muhim o‘rin tutgan. Aholida ozroq pul jamg‘arish imkoniyati 1970–1980-yillarda paydo bo‘lgan, o‘shanda ham aksar yurtdoshlarimiz pulini hukumat tinmay targ‘ib qiladigan omonat kassasiga emas, ko‘rpachasi qatiga ishongan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi aksariyat aholiga oila boqish qiyinlashgan, konvertatsiya yopilgan yillarda yashirin iqtisodiyot aksar o‘zbekistonliklarni og‘ir kunda qutqargan daromad manbai bo‘lganini ba’zi iqtisodiy tahlilchilar e’tirof etadilar. Yashirin iqtisodiyotning aniq salbiy tomonlari (soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, jinoyatchilik bilan bog‘liqlik) va ba’zi ijobiy tomonlari mavjud.

Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishga nisbatdan to‘siqlarni kamaytirish, soliq foizlarini tushirish islohotlari soya iqtisodiyotini kichraytirishga xizmat qilyapti. To‘g‘ri, ayrim muammolar yo‘q emas. Yo‘qsa, Prezidentimiz o‘z ma’ruzasida aytganidek, 5 milliard so‘mga maktab qurayotgan 10947 ta qurilish tashkiloti “bitta xodimim bor”, deb hisobot taqdim etayotganini mas’ul idoralar bilmasmidi?

Avvalambor, biror bir mamlakatda yashirin iqtisod ulushini aniq-tiniq o‘lchash imkonsiz. Boisi bunday faoliyat uchun jinoiy javobgarlik ko‘zda tutilgan. Noqonuniy ish qilayotganini kontrabandachi ham, o‘sha kontrabanda tovarni sotayotgan shaxs ham, bularga ko‘z yumishi evaziga noqonuniy daromad topayotgan davlat amaldori ham yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham buni yashirincha qilishga intiladilar. Mas’ul idoralar faqat taxminiy raqamni bera olishlari mumkin. 2019-yili O‘zbekistonda sohalariga qarab yashirin iqtisodiyot ulushi 48 dan 62 foizgachani tashkil etishi mumkin, deb aytilgan.

Ochiqlik siyosati va raqamlashtirish nima uchun zarur? Oxirgi yillardagi O‘zbekistondagi ochiqlik siyosati sababli turli statistik ma’lumotlar jamoatchilikka oshkor etilayotgani ham yashirin iqtisodiyot ulushi kattalashib borayotgandek taassurot uyg‘otishi mumkin. Masalaning salbiy tomoni shundaki, agar Jahon Banki O‘zbekiston YAIMini 80 milliard, deb hisoblayotgan bo‘lsa, 32 milliard dollar tushum davlat budjetiga tushmay qolayotganidir. Yana bir zarari – qonunan soliq to‘lashga rag‘batni o‘ldirishi. Daromadini yashirib boyib borayotgan firma yoki kompaniyani ko‘rgan boshqa turdosh shirkatning soliq to‘lashga rag‘bati so‘nadi, bu yalpi soliq tushumi pasayishiga yetaklashi mumkin.

Tahlillarga ko‘ra, O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot mavjud bo‘lib qolayotganining sabablari bor edi, albatta. Ularning birinchisi, xo‘jalik ishlariga davlat aralashuvining borligi. Yaqin yillargacha O‘zbekistonda o‘z biznesini rasman ro‘yxatdan o‘tkazib faoliyat yuritayotgan tadbirkor to‘la erkinman, deb ayta olmas edi. Tuman hokimi yoki boshqa mansabdor “falon maqsadga shuncha pul o‘tkazasan” deb zug‘um qilardi. O‘z daromadining ma’lum bir qismini tumandagi qurilish yoki biror tadbirga o‘tkazishga og‘zaki majbur etilgan biznesmen keyin soliq hisobotida o‘sha summani ko‘rsatmasdi. Nega do‘konlar yoki tamaddixonalar mijozga qog‘oz chek berishni xushlamasdi? Chunki erta topshiradigan hisobotida qaysidir davlat amaldorining haqi to‘lanmagan ziyofatini to‘g‘rilab kiritishi uchun “tuynuk” qoldirishi zarur edi. Agar daromadini ko‘p qilib yozsa, soliqni ham ko‘p to‘lashi kerak, unda o‘ziga daromad qolmaydi.

Ikkinchi sabab, hamon soliq yukining og‘irligi bo‘lgan. Shuning uchun O‘zbekiston hukumati tadbirkorlarni shaffof soliq to‘lashga rag‘batlantirish maqsadini ko‘zlab, qo‘shilgan qiymat solig‘ini 12 foizga tushirdi. Demak,

shunday sharoit yaratilishi kerakki, qayerdadir rasman ishlaganidan ko‘ra kirakashlik qilganim afzal, degan taksichi uchun ham to‘laydigan solig‘i malol kelmasin. Uchinchi sabab, korrupsiya. O‘zbekistonda pora hisobiga daromadini yashirgan tadbirkorning hisobotiga ba’zi tekshiruvchi idora xodimlari ko‘z yumadi.

Ammo O‘zbekistonda hujjatlar, ish yuritish tobora raqamlashtirib borilayotgani yashirin iqtisodiyot ulushi kamayishiga ham olib kelyapti. Naqd pul muomalasini kamaytirib, bank kartasi bilan ishlashga o‘tish yoki zamonaviy to‘lovlar tizimini joriy etish ham bir tomondan, yashirin iqtisodiyotni kamaytiradi, boshqa tomondan, banklarga ishonchning ortishiga olib keladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev soya iqtisodiyotiga bag‘ishlangan hukumat majlisida Bosh Prokuraturaning Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi departamenti faoliyati butkul o‘zgartirilishini aytdi. Bu departamentning holatini o‘rganib tahlil qiladigan markaz tashkil etiladigan bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni imzoladiki, uning qonunga itoatkor tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyotni repressiv yo‘l bilan emas, balki ularni rag‘batlantirish mexanizmlari va amaliy ko‘mak berish orqali ko‘lamini kamaytirishni nazarda tutadi. Shuningdek, jazolash choralarini kuchaytirishdan voz kechgan holda insofli tadbirkorni himoya qilish, ularga haqiqiy ko‘makchi bo‘lish hamda biznes rivojiga to‘siq bo‘luvchi korrupsiya omillariga barham berishga olib keladi.

Bu maqsaddagi ishlar qanchalar samara berganini bir yildan keyin – O‘zbekistondagi soya iqtisodiyotining ulushiga bag‘ishlangan yangi hisobot e’lon qilinganida undagi raqamlarni tahlil qilish bilan xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi. Boz ustiga, joriy yilning 1 martidan boshlab tadbirkorlarning barqarorlik reytingi yo‘lga qo‘yilishi belgilandi. U elektron shaklda bo‘ladi va yuqori reytingga ega tadbirkorlarga qator imtiyoz hamda preferensiyalardan foydalanish imkonini beradi.

Ta’kidlash joizki, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi nafaqat mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi, balki tadbirkorlik subyektlarining “soya”dan chiqishiga ham xizmat qilmoqda. Shu holatni inobatga olgan holda, bojxona nazorati tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etilmoqda. Inson omilini bartaraf etish natijasida kontrabanda va tovarlarning bojxona qiymatini sun’iy ravishda pasaytirish amaliyotiga barham beriladi. Bojxonadan keyingi nazoratni muvofiqlashtirish import qilinadigan tovarlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini soliq organlari tizimi bilan integratsiyalash orqali ta’minlanadi.Bundan tashqari, import bojxona deklaratsiyasini elektron hisobvaraq-fakturaga bog‘lash orqali iste’molchilarga tovarlar yetkazib berishning uzluksiz zanjiri yaratilmoqda. Endilikda bojxona auditi tizimi joriy etiladi.

Soliq tizimini yanada isloh qilish va liberallashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobga olish va soliqqa tortishning eng qulay va moslashuvchan tizimini yaratish, shuningdek, bu boradagi ilg‘or tajribaga asoslangan ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Xorijiy davlatlarda norasmiy (ro‘yxatdan o‘tmagan) faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlarning “soyasi”dan chiqib ketish uchun kapitalni amnistiya qilish va daromadlarini legallashtirish bo‘yicha kampaniyalarni tashkil etish zarur bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida aytish joizki, mamlakatda iqtisodiy o‘sish kuzatilmayotgan kompaniyalarni rag‘batlantirish kuchsiz korxonalardan davlat foydasiga qo‘shimcha mablag‘lar olib qo‘yilishiga olib keladi, bu esa pirovardida ishchilarning ish haqiga ta’sir qiladi va natijada iste’mol talabini kamayishiga olib keladi. Yangi me’yoriy xujjatlar loyihasi yana faqat soliq ma’muriyatchiligini kuchaytirish, soliq undirish nomidan faqat kichik biznes va aholiga ta’sir ko‘rsatadigan, ya’ni soliq yig‘ishnomi bilan minglab kichik biznes subyektlarining yopilishiga olib keladi.

Yurtimizdagi so‘nggi islohotlar sababli kutilayotgan o‘zgarishlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: reytingi yuqori tadbirkorlar uchun barcha soliq tekshiruvlari bekor qilinadi, qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi bir kun ichida, boshqa soliq turlari bo‘yicha ortiqcha to‘lovlar uch kun ichida qaytariladi.

Tovarlarni import qilish va sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini bojxona va soliq organlarida o‘zaro hisobga olish imkoniyati yaratiladi. Bu choralarning barchasi mamlakatimizda soya iqtisodiyotining kamayishiga, o‘z navbatida, mamlakatimizning jadal rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бахтишод Хамидов. Измерение коррупции // Экономическое обозрение №4 (244) 2020. https://review.uz
2. Волков В. Силовое предпринимательство. СПб.; М.: Европейский университет в Санкт-Петербурге - Летний сад, 2002.
3. Бойков Э. “Серая” экономика: масштабы развития и влияние на массовое сознание // Социологические исследования. 2001. № 11. С. 29 – 35.
4. Hart K. Informal Urban Income Opportunities and Urban Employment in Ghana //Journal of Modern African Studies.1973. Vol. 11. №1. P.61-90).
5. Gutmann P. The Subterranean Economy // Financial Analysts Journal. 1977. № 34. P. 20.
6. http://www. Stat.uz

“YASHIL” IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Muhammadiyeva Maftuna
O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi,
magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo miqyosida “yashil” iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, iqtisodiyotni dekorbonizatsiyalash, kam uglerodli rivojlanish, “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyoti tog‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, yashil o‘sish, barqaror rivojlanish, moliyalashtirish instrumentlari, “yashil” moliyalashtirish.

Abstract: This article talks about the global green economy, the transition to a green economy, the decorbonization of the economy, low-carbon development, the practice of financing the green economy.

Key words: green economy, green growth, sustainable development, financing instruments, “green” financing.

Аннотация: В этой статье рассматривается мировая зеленая экономика, переход к зеленой экономике, декорбонизация экономики, низкоуглеродное развитие, практика финансирования зеленой экономики.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый рост, устойчивое развитие, инструменты финансирования, “зеленое” финансирование.

KIRISH

“Yashil” iqtisodiyot - bu iqtisodiy tizim, uning asosiy maqsadi sayyoramiz ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib, “yashil” iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi. [1]

“yashil” iqtisodiyot har qanday davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim vositalaridan biridir. “Yashil” iqtisodiyot deganda aholining turmush darajasi yuqori bo‘lgan, tabiiy resurslardan hozirgi va kelajak-avlodlar manfaati yo‘lida hamda mamlakatning xalqaro ekologik majburiyatlariga muvofiq ravishda ehtiyotkor va oqilona foydalanish nazarda tutilgan iqtisodiyot tushuniladi. [2]

“Hashil” iqtisodiyot barqarorlik tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. O‘tgan asrning 80-yillari oxirida uning rivojlanishiga asos solingan. “Yashil” iqtisodiyot g‘oyasi paydo bo‘lishining mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun, 1987-yilda BMT komissiyasi raxbari G. H. Brundlantd tomonidan taklif qilingan, hozirgi kunda barqarorlikning eng keng tarqalgan ta’rifiga murojaat qilaylik: “yashil” iqtisodiyot – bu “kelajak avlodlarning hayotiy ehtiyojlariga tahdid qilmasdan zamonaviy avlod ehtiyojlarini ta’minlaydigan rivojlanish”. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhit tushunchalarini birlashtirgan uchlik konsepsiyasidir. Yangi iqtisodiy modellarning paydo bo‘lishi aynan atrof-muhit tushunchasi bilan bog‘liq. Bu modellarning asosiy maqsadi kelgusi avlodlar uchun tabiiy resurslarni saqlab qolish, mavjud ekotizimlarning degradatsiyasini oldini olishdir. Shu munosabat bilan bir vaqtning o‘zida bir nechta tushunchalar tarqaldi:

- “yashil” iqtisodiyot (green economy);
- kam uglerodli iqtisodiyot (low-carbon economy);
- bio iqtisodiyot (bioeconomy);
- moviy iqtisodiyot (blue economy);
- aylanma iqtisodiyot (circular economy);
- “yashil” o‘sishga asoslangan iqtisodiyot (green growth) [3]

“Yashil” iqtisodiyot nazariyasi 3 aksiomaga asoslangan:

- cheklangan muhitda ta’sir doirasini cheksiz kengaytirish mumkin emas;

- cheklangan resurslar sharoitida cheksiz o‘sib borayotgan ehtiyojlarni qondirishni talab qilish mumkin emas;
- yer yuzasidagi hamma narsa o‘zaro bog‘liqdir.

BMTning UNEP dasturi ta’rifiga ko‘ra,” “yashil” iqtisodiyot – bu “tashqi resurslardan foydalanishni ichki resurslarga almashtirish, ekologik toza va samarali texnologiyalar va barqaror qishloq xo‘jaligi iqtisodiy o‘sish, ish o‘rinlari yaratish va qashshoqlikni kamaytirishning asosiy omillari bo‘lib xizmat qiladigan iqtisodiyot”. Bu issiqxona gazlari emissiyasi past bo‘lgan va iqlim o‘zgarishining sekinlashgan yoki barqarorlashgan sur’ati, yuqori texnologiyali past uglerodli yoki ideal holda uglerodsiz iqtisodiyot.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasi barqaror rivojlanish g‘oyasini o‘rnini bosmaydi, aksincha, uni to‘ldiradi. Barqarorlikka erishmoq uchun, shu jumladan ekologik barqarorlikka, iqtisodiy ustuvorliklarni to‘g‘ri tanlash zarur.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun, ekologik yo‘naltirilgan va resurslarni tejaydigan investisiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash barcha iqtisodiy sohalarda katta ahamiyatga ega. Ekologik yo‘naltirilgan iqtisodiyotdan “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni moliyalashtirishining ishonchli manbalari energiya intensivligi jarayonlarini qisqartirishni tezlashtiradi.

Hozirda, atrof-muhit va iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirish uchun byudjet va byudjetdan tashqari manbalari yetarlicha ajratilgan. Ularning har birini o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek afzalliklari va kamchiliklari bor. [4]

“Yashil” moliyalashtirish instrumentlari:

- “Yashil” kreditlar
- “Yashil” obligasiyalar
- “Yashil” investisiya fondlari
- uglerod birjalari
- aktivlar bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlar
- serdaromad kompaniyalar
- “Yashil” banklar

Jahon iqtisodiyotini rivojlantirish, barqaror iqtisodiy siyosat yuritish jarayonida ko‘plab yuzaga keladigan muammolar mamlakatlarda o‘xshash yoki ayni shaklda bo‘lishini uchratishimiz mumkin.

Xususan, global miqyosda xavf soladigan muammolar aksariyat qismi tabiat hodisalariga bevosita bog‘liqdir. Dunyo aholisi sonining ortib borishi natijasida ishlab chiqarishga ehtiyoj ham ortishi kuzatilmoqda. Bu vaziyat iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, bioxilma-xillikning yo‘qolib borishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi, energiya, tabiiy gaz va suvga talab ortishi natijasida muammolarning kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Ko‘plab xorij mamlakatlari va mamlakatimizda ham “yashil” iqtisodiyotga o‘tish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilishi shart bo‘lib qolmoqda. “yashil” iqtisodiyotni iqtisodiy soha sifatida kiritish orqali ko‘plab global uchraydigan muammolarga yechim topish nazarda tutilgan. Bunda energiya tejamkorligini ta’minlash, qayta tiklanadigan energiya manbalari uchun zaruriy texnologiyalarni aniqlash va qo‘llash, suvdan oqilona foydalanish va qurg‘oqchilik muammolarini hal qilish, mamlakatning barcha hududlarini suv bilan to‘liq ta’minlash, qishloq xo‘jaligi sohasini yaxshilash natijasida tabiiy yo‘l bilan yetishtirilgan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish orqali aholi yashash sharoitlarini yaxshilab borish asosiy maqsad qilib belgilab olingan.

Mamlakatimizda ham jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi natijasida resurslarga bo‘lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshishi kabi muammolar yechimi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish masalalari belgilab olingan. [5]

O‘zbekistonning “yashil” moliyalashtirish sohasidagi kelajakdagi strategiyalarida turli sohalar subyektlari tomonidan ekologizasiya faol investisiyalariga to‘sqinlik qiladigan to‘siqlarni kamaytirishni ta’minlash zarur. Bunday to‘siqlar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1) xom ashyo tarmoqlari va chiqindi darajasi yuqori tarmoqlar ustunligi;
2) biznes hamjamiyati va hukumatning korporativ siyosatning atrof-muhitga yo‘naltirilgan imtiyoz va imkoniyatlar to‘g‘risida xabardorligining past darajasi;
3) nomunosib tartibga solish, shuningdek, etarli me’yoriy-huquqiy baza va moddiy manfaatlarning yo‘qligi.

Yashil moliya bozorlari ko‘proq yashil loyihalarni rag‘batlantirish uchun yetarli tartibga soluvchi imtiyozlarni talab qiladi.

Biznes ustuvorliklari ko‘pincha barqarorlikning ijtimoiy maqsadiga to‘g‘ri kelmaydi, bu o‘z navbatida ijtimoiy chetlanish va ekologik tanazzul muammosini kuchayishiga olib keladi. Barqaror rivojlanish yo‘lida ishlashga tayyor kompaniyalar mavjud, ammo ular davlat sektori bilan o‘zaro aloqalar uchun samarali aloqa nuqtalariga ega emaslar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada “Yashil” iqtisodiyotga oid nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish va tahlil kabi usullar samarali qo‘llanildi, shuningdek “yashil” iqtisodiyot sohasida mavjud muammolar, bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini qanday yaxshilashimiz mumkin:

Normativ-huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqish: ekologiyani asrash bo‘yicha moliyaviy tartibga solish amalga kiritilishi kerak. Bunga yashil investitsiyalarning aniq ta’riflarini ishlab chiqish yoki qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun ruxsat berish jarayonlarini optimallashtirish kiradi.

Davlat imtiyozlari “yashil” korxonalar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kredit kafolatlarini taklif qilishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Qazib olinadigan yoqilg‘i subsidiyalaridan bosqichma-bosqich voz kechish orqali mablag‘larni barqaror alternativalarga yo‘naltirishi mumkin.

Moliyaviy innovatsiyalar: “yashil” loyihalarga xususiy kapitalni jalb qilish uchun yangi moliyaviy mahsulotlar kerak. Bunga ekologik toza loyihalar uchun kapitalni jalb qiladigan “yashil” obligatsiyalarni ishlab chiqish yoki “yashil” investitsiyalar bilan bog‘liq xavflarni kamaytiradigan sug‘urta sxemalarini yaratish kiradi.

Davlat-xususiy sheriklik: hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Davlat mablag‘lari “yashil” loyihalar xavfini kamaytirish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa ularni xususiy investorlar uchun yanada jozibador qiladi. Bu katta xususiy kapitalni bo‘shatishi va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirishi mumkin.

Standartlashtirish va shaffoflik: “yashil” moliya uchun umumiy “tahlil” zarur. Ya’ni investitsiyalarning atrof-muhitga ta’sirini baholashning standartlashtirilgan tizimlarini yaratish investorlarga “yashil” loyihalarni yanada samarali taqqoslash imkonini beradi. Bundan tashqari, mablag‘lardan foydalanishning shaffofligini oshirish ishonchni kuchaytiradi va qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qiladi.

Salohiyatni oshirish: “yashil” investitsiyalarni baholash va boshqarish uchun tajriba to‘plash juda muhimdir. Bunga moliya institutlari va korxonalarga “yashil” loyihalarni aniqlash va baholashni o‘rgatish kiradi.

XULOSA

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni ta’kidlash joizki, “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirishni yaxshilashda moliyaviy innovatsiyalar, davlat tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlar muhim o‘ringa ega. Davlat imtiyozlari, subsidiyalar va kredit kafolatlarini taqdim etish “yashil” loyihalarni jozibadorligini yanada oshirishda kata ahamiyatga ega. “Yashil” loyihalarni amalga oshirishda standartlashtirilgan tizimlarni yaratish orqali yashil loyihalarga ajratilgan mablag‘lardan foydalanishda shaffoflikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raximov X. Sh., Usmonov N. E. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni, 2023. 123-b.
2. Erkinov D. Yu., Kadirov U. R. “Yashil” iqtisodiyot va uning kelajakdagi istiqbollari, 2023 URL: https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/3557
3. Земзюлина В. Ю. Зеленая экономика: теоретические аспекты и актуальность // URL: https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/116870/1/978-5-91256-557-1_2022_068.pdf
4. O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. (https://president.uz/oz/lists/view/5805).
5. file:///C:/Users/Islom/Downloads/razvitie-ekobiznesa-kak-podhod-k-finansirovaniyu-ekologizatsii-ekonomiki.pdf

OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARDA INNOVATSION YECHIMLARNING ZARURATI



Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Axborot xizmati rahbari

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning rivojlanayotgan sohalaridan biri bo‘lgan oliy ta’lim tizimi, hamda yuz berayotgan qator o‘zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, oliy ta’lim muassasasi, islohot, dastur, taraqqiyot, ta’lim, rivojlanish.

Abstract: The article presents the system of higher education, which is one of the developing sectors of Uzbekistan, as well as a number of changes that are taking place, the reforms being implemented and their results.

Key words: higher education, higher education institution, reform, program, development, education, development.

Аннотация: В статье представлена система высшего образования, которая является одной из развивающихся отраслей Узбекистана, а также ряд происходящих изменений, реализуемые реформы и их результаты.

Ключевые слова: высшее образование, вуз, реформа, программа, развитие, образование, развитие.

KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy, iqtisodiy, fan va ta’lim sohalaridagi islohotlar, birinchi navbatda, demografik jarayonlar va urbanizatsiyani, bashariyat tafakkuri hamda xalqimizning o‘sayotgan siyosiy dunyoqarashi, ongi va madaniyati hisobga olingan holda umumxalq manfaati chuqur o‘ylangan holda amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlash joizki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida nimalarga erishdik, qanday yutuqlarni qo‘lga kiritdik, degan savollar hammani qiziqtiradi. Ayniqsa, mamlakat poydevori hisoblangan ta’lim tizimining rivojlanishi, xususan, oliy ta’lim tizimidagi tub burilishlarning yurt taraqqiyoti, aholi farovonligi va yoshlar kelajagini belgilashdagi o‘rni beqiyosdir. Davlat oliygohlari bilan bir qator nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallarining ochilishi va yurtimiz uchun butkul yangi tashkiliy formatdagi ta’lim maskanlari – xususiy oliy ta’lim tashkilotlarining bo‘y berib o‘sishi oliy ta’lim tizimini raqobat maydoniga aylantirdi.

ADABIYOTLAR TAHLIL

Mamlakatimizda so‘nggi bir necha yil ichida zamonaviy ta’lim tizimi sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi va hozirgi vaqtda ta’limning raqobatbardoshligini oshirish, uning sifatini yaxshilashga katta ahamiyat berilmoqda. Bunga esa tizimlashtirilgan sifat boshqaruvisiz erishib bo‘lmaydi. Bu esa zamonaviy oliy ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida tan olingan

Bu sohada olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar doirasi ancha kengdir. Jumladan, D.V. Puzankovning fikricha, ta’lim sifati uchta muhim asosga tayanadi: birinchidan, ta’lim maqsadlari va mazmuni, ikkinchidan, kasbiy vakolatlari darajasi va ularning faoliyatini tashkil etish, uchinchidan, o‘quv jarayonining moddiy-texnik va ilmiy axborot bazasi holati kabilar.

V.M. Sokolov ham shunga o‘xshash fikr bildirgan bo‘lib, ta’lim jarayonining sifati shaxsning ta’lim va tarbiya darajasini ta’minlaydigan bir qator o‘zgaruvchilarga bog‘liq, deb hisoblaydi [4]. U ta’lim sifati o‘zgaruvchilariga ta’lim mazmuni; o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari; pedagogik texnologiyalar; kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash; ularning faoliyatini motivatsiyalash; ta’lim muassasalari infratuzilmasini kiritadi.

Gafforova, V.A. Balaban va I.F. Kravchenkolar ham ta’limni tor ma’noda tayyorgarlik darajasi bilan bog‘lab, universitetda mavjud bo‘lgan yoki sodir bo‘layotgan barcha narsalarning sifati ushbu tayyorgarlikni omillar to‘plami sifatida ko‘rib chiqishadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yetti yilda mamlakatda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishning natijalarini tahlil etar ekanmiz, O‘zbekiston muhim tarixiy burilish pallasida turganini aniq ko‘ramiz. Aynan shu davrda mamlakatimiz iqtisodiyotida, madaniyati va ma’naviyatida, ijtimoiy-siyosiy hayotida, turmush tarzida, dunyoqarashiyu tafakkurida demokratik o‘zgarishlar yuz berdi. Umuman hamma sohada katta yuksalish, rivojlanish va ijobiy o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu yetti yillikda demokratik qadriyatlar, fuqarolarning demokratik-huquqiy erkinliklari qaror topib, matbuot va so‘z erkinligiga yo‘l ochib berildi.

Jamiyatga demokratik huquqiy va matbuot erkinligini berish har qanday davlat rahbaridan katta matonat va jasorat talab etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zida ana shu matonat va jasoratni topa oldi. Bu xizmatlari bilan Prezidentimiz xarizmatik shaxs ekanini isbotladi hamda O‘zbekiston tarixida demokratik prezident sifatida alohida joy oldi. Bular hammasi xalqimiz uchun haqiqiy ma’nodagi tuhfa bo‘ldi. Buni aytishdan maqsadim – ta’lim erkinlik bilan rivojlanadi. Ta’lim tizimida, jumladan, oliy ta’limda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan o‘zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham mamlakatimiz obro‘-e’tiborini yangi bosqichga olib chiqdi.

Yangi O‘zbekistonda 2030-yilgacha ko‘zlangan ulkan maqsadlar yo‘lida Prezidentimiz ta’limdagi kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilib, uni ichiga kirib bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib berdi. Bu borada avvalo qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ta’lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish, ma’naviy-ma’rifiy muhitni zamon talabiga moslash, o‘qituvchi kasbining, nufuzini oshirish, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’limga joriy etishga katta e’tibor qaratish masalalariga jiddiy yondashish va shu bilan birga, o‘qituvchilar oyligini oshirish va rag‘batlantirib borish zarurligini ko‘rsatdi, bu masalalarda sezilarli sarmoyalar ajratilib ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Zamonaviy ilm-fan va ishlab chiqarish tomonidan ilgari surilgan barcha masalalarni ishonch bilan hal qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish uchun oliy o‘quv yurtlarida barcha shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda. Har qanday barqaror rivojlanayotgan jamiyatda xato-kamchilik bo‘lgani kabi, bizda ham bir qator kamchiliklar mavjud.


Keyingi yetti yilda o‘tkazilgan Oliy ta’lim islohotlarida erishilgan eng katta natijalardan biri bu shubhasiz oliy ta’limga qabul jarayonlaridagi korrupsion holatlarga chek qo‘yilishidir. Uzoq yillar davomida ta’lim tizimining qora dog‘i bo‘lib kelgan bu illat hozirda o‘tmishga aylandi. Oliy ta’lim islohotlarining mahsuli sifatida mamlakatimizda oliy ma’lumot olmoqchi bo‘lgan har qanday fuqaro uchun imkoniyatlar eshigi ochildi. Yoshidan qat’i nazar, oliy ma’lumotni kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shaklida olishga sharoit yaratildi. Ya’ni mamlakatimizning har bir fuqarosi yoshi, millati va elatidan qat’i nazar, o‘zining Konstitutsion huquqlaridan to‘liq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bundan tashqari, mehnat staji, ish tajribasiga ega bo‘lgan fuqarolar o‘zlari ishlayotgan korxonaning yuqori tashkilotlari tavsiyasi bilan imtihonsiz, suhbat asosida oliy o‘quv yurtiga kirish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Jumladan, kamida 5 yil ish stajiga ega xodimlarini davlat OTMlarining sirtqi va kechki ta’lim shakliga o‘qishga kirishi uchun Respublikamizdagi 71 ta tashkilotga tavsiya berish huquqi berildi. Ular tomonidan berilgan yo‘llanmaga ko‘ra, ishlovchi xodimlar imtihonsiz, suhbat natijalariga ko‘ra, tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga tavsiya etilish qoidasining kiritilishi yillar davomida o‘z sohasida tajriba orttirgan, amaliyotda toblangan xodimlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Har bir tashkilot 100 tagacha xodimiga shunday yo‘llanma berishi mumkinligi ham qayd etildi. Oliy ta’lim islohotining bu qoidasi bozor munosabatlarining mohiyatiga ham moslandi. Oliy ta’lim islohoti, fuqarolarning oliy ta’lim olish huquqi to‘g‘risida gap borar ekan, o‘rta maktab va kollejlar bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish masalasi ham yechimini kutayotgan o‘tkir muammolardan edi. Maktab va kollej bitiruvchilari bilan oliy o‘quv yurtlarining nisbati keskin farq qilishi bilim olaman degan, ilmga chanqoq yoshlarning ehtiyojini qondira olmasligi oqibatida minglab yoshlarning yaqin va uzoq mamlakatlarga chiqib ketishiga olib keldi. Prezident tashabbusi bilan ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli 2017–2023-yillarda bu raqam oldingi 9 foizdan 42 foizga yetdi. Maktab bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2030-yilda 50 foizga yetkaziladi. Keyingi yillarda O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasi izchil islohot, modernizatsiya va takomillashtirish bosqichidan o‘tmoqda. Keyingi olti yilda mamlakatimizda yangi oliy ta’lim muassasalari va yetakchi xorijiy oliy o‘quv yurtlarining filiallari tashkil etildi, davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy oliy o‘quv yurtlari ochildi.

Oliy ta’lim islohotlarining muhim qirralaridan yana biri yoshlarimizning bir vaqtda bir nechta oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirish masalasi edi. Mamlakatimizda ancha yillardan buyon faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta’lim maskanlarining qabul jarayoniga havas bilan qarab kelar edik. Zero, bir vaqtning o‘zida mamlakatimizdagi hamma xorijiy oliy o‘quv yurtlariga hujjat topshirish mumkin edi. Bu holat bizni ham hayratga solar, ham havasimizni keltirgan. Prezidentimiz aynan ana shu masalada “Yoshlarimizga bir vaqtning o‘zida bir nechta oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berishimiz, o‘ylaymanki, ularning ta’lim olish huquqlarini kengaytirishga xizmat qiladi”, – deb ta’kidlagan edi. Hech qancha vaqt o‘tmay yoshlarimiz shunday imkoniyatga ega

bo‘ldi. Keyingi yillarda oliy ta’lim tizimiga nodavlat va xususiy sektorning, shuningdek, ko‘plab xorijiy oliy o‘quv yurtlari va filiallarining kirib kelishi ijobiy holat bo‘ldi.


Oliy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida oliy ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish darajasi izchil oshib bormoqda. Ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti yaratilgani o‘quv yuklamasini optimallashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish imkonini berdi. Birgina 2022-yilning o‘zida 43 ta yangi oliy o‘quv yurti, jumladan, Qoraqalpog‘istonda 4 ta yangi oliy o‘quv yurti ochildi. Universitetlarni boshqarish uchun yetakchi xalqaro mutaxassislar taklif etildi.



1-rasm: OTMlar soni mulkchilik shakli bo‘yicha[1]

Yuqoridagi rasmda 2024-yil yanvar holatiga mamlakatimizda mavjud bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari keltirilgan bo‘lib,unga ko‘ra 210 ta oliy ta’lim muassasasining ichida 114 tasi to‘liq davlatga tegishli, 29 xorijiy, 67 tasi nodavlat oliy ta’lim muassasalaridir.

Hozirgi vaqtda xususiy oliy o‘quv yurtlari oliy ta’lim tizimida o‘z o‘rnini mustahkam egallab, turli yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlab muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.



2-rasm: Respublikadagi xususiy OTMlar, birlik

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Oliy ta’limning qamrovi kengayishi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasida ijobiy ma’nodagi o‘zaro raqobatni ta’minlaydi, tizimda bozor qonunlari ishlay boshlaydi. Chunki uning natijasi muhim hisoblanadi, chunki

1 https://stat.edu.uz/ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

har bir oliy o‘quv muassasasi sifatli kadrlar tayyorlash uchun kurashadi. Raqobat va bozor sifatsiz mahsulotlarni yoqtirmaydi. Natijada raqobatbardosh mahsulot yaratish har bir oliy ta’lim muassasasining asosiy maqsadiga aylanadi, natija kutilganidek yuqori bo‘ladi. Shularning o‘ziyoq ta’limdagi islohotlar chuqur o‘ylangan holda olib borilayotganini anglatadi. Tizimdagi islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri, oliy ta’lim bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqadorlik integratsiyasini vujudga keltirish bo‘ldi. Zero, hamkorliksiz yuqori malakali, zamon talabidagi kadrlar tayyorlash mumkin emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilgari mamlakatimizdagi yirik sanoat korxonalarining buzilib ketishi natijasida hamkorlik aloqalari uzilib, ta’lim o‘z yo‘lida, ishlab chiqarish o‘z yo‘lida faoliyat yuritar edi. Bugungi kunda jozibador investitsion yaratilgan muhit hisobiga mamlakatimizda yirik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalari qad ko‘tardi, oliy ta’lim bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlik integratsiyasi yo‘lga qo‘yilmoqda. Texnika oliy o‘quv muassasalari talabalari nafaqat yangi texnologiyalar bilan tanishish, balki ularni boshqarish amaliyotiga ega bo‘lishiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan bugun ta’lim va fan sohasini ishlab chiqarishga integratsiyalash bo‘yicha berilayotgan topshiriqlari yuzasidan quyidagi takliflarni beramiz:

- ijtimoiy davlat islohotlarining mohiyati va maqsadini tushungan holda ishlab chiqarish tarmoqlariga ta’limni integratsiya qilishning amaliy ahamiyatini tatbiq qilish zaruratini anglash;
- ishlab chiqarish korxonalarning ichki va tashqi bozor sharoitiga moslashganlik holati va rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini institutsional baholash;
- ishlab chiqarishni tashkil qilishning ta’lim bilan uyg‘unlashgan shakllarini joriy etish, yiriklashtirish, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatsiyalashtirish, korxonalarga innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni o‘rganish;
- korxonaning kapital quyilmalari tarkibini uzoq istiqbolga mo‘ljallab prognozlash;
- ishlab chiqarishga joriy qilingan fan o‘rganuvchilarini iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish;
- korxonada mehnat unumdorligini uzluksiz oshirilishini takomillashtirishda oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlash;
- mahsulot sifatiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va mahsulot sifatini boshqarish xususiyatlari va ularning samaradorligini aniqlash usullarini institutsional o‘rganish;
- mahsulot tannarxini kamaytirish imkoniyatlari va qo‘shimcha qiymat yaratish, korxonada narxlarning shakllanishini prognozlab borish;
- korxonada iqtisodiy va ma’naviy rag‘batlantirish usullarini takomillashtirish asosida yangi ixtirolarni amaliyotga joriy qilish, kamroq ijtimoiy mehnat sarflagan holda yuqori iqtisodiy natijalarga erishishni innovatsion o‘rganish kabilar istiqbollidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Губарев В.В. Системное представление качества образования / В.В.Губарев // Стандарты и качество. –2015. – № 4. – С. 40 – 45
2. Нуждин В.Н., Кадамтсева Г.Г., Пантелеэв Э.Р., Тихонов А. Стратегия и тактика управления качеством образования: методическоэ пособие. – Иваново, 2013. – С.114. https://uchebana5.ru/cont/1774853.html
3. Селезнева, Н.А. Качество высшего образования как объект системного исследования: лекция-доклад /
4. Н.А. Селезнева.- Изд. 3-э. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2003. – 95с. https://search.rsl.ru/ru/record/01002352141
5. Гаффорова Е. Б., Балабан В. А., Кравченко И. Ф. Проблемы формирования селей вузовской системы качества // Стандарты и качество. 2002. № 4. С. 38–41
6. Байденко, В.И. Образовательный стандарт: Теоретические и концептуальные основы; опыт системного исследования: дис.... д-ра пед. наук,1999-295с. https://www.dissercat.com/content/obrazovatelnyistandart-teoreticheskie-i-kontseptualnye-osnovy-opyt-sistemnogo-issledovaniya
7. Ибатов М.К., Пак Ю.Н. Концептуальные аспекты управления качеством образования: проблемы и решения., 2018, с.10-16. ДОИ: 10.25586/РНУ.ҲЕТ.18.03.П.10. https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptualnye-aspektyupravleniya-kachestvom-obrazovaniya-problemy-i-resheniya/viewэр

HUDUDIY TURIZM RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ISH BERUVCHILAR VA YONLANUVCHILAR O‘RTASIDAGI IQTISODIY MUNOSABATLARNI ANIQ SOTSIOLOGIK BAHOLASH

Dustmurodov Orifjon Ismatilloyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning ta’sirini tahlil qilish, hududiy turizm xizmatlari qamrovini kengaytirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning samaradorligini oshrish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, yangi xizmat turlarini tadbiq etish, turistik resurslardan maqsadli foydalanish, turistlar oqimini uzluksizligini ta’minlash, turizm xizmatlarini raqamlashtirish, to‘rizm tarmoqlarida xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning professionallik darajasini oshirib borish bo‘yicha ilmiy-uslubiy yondoshuvlari to‘g‘risida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror turizm, iqtisodiy samaradorlik, zamonaviy xizmatlar, professionallik darajasini, serdaromad tarmog‘, raqamli xizmatlar, asosiy omillar.

Abstract: This article analyzes the influence of service personnel in increasing the economic efficiency of the development of regional tourism services, expanding the scope of regional tourism services, increasing the efficiency of service personnel in the sustainable development of the economy, creating new jobs, implementing new types of services opinions and comments on scientific-methodical approaches to increase the level of professionalism of service personnel in tourism industries, to ensure the continuity of the flow of tourists, to ensure the continuity of tourist resources, to digitize tourism services.

Key words: sustainable tourism, economic efficiency, modern services, level of professionalism, profitable network, digital services, key factors.

Аннотация: В статье анализируется влияние обслуживающего персонала на повышение экономической эффективности развития региональных туристических услуг, расширение сферы региональных туристических услуг, повышение эффективности обслуживающего персонала на устойчивое развитие экономики, создание новых рабочих мест, внедрение новые виды услуг, мнения и комментарии по научно-методическим подходам по повышению уровня профессионализма обслуживающего персонала в сфере туризма, обеспечению непрерывности потока туристов, обеспечению непрерывности туристских ресурсов, цифровизации туристических услуг.

Ключевые слова: устойчивый туризм, экономическая эффективность, современные услуги, уровень профессионализма, прибыльная сеть, цифровые услуги, ключевые факторы.

KIRISH

Jahonda turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishga asosiy to‘siq bo‘lib kelayotgan muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini izlashga qaratilgan tadqiqotlarni o‘tkazish hozirgi davrda ustivor yo‘nalishlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonda hududiy turizmga mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaralmoqda va milliy iqtisodiyotda turizmni rivojlantirishning samarali modelini ishlab chiqishga alohida etibor berilmoqda. Bunda hududiy turizmga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish va turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim masalalar qatoriga kiritilgan.

Turizm sohasi iqtisodiy samaradorligining oshishi turizm xizmatlarining har tomonlama rivojlanganligida ko‘rinadi, ya’ni bunga turizmning mamlakatdagi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlar bilan parallel ravishda va o‘zaro aloqada rivojlanishi natijasida erishiladi. Turizm sohasi mahalliy aholi hamda xorijiy fuqorolar boradigan mintaqalarning tarixi, u yerdagi tarixiy arxitektura obektlarlari, mahalliy aholining urf-odatlari, an’analari, marosimlari bo‘yicha kishilar bilimlarini oshirish, ziyoratgox joylarni ziyorat qilish, sog‘lomlashtirish xizmatlarini iste’mol qilishadi. Shuningdek, shu mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotiga bevosita valyutalar oqimini olib kelish, mahalliy aholini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashadi. Turizm sohasi milliy iqtisodiyotning alohida tarmog‘i sifatida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning mahsuloti muayyan turdagi xizmatlardan foydalanishga beriladigan xuquq bo‘lib, bu xizmatlarning o‘zi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yaratiladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirish, mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni rag‘batlantirish hisobiga ijobiy natijalarga kuzatilmoqda. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 35 maqsadida “2026-yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish”[1] vazifasi belgilangan. Turizm xizmatlari ser daromad yo‘nalish ekanligi iqtisodchi olimlar tomonidan isbotlanib bo‘lindi, bugungi kunda biznesminlar mazkur sohadan milliardlab daromad olishmoqda. rivojlantirishda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan ham turizm korxonalari xodimlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha izlanishlar olib borilishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAPNING TAHLILI

Hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish xususida dunyoning yetakchi olimlaridan S.G.Surkov va V.I.Krivoruchkoning “Mejdunarodniy turizm v Rossii: problemi razvitiya i upravleniya” nomli asarida Rossiyada xalqaro turizm bozori rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va integratsion jarayonlar, turizm industriyasi subyektlari faoliyati, xalqaro turizmni tartibga solish mexanizmlari, xalqaro turistik siyosatning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan. (S.G.Surkov va V.I.Krivoruchkoning 2009) Shuningdek, mamlakatizimning yetakchi olimlari Abduvoxidov A.M. “Turizm rivojlanishining tahlili va prognozi” nomli maqolasida turizm sohasini rivojlanishi bir qancha iqtisodiy-ijtimoiy omillar bilan bog‘liq ekanligini, “Barcha sohalarda bo‘lgani kabi turizmda ham hal qilinishi kerak bo‘lgan qator muammo va kamchiliklar mavjud, albatta. Logistika, infratuzilma, mehmonxona va tezyurar poyezdlarda joy yetishmasligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, turizm tarmog‘i kadrlari salohiyatini oshirish bilan bog‘liq qator muammolar yechimi izlanmoqda” ekanligini aytib o‘tgan. (Abduvoxidov A.M. 2019)

M.T.Alimova o‘zining “Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari” nomli doktorlik dissertatsiyasida turizm bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, marketing konsepsiyasi orqali turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy turistik klasterni shakllantirish bo‘yicha ilmiy mulohazalar keltirilgan (M.T.Alimova 2017) hamda turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari, globallashuv jarayonlarining turistik faoliyatga ta’siri va turizm destinatsiyasi rivojlanish xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov va G.R.Tursunovaning tadqiqotlari mamlakatimizda turizm sohasini va industriyasini rivojlantirish, turistik-rekreatsion xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, ularda turizmda rekreatsion xizmatlarning shakllanishi masalalariga atroflicha e’tibor qaratilgan. (I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov va G.R.Tursunova 2014)

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida turizm sohasini kompleks rivojlantirish, hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish, turizm korxonalarida xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning ta’sirini o‘rganish, turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari va omillari o‘rganilib, mazkur yo‘nalish bo‘yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning fikrlariga tayangan holda tahlil va sintez, kuzatish, gupuhlash, qiyociy tahlil, tizimli yondashuv, pacmiy-mantiqiy, opepatsiyalapni tadqiq etish, statistika va iqtisodiy tahlil kabi usullar orqali turizm sohasini yanada rivojlantirishda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘stuvor yo‘nalishlarini belgilash taklif etilgan. Shuningdek, hududlarda turistik obyektlar faoliyatini samarali tashkil etish, turistik infratuzilmalarni oqilona rivojlantirish va sifatli kadrlarni tayyorlash hamda turizm industriyasi rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash darajalari bo‘yicha omillarga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli farmoni lex.uz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda xalqaro turizm tarmog‘iga dunyo bo‘ylab yaratilayotgan har o‘n ikkinchi yangi ish o‘rni to‘g‘ri kelib, keyingi o‘n yillikda dunyo miqyosida 120 million kishining (ishsiz aholining 3,5 foizi) ushbu tarmoqda ish bilan ta’minlanishi kutilmoqda. U mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya oqimini ta’minlash uchun muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan turistik korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha turistik korxona xodimlari bilan sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi va quyidagi tahlillar aniqlandi.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan turistik korxona xodimlari bilin o‘tkazilgin sotsiologik so‘rovnomada 500 kishi ishtirok etishdi, ular 500 ta anketa savollariga to‘la javob berdilar. Anketalar o‘zbek tilida tuzildi.

Respondentlar “Siz qaysi jinsga taalluqlisiz?” savoligi berilgan javob tahliliga ko‘ra jinsiy tarkibi bo‘yicha ularning 68,6 %i erkaklar va 31,4 %i ayollarni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval: Respondentlarning “Siz qaysi jinsga taalluqlisiz?” savoliga berilgan javoblari tahlili[2]

Respondentlarning javobi	Respondentlar					
	Erkaklar		Ayollar		Ikkala jinsda	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
erkak	343	68,6			343	68,6
ayol			157	31,4	157	31,4
Jami	**343**	**68,6**	**157**	**31,4**	**500**	**100,0**

Hududlarga tashrif buyurgan turistlarga, xususan, islom mamlakatlaridan kelgan xotin-qizlar ko‘rasatilayotgan xizmatlarni ayol xodimlar amalga oshirishini xoxlashadi. Bizningcha, ayol turislarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar qamrovini kengaytirish, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlar soni, turistlar gurug‘ini, yanada oshirish maqsadida xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarda tajribali, turistlarga profesional xizmat ko‘rsata oladigan xotin-qizlarning ulushini oshirish lozim.

Respondentlar “Sizning ma’lumotingiz?” savoligi berilgan javob tahliliga ko‘ra ularning 5,8 %i to‘liqsiz o‘rta maxsus, 46 %i o‘rta maxsus, 37 %i oliy (bakalavriat) va 11.2 %i oliy (magistratura) ma’lumotga egaliklari ma’lum bo‘ldi. (2-jadval).

2-jadval: Respondentlarning “Sizning ma’lumotingiz?” savoliga berilgan javoblari tahlili3

Respondentlarning javobi	Respondentlar					
	Erkaklar		Ayollar		Ikkala jinsda	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
to‘liqsiz o‘rta maxsus	22	6,41	7	4,46	29	5,8
o‘rta maxsus	168	48,98	62	39,49	230	46
oliy (bakalavriat)	127	37,03	58	36,94	185	37
oliy (magistratura)	26	7,58	30	19,11	56	11,2
Jami	**343**	**100,0**	**157**	**100,0**	**500**	**100,0**

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki respondentlarning asosiy qismini yani 46 %ni o‘rta maxsus ma’lumotiga ega xodimlar tashkil etgan. Turizm tashkilotlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri mijozlar bilan ishlash uchun jalb qilinadigan xodimlarning asosan til bilish salohiyatiga e’tibor qaratiladi, shu sababli ma’lumoti oliy bo‘lmasa ham ishga qabul qilinaveradi. Bizningcha, turizm tarmog‘ida xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning til bilish darajasi bu uning imkoniyatlaridan bir qismi xolos. Turislar oqimining jonli zanjirini shakllantirishda profesional xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning o‘rni katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Turizm yo‘nalishlarini tugatgan oliy ma’lumotli mutaxassislar esa mazkur tarmoqlarda ish haqqining kamligi sababli ishlashni xoxlashmaydi. Turizm tarmoqlarida ishlaydigan soha mutaxassislarning ulushini oshirish maqsadida ularning KPI samaradorligini ishlab chiqish, HR xizmatlaridan foydalanish va mazkur tarmoq xodimlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab quvvatlash mexanizmlarini joriy etish lozim.

2 So‘rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
3 So‘rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Respondentlarga “Siz turizm obyektlarining qaysi sohasida faoliyat yuritasiz?” savoliga berilagan javoblar tahliliga ko‘ra ular 6,4 %i turistik korxonada ish yurituvchi, 19,6 %i turistlarni mehmonxonalarga joylashtirish, 18 %i turizm maxsulotlarini ishlab chiqish (turoperator), 21 %i turizm maxsulotlarini sotish (turagent), 8,4 %i menejer, 7,2 %i marketolog, 4,6 %i ovqatlantirish korxonalarida, 3,8 %i transport xizmatlarida, 8 %i ekskursiya xizmatlarida, 3 %i boshka xizmat turlarida faoliyat yuritishadi (3-jadval).

3-jadval: Respondentlarning “Siz turizm obyektlarining qaysi sohasida faoliyat yuritasiz?” savoliga berilgan javoblari tahlili[4]

Respondentlarning javobi	Erkaklar		Ayollar		Ikkala jinsda	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
turistik korxonada ish yurituvchi	19	5,5	13	8,3	32	6,4
turistlarni mehmonxonalarga joylashtirish	68	19,8	30	19,1	98	19,6
turizm maxsulotlarini ishlab chiqish (turoperator)	64	18,7	26	16,6	90	18
turizm maxsulotlarini sotish (turagent)	69	20,1	36	22,9	105	21
menejir	28	8,2	14	8,9	42	8,4
marketolog	23	6,7	13	8,3	36	7,2
ovqatlantirish korxonalarida	15	4,4	8	5,1	23	4,6
transport xizmatlarida	16	4,7	3	1,9	19	3,8
ekskursiya xizmatlarida	33	9,6	7	4,5	40	8
boshka xizmat turlarida bo‘lsa, yozing	8	2,3	7	4,5	15	3
Jami	**343**	**100,0**	**157**	**100,0**	**500**	**100,0**

Respondentlarning javoblari tahlilidan ko‘rishimiz mumkunki xodimlarning asosiy qismi ish yurituvchi, turoperator vaturagent sohalarida faoliyat yuritmoqda. Turizm tarmog‘ining boshqa sohalaridan menejer, turoperator va turagent sohalari daromadli kasblar ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bizningcha, hududlarda turizm sohasining barcha xizmatlarini rivojlantirishda xodimlarning taqsimoti balansini nazorat qilib borish lozim. Shuningdek, turizm xizmatlar bozorida mavsumiylik kuzatilishi sababli xodimlarni turli kasblarga moslashuvchanligini oshirish kerak.

Respondentlarga “Siz faoliyat yuritayotgan turistik korxonada mijozlarni ko‘proq qaysi yo‘nalishlarda qabul qilasiz?” savoliga berilgan javoblar tahlilidan 18,4 %i ziyorat turizmi, 17 %i tarixiy-madaniy turizm, 6,6 %i biznes turizmi, 16,6 %i sog‘lomlashtirish turizmi, 3,4 %i ilmiy turizm, 15,6 %i eko turizm, 11,6 %i gastronomik turizm, 8 %i agro turizm, 2,8 %i boshqa turizm yo‘nalishlari turistlarni qabul qilishganligi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval: Respondentlarning “Siz faoliyat yuritayotgan turistik korxonada mijozlarni ko‘proq qaysi yo‘nalishlarda qabul qilasiz?” savoliga berilgan javoblari tahlili[5]

Respondentlarning javobi	Erkaklar		Ayollar		Ikkala jinsda	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
ziyorat turizmi	61	17,8	31	19,7	92	18,4
tarixiy-madaniy turizm	61	17,8	24	15,3	85	17
biznes turizimi	21	6,1	12	7,6	33	6,6
sog‘lomlashtirish turizmi	55	16,0	28	17,8	83	16,6
ilmiy turizm	12	3,5	5	3,2	17	3,4
eko turizm	56	16,3	22	14,0	78	15,6
gastronomik turizm	41	12,0	17	10,8	58	11,6
agro turizm	26	7,6	14	8,9	40	8
boshqa turizm yo‘nalishlari	10	2,9	4	2,5	14	2,8
Jami	**343**	**100,0**	**157**	**100,0**	**500**	**100,0**

4 So‘rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
5 So‘rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahlillardan ko‘rish mumkinki, respondentlar asosan ziyorat turizmi, tarixiy-madaniy turizm, sog‘lomlashtirish turizmi va eko turizm yo‘nalishlarida turistlarni qabul qilishgan. Shuni aytib o‘tish kerakki, eko turizm yo‘nalishi bo‘yicha, asosan, mahalliy turistlar qabul qilingan. Shuningdek, mamlakatimizdaga boshqa turizm yo‘nalishlarida mijozlarni qabul qilinishi nisbatan kam. Bizningcha, hududdagi turizmning barcha yo‘nalishlarni rivojlantirish turistlar oqimini yanada kengaytirishga, shuningdek turistlarni mazkur hududlarda qolish kunlarini uzayishiga sabab bo‘ladi. Bizga ma’lumki, turist hududda qancha qo‘p qolsa mahsulotlar ekporti hajmi shuncha kengayadi. Shuningdek, turistlarni boshqa hududlardagi jozibador turistik mahsulotlarga yo‘naltirish va boshqa hududlardagi turistlarni zamonaviy marketing metodlari rivojlantirish kerak.

Respondentlarga “Agarda siz ish beruvchi bo‘lsangiz, turistik korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun xodimlarni qaysi bir sifat belgisiga qarab ishga yollardingiz?” savoliga berilgan javoblar tahlilida ular xodimlarni ishga yollashda 9 %i malaka darajasiga, 31,6 %i yuqori mehnat unumdorligiga, 6,4 %i halolligi va to‘g‘ri so‘zligiga, 12,8 %i axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishiga, 5,4 %i ijtimoiy-iqtisodiy bilimiga, 7,2 %i yoshi, jinsi, millatiga, 2,6 %i oilaviy holatiga, 22 %i xorij tillarini bilish darajasiga, 3 %i boshqa sifat belgisiga qarrashlarini belgilashgan (5-jadval).

5-jadval: Respondentlarning “Agarda siz ish beruvchi bo‘lsangiz, turistik korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun xodimlarni qaysi bir sifat belgisiga qarab ishga yollardingiz?” savoliga berilgan javoblari tahlili[6]

Respondentlarning javobi	Erkaklar		Ayollar		Ikkala jinsda	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
malaka darajasiga	29	8,5	16	10,2	45	9
yuqori mehnat unumdorligiga	98	28,6	60	38,2	158	31,6
halolligi va to‘g‘ri so‘zligiga	21	6,1	11	7,0	32	6,4
axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishiga	43	12,5	21	13,4	64	12,8
ijtimoiy-iqtisodiy bilimiga	19	5,5	8	5,1	27	5,4
yoshi, jinsi, millatiga	24	7,0	12	7,6	36	7,2
oilaviy holatiga	9	2,6	4	2,5	13	2,6
xorij tillarini bilish darajasiga	89	25,9	21	13,4	110	22
boshqa sifat belgilari bo‘lsa yozing	11	3,2	4	2,5	15	3
Jami	**343**	**100,0**	**157**	**100,0**	**500**	**100,0**

Tahlillardan aniqlandiki, respondentlar asosan yuqori mehnat unumdorligiga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishiga va halolligi hamda to‘g‘ri so‘zligiga qarab ishga qabul qilish lozimligini bildirishgan. Bizningcha turizm sohasida kadrlarni tayyorlashda yuqoridagi talablarga moslashtirish uchun nazariy va amaliy ta’lim integratsiyasini yanada jadallashtirish, dars mashg‘ulotlariga amaliy tarribaga ega bo‘lgan mutaxassislarni jalb qilish, ularni yuqori sifatli, xalqaro xizmatlarini profesional darajada bilishlari uchun xorijiy tajribalar bilan tanishtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, smart xizmatlari va til bilish darajalarini oshirish qarvligan chora tabdirlarni ko‘paytirish, turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kadrlar malakasini muntazam ravishda oshirib borish lozim.

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun respondentlar xodimlarga quyidagi sharoitlar yaratilishi kerakligini: 12 %i ish haqini o‘z vaqtida to‘lash, 4,2 %i mutaxassisligi bo‘yicha ish bilan ta’minlash, 9 %i mehnat sharoitini yaxshilash, 2,6 %i zarurat bo‘lganida boshqa lavozimga o‘tkazish, 3,4 %i og‘ir qo‘l mehnatini kamaytirish, 9 %i ma’naviy dam olishni tashkil etish, 11,4 %i moddiy yordam berish, 7,4 %i bepul malakasini oshirish, 9,6 %i resurslar bilan o‘z vaqtida ta’minlash, 7 %i yuqori unumli texnika, texnologiyalar bilan ta’minlash, 2,6 %i qonun hujjatlarini o‘rgatish,

5,2 %i raqamli texnologiyalar asosida xo‘jalik yuritishni tushuntirish 3,6 %i korxonani rivojlantiruvchi yangi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, 10,4 % mahalliy va xalqaro turizm ko‘rgazmalarida ishtirok etishni ta’minlash, 2,6 % boshqa sharoitlarni yaratish kerak ekanligini ta’kidlashgan (6-jadval).

6 So‘rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

6-jadval: Respondentlarning “Sizningcha turistik korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun xodimlarga quyidagi sharoitlardan qaysi birini ko‘proq yaratish kerak?” savoliga berilgan javoblari tahlili[7]

Respondentlarning javobi	Erkaklar		Ayollar		Ikkala jinsda	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
ish haqini o‘z vaqtida to‘lash	47	13,7	13	8,3	60	12
mutaxassisligi bo‘yicha ish bilan ta’minlash	13	3,8	8	5,1	21	4,2
mehnat sharoitini yaxshilash	30	8,7	15	9,6	45	9
zarurat bo‘lganida boshqa lavozimga o‘tkazish	8	2,3	5	3,2	13	2,6
og‘ir qo‘l mehnatini kamaytirish	10	2,9	7	4,5	17	3,4
ma’naviy dam olishni tashkil etish	29	8,5	16	10,2	45	9
moddiy yordam berish	42	12,2	15	9,6	57	11,4
bepul malakasini oshirish	24	7,0	13	8,3	37	7,4
resurslar bilan o‘z vaqtida ta’minlash	33	9,6	15	9,6	48	9,6
yuqori unumli texnika, texnologiyalar bilan ta’minlash	27	7,9	8	5,1	35	7
qonun hujjatlarini o‘rgatish	9	2,6	4	2,5	13	2,6
raqamli texnologiyalar asosida xo‘jalik yuritishni tushuntirish	16	4,7	10	6,4	26	5,2
korxonani rivojlantiruvchi yangi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash	13	3,8	5	3,2	18	3,6
mahalliy va xalqaro turizm ko‘rgazmalarida ishtirok etishni ta’minlash	34	9,9	18	11,5	52	10,4
boshqa sharoitlar bo‘lsa, yozing	8	2,3	5	3,2	13	2,6
Jami	**343**	**100,0**	**157**	**100,0**	**500**	**100**

“Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun xodimlarga qanday sharoitlar yaratilishini xoxlar edingiz?” deb berilgan savol javoblarini tahlil qilganimizda respondentlar asosan mahalliy va xalqaro turizm ko‘rgazmalarida ishtirok etishni ta’minlash, ish haqini o‘z vaqtida to‘lash, mehnat sharoitini yaxshilash, ma’naviy dam olishni tashkil etish va moddiy yordam berish variantlarini tanlashgan. Bizningcha, mahalliy va xalqaro turizm ko‘rgazmalari hududlardagi jozibador turizm xizmatlarini reklama qilishning eng samarali yo‘llaridan hisoblanadi. Mamlakatimizning turli hududlarida har bir mavsumga mos ravishda bahorning ilk nafaslarini ifodalab beruvchi ko‘klam qo‘ynida milliy bayramlar, sport o‘yinlari, bahoriy taomlar, ko‘rgazmalari. Yoz faslining qoq chillasida, so‘lim bog‘larda quyoshdan to‘yinib pishgan, betakror tamga ega bo‘lgan mahalliy bog‘dorchilik mevalari xorijlik turislar uchun mazmunli manzil bo‘lishi mumkun. Hududning bor turistik imkoniyatlarini aynan shunday mahalliy va xorijiy ko‘rgazmalarda taqdim etish va bunday ko‘rgazma va festevellarni ko‘paytirish mahalliy va xorijiy turitlar hajmini kengayishini ta’minlaydi.

- investisiya tavakkalchiligi birligiga qo‘shimcha daromad koeffisiyenti (>0). Matrisani qurish jarayonida xavf birligiga qo‘shimcha daromad 0 dan katta bo‘lgan vaziyat hisobga olinadi. Import o‘rnini bosish strategiyasini amalga oshirish yo‘nalishini tanlash uchun matrisaning koordinata o‘qlari wi va o‘zgaruvchilari bilan tavsiflanadi. Pi va Rm> 1, > 0 qiymati - biz o‘qlarda kechiktirmaymiz, biz faqat tanqidiy ruxsat etilgan chegaradan oshib ketadigan qiymatlarni hisobga olamiz. Shunday qilib, matrisaga ko‘ra (4-rasm) biz beshta zonani ajratiladi, ular orqali sanoat korxonasida import o‘rnini bosish strategiyasini amalga oshirish yo‘nalishini tanlash mumkin.

Guruhning mahsulot portfelidagi ulushi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslanib, import o‘rnini bosish strategiyasini amalga oshirish yo‘nalishining global darajasining qiymati, mahsulot portfelini diversifikatsiya qilish, sanoat korxonasining ixtisoslashuvi va hajmi, boshqaruv bo‘linmasi import o‘rnini bosish strategiyasini amalga oshirish yo‘nalishi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Aynan korxonaning mahsulot portfelining istiqbolli va foydali guruhlarini aniqlash tanlangan yo‘nalishni rivojlantirishga mablag‘larni samarali investisiyalashni ta’minlaydi. Mablag‘larni investisiya qilish bo‘yicha boshqaruv qarorini qabul qilish asosli bo‘lishi kerak, aniq bu ko‘rsatkichlar xarajatlar va foyda o‘rtasidagi nisbatni aks ettiradi. Har bir investisiya loyihasi uchun NPV, IRR, RR, RI ko‘rsatkichlarining qiymatlarini hisoblash natijalari investisiya loyihalarini tanlash va ularni kelgusida amalga oshirish imkoniyati uchun asos bo‘ladi.

XULOSA

Mahalliy iqtisodiyotni yangilash uchun import o‘rnini bosuvchi vositalardan foydalanish amaliyotiga oid turli mamlakatlar tajribasini umumlashtirish mahalliy mashinasozlik sanoati ishlab chiqaruvchilari tomonidan import o‘rnini bosishni amalga oshirish muammolari va istiqbollarini aniqlash imkonini berdi. Korxonani rivojlantirishni boshqarish darajasida import o‘rnini bosish strategiyasini shakllantirish va amalga oshirishning oqilona sabablarini aniqlash sanoat korxonasining beqaror tashqi sharoitlarda istiqbolli rivojlanishining missiyasi va vazifalarini yanada aniqroq shakllantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasini korxona rivojlanishining strategik yo‘nalishini tanlash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish korxona faoliyatini, uning bozor bilan o‘zaro ta’sirini bosqichma-bosqich tahlil qilishga asoslanishi kerakligi bilan umumlashtirilishi mumkin. Korxona va uning mahsulotlarini chuqur tahlil qilgandan so‘ng, investisiya loyihasini tanlash masalasi tug‘iladi, qaror qabul qilishda klassik yondashuv mavjud va tushunarli bo‘lib, bu tanlangan yo‘nalishlarning investisiya jozibadorligini baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik. - T.: Mehnat. 2011 y.;
2. Berkinov B.B., Aynaqulov M.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chikarish kooperatsiyasi. – Jizzax: Jizzax politexnika instituti, 2004. – 110 b.;
3. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss. avtoref. – T.: 2005-39 b.;
4. Salayev S.K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash: iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDIU 2008. – 49 b.;
5. Suyunov D.X. Kichik biznes subyektlarida boshqaruvni tashkil qiish va uning samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.iqt. fan.nom.dis.avtoref. Toshkent: 2004.-21 b.;
6. Aripov O.A. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDIU –T.: 2020.-72 b.;
7. Rixsimboyev O.Q. O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznesning ustuvor yo‘nalishlarini ekonometrik bashoratlash.: Iqt.fan. nomz. diss. avtoref. – T.: 2002. - 22 b;
8. Otajonov Sh.I. O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyati boshqaruv mexanizmini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2010.
9. Ibragimova M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining tarkibiy o‘zgarishlar asosida samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati –T.: 2018-54 b.

NODAVLAT UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABNING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI ANIQLASHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Ustadjalilova Xurshida Aliyevna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini aniqlashning inovatsion usullari o‘rganiladi hamda uning xorijiy mamlakatlarda amaliy namunalari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: nodavlat ta’lim tashkilotlari, loyiha, investitsion faoliyat, model, Porter kuchlari, raqobatchilarning strategik guruhlari xaritasi, STEP(PEST) tahlili, SWOT tahlil.

Abstract: In this article, innovative methods of determining the effectiveness of the activities of non-governmental educational organizations are studied and its practical examples in foreign countries are thoroughly analyzed.

Key words: non-governmental educational organizations, project, investment activity, model, Porter’s forces, map of strategic groups of competitors, STEP (PEST) analysis, SWOT analysis.

Аннотация: В данной статье изучаются инновационные методы определения эффективности деятельности негосударственных образовательных организаций, а также подробно анализируются их практические примеры в зарубежных странах.

Ключевые слова: неправительственные образовательные организации, проект, инвестиционная деятельность, модель, силы Портера, карта стратегических групп конкурентов, STEP (PEST)-анализ, SWOT-анализ.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish maqsadida sohani rivojlantirish yo‘llari va shakllarini aniqlash, samarali yechim topishda innovatsion usullaridan foydalanilmoqda. Respublikamizda oliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlardan biri ta’lim xizmatlarini jadal sur’atlar bilan rivojlantirish va jahon oliy ta’lim tizimiga, shu jumladan, mamlakatimiz ta’lim tizimiga ham yangidan-yangi, talab darajasidagi raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratishdan iboratdir.

Rivojlangan mamlakatlarni nodavlat ta’lim xizmatlari, jumladan, Yevropa mamlakatlaridan Germaniya, Buyuk Britaniya va Osiyo mamlakatlaridan Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya tizimi turlicha tashkil etilgan bo‘lsa-da, ulardagi o‘quv, o‘quv uslubiy ishlari tashkil etilishi ham o‘zlarini turlicha ijobiy tomonlari bilan ajiralib turadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nodavlat ta’lim muassasalarini boshqarishni xususiyatlari, xorijiy tajribalar va ularni O‘zbekistonga tatbiq etishni rivojlantirish va bu sohadagi muammolarning tub asoslari, fundamental qoidalari O‘zbekiston Resrublikasi Rrezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlarida har tomonlama chuqur yoritib berilgan [2].

Prezidentimiz yoshlar bilimiga, nodavlat ta’lim xizmatlari sifatiga e’tibor berar ekan: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1], – deya ta’kidlaydi.

Ta’limning xizmat xususiyatlari, ta’lim xizmatlariga oid ilmiy tadqiqotlar, nodavlat ta’lim xizmatlarining menejment va marketing masalalari, Ye.V.Burdenko [7], Sh.M.Aliyev [6] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ta’lim xizmatlariga oid tizimli tadqiqotlar Altbach P.G., Kelly G.P. [3] kabi xorijiy olimlar va mamlakatimiz olimlaridan M.Q.Pardayevning [10] ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

1 Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 14- bet.

Shunga qaramay, hozirgi sharoitda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida nodavlat umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari, ta’limda samarali boshqaruvni tashkil etish yo‘nalishlari,ta’lim muassasalarida boshqaruv usul va uslublarini takomillashtirish keng tahlil qilinmagan va bu esa mazkur izlanishlarni yo‘nalishini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘rganish jarayonida mavzu bo‘yicha statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo‘llanildi. Tahlil davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nodavlat ta’lim tashkilotlari kabi innovatsion loyihalarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash modelini yaratish tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Xavfni tashqi yoki ichki sharoitlar ta’sirida moddiy va nomoddiy yo‘qotishlarning mumkin bo‘lgan xavfi sifatida aniqlash mumkin. Asosiy xavflarga nodavlat tashkilotning faoliyatidagi xavflarga iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy kabi xavflarga ajratish mumkin.

Samaradorligni baholash modelini yaratishning birinchi bosqichi ta’limda “Xususiy maktab” innovatsion loyihalarni amalga oshirish samaradorligini to‘liq aks ettiruvchi baholash mezonlarini aniqlashdan iborat.

Mazkur adabiyotlarni tahlil qilish asosida ta’lim tizimida innovatsion loyihalarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholashning to‘rtta integral ko‘rsatkichini aniqlashimiz mumkin (1-jadvalda keltirilgan).

1-jadval: Ta’limda innovatsion loyihalarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari [9]

Ko‘rsatkichlar	Tarkibi
Investitsion jozibadorligi	Sof joriy qiymat, ichki daromad darajasi, rentabellik darajasi va boshqalar.
Tijoratlashtirish potensiali	Murakkab yillik o‘sish sur’ati, bozorda rejalashtirilgan mahsulot ulushi (xususiy maktablar soni), loyihani amalga oshirishdan manfaatdor tomonlarning mavjudligi va potensial talab
Marketing	Tashkilotni reklama qilish, kommunikativ kanallari, ta’lim xizmatlari rejasi, marketing investitsiyalari rentabelligi baholash
Birlik (Unit) iqtisodiyoti	Mijozlarni chaqirish narxi, mijozning qadri, Xizmatlarni tannarxi, mijoz daromadi

Jadvalda investitsion jozibadorlik guruhi loyihaga investitsiyalarning daromadliligi va diskontlangan daromadlarni potensial ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

Bitta mijozni jalb qilish xarajatlarini umumiy baholash uchun miqdorning mijozlar soniga xarajatlar nisbatiga ko‘ra aniqlanadi. Ta’lim xizmatlarini taklif qilinishi uzoq muddatli bo‘lganligi sababli, mijoz bilan bir yil va undan ortiq bo‘lgan vaqt uchun shartnoma tuziladi va xizmat ko‘rsatishning bir necha yillik to‘lov qiymati hisoblanadi.

Ushbu jadvalda keltirilgan analitik usullar, bizning fikrimizcha, ta’lim muassasalarida qabul qilinadigan eng samarali innovatsion tahlil usullarini ajratib ko‘rsatishga imkon berdi. Nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatida boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchilarning axborot ehtiyojlariga qarab tahlilning har xil turlari va turlaridan foydalanish mumkin (2-jadval).

2-jadval: Nodavlat ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan analitik tahlil turlarining tasnifi[4]

Xususiyati	Tahlil turi	Ta’lim muassasalarida mavjudligi
Takroriyligi bo‘yicha	Davriy: yillik, yarim yillik, choraklik, oylik, o‘n kunlik, kunlik, smenali, davriy bo‘lmagan tahlil: bir martalik	Yillik har doim, qolganlari ta’lim dasturiga, tashqi muhit ta’siriga bog‘liq
Hal qilinayotgan vazifalar ko‘lami bo‘yicha	Istiqbolli, operativ, ekspress-tahlil, yakuniy	Istiqbolli - maqsadlar, uzoq muddatli prognozlar samaradorligini baholash, shu jumladan ilg‘or ta’lim kontsepsiyasini amalga oshirish, operativ - ta’lim va iqtisodiy ishlarning holatini baholash, ekspress- tahlil - ta’lim muassasasining moliyaviy farovonligi va rivojlanish dinamikasi bo‘yicha operativ baho olish. Umuman olganda ta’lim muassasasi faoliyatini baholash maqsadida o‘quv yili natijalariga ko‘ra yakuniy.

Ko‘lami bo‘yicha hal qilinadigan vazifalar	Ichki va tashqi	Ichki - kadrlar tayyorlashni tashkil etish, o‘quv muassasalarining tuzilishi, jihozlari, resurslari, ta’lim xizmatlari sifati va boshqalarni baholash. Raqobat siyosatini tanlash uchun tashqi, ta’lim xizmatlari bozorini segmentatsiyalash va boshqalar.
Tahlil hajmi bo‘yicha	Umimiy, tanlanma, hududiy, tematik	Barcha turlari mavjud. To‘liq qismi ta’lim muassasasi faoliyati to‘g‘risida, qolganlari hozirgi paytda uning alohida tomonlari va qiziqishlari haqida to‘liq ma’lumot beradi.
Obyektni o‘rganish usullari bo‘yicha	Har tomonlama, sifatli, miqdoriy, qiyosiy, dispersiya. O‘zaro ta’sir, matritsa, model, korrelyatsiya, teskari aloqa, omil	Barcha turlari tahlil maqsadiga qarab mavjud
Tadqiqotning mavzu yo‘nalishlari bo‘yicha	Moliyaviy, menejment, innovatsiyalar, ishlab chiqarish yoki operatsion.	Barcha turlari o‘ziga xosdir

Tahlilning barcha turlari, oxir-oqibat, bir-biri bilan kesishadi va ularni amalga oshirish usullarida aks etadi. Analitik usullarni ko‘rib chiqish, tadqiqotchi S.Urazovning fikricha, ta’lim muassasalarida qabul qilinadigan uchta eng samarali innovatsion tahlil usullarini ajratib ko‘rsatishga imkon berdi: 5 Porter kuchlari, raqobatchilarning strategik guruhlari xaritasi, STEP(PEST) tahlili [4].

Ta’lim muassasasining faoliyati uning nazorati doirasidan tashqarida bo‘lgan va uning faoliyatiga ta’sir etadigan tashqi muhitni tahlil qilishdan boshlanadi. Tashqi muhitni tahlil qilishni shartli ravishda mikromuhit va makro muhitni tahliliga bo‘lish mumkin. Ushbu model 1979-yilda mashhur iqtisodchi Maykl Porter tomonidan tasvirlangan. U tashkilotning unumdorligi va raqobatbardoshligini tahlil qilish va kelajakda ham ushbu ko‘rsatkichlarni yuqori darajada ushlab turish imkonini beradigan to‘liq model hisoblanadi [4].

Maykl Porter ushbu modelni yaratganida, bozorda har bir mahsulotning raqobatbardoshligini belgilaydigan besh xil kuch mavjudligini aytgan:

- xaridorlar ma’lum bir segmentda savdolashish qobiliyatiga ega;
- korxonalarni xomashyo yetkazib berishga ta’sir qiluvchi yetkazib beruvchining savdolashish qobiliyati;
- raqobatni kuchaytirish uchun bozorga yangi ishtirokchilarning kirishi tahdidi;
- pul o‘rnini bosuvchi mahsulotlarning qimmatligi xavfi;
- tanlangan bozordagi raqobat darajasi.

Ta’lim muassasasi mikromuhitini tahlil qilish, bu ta’lim yoki mehnat bozorida katta o‘zgarishlar yuz bergan taqdirda har yili yoki bir martalik amalga oshiriladigan hayotiy faoliyatdir. Ta’lim muassasasining tashqi ishbilarmonlik aloqalarining eng yaqin sohasini tashkil etuvchi mikro muhitni tahlil qilishdan maqsad uning ta’lim tizimidagi raqobatbardoshligi va mavqeyini baholashdir. Ushbu tahlilda Porterning 5 ta kuch modeli va matritsali tahlil-raqobatchilarning strategik guruhlari xaritasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotdan ko‘rinib turibdiki, Porterning 5 ta kuchlari modeli ta’lim tizimidagi ta’lim muassasasining haqiqiy mavqeyi va uning jozibadorligi to‘g‘risida to‘liq tasavvur ega bo‘liosh imkonini beradi. Yangi raqobatchilar paydo bo‘lish xavfini baholashda ta’lim xizmatlari bozoriga kirishning murakkabligi va qulayligi hisobga olinadi.

Matritsali tahlilni ta’lim muassasalarida qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Matritsa tahlili - raqobatchilarning strategik guruhlari xaritasi, ta’lim muassasalari ta’lim xizmatlari bozorida qanday raqobatbardosh pozitsiyalarga ega ekanligini baholashga imkon beradi. Qo‘shimcha ta’lim muassasalari ta’lim berishini hisobga olsak o‘quvchilarning turli yosh toifalari va turli sohalardagi xizmatlari, keyinchalik raqobatchilarning strategik guruhlari nafaqat ta’lim muassasasining o‘zi, balki ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari uchun ham tuzilishi kerak. Mahalliy ommaviy axborot vositalarini ko‘rib chiqish orqali bir xil yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatuvchi Internet-resurslar, ta’lim muassasalari va boshqa yuridik shaxslar aniqlanadi, shundan so‘ng olingan ma’lumotlar ta’lim muassasalari va ta’lim xizmatlari tomonidan guruhlarga bo‘linishi va o‘z raqobatchilari haqida haqiqiy tasavvurga ega bo‘lishi mumkin.

Tashqi makro muhitni o‘rganish uchun tashqi omillarni kompleks ijtimoiy (Social), texnologik (Technological), iqtisodiy (Economic), siyosiy(Political) tahlil asosida amalga oshiriladigan STEP modelini yoki uni PEST-tahlil deyish maqsadga muvofiqdir.

PEST tahlili atrof-muhit omillarining ta’sirini hisobga olgan holda uzoq muddatli (3 yildan 10 yilgacha) rejalashtirish uchun marketing vositasidir [11].

PEST tahlili ko‘p jihatdan SWOT tahliliga o‘xshaydi – jadval tuzilib, unda biz omillar va ularning biznesga ta’sirini ko‘rsatamiz, olingan ma’lumotlardan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish uchun foydalanamiz. Ammo farqli tomoni - SWOT tahlili tashqi (“Imkoniyatlar” va “Tahdidlar”) va ichki (“Kuchli va zaif tomonlar”) omillarni o‘rganadi, PEST tahlili esa faqat tashqi omillarga asoslanadi [12].

N.Golivcovaning “Strategik menejment” nomli o‘quv-amaliy qo‘llanmasida PEST-tahlili texnikasi ta’lim muassasasiga potensial tahdidlar va yangi imkoniyatlarni aniqlash uchun atrofdagi makromuhitning eng muhim omillari holatini baholash va ularning rivojlanishini bashorat qilish imkoniyatini berilishi berilgan va tahlilni amalga oshirish yo‘llari hamda bosqichlari amaliy jihatdan ochib berilgan [8].

Bular:

Birinchi bosqich – uzoq muddatli (3-5 yil) bo‘lib, unda ta’lim xizmatlari bozorida ta’lim muassasasi faoliyati va daromadi bo‘yicha ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan omillar ro‘yxatini tuzish. Ushbu omillarni 4 guruhga ajratilgan: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va texnologik.

Ikkinchi bosqich – har bir omilning ta’sirining kuchini aniqlash.

Uchinchi bosqich – omil o‘zgarishi ehtimolini baholash.

To‘rtinchi bosqich – har bir omilning haqiqiy ahamiyatini hisoblash.

Haqiqiy ahamiyat tashkilotning tashqi muhitdagi o‘zgarishlar omiliga qanchalik e’tibor berishi va uni nazorat qilishi kerakligini baholashga imkon beradi va ushbu omilning tashkilotga ta’sir qilish kuchiga qarab hisoblangan omilning o‘zgarishi ehtimoli sifatida hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan omillar va STEP(PEST) tahlili jarayonida ko‘rib chiqilgan, biz uni 3-jadvalda keltirib o‘tdik.

3-jadval: STEP(PEST) tahlilida ko‘rib chiqilgan ta’sirlar [4]

Siyosiy	Iqtisodiy
Amaldagi qonunchilik va qonunchilikdagi rejalashtirilgan o‘zgarishlar. Moliyalashtirish, grantlar va tashabbus lar. Hokimiyatning barcha darajalaridagi saylovlar. Ekologik muammolar va boshqalar.	Iqtisodiy vaziyat va tendentsiyalar. Inflyatsiya darajasi. Soliq. Samaralitalab va iste’molchilar ehtiyojlari. Asosiy tashqi xarajatlar (energiya, transport, xom ashyo va butlovchi qismlar, aloqa) va boshqalar.
Ijtimoiy	**Texnologik**
Demografiya. Asosiy qadriyatlar. Hayot tarzi tendentsiyalari. Brend, ta’lim muassasasining obro‘si, foydalanilgan texnologiya qiyofasi. Iste’molchilarning fikrlari va munosabatlari. Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar va boshqalar.	Ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish. Yangi texnologiyalarni o‘zgartirish va moslashtirish. Axborot va aloqa, internetning ta’siri. Texnologiyalar, litsenziyalash, patent lardan foydalanish. Intellektual mulk muammolari va boshqalar.

STEP tahlili natijalari umumlashtirilib, shu asosda nodavlat ta’lim muassasasi faoliyati uchun tashqi muhitdagi o‘zgarishlarning aniqlangan tendentsiyalari baholanadi. Shunday qilib, bizning fikrimizcha, STEP tahlilini muntazam ravishda va to‘rtta omil guruhidan biri ta’sirida keskin o‘zgarish yuz berganda, bu tashqi muhit muammolari strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko‘rib turganimizdek, ushbu innovatsion tahlil usullari ta’lim muassasasining ichki muhitini (boshqaruv tizimi, o‘qitish uslublari, kadrlar, iqtisodiy va moliyaviy faoliyat) tashkil etuvchi omillarni hamda ta’lim muassasasining tashqi makro va mikro muhitini (iste’molchilar, raqobatchilar, sheriklar, jamoatchilik fikri) baholash va bashorat qilishga imkon beradi. O‘z vaqtida o‘tkazilgan tahlil o‘quv muassasasiga imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga, tahdidlarni va ularning oqibatlarini yumshatishga yoki ularni imkoniyatlarga aylantirishga imkon beradi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, nodavlat ta’lim muassasasi faoliyati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish asosida, imkoniyatlar va tahdidlarni baholash, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash usullaridan foydalanib, Porterning 5 ta kuchidan, raqobatchilarning strategik guruhlari xaritasidan, STEP(PEST) tahlilidan foydalanish yuqori samaradorlik keltiradi.

Muntazam ravishda olib boriladigan tashqi tahlil ta’lim muassasasi faoliyatiga u yoki bu darajada ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar belgilarini aniqlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2016. 14- bet.
2. Altbach P.G., Kelly G.P. New Approaches to Comparative Education. Chicago and London: The University of Chicago Press, 2006. 228 p.
3. S.Urazov. Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishda tahlilning innovasion usullaridan amaliy foydalanish //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2021. VOLUME 1. 543-549 b Strategik boshqaruv vositalari. Porterning 5 ta kuch tahlili: misol/Marketing bo'yicha maslahatlar 2024 https://uz
4. Urokboyevich T. S. Turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 1128-1132.
5. Алиев Ш.М. Рынок образовательных услуг и вопросы его регулирования : Дис... канд. экон. наук. – М.: РЭА, 2012.
6. Бурденко Е.В. Рынок образовательных услуг в трансформируемой экономике:Дис...канд. экон. наук. – М.: РЭА, 2014.
7. Голивцова Н.Н. Стратегический менеджмент: учебно-практическое пособие/ВШТЭ СПбГУПТД – СПб., 2016. – 49 с.
8. Грачева М.В., Ляпина С.Ю. Анализ и управление рисками инновационной деятельности // Инновации. 2006. № 1 (88). С. 38–47.
9. M.Q.Pardayev "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining ayrim muammolari" monografiya. – Toshkent-2014 yil, 20 bet.
10. Портер Майкл Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов / пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Бук, 2005. – 454 с.
11. Л. Санамян. PEST-анализ – что это, перечень факторов. SWOT и PEST: в чем сходство и отличие анализов https://otzyvmarketing.ru
12. Umarovna, Radjabova Gavhar. Features Of The Market Of Educational Services And The Problem Of Interaction Of Higher Educational Institutions With Employers.// E Conference Zone. 2022.
13. Umarovna, Rajabova Gavkhar. Conceptual Foundations For Improving The Organizational And Economic Mechanism Of The University Management System. // International Journal of Early Childhood Special Education 14.8 (2022).
14. Umarovna, Radjabova Gavkhar. Increasing The Competitiveness Of Universities In The Market Of Educational Services.// Open Access Repository 9.11 (2022): 269-273.
15. Umarovna, Rajabova Gavkhar. Improving The Performance Management Of The Higher Education System In The Republic Of Uzbekistan. // Open Access Repository 8.11 (2022): 81-86.

TIJORAT BANKLARIDA BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING STRATEGIK AHAMIYATI

Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida bank riskini boshqarishning zarurligi, ahamiyati va ularning baholash usullari nazariy hamda amaliy jihatdan yoritilgan. Tijorat banklari faoliyatida bank riskini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan va mamlakatimiz bank tizimida ularni qo‘shimcha ravishda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, bank, risk, risklarni boshqarish, riskni baholash.

Abstract: The article discusses the theoretical and practical aspects of the necessity and importance of banking risk management in commercial banks and methods for their assessment. Conclusions and proposals for improving liquidity risk management in the activities of commercial banks and recommendations for their additional application in the banking system of the country are developed.

Key words: liquidity of commercial banks, liquidity risk, management of risks, risk assessment.

Аннотация: В статье описывается необходимость и важность управления банковскими рисками в коммерческих банках и методы их оценки с теоретической и практической точки зрения. Сделаны выводы и предложения по совершенствованию управления банковскими рисками в деятельности коммерческих банков и даны рекомендации по их дополнительному применению в банковской системе нашей страны.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковская деятельность, риск, управление рисками, оценка риска.

KIRISH

Mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlari tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi bilan chambarchas bog‘liq. Chunki tijorat banklari bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning barqarorligi davlat ahamiyatiga egadir.

Markazlashgan iqtisodiyot sharoitida barcha xo‘jalik subyektlar faoliyati rejalashtirilgan bo‘lib, asosiy maqsad rejani bajarishga qaratilgan, rejaning bajarilmagan qismi zarur hollarda yuqori tashkilot yoki budjet mablag‘lari hisobidan qoplab berilgan. Shuning uchun bu davrda risk degan tushuncha bo‘lmagan. Bozor munosabatlarini tashkil qilish va olib borish butunlay boshqa tamoyillarga tayanadi. U tezkor taraqqiyot va rivojlanish, turli o‘zgarishlar, raqobat, innovatsiya, islohotlar va boshqalarga asoslanadi. Bunday jarayonlar bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir subyektning ishiga ta’sir qiladi. Bu, ayniqsa, tijorat banklari faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki tijorat banklari faoliyatining o‘zi riskli bo‘lganligi uchun bozor munosabatida yuzaga keladigan islohotlar, o‘zgarishlar, tebranishlar, inqirozlar va boshqa holatlarni birinchi bo‘lib banklar seza boshlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Karl Berch “har qanday kompaniyaning tavakkalchilikni boshqarish falsafasining asosiy tarkibiy qismi uning risk appetitini aniqlashdir. Risk appetiti kompaniyaning moliyaviy va operatsion imkoniyatlariga, o‘sish sur’atlariga va manfaatdor tomonlar tomonidan rentabellik istiqbollariga qarab, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risk miqdorini aks yettiradi”, – deb tariflaydi.

Igor Tarasov “Risk-appetiti-bu xavfni kamaytirish choralari talab qilinishidan oldin tashkilot o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida qabul qilishga tayyor bo‘lgan maksimal risk darajasi. Har qanday biznes o‘z mohiyatiga ko‘ra riskli biznes bo‘lib, unda foyda olish uchun tavakkal qilish zarur va risk appetiti tashkilot uchun risklar va olinadigan foyda o‘rtasidagi maqbul muvozanatni ko‘rsatadi” deb tarif beradi.

Bank nazorati bo‘yicha Bazelda “Risk appetiti tashkilot o‘z maqsadlariga yerishish uchun qabul qilishga tayyor bo‘lgan risk (noaniqlik) miqdori va turlarini aks yettiradi”.

“Risk appetii – bizning minimal miqdoriy ko‘rsatkichlar va sifatli bayonotlar to‘plami bilan belgilanadigan strategik maqsadlarimizga yerishish uchun biz qabul qilishga tayyor bo‘lgan riskning umumiy darajasini ifodalaydi.”

Boshqa mualliflar Risk appetitini soliq to‘langungan qadar foydadan yoki kapitaldan ulushlar asosida aniqlanuvchi (“yuqoridan pastga” yondashuvi) yoki risklar yuzaga kelgandagi yo‘qotishlarning tarixiy taxlillar asosida aniqlanuvchi (“pastdan yuqoriga” yondashuvi) sifatida fikr bildiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada, tijorat banklarda risk appetiti va risk profili ko‘rsatkichlarini aniqlash, baholash, boshqarish, monitoring va nazorat qilish uchun muhim sanalgan aktivlarni diversifikatsiyalashni tadqiq etish bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy xulosalari va mualliflarning amaliy tajribalari asosida mustaqil yondashuvlar shakllantirildi. Shuningdek jadval, analitik taqqoslash, mantiqiy tahlil, guruhlash kabi usullardan hamda statistik ma’lumotlardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda bank tizimini liberallashtirish sharoitida kredit operatsiyalari muhim o‘rin tutadi. Tijorat banklari kredit operatsiyalari bank daromadlarini shakllantiruvchi faoliyat bo‘lganligi sababli kredit portfelining sifat darajasi barqarorligini ta’minlash bugungi kunda banklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kreditlash tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat turi hisoblanadi, chunki tijorat banklari kredit portfeli sifatining pasayishi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi, ya’ni muddati o‘tgan kreditlarning kredit qo‘yilmalari hajmidagi salmog‘ining oshishi bankning riskini keskin pasayishiga olib keladi [1].

Aytish o‘rinliki, har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek tijorat banklari faoliyatidan ko‘zlangan natija bu, birinchi navbatda, foyda olishdir. O‘z navbatida, olinadigan foyda darajasi tog‘ridan-tog‘ri mavjud risklar darajasi bilan bog‘liqdir. Tijorat banklari oldida turgan birinchi masala bu risk va foydalilik o‘rtasidagi optimal darajaga erishishdir. Tijorat banklari tomonidan bugungi kunda risklarni o‘rganishning asosiy sababi ham shunda, ya’ni olinadigan daromadni oshirishga qaratilgandir. Daromadni oshirish esa tijorat banklaridan mavjud risklarni chuqur o‘rganishni va ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qabul qilishni talab etadi.

Bu borada Prezidentimizning Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida, “Eng yomoni, istiqbolli yirik loyihalarni belgilash va amalga oshirishda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilgani, xorijiy kreditlar samarasiz ishlarga sarflangani iqtisodiyot rivojiga xalaqit bermoqda [2]. Biz, avvalo, chetdan kredit va sarmoyalar olib kelish bo‘yicha samarali tizim yaratishimiz, har bir kreditni aniq ishlatishni o‘rganishimiz lozim. Bu masalada yetti o‘lchab, bir marta kesadigan, oqibatini puxta o‘ylab ish olib boradigan davr keldi”, – deb ta’kidlab o‘tganlari bejiz emas.

Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan bank kreditlari xajmining oshishi, ulardan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo‘jalik yurituvchi subyektlar miqdorining ko‘payishi, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish, ularning samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar bo‘yicha hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida undirib olishni ta’minlash vazifalari banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borishni dolzarb masala ekanligini asoslab beradi.

Kredit riskining bank faoliyatining yakuniy natijalariga ta’sir etish ko‘lami esa, avvalambor, tijorat bank boshqaruvi tomonidan tanlangan strategiyaga bog‘liq bo‘ladi (agressiv yoki konservativ). Ya’ni, tijorat banki qancha agressiv kredit siyosatini yuritsa bankning kredit riskiga duchor bo‘lish ehtimoli shuncha yuqori bo‘ladi va aksincha, tijorat banki qay darajada konservativ siyosat olib borsa bank kredit riskiga duchor bo‘lish ehtimoli shuncha past bo‘ladi. Bank boshqaruvi bu borada bank daromadliligi bilan bank riski o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik munosabatini, ya’ni bank qancha yuqori daromad olishni ko‘zda tutsa, uni ololmaslik ehtimoli ham shuncha yuqori bo‘lishligini esda tutmog‘i lozim [4].

Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish muhim vazifalardan biridir. Bank kredit portfelini boshqarish tizimi faoliyatining zamirida to‘rt asosiy tamoyil turadi: birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi[1] Nizom talablari doirasida bank kreditlari asosiy mezonlar bo‘yicha muntazam ravishda baholanadi; ikkinchidan, bank tomonidan ajratilayotgan kreditlarning ta’minlanishi ustidan nazoratni amalga oshirishligi diqqatni tortadi.

1 cbu.uz

Taniqli olima Sh. Abdullaeva ta'minot kredit berilayotganda uni so'ndirishning bosh manbayi hisoblanmaslikni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi [6]. Bank ta'minotdan kredit so'ndirilmasligi risklarini kamaytirish maqsadida foydalanadi, xolos. Uchinchidan, kredit monitoringini amalga oshirish. Kredit portfeli monitoringi quyidagilarni nazarda tutadi:

a) kreditni monitoring qilish;

b) kredit portfelini monitoring qilish.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda. To'rtinchidan, kredit portfelini auditdan o'tkazish va kredit risklarini boshqarish. Kredit portfeli ichki va tashqi auditorlar tomonidan audit tekshiruvidan o'tkaziladi [5].

Tijorat banklari o'z faoliyatlari bilan bogliq bo'lgan risklarni boshqalarga nisbatan ko'proq o'rganishlari talab etiladi. Mazkur risklarni minimallashtirib (kamaytirib) bank bir tomondan o'z mahsulot va xizmatlar sonini kengaytiradi, faoliyatini diversifikatsiyalaydi, boshqa tomondan esa o'z operatsiyalar sifatini oshiradi.

P. Rouz bank faoliyatida, asosan, quyidagi bank risklari yuzaga kelishi ta'kidlab o'tadi:

a) kredit riski – qarzdorning shartnomada belgilangan shartlar bo'yicha bank oldidagi o'z moliyaviy majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk;

b) bozor riski – bankning qimmatli qog'ozlar portfelidagi instrumentlari narxlarining, shuningdek, chet el valyutasi va qimmatbaho metallar kurslarining salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk. Bozor riski fond, valyuta va foiz risklarini o'z ichiga oladi, bunda:

- fond riski – qimmatli qog'ozlari portfelidagi instrumentlarning bozor narxlaridagi salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk;
- valyuta riski – chet el valyutasi va qimmatbaho metallarning ochiq pozitsiyalari bo'yicha shu chet el valyutalari kurslari va qimmatbaho metallar baholarining o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk;
- foiz riski - aktivlar, passivlar va ko'zda tutilmagan holatlardagi instrumentlar bo'yicha foiz stavkalarining salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk;

d) likvidlilik riski – bankning o'z moliyaviy majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk. Bankning likvidlilik riski asosan, aktiv va passivlarning so'ndirilish muddatlarining o'zaro nomuvofiqligi oqibatida yuzaga keladi.

e) operatsion risk – bankning ichki tizimlari, jarayonlari, axborot texnologiyalari, xodimlar harakatlarida yo'l qo'yilgan xatoliklar yoki tashqi tabiiy jarayonlar, shu jumladan tabiiy ofatlar, natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk;

f) mamlakat riski – bankning xorijiy hamkorlari tomonidan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlar sababli o'z moliyaviy majburiyatlarining bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk;

g) huquqiy risk – bank tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar va tuzilgan shartnomalarga rioya qilinmaslik, ish jarayonida huquqiy xatoliklarga (noto'g'ri yuridik maslahat yoki hujjatlarni noto'g'ri tuzilishi) yo'l qo'yilishi, huquq tizimidagi kamchiliklar, hamkorlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq risk;

h) biznesda obro'-e'tiborni yo'qotish riski – bankning moliyaviy barqarorligi to'g'risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi sababli, mijozlar sonining kamayishi, ko'rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida, bankda zararlar yuzaga kelishi riski;

i) firibgarlik riski – bankda xodimlar, mijozlar va boshqa hamkorlarning firibgarlik yoki boshqa jinoiy xatti-harakatlari oqibatida moliyaviy zararlar ko'rish xatari. Bankdan naqd pul va boshqa qimmatliklarning o'g'irlanishi hamda bank xodimlari tomonidan ataylab moliyaviy hisob va hisobotlarda zararlarni (vaqtincha yoki tekshirish orqali aniqlanguncha) yashirilishi natijasida bankning moliyaviy ziyon ko'rishi. Birinchi navbatda kredit riski nima ekanligiga to'xtalib o'tsak [3]. Kredit riski qarz oluvchi yoki kontra-

gent shartnoma majburiyatlarini, birinchi navbatda, qarz yoki boshqa moliyaviy majburiyatlarni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, kreditor yoki investor ko‘rishi mumkin bo‘lgan moliyaviy zararni anglatadi. Bu qarz oluvchining qarz mablag‘larini qaytarish yoki boshqa moliyaviy majburiyatlarni bajarish qobiliyati yoki tayyorligi bilan bog‘liq noaniqlikni o‘z ichiga olgan kreditlash va investitsiya faoliyatining asosiy jihati.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kredit riskini samarali boshqarish moliya institutlari va investorlar uchun o‘z kapitalini himoya qilish, kreditlash va investitsiya faoliyati barqarorligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu kredit riskini boshqarishning mustahkam amaliyotlarini, jumladan, ehtiyotkor anderrayting standartlarini, kreditlarni sinchkovlik bilan baholash jarayonlarini, portfelni diversifikatsiya qilish, garov masalasi, risklarni monitoring qilish va kamaytirish strategiyalarini o‘z ichiga oladi. Shunday risklar mavjud bo‘ladiki, ularni oldindan olish yoki kamaytirish mumkin emas, ya’ni ular loyiha ishtirokchilari ta’siridan tashqarida bo‘ladi. Kredit riskining turli determinantlarini tan olish moliya institutlari uchun risklarni boshqarish bo‘yicha ishonchli amaliyotlarni joriy etish va potentsial yo‘qotishlarni kamaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Kreditorlar kredit riskining sabablarini har tomonlama tushunib, ongli ravishda kreditlash to‘g‘risida qaror qabul qilishlari, kredit portfellarini sog‘lomlashtirish va moliyaviy muhitni yanada barqarorlik bilan boshqarishi lozim.

Tijorat banklarida risklarni va kredit portfelni boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha xalqaro bank amaliyotida kredit risklarini baholashning Simulation Scenario, Monte Carlo, Delfi, Stress testing, Historical Simulation usullari, shu bilan birga balli baholash usullarini o‘rganib, O‘zbekistonga mos keluvchi bu usullarni O‘zbekiston bank amaliyotida qo‘llanilishini taklif qilamiz. Bu risklarni baholashda xilma-xillik bo‘lishi va buning natijasida birining kamchiligi ikkinchi usul yordamida to‘ldirilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020-yildagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son Farmoni, ttps://lex.uz/uz/docs.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis Murojatnomasi, 22.12.2017-yil https://www.prezident.uz/oz/lists/view/1371.
3. Роуз П. Банковский менеджмент. Пер. с англ. – М.: Дело, 2019, 192-б.
4. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. Sh.Abdullaeva, Z,Safarova. “Moliya” 2020.
5. Управление деятелностью коммерческого банка (банковский менеджмент)/ Под ред. д-ра экон. наук, проф. О.И.Лаврушина. – М.: Юристъ, 2002, 456-с.
6. Azlarova Aziza Axrorovna “Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 6, noyabr-dekabr, 2018-yil, 3-b.
7. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. –T.: Moliya, 2012, 124-6.
8. Пещанская И.В. Организатсия деятелности коммерческого банка: Учебное пособие. – М.: ИНФРА–М, 2001, 33-6.

KLASTER IQTISODIY SUBYEKT SIFATIDA: MOHIYATI VA TASNIFI

Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada klaser mohiyati hamda rivojlantirish xususiyatlari, kichik biznesni rivojlantirishdagi o‘rni kabi masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, klaster bo‘yicha nazariyalarni tahlil qilish asosida uning mohiyati, xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: klister, kichik biznes, samaradorlik, sanoat klasteri, innovatsiya, raqobatbardoshlik.

Abstract: This article examines issues such as the essence and development features of the cluster, its role in the development of small business. Also, based on the analysis of cluster theories, its essence and characteristics are revealed.

Key words: cluster, small business, efficiency, industrial cluster, innovation, competitiveness.

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы, как сущность и особенности развития кластера, его роль в развитии малого бизнеса. Также на основе анализа теорий кластера раскрываются его сущность и характеристики.

Ключевые слова: кластер, малый бизнес, эффективность, промышленный кластер, инноватsiи, конкурентоспособность.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlik darajasini oshirishda klasterlarning o‘rni juda katta. Klasterlar sanoat yoki xizmatlar sohasida geografik jihatdan yaqin joylashgan, o‘zaro hamkorlik qiladigan va raqobatlashadigan kompaniyalar, tashkilotlar va ilmiy muassasalar guruhidir. Kichik biznesni rivojlantirish uchun klasterlar muhim vositalardan biri bo‘lib, ular innovatsiyalar, samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda klasterlarda resurs va energiya tejamkor zamonaviy texnologiyalardan keng foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, eksportini yanada kengaytirish va imtiyozlar berish maqsadida huquqiy, institusional, investision hamda innovasion muhitni yaxshilash kabi bir qator yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Zero, hududlarda klasterni tashkil etish va ularning asosida kichik biznesni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarining ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini baholash mihim masalalardan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes sifat hixatidan o‘ziga xosligi hisoblanadi. Tahlil jarayonida taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan. Kuzatuv metodi orqali tadbirkorlikning holati baholangan va abstrakt-mantiqiy fikrlash orqali tegishli xulosalar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Klaster ma’lum bir hududdagi o‘zaro bog‘langan korxonalarning iqtisodiy aglomeratsiyasi obyekti sifatida hunarmandchilik ishlab chiqarish davridan ma’lum. Shu bilan birga, iqtisod fani klasterlarning ochilishi uchun atoqli iqtisodchi A.Marshall bilan bog‘liq. Marshallning o‘zi[1] ularni “mahalliylashgan sanoatlar” deb atagan va keyingi adabiyotlarda “sanoat rayonlari” nomi keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda eng mashhur atama “klaster”

1 Маршалл, А. Принципы экономической науки / А. Маршалл. – М.: Изд. группа “Прогресс”, 1993. – Т.3. – 351 с.

ancha keyin paydo bo‘lgan. Klaster alohida iqtisodiy tizim[2], yaxlit tuzilma[3] sifatida qaralishi mumkin, bu ham davlat sanoat siyosatini, ham butun iqtisodiyotni rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Murakkab va keng qamrovli tushuncha bo‘lgan “klaster” turli tadqiqotchilar tomonidan ta’riflangan (1-jadval):

- o‘xshash mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan firmalarning geografik jihatdan yaqin guruhlari (Marshall, Artur, Sorenson va Audia);
- o‘zaro bog‘langan sanoat tarmoqlarining geografik jihatdan yaqin guruhi sifatida (Porter);
- firmalar tarmog‘i (Bekattini) va jug‘rofiy chegaralardagi tegishli muassasalar (sakseniya);
- bir xil ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanadigan va texnologiyaga asoslangan boshqa firma guruhlari bilan bog‘langan firmalar guruhlari sifatida (Tushman va Rosenkopf, Wade).

1-jadval: Klaster ta’riflarining xilma-xilligi

Muallif	Yili	Manba	Ta’rifi
Porter	1990	Davlatlarning raqobatdosh ustunligi*	Sanoat klasteri - bu xaridor-yetkazib beruvchi yoki etkazib beruvchi-xaridor munosabatlari yoki umumiy texnologiyalar, umumiy xarid yoki tarqatish kanallari yoki umumiy mehnat birlashmalari orqali bog‘langan tarmoqlar majmuidir.
Schmitz	1992	Kichik firmalarni klasterlash to‘g‘risida**	Klaster - bu bir tarmoqqa mansub va bir-biriga yaqin joylashgan korxonalar guruhi.
Porter	1998	Raqobat haqida	Klaster - bu umumiylik va bir-birini to‘ldiruvchi tomonlar bilan bog‘langan, ma’lum bir sohadagi o‘zaro aloqador kompaniyalar va institutlarning geografik jihatdan yaqin guruhi.
Bergman va Feser	1999	Sanoat va mintaqaviy klasterlar	Mintaqaviy klasterlar - bu geografik jihatdan, odatda, metropolitenni, mehnat bozorini va boshqa funktsional iqtisodiy birliklarni tashkil etuvchi mintaqa doirasida to‘plangan sanoat klasterlari.
Egan	2000	Toronto musobaqalari	Klaster - bu yuqori ixtisoslashgan, o‘zaro bog‘langan xususiy sektor firmalari va davlat sektori institutlari tarmoqlariga bog‘liq bo‘lgan sanoat tashkilotining shakli bo‘lib, yakuniy mahsuloti poytaxt mintaqasidan tashqari bozorlarga chiqadi.
Visser va Boshma	2002	Klasterlar va tarmoqlar alohida firmalar uchun o‘rganuvchi qurilmalar sifatida	Klasterlar o‘xshash va tegishli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi firmalarning geografik kontsentratsiyasi sifatida aniqlanadi.
V. Tretyak	2004		Yetkazib beruvchilar bilan o‘zaro hamkorlik qilish va yuqori ixtisoslashgan firmalar guruhini yaratish orqali “tashqi tejash” samarasiga erishishga imkon beradigan korxonalarning sanoat yoki geografik kontsentratsiyasi.
Andersson va boshqalar.	2004	Klaster siyosati oq kitobi	Klasterlash odatda kontsentratsiyalangan geografik hududda firmalar va boshqa ishtirokchilarni birgalikda joylashtirish, ma’lum bir funktsional joy atrofida hamkorlik qilish va ularning jamoaviy raqobatbardoshligini oshirish uchun yaqin aloqalar va ishchi ittifoqlar o‘rnatish jarayoni sifatida ta’riflanadi.

* Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.

** Schmitz, Hubert (1992), On the Clustering of Small Firms", in Rasmussen, J., H. Schmitz and M.P. van Dijk (eds.), Flexible specialization: a new view on small industry, IDS Bulletin (Special Issue), 23(3):64- 69.

Klaster kontseptsiyasining nazariy asoslari XIX-asr boshlarida F.Fon Tunen va uning izdoshlari V.Launxardt va A.Veberlarning aglomeratsiya iqtisodiyotiga oid asarlarida qo‘yilgan bo‘lib, ular korxona va uning geografik o‘rni bilan bog‘liqligini o‘rgangan. xomashyo manbalari va sotish bozorlariga nisbatan iqtisodiy makon, shuningdek, unga ta’sir etuvchi omillar (2-jadval). Biroq, ko‘plab tadqiqotchilar buni A. Marshall o‘zining “Iqtisodiyot nazariyasi tamoyillari” asarida birinchi bo‘lib firmalarning unumdorligi va ularning faoliyati natijalari bevosita ularning joylashuvi va iqtisodiy agentlarning geografik yaqinligiga bog‘liqligini empirik tarzda isbotladi.

2 Бабкин А.В., Шамина Л.К. Анализ применения методологических подходов к управлению экономическими системами // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Серия Экономические науки. – 2008. № 1 (53). – С. 18-22.

3 Бабкин А.В. Интегрированные промышленные структуры как экономический субъект рынка: сущность, принципы, классификатsia // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия Экономика. – 2014. –№ 4. – стр. 7-23.

2-jadval: Klaster nazariyalarining xususiyatlari [10]


Klaster yondashuvi nazariyalari	Mualliflar	Klasterning xarakterli xususiyatlari
Aglomeratsiya nazariyasi	Marshall, Guver, Olin	Firmalarning geografik yaqinligi va tashqi miqyosdagi iqtisodiyot triadasining ta'siri: ishchi kuchi mavjudligi, yordamchi va yordamchi tarmoqlar, ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida turli firmalarning ixtisoslashuvi, transport xarajatlarini hisobga olish.
Yangi iqtisodiy geografiya "Yangi sanoat hududlari"	Krugman, Sakseninan	Firmalarning geografik yaqinligi, tashqi iqtisodiyotlar triadasining ta'siri, axborot va bilimlarning tarqalishining ta'siri, tranzaksiya xarajatlarini hisobga olish.
Sanoat majmuasi	Guver, Ayzard	"Xaridor-sotuvchi", "etkazib beruvchi-iste'molchi" kabi bir xil sohadagi firmalarning o'zaro ta'siri.
Sanoat klasteri	Gordon, MakKan	Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ham, bilimlar oqimida ham bir-biriga bog'liq bo'lgan bir nechta tarmoqlar doirasida firmalarning o'zaro ta'siri.
M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasi	M.Porter	"Olmos raqobatbardoshligi" mintaqasidagi omillar o'rtasidagi munosabatlar klasterining muvaffaqiyatiga ta'siri: strategiya, tuzilma, raqobat; talab shartlari; omil shartlari; tegishli sohalar; davlatning roli.
M. Porterning raqobatbardosh emasligi	M. Enrayt, Solvel, Van Grunsven, Van Ederaat, Klansi	Klasterning hayot aylanishi nazariyasini, globallashuv va jahon bozorlarining ta'sirini, transmilliy kompaniyalarni, xorijiy investorlarning rolini, ixtisoslashgan hamkorlik va raqobat munosabatlarini hisobga olgan holda.
Innovatsion tizim nazariyasi	Friman, Lundvall, Edkvist, Kuk, Morgan	Atrofdagi innovatsion infratuzilmaning ta'siri (bilim ishlab chiqarish, innovatsiyalarni uzatish va tijoratlashtirish markazlari).
Feser tarmoq nazariyasi,	Svimi, Peruchchi, Xarrison	Klaster tashkiliy tuzilmasining moslashuvchanligi, ijtimoiy kapital (ishonch, birdamlik) va firmalar o'rtasidagi barqaror munosabatlarni ta'minlaydigan institutlarning alohida roli, o'zaro va uzluksiz o'rganish jarayonlari.
Innovatsion klasterlar nazariyasi	Feldman Audretsch, Karlson, Jonson	Klaster ishtirokchilari (raqobatchi firmalar), rasmiy va norasmiy hamkorlik jarayonlariga asoslangan tashqi bilim manbalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik orqali innovatsion mahsulotni yaratishga e'tibor qarating.

Bizning davrimizdagi klasterlar to'lqinining ko'tarilishi (1970-yillardan boshlab) asosan vertikal integratsiyalashgan kompaniyalarning parchalanishi jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, buning asosiy sababi mahsulotlarning murakkabligining tubdan o'sishi - birinchi navbatda mashinasozlikda. Yakuniy mahsulotlarni yig'ishda ishlatiladigan oraliq mahsulotlar va butlovchi qismlarning soni va assortimenti ko'p marta oshdi. Bunday sharoitda barcha ishlab chiqarish maydonchalarini bitta Vizual va o'lchash nazorati (VIC) tomi ostida to'plash haqiqiy tanlov bo'lishni to'xtatdi. Muqobil variant - mustaqil ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik, ya'ni klister yuzaga chiqdi.

Klaster yondashuvining asoschisi sifatida M.Porter klaster deganda "ma'lum bir hududda faoliyat yurituvchi, umumiy faoliyat bilan tavsiflangan va bir-birini to'ldiruvchi, ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan geografik jihatdan bir-biriga bog'langan kompaniya va tashkilotlar guruhi", deb ta'riflaydi4. Yuqoridagi ta'rif klasterning iqtisodiy-geografik birlik sifatidagi mohiyatini to'liq aks ettiradi. Shu bilan birga, e'tibor, qoida tariqasida, klaster alohida narsa emas, balki yagona tizimning bir qismi ekanligiga qaratiladi. Bu yerda, o'z navbatida, tizim ichida klasterlar o'rtasida ularning muvaffaqiyatli ishlashini belgilaydigan muayyan munosabatlar va o'zaro bog'liqlik mavjudligini taxmin qilish kerak.

Klaster fanining mualliflaridan biri Orjan Solvell o'zining "Klasterlar" kitobini chiqardi. Evolyutsion va konstruktiv kuchlarni muvozanatlash" (Qizil kitob, 2008), bu aglomeratsiyaning kengroq tushunchasi orqali klasterni aniqlash imkoniyatini taqdim etadi. Aglomeratsiya iqtisodlarining har xil turlarini ajratish uchun Solvell quyidagi tasnif sxemasini qo'llaydi (1-rasm).

4 Портер М. Конкуренция. – М.: Издательский дом "Вильямс", 2005. – 495 с.



1-rasm: Aglomeratsiya turlari

Bir tomondan, samaradorlik bo‘yicha ustunlikka ega bo‘lgan aglomeratsiyalar (asosan miqyosda iqtisod tufayli) va innovatsiyalar bo‘yicha ustunlikka ega bo‘lgan klasterlar o‘rtasida ajratuvchi chiziq chiziladi. Boshqa tomondan, umumiy xarakterdagi aglomeratsiyalar va texnologik jihatdan bog‘liq bo‘lgan ishtirokchilar aglomeratsiyasi o‘rtasida. Ushbu bo‘linish aglomeratsiyalarning to‘rtta asosiy turiga olib keladi.

Aglomeratsiyaning birinchi turi ma›lum bir hududdagi (urbanizatsiya iqtisodiyoti deb ataladigan) barcha firmalar va tarmoqlar tomonidan taqsimlanadigan mintaqaviy va shahar konsentratsiyasining umumiy afzalliklari bilan bog‘liq. Aglomeratsiyaning ikkinchi turi o›xshash yoki turdosh biznes turlari bilan shug‘ullanuvchi firmalar uchun imtiyozlar bilan tavsiflanadi, bu esa sanoat tumanlarining paydo bo›lishiga olib keladi. Bunday hududlar o›zgaruvchan bozorlarda talabni qondira oladigan moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari uchun asos bo›ladi. Solvell to›g‘ri klasterlar, deb ataydigan uchinchi turda barqaror raqobatbardoshlik ma’lum bir sohaga xos bo‘lgan imkoniyatlarga asoslanadi. Aglomeratsiyaning oxirgi turi hech qanday tarmoq chegaralari bo›lmagan mintaqada bilim va ijodkorlikni yaratishni anglatadi.

Klasterlarni turli xil turlari va xususiyatlariga ko‘ra tasniflash mumkin. 3-jadvalda turli mualliflar tomonidan klasterlarning tasnifi keltirilgan.

3-jadval: Turli mualliflar tomonidan klasterlarning tasnifi

Klassifikatsiya mualliflari	Tasniflash xususiyati	Tanlangan klaster turlari	Klasterlarga misollar
Porter M.	Hududiy qamrovi bo‘yicha	- milliy	- Isroildagi axborot texnologiyalari klasteri
		- Mintaqaviy (ma’lum bir mintaqaga bog‘langan)	- Shtiriya avtomobil klasteri (Avstriya)
		- Mahalliy (ma’lum bir shaharda joylashgan)	- Gollivuddagi ko‘ngilochar sanoat klasteri (AQSh)
Karlos A. Karvaja, Chihiro Vatanabe	Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yangilik darajasiga ko‘ra	- sanoat klasteri	- Kaliforniya vino klasteri (AQSh)
		- Innovatsion klaster	- AKT klasteri Bangalor (Hindiston)
Mehta Dh., Shukla P.	Hajmi bo‘yicha, eksport foyda darajasiga qarab	- Kichik	- Gollivuddagi ko‘ngilochar sanoat klasteri
		- O‘rtacha	- Avtomobil klasteri Shtiriyadagi sanoat (Avstriya)
		- Katta	- Daltondagi gilam klasteri (AQSh)

Texnologiya siyosati va innovatsiyalar bo‘yicha to‘rtinchi xalqaro konferentsiya (Braziliya, 2000)	Innovatsiya darajasi bo‘yicha	- qaram yoki kesilgan klaster	- Karraradagi tosh buyumlar klasteri (Italiya)
		- sanoat klasteri	- G‘arbiy Michigandagi ofis mebellari klasteri (AQSh)
		- innovatsion sanoat klasteri	- Rochesterdagi aks ettiruvchi uskunalar klasteri (AQSh)
		- Innovatsion klaster	- Nyu-Jersidagi farmatsevtika klasteri (AQSh)
		- Innovatsiyaga yo‘naltirilgan klaster	- Bostondagi hayot fanlari klasteri (AQSh)
Gromyko Yu.V.	Amaliyotga yo‘naltirilgan fan, dizaynni ishlab chiqish va innovatsion sanoatni birgalikda tashkil etish to‘g‘risida	- Infratuzilmaviy innovatsion	- Rossiya temir yo‘llari klasteri
		- Xavfli innovatsion	- Lazerli dastgohlar ishlab chiqarish klasteri
		- Ultrastruktura meta-sanoat klasteri	- Nanoelektron klaster
		- “Xorijiy texnologiya platformasini qarzga olish” klasteri	- robototexnika va avtomatlashtirish tizimlari klasteri

Klaster geografik jihatdan turli geografik birliklarni qamrab olganligini ham ta’kidlash joiz. Shunday qilib, klaster bir shahar yoki mintaqadan bir mamlakatga yoki bir nechta yaqin mamlakatlarni qamrab olishi mumkin. Geografik birlik bo‘yicha klasterlarning miqdoriy tarkibiga kelsak, bu qiymat ham o‘zgaradi.

Klasterlarni yaratish va rivojlantirishga ko‘maklashish zarurligiga mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ hujjatlarida ham e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari, tegishli qonunchilikni keyinchalik rivojlantirishda izchil tendentsiya kuzatilmoqda. Biroq, klasterlarning mohiyati va xususiyatlarining aniq ilmiy-huquqiy jihatdan ishlab chiqilmaganligi sababli, ularning normativ vositachiligida bir xillik mavjud emas va amaldagi ixtisoslashtirilgan normativ hujjatlarni izchil, tizimli shakllanish sifatida tavsiflash qiyin.

Turli darajadagi byudjetlarda klasterlarni yaratish va rivojlantirish uchun katta mablag‘ ajratilishi bu muammoga alohida ahamiyat beradi. Binobarin, ma’lum bir toifani tushunishda ko‘proq ishonch hosil qilish zarurati nafaqat nazariy manfaatlar, balki soliq to‘lovchilar mablag‘larini samarasiz sarflash ehtimolini bartaraf etish maqsadi bilan ham bog‘liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Klasterlar kichik biznesni rivojlantirish uchun samarali vosita bo‘lib, ular innovatsiyalarni tezroq joriy etish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Kichik korxonalar klasterlar doirasida joylashish orqali o‘z resurslarini samarali boshqarish, bozor imkoniyatlarini kengaytirish va malakali kadrlar bilan ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu sababli, mamlakatimizda klasterlarni rivojlantirish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun alohida e’tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маршалл, А. Принципы экономической науки / А. Маршалл. - М.: Изд. группа “Прогресс”, 1993. – Т.3. – 351 с.
2. Бабкин А.В., Шамина Л.К. Анализ применения методологических подходов к управлению экономическими системами // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Серия Экономические науки. – 2008. № 1 (53). – С. 18-22.
3. Бабкин А.В. Интегрированные промышленные структуры как экономический субъект рынка: сущность, принципы, классификатsiя // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия Экономика. – 2014. – № 4. – стр. 7-23.
4. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
5. Schmitz, Hubert (1992), On the Clustering of Small Firms, in Rasmussen, J., H. Schmitz and M.P. van Dijk (eds.), Flexible specialization: a new view on small industry, IDS Bulletin (Special Issue), 23(3): 64–69.



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN YOSHLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASHNING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI

Asrorov Azizbek Isomiddin o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanishi, uning aholi bandligini ta’minlashdagi roli va ahamiyatiga bag‘ishlangan ilmiy manbalar o‘rganilgan, yoshlar tadbirkorligini o‘rta va uzoq muddatli rivojlantirishning dolzarb muammolari aniqlangan, shuningdek, mehnat bozoridagi uzoq muddatli tendensiyalarni aniqlash borasida nufuzli xalqaro tashkilotlar va analitik markazlar tomonidan tayyorlangan hisobotlar va prognozlarni o‘rganish orqali yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimining alohida elementlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar tadbirkorligi, kreditlash, imtiyoz, stratap, biznes tashabbus, ko‘nikma, moliyaviy savodxonlik, mehnat bozori, yoshlar bandligi.

Abstract: This article examines scientific sources on the economic development of small business and entrepreneurship, its role and importance in ensuring employment, identifies current problems of medium- and long-term development of youth entrepreneurship, and is prepared by reputable international organizations. and analytical centers for determining long-term trends in the labor market by studying reports and forecasts, suggestions and recommendations have been made to improve certain elements of the system for the formation of entrepreneurial skills among young people.

Key words: youth public policy, youth entrepreneurship, lending, benefits, stratap, business initiative, skills, financial literacy, labor market, youth employment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научные источники по вопросам экономического развития малого бизнеса и предпринимательства, его роли и значения в обеспечении занятости населения, выявляются актуальные проблемы средне- и долгосрочного развития молодежного предпринимательства, а также готовятся авторитетными международными организациями. и аналитическими центрами по определению долгосрочных тенденций на рынке труда путем изучения отчетов и прогнозов, внесены предложения и рекомендации по совершенствованию отдельных элементов системы формирования предпринимательских навыков у молодежи.

Ключевые слова: молодежная государственная политика, молодежное предпринимательство, кредитование, льготы, стратап, бизнес-инициатива, навыки, финансовая грамотность, рынок труда, занятость молодежи.

KIRISH

Mamlakatimiz aholisining farovon turmush darajasini ta’minlash, uning xalqaro maydondagi raqobatbardoshlilik darajasini oshirish hamda jahonning innovatsion jihatdan taraqqiy etgan ilg‘or davlatlar qatoriga kirish kabi uzoq muddatga mo‘jallangan strategik vazifalar ko‘lamining kengligi, ayni paytda iqtisodiy, ijtimoiy va ta’lim sohasidagi tizimli muammolarning saqlanib qolayotganligi yoshlarga doir davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirilishini mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning muhim shartlaridan biriga aylanishiga olib keldi.

Yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, band bo‘lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko‘nikmalariga o‘qitish, shuningdek, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi yoshlarga oir davlat siyosatining uzviy yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, yosh avlodning hayot sifati holatining yaxshilanishi va mamlakatni rivojlantirish darajasi o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqni ta’minlashga qaratilgan mexanizmlar tizimini yaratish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda tadbirkorlikni boshlash niyatida bo‘lgan yoshlar uchun Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida imtiyozli kredit mablag‘laridan foydalanish imkoniyati yanada kengaytirilib, Markaziy bankning asosiy stavkasi doirasida 3 yilgacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga imtiyozli kreditlar olishlari mumkin.

Mazkur tizimni yanada rivojlantirish maqsadida, fikrimizcha, birinchi navbatda yoshlar tadbirkorligini kompleks rivojlantirish va ularning tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-uslubiy jihatlarini tadqiq etishni orqali ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar majmusini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy manbalarda iqtisodiy rivojlanishda yirik hamda kichik biznesning roli va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan ilmiy manbalarda fundamental masalalar bo‘yicha (xususan, firmalarning hajmi va innovatsiyalarga moyilligi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning mavjudligi) yagona yondashuv ishlab chiqilmagan.

Kichik va tadbirkorlik faoliyatini tadqiq etish sohasining yetakchi olimlarida Y.Lernerning ta’kidlashicha, “firmaning hajmi va uning innovatsionligi o‘rtasida bir xildagi chastota bilan ham ijobiy va ham salbiy aloqadorlik holatlari mavjud. Firma hajmi va uning innovatsionligi o‘rtasida ijobiy aloqadorligi aniqlangan paytida olingan natijalarning iqtisodiy samaradorligi ahamiyatli hisoblanmaydi”[1].

V.Koen, R.Levin, D.Moveri tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar firma hajmi ilmiy tadqiqotlar intensivligiga ta’sir juda kichik, statistik jihatdan ahamiyatsiz ta’sir o‘tkazishini; biznes birliklar va firmalar hajmi va ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar intensivligi variatsiyasining bir foizidan kamrog‘ini izohlab berishi mumkinligi; ushbu ko‘rsatkichdagi variativ o‘zgarishlarning yarmidan ko‘prog‘ini tarmoq samarasi ta’minlash berishidan dalolat beradi[2].

Taniqli amerikalik olim D.Byorchning “Ish o‘rinlarini yaratish jarayoni” deb nomlanuvi ilmiy ishida AQSHda yangi ish o‘rinlarining asosiy qismi kichik biznes sohasida yaratilganligini qayd etgan. Olim tomonidan Dun and Bradstreet kredit reytinglari ma’lumotlari bazasi asosida quyidagi asosiy xulosalar olingan:

1. AQSHda ish o‘rinlarining deyarli 60 foizi 20 va undan kam xodimlarga ega bo‘lgan firmalar tomonidan yaratilganligi, yirik kompaniyalar (xodimlar soni 500 dan ortiq) ning ulushi 15 foizdan oshmagan;
2. Kompaniyaning tashkil etilishi va bozordagi faoliyatining davomiyligi 4 yildan oshgandan so‘ng, uning ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari keskin kamayib ketgan.

Amerikalik olimlar Armington va Odl tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar kichik biznesning AQSH iqtisodiyotida ish o‘rinlarini yaratishdagi salmog‘i unchalik katta emasligi – barcha ish o‘rinlarining deyarli 38 foizi 100 va undan kam xodimlarga ega bo‘lgan kompaniyalar tomonidan yaratilishini aniqlashgan. D.Byorch, Armington va Odl tomonidan bir turdagi ma’lumotlar bazasidan foydalanishiga qaramasdan ikki xildagi natijaning olinishi, ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlilni amalga oshirishdagi qo‘llanilgan uslubiyotlar o‘rtasidagi farqlanish bilan izohlanadi.

D.Byorch va qaysidir jihatdan Armington va Odl tomonidan olingan natijalar amerikalik olimlar J.Medof, Ch.Braun, J.Gamilton, britaniyalik olim D.Stori[3], Xelsinki Texnologik universiteti xodimlari Ye.Autio, P.Arrenius va X.Vallenius, shvetsiyalik olimlar D.Xenrekson va M.Yoxanson[4] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda o‘z isbotini topmagan.

D.Storining fikricha: ish o‘rinlarini yaratishda kichik biznesning roli vaqt va makon kesimida kuchli farqlanish xususiyatiga ega; ish o‘rinlarini yaratishda asosiy o‘rinni tezkor rivojlanib borayotgan kichik biznes subyektlari (ularning jami kichik kompaniyalar sonidagi salmog‘i

1 foizdan ortmaydi) egallaydi; kichik biznes subyektlarida bankrotlik holatlarining ko‘plab kuzatilishi ish o‘rinlarini yaratishdagi haqiqiy holatni aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Rus olimasi Ye.A.Polishuk o‘zining “Yoshlar mehnati bozorini tartibga solish: nazariya, uslubiyat, amaliyot”

1 Современные классики теории предпринимательства. Лауреаты Международной премии за вклад в исследования предпринимательства и малого бизнеса (1996–2010) / пер. с англ. под науч. ред. А.Ю. Чепуренко; предисл. и послесл. А.Ю. Чепуренко; Нац. исслед. ун-т “Высшая школа экономики”, Науч.-учеб. лаб. исследований предпринимательства. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2013. – 464 с.

2 Cohen W., Levin R., Mowery D. Firm Size and R&D Intensity: A Re-Examination. The National Bureau of Economic Research. http://www.nber.org/papers/w2205.pdf.

3 Современные классики теории предпринимательства. Лауреаты Международной премии за вклад в исследования предпринимательства и малого бизнеса (1996–2010) / пер. с англ. под науч. ред. А.Ю. Чепуренко; предисл. и послесл. А.Ю. Чепуренко; Нац. исслед. ун-т “Высшая школа экономики”, Науч.-учеб. лаб. исследований предпринимательства. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2013. – 22, 79, 84 с.

4 Henrekson M., Johansson D. Gazelles as Job Creators - A Survey and Interpretation of the Evidence // Research Institute of industrial economics http://www.ifn.se/Wfiles/wp/wp733.pdf; Henrekson M., Johansson D. Institutional Effects on the Evolution of the Size Distribution of Firms // Social Science Research Network. http://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=998290

nomli ilmiy tadqiqot ishida xususan o‘rta maxsus va oliy ta’lim jarayonida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish borasida mavjud bo‘lgan muammolarni quyidagicha guruhlab o‘tgan[5]:

birinchidan, tayyorlangan mutaxassislarning tadbirkorlikning alohida olingan sohalarida faoliyat olib borish ko‘nikmalarining mavjud emasligi;

ikkinchidan, o‘rta maxsus va oliy ta’lim fan dasturlari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning mavjud emasligining o‘rta maxsus yoki oliy (bakalavr yoki magistr darajasidagi) ma’lumotga ega yoshlarda tadbirkorlikning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga salbiy ta’sir o‘tkazishi;

uchinchidan, mehnat bozorining joriy va uzoq muddatli talablarining e’tiborga olinmasligi mehnat bozorida muayyan disproporsiyalarni shakllantirishi bilan bir qatorda qo‘shimcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirishi.

ASOSIY QISM

YUNISEFning 2018-yil iyulb oyida e’lon qilingan “Avlodlar–2030 O‘zbekiston: demografik dividendlar olish uchun bolalar va yoshlarning rivojlanishini investitsiyalash davri”[6] nomli tadqiqotida O‘zbekistonning kelajagi ko‘p jihatdan quyidagi vazifalarning muvaffaqitli amalga oshirilishi bilan bog‘likligi e’tirof etilgan:

1. Inson kapitalini rivojlantirish: sifatli ta’lim, professional ko‘nikmalar, sog‘liqni saqlash va ovqatlanish;
2. Iqtisodiy va texnologik rivojlanish: kelguvi avlod uchun ish o‘rinlarini yaratish;
3. Ayollar va yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash.

PricewaterhouseCoopers International Limited (PwCIL) kompaniyasi tomonidan Xitoy, Germaniya, Hindiston, Buyuk Britaniya va AQSHning 10 029 (ulardan 8 459 kishi pensiya yoshiga yetmagan) nafar fuqarolari o‘rtasida o‘tkazilgan surovnoma asosida ishlab chiqilgan “Mehnat bozorining kelajagi: 2030-yilda mehnat muhitini shakllantiruvchi tendensiyalar qarama-qarshiligi”[7] nomli tadqiqotida keltirilishicha, bugungi kunda jamiyat va mehnat muhitini tubdan o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lgan beshta global trend shakllanib bormoqda:

1-tendensiya. Texnologik innovatsiyalarning keskin rivojlanishi. Avtomatlashtirish, robotlashtirish va sun’iy ong ish o‘rinlari sifati va miqdorini ahamiyatli tarzda o‘zgartirib yuboradi. Texnologiyalar, mehnat unumdorligi, hayotning davomiyligi va farovonligini oshirish, shaxsiy imkoniyatlarni ruyobga chiqarishga yordam beradi. Ayni paytda ijtimoiy barqarorlikga tahdid solishi, siyosiy va iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirishi, iqtisodiy ne’matlarning bir me’yorda taqsimlanmasligi xavfini kuchaytirishi mumkin.

2-tendensiya. Jahon aholisining joylashuvi, jinsiy tarkibi va sonining jiddiy o‘zgarishi. Bir qator mintaqalar e’tiborga olinmasa, jahon aholisining sezilarli qismi qarib bormoqda va bu biznes, ijtimoiy institular va iqtisodiyotga jiddiy bosim o‘tkazmoqda. Hayotning davomiyligi muddatining oshib borishi biznes modellar, xodimlarning kelajagi va pensiya ta’minotiga ta’sir o‘tkazadi.

3-tendensiya. Urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi shaharlarda yashovchilar sonining oshib borishi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining prognoziga ko‘ra 2030-yilga kelib shaharlarda 4,9 mlrd. kishi, 2050-yilda esa jahon aholisining 72 foizi shaharlarda istiqomat qiladi[8]. Bugungi kundayoq aksariyat qism yirik shaharlarda yaratilayotgan YAIM miqdori o‘rtacha hajmdagi mamlakatlarning YAIMga nisbatan ko‘proq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zgarib borayotgan dunyoda ish joylarini shakllantirishda shaharlar hal qiluvchi omilga aylanadi.

4-tendensiya. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakat o‘rtasida kuchlar joylashuvidagi o‘zgarishlar hisobiga global iqtisodiy transformatsiyalarning kuchayishi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, investitsiyalar samaradorligini ta’minlash, ta’lim tizimini takomillashtirish va mehnatga yaroqli aholi sonini oshirib borish imkoniyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar tezkor rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

5 Полищук Е.А. Регулирование рынка труда молодёжи: теория, методология, практика. Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора экономических наук. Орел-2018 г. 3-17стр.
6 www.unicef.org/publications - маълумотлари асосида тайёрланди.
7 www.pwc.ru/workforce2030 - маълумотлари асосида тайёрланди.
8 BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha departamenti ma’lumotlari asosida http://www.un.org/en/development/desa/population/publications/pdf/urbanization/WUP2011_Report.pdf

5-tendensiya. Resurslarning yetishmasligi va klimatik o‘zgarishlar. Dastlabki prognozlarga ko‘ra 2030-yilga kelib energiyaga bo‘lgan talab 50 foizga, suvga bo‘lgan talab 40 foizga oshadi. Ushbu talablarni qanoatlantirish uchun muqobil energiyani ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash, ikkilamchi resurslardan foydalanish kabi sohalarda yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining “Yoshlar bandligi sohasidagi inqiroz: harakatlar davri” deb nomlanuvchi dokladida[9] keltirilgan muammolar ko‘p jihatdan yuqorida keltirilgan vazifalar va tendensiyalarni o‘ziga aks ettiradi. Dokladning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida yoshlarning bandlik darajasi oshirishda ish o‘rinlarining sifati, yaratilayotgan imkoniyatlar, barqaror ijtimoiy himoyalash sharoitlarining yaratilishi, ish haqi to‘lovlarining normal turmush darajasini olib borishga mosligi muammolarining olib chiqilishini keltirish mumkin. XMT ma’lumotlariga ko‘ra, 52 mamlakatda olib borilgan o‘rganishlar ish bilan ta’minlangan qambag‘allar (kunlik daromadi 1,25 AQSH dollaridan kam bo‘lgan) umumiy sonining 23.5 foizini yoshlar tashkil etgan.

Resurslarga yo‘naltirilgan yondashuv doirasida tadbirkorlik daromadga erishish maqsadida amalga oshiriladigan inson faoliyati sohasi bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatini xo‘jalik jarayoniga aylantiruvchi transformatsion va transaksion jarayonlarning uzviyligini ta’minlash orqali cheklangan resurslarning optimal kombinatsiyasini izlab topish va amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi.

Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi davlatning tartibga solish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanish borasidagi tadbirlarga bevosita bog‘liq. Bunda davlat tomonidan tartibga olish tadbirlari tadbirkorning tashkiliy, informatsion va institutsional resurslariga (tadbirkorlik faoliyati subyektining ekzogen (tashqi) muhiti) ta’sir o‘tkazsa, davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash tadbirlari moddiy, inson va texnik resurslarga (tadbirkorlik faoliyati subyektining endogen (ichki) muhiti) bo‘lgan talabni qanoatlantirishga xizmat qiladi. Klassifikatsiyalashning mazkur turi davlatning tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash borasidagi tadbirlarini transformatsion va transaksion resurslarni boshqarish nuqtai-nazaridan tarkiblash, shuningdek, mazkur resurslarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi hamda ustuvorligini aniqlash imkoniyatini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlil asosida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish va ularda tegishli ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy xulosalarni qayd etish mumkin:

birinchidan, iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy sharoiti va uni rivojlantirish strategiyasi doirasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish, uni innovatsion sohalarga yo‘naltirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqilishi lozim. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar yoshlar tadbirkorligi yo‘nalishlarining o‘rta va uzoq muddatdagi prognoz holatini aniqlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari mamlakat va uning alohida mintaqalari iqtisodiyotida yoshlar tadbirkorligining tutgan o‘rnini oshirish bo‘yicha dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi;

ikkinchidan, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalalarini tahlil etish va mazkur yo‘nalishda qabul qilingan qarorlar tizimli xususiyatga ega bo‘lishi zarur. Tizimlilik xususiyatlarining e’tiborga olinmasligi nazariy, uslubiy va amaliy jihatdan ko‘plab muammolarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun tizimlar nazariyasi, tizimli tahlil uslubiyoti kabi fan yo‘nalishlari yosh tadbirkorlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga tegishli ta’lim tizimlarining o‘quv dasturlari tarkibiga kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi;

uchinchidan, yoshlar tadbirkorligi subyektlarining endogen va ekzogen muhiti elementlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashga tegishli masalalar faqat ilmiy tadqiqotlar obyekti bo‘lib qolmasdan, amaliy faoliyatni tashkil etish va olib borishda e’tibor qaratilishi birinchi darajadagi ahamiyat kasb etishi lozim. Bu yo‘l bilan tadbirkorlik subyektining ichki va tashqi muhitidaga ko‘plab muammolarni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi;

to‘rtinchidan, xalqaro xamkorlikni rivojlantirish, biznes loyihalarni amalga oshirishda rivojlangan mamlakatlarda tashkil etilgan biznes inkubatorlarning texnologik imkoniyatidan imkon qadar keng ko‘lamli foydalanish orqali innovatsion rivojlanish Strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirilishini ta’minlash kerak. Bunda yoshlar tadbirkorligi rivojlantirishda xalqaro xamkorlikning tutgan o‘rni va ahamiyatini baholash yo‘nalishidagi nazariy va uslubiy ishlanmalar sof amaliy muammolarni hal etishga xizmat qilishi zaruligini alohida qayd etish mumkin.

9 www.ilo.org/publns - ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Современные классики теории предпринимательства. Лауреаты Международной премии за вклад в исследования предпринимательства и малого бизнеса (1996–2010) / пер. с англ. под науч. ред. А.Ю. Чепуренко; предисл. и послесл. А.Ю. Чепуренко; Нац. исслед. ун-т “Высшая школа экономики”, Науч.-учеб. лаб. исследований предпринимательства. – М.: Изд.дом Высшей школы экономики, 2013. – 464 с.
2. Cohen W., Levin R., Mowery D. Firm Size and R&D Intensity: A Re-Examination. The National Bureau of Economic Research. http://www.nber.org/papers/w2205.pdf.
3. Современные классики теории предпринимательства. Лауреаты Международной премии за вклад в исследования предпринимательства и малого бизнеса (1996–2010) / пер. с англ. под науч. ред. А.Ю. Чепуренко; предисл. и послесл. А.Ю. Чепуренко; Нац. исслед. ун-т “Высшая школа экономики”, Науч.-учеб. лаб. исследований предпринимательства. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2013. – 22, 79, 84 с.
4. Henrekson M., Johansson D. Gazelles as Job Creators - A Survey and Interpretation of the Evidence // Research Institute of industrial economics http://www.ifn.se/Wfiles/wp/wp733.pdf; Henrekson M., Johansson D. Institutional Effects on the Evolution of the Size Distribution of Firms // Social Science Research Network. http://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=998290
5. Полищук Е.А. Регулирование рынка труда молодёжи: теория, методология, практика. Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора экономических наук. Орел-2018 г. 3-17стр.
6. www.unicef.org/publications - маълумотлари асосида тайёрланди.
7. www.pwc.ru/workforce2030 - маълумотлари асосида тайёрланди.
8. BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha departamenti ma’lumotlari asosida http://www.un.org/en/development/desa/population/publications/pdf/urbanization/WUP2011_Report.pdf
9. www.ilo.org/publns - маълумотлари асосида тайёрланган.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI XALQARO TASNIFI: NAZARIYA VA TENDENSIYA

Yuldashev Iskandar Bahromovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifining o'ziga xos xususiyati va nazariy asoslari tadqiq etilgan. Xalqaro tasnifning shakllanishiga xizmat qiluvchi omillarning vujudga kelishi va ularni baholash yuzasidan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy asarlari tizimlashtirilgan va ularga nisbatan mustaqil yondashuvlar ishlab chiqilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida oliy ta'lim muassasalarini xalaro tasnif bo'yicha rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, universitet, xalqaro reyting, ta'lim sifati, innovatsion ta'lim menejmenti.

Abstract: The article examines the specific features and theoretical foundations of the international classification of higher education institutions. The scientific works of local and foreign scientists have been systematized and independent approaches have been developed in relation to the emergence of factors that serve the formation of the international classification and their assessment. Based on the conducted research, scientific proposals and recommendations aimed at the development of higher education institutions according to international classification have been developed.

Key words: higher education institution, university, international rating, quality of education, innovative education management.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности и теоретические основы международной классификации высших учебных заведений. Систематизированы научные труды отечественных и зарубежных учёных и разработаны самостоятельные подходы в отношении возникновения факторов, служащих формированию международной классификации и их оценке. На основе проведенных исследований разработаны научные предложения и рекомендации, направленные на развитие высших учебных заведений по международной классификации.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, университет, международный рейтинг, качество образования, инновационный менеджмент образования.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotning sifat jihatidan rivojlanishida oliy ta'lim tizimining roli muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish va xizmatlarning tarkibida ilmiy sig'imkorlikning yuqori bo'lishi ko'p jihatdan oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyati va ularning raqobatbardoshlik darajasi bilan baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasasining xalqaro standart mezonlari asosida tashkil etish va uni yanada rivojlantirish bizning asrimizning dolzarb masalalaridan biri bo'lmoqda.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalari tashkil etilgan bo'lib, ular milliy iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlab berishda asosiy institut vazifasini o'taydi. Umuman olganda, iqtisodiyotda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularni iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini mustahkamlashda oliy ta'lim muassasalari nafaqat milliy darajada, balki xalqaro darajada ham raqobatga kirishishiga zaruratning shakllanganligini kuzatish mumkin. Xalqaro va milliy mehnat bozoridagi raqobatning keskin rivojlanayotganligi nafaqat inson va inson o'rtasidagi kurashish bilan ifodalanadi, balki inson va yuqori texnologiyalar o'rtasidagi kurashning vujudga kelganligi bilan ham o'z aksini topadi. Bu esa, insonlardan sifatli ta'limni olishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishiga olib kelmoqda.

Ma'lumki, bizning asrimiz axborot texnologiyalari davri bo'lishi bilan ham yangi rivojlanish bosqichini boshlab bermoqda. Bunda axborot-roboto texnologiyalarning mehnat bozoriga kirib kelishi alohida ahamiyatga bo'lmoqda. Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalari to'xtovsiz takomillashayotgan xalqaro standart mezonlariga moslashishi va uning doirasida yuqori reputatsiyaga ega bo'lishi oliy ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy omillardan biri hisoblanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bizningcha, oliy ta'lim muassasasining xalqaro tasnifi uning xalqaro mezonlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishishi natijasida jahon oliy ta'lim muassasalarining tan olingan reytinglarida qayd etilish bilan ifodalanadi, deb o'ylaymiz. Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro mezonlar asosida jahon tasnifidagi universitet sifatida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifi yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, o'zbek tilida aynan tasnif nuqtayi nazaridan tadqiqotlarni kamroq amalga oshirilganligini ta'kidlash lozim. 2024-yilning 10-iyun holatida Google Academy qidiruv sayti orqali "oliy ta'lim muassasasi xalqaro tasnifi", "universitet xalqaro tasnifi" va "oliy ta'lim xalqaro tasnifi" deb qidiruvlar berganimizda o'zbek tilida to'g'ridan to'g'ri ushbu mazmundagi mos ilmiy asarlarni uchratish qiyin bo'ldi. Bu esa, xalqaro tasnif kategoriyasiga nisbatan o'zbek tilida tadqiqotlarni ko'proq amalga oshirishga bo'lgan zaruratni o'zida ifodalab beradi.

O'zbek tilida amalga oshirilgan tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasasi xalqaro tasnifini to'g'ridan to'g'ri ifodalab beradigan ilmiy izlanishlar olib borilmagan bo'lsada, oliy ta'lim muassasasining reytingi, uni rivojlantirish strategiyasi va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan bir qator ilmiy asarlar e'lon qilinganligini kuzatish mumkin. Shu boisdan, universitetlarning xalqaro tasnifiga nisbatan yondashuvini o'zbek tilidagi turdosh mazmundagi ilmiy xulosalarni asoslagan tadqiqotlarni o'rganishga e'tibor qaratamiz.

Prof. T.Teshabayev o'zining doktorlik dissertatsiyasida oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni boshqarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilgan [1]. Uning fikricha, "oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimini tatbiq qilish ta'lim xizmatlari bozorida bir qator afzalliklarga ega. Sertifikatlangan OTMlar o'z imidj va ta'lim sifatini boshqarish darajasini xalqaro standart ISO 9000 bo'yicha oshiradilar, shuningdek, dunyo universitetlari reytingida (Times Higher Education) qatnashish imkoniyati paydo bo'ladi", deb ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimini Klaster yondashuvi asosida boshqarish universitetlarning jahon oliy ta'lim universitetlari (Times Higher Education World university rankings) reytingida ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan raqobatbardoshlik oshishini asoslab beradi.

Prof. N. Raxmonov tomonidan o'zining doktorlik dissertatsiyasida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash masalasiga e'tibor qaratadi. N.Raxmonov o'zining ilmiy xulosasida oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish va mehnat bozori o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlashni asoslab beradi. Shuningdek, ta'lim sifatini baholashda inobatga olinishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarni tizimlashtirishga harakat qiladi. Jumladan, talaba va o'qituvchi shaxsining rivojlanish darajasi, boshqarish va ta'lim jarayoni qatnashchilarining motivatsiya darajasi, bilimlar, malaka va ko'nikmalar darajasini tavsiflab beruvchi omillarni keltirib o'tadi [2].

G.Sa'dullayeva oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi xulosalarni shakllantirishga harakat qilgan [3]. Ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobat kurashining vujudga kelishida universitetlarning marketing strategiyasini ishlab chiqishga tabaqalashgan yondashuvni taklif etadi.

N.Zufarova oliy ta'limda brend kapitalini yaratishga qaratilgan ilmiy ishni bajargan. Uning tadqiqotlarida oiy ta'lim tizimida universitetlarning brendlarini yaratish va uning milliy, xalqaro bozorlardagi darajalarini mustahkamlashga doir o'zining ilmiy takliflarini asoslashga harakat qiladi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida brend kapitalini rivojlantirishda "brend nufuzi" omili asosida SEM modelini tavsiya etgan [4].

Bizningcha, o'zbek tilida amalga oshirilgan tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifini rivojlantirishda ta'lim sifati alohida ahamiyatga ega ekanligi qayd etilmoqda. Jumladan, xalqaro sifat sertfikatiga ega bo'lish orqali universitetlarning global reytinglarda o'rin olishiga erishish mumkinligi, ish beruvchilar bilan hamkorlik kabi elementlar jahon tasnifini shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlab o'tilmoqda.

Oliy ta'lim tizimida xalqaro tasnifning shakllanishi raqobatardoshlikning vujudga kelishi bilan ifodalanishi ham ayrim tadqiqotlarda o'zining aksini topgan. Jumladan, D.Nishonov tomonidan oliy ta'limda raqobatbardoshlikni ta'minlashning marketing strategiyalari to'g'risida ilmiy xulosalarni asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, oliy ta'lim muassasalariga xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb etishda ularga to'lanadigan moliyaviy rag'batlantirishni to'lash uchun samaradorlik mezonlarini ishlab chiqishdagi mustaqillik o'ziga xosligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, universitetlarning raqobatbardoshligini oshirishda davlatning fiskal qo'llab-quvvatlashiga bo'lgan zaruratni asoslashga e'tibor beradi [5].

B.Adizov ham o'zining doktorlik dissertatsiyasida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligiga nisbatan yondashuvlarni shakllantirib beradi. Jumladan, raqobatbardoshlikni ta'minlashda universitet bitiruvchilarining raqobatbardshligi ichki va tashqi omillarga tayangan holda bo'lishi asoslab beriladi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshligini integral koeffitsiyenti asosida baholashni taklif etadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini psixofiziologik, kasbiy-malaka omillari asosida boshqaruv samaradorligini oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslab beradi [6].

A.Hamidova o‘zining doktorlik dissertatsiyasida ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tahlil etigna qaratilgan izlanishlarni amalga oshiradi. Mazkur ilmiy asarda oliy ta’lim tizimining rivojlanishi, oliy ta’lim xizmatlari uchun to‘lovlarning hajmini aniqlash kabi jihatlarga e’tibor qaratadi. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarining xalqaro mehnat bozoriga qo‘shilishi oliy ta’lim bozorining rivojlanishiga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tadi [7].

J.Abdullayev o‘zining ilmiy tadqiqotida oliy ta’lim muassasalarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda universitetlarning iqtiqbolli yo‘nalishlar triadasi (stipendiya va grant loyihalari, moddiy-texnik baza, biznes-o‘yin va trening)ni shakllantirish asosida strategiyani ishlab chiqishni taklif etadi. Davlat-xususiy sheriklik asosida biznes subyektlarining ishtiroki reytingni oshirishga olib kelishini ta’kidlab o‘tadi [8].

Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnifini shakllantirishda turli omillar nuqtayi nazaridan ilmiy xulosalarni ko‘rish mumkin. Bizningcha, universitetlarning jahon standartlari asosida global reputatsiyaga ega bo‘lishi ko‘p jihatdan strategik rejalashtirish, raqobatbardoshlik va moliyaviy menejment omillariga bog‘liq bo‘lmoqda. Umuman olganda, o‘zbek tilidagi tadqiqotlar yuzasidan izlanishlarimiz natijasida quyidagi dastlabki xulosalarimizni shakllantirishga harakat qildik:

- Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda xalqaro reyting agentliklarining mezonlariga e’tibor qaratish;
- Xalqaro reyting agentliklari tomonidan tavsiya etilgan indikatorlarni universitet faoliyatida rivojlantirishda xalqaro sifat sertifikatlari bo‘lishini ham inobatga olish. Bunda ISO 9000 sinfiga kiradigan standartlarni nazarda tutish.
- Universitetlarning ishlab chiqarish tarmog‘i va ish beruvchilar bilan bevosita hamkorligini rivojlantirish natijasida raqobatbardoshlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratish.
- Universitetlarning xalqaro tasnifini shakllantirishda oliy ta’lim muassasasining kapitali brendini shakllantirishga tarixiy nuqtayi nazardan e’tibor berish. Oliy ta’lim muassasasining brendini yaratish orqali nufuz kapitalini vujudga kelishiga erishi va bunda ham o‘quv, ham ilmiy tadqiqot omillariga ratsional yondashuv zarur hisoblanadi.
- Universitetlarning raqobat ustunligini shakllantirishda o‘quv jarayoni, ish beruvchi va ilmiy tadqiqotlar nuqtayi nazaridan uchlik spiralini o‘zaro uyg‘unlikda shakllantirish muhim hisoblanadi. Bunda ish beruvchilarning talabi asosida o‘quv rejalarni ishlab chiqish va unda belgilangan fanlar doirasida ilmiy tadqiqotlarni tizimli amalga oshirishni nazarda tutish.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasalarini xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda o‘zbek tilida olib borilgan dissertatsion tadqiqotlarda strategik rejalashtirish, raqobatbardoshlikni ta’minlash va xalqaro sifat standartlarini joriy etish kabi holatlar bilan izohlanmoqda. Shu boisdan, xalqaro tasnifni shakllantirishda raqobat ustunligi va unga erishishga nisbatan strategik yondashuvlarning mavjud ekanligi o‘ziga xos xususiyat kasb etmoqda, deb hisoblaymiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnifi reyting agentliklari tomonidan ma’lum mezonlar asosida ularni turli maqomdagi reytinglarda qayd etishi bilan aniq miqdoriy o‘lchovga ega bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. Bunda universitetlarning raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq mexanizmining barcha jarayonlarini sifat standartlariga ega bo‘lishi bilan ifodalash mumkin. O‘z navbatida, o‘quv jarayonida o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli tashkil etish, professor-o‘qituvchilar tomonidan jamiyat uchun foydali bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishi, ish beruvchilar bilan faol hamkorlikning yo‘lga qo‘yilganligi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi, deb o‘ylaymiz.

Bizningcha, o‘quv mashg‘ulotlarining sifatli olib borilishi oliy ta’lim muassasasining infratuzilmasi bilan professor-o‘qituvchilarning yuqori pedagogik mahoratiga ham bog‘liq hisoblanadi. Umuman olganda, o‘quv mashg‘ulotlarining sifatli tarzda tashkil etilishi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga bo‘lgan imkoniyatlarni doimiy monitoring qilishga imkon tug‘iladi. Shu boisdan, sifatli o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etilish quyidagi institutsional elementlar bilan o‘z ifodasini topadi, deb o‘ylaymiz:

- Universitet auditoriyalarining ta’lim yo‘nalishi talablariga mos kelishi. Bunda auditoriyalarning sig‘imi, darsni tashkil etish yordam texnik jihozlarning mavjud bo‘lishi, aqlli ekranlarning internet tarmog‘iga ulanganligi kabilar izohlash mumkin.
- Professor-o‘qituvchilarning o‘z fani doirasida yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, pedagogik mahorat yuzasidan malaka oshirish kurslaridan o‘tganligi.
- Professor-o‘qituvchilarning bir yillik o‘quv yuklamalarining “ortiqcha akademik yuklama” kategoriyasining shakllashiga olib kelmasligi.
- Professor-o‘qituvchilarning akademik va ilmiy yuklamalarining bir kunlik hajmi ularning salohiyatiga uyg‘un tarzda ishlab chiqilganligi, shuningdek “aralash” yuklamaning vujudga kelmasligi uchun akademik va ilmiy faoliyat o‘rtasidagi aniq chegaralarning belgilanganligi.

- Professor-o‘qituvchilarning ish faoliyatini tashkil etishlari uchun universitet rahbariyatining ratsional yondashuvi va ularning mehatiga munosaib haq to‘lash mexanizmining ishlab chiqilganligi.
- Oliy ta’lim muassasasida ilmiy tadqiqotlarni olib borilishi uchun xalqaro ilmiy bazalardan foydalanish imkoniyatining ta’minlanganligi. Ilmiy tadqiqot natijalarining xaqaro darajada e’lon qilinishining ham iqtisodiy, ham ijtimoiy nuqtayi nazardan e’tirof etilishi belgilanganligi.

Bizningcha, oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnifini atroflicha tadqiq etish va uni baholashda bir nechta rakursdan yondashish orqali amalga oshirish mumkin, deb o‘ylaymiz.

Birinchidan, universitetning rahbariyati nuqtayi nazaridan oliy ta’lim muassasasi natijalarining baholanishi.


Ikkinchidan, professor-o‘qituvchilar tomonidan universitetning akademik, ilmiy va boshqa faoliyat mexanizmlarini ichki va tashqi olmillar asosida baholanishi.

Uchinchidan, talabalar tomonidan xalqaro tasnif doirasidagi elementlarning baholanishi va ushbu elementlarga nisbatan yondashuvning qanday omillarga bog‘liqligini aniqlash.

To‘rtinchidan, ish beruvchilar tomonidan universitetning bitiruvchilariga nisbatan ommalashgan yondashuvning mavjudligi yoki individual holda baholash asosida xalqaro tasniflanishdagi murakkabliklarni aniqlash kabilarni keltirish mumkin.

Shu boisdan, ingliz va rus tilida nashr etilgan ilmiy asarlarni tizimlashtirgan holda ilmiy xulosalarini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnifi bo‘yicha ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilib chiqish maqsadida Google Academy ilmiy asarlar qidiruv portaliga dastlab “building world class universities” degan mazmunda qidiruv berdik. Natijada, ushbu mazmunni aks ettiradigan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarni qayd etilganligini kuzatdik. Ushbu qidiruv natijasida jahon mamlakatlar nuqtayi nazaridan ham olib borilgan tadqiqotlarni ko‘rishimiz mumkin. Biz ilmiy xulosalarni umum nazariy jihatdan amalga oshirganimiz uchun mamlakatlar kesimida tahlil qilishni tadqiqotimizning boshqa qismida amalga oshirishni reja qilganmiz.



1-rasm: Universitetni xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirish ekotizimi

J.Li tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda ham xalqaro tasnifdagi oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirishga nisbatan o‘zining ayrim ilmiy xulosalarini asoslab beradi [9]. U rivojlanayotgan mamlakatlar kesimida ushbu masala oliy ta’lim tizimi uchun fundamental ahamiyatga ega ekanligini qayd etib o‘tadi. U tadqiqotini amalga oshirish davomida rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashgan universitetlar jahon tasnifidagi universitet sifatida e’tirof etila oladimi, degan savolga javob topishga harakat qiladi. Shu boisdan, uchta bosqichda savol-

larni shakllantirib oladi. Birinchidan, xalqaro tasnifdagi universitetni xarakterlovchi ko‘rsatkichlarni shakllantirish, ikkinchidan, mamlakatdagi universitet xalqaro tasnifni shakllantirish uchun salohiyati yetarli ekanligini baholash va uchinchidan, ikkinchi bosqichda aniqlangan fikrlar asosida qilinishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni tizimlashtirish. Ushbu tadqiqotlar natijasida, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko‘plab universitetlar kuchli raqobat muhiti hukmron bo‘lgan xalqaro oliy ta’lim bozoriga kirishi murakkablik kasb etadi degan xulosaga keladi. J.Li tomonidan, universitetni xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan ekotizimni taklif etadi (1-rasmga qarang).

De los Rios-Karmenado va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarini xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda innovatsion ta’lim menejmenti elementiga e’tibor qaratishadi [10]. Ularning fikricha, xalqaro tasnifdagi universitet boshqaruvining asosiy strategik omili – bu ta’limdagi innovatsiyalar ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, innovatsion ta’lim bo‘yicha xalqaro loyihalar universitet rolini mustahkamlashi, xalqaro reyting Webometric bo‘yicha ko‘rsatkichlari yuqorilashi ta’kidlab o‘tiladi. Ular innovatsion ta’lim sifatni oshirishdagi asosiy element sifatida universitetlarning global darajada strategik rivjlanishlarini ta’minlashini ta’kidlab o‘tishadi. Ularning xulosasiga ko‘ra, universitetlarda innovatsion ta’lim elementlarining kuchayishi uning xalqaro reytingda yuqori o‘ringa chiqishiga xizmat qilishi asoslab beriladi.

XULOSA

Bizningcha, ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarda oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda turli yondashuvlarni kuzatsakda, ularning yakdil xulosalarga kelishganligini kuzatish mumkin. Jumladan, universitetlarning ilmiy tadqiqotlardagi yetakchiligi, akademik faoliyatning innovatsion ahamiyatga ega ekanligi va institutsional jihatdan ratsional ekanligini qayd etish lozim. Umuman olganda, ilmiy xulosalarni o‘rganishlarimiz natijasida, quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldik:

Birinchidan, universitetlarni xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda infratuzilmaviy omillarni tizimlashtirish. Bunda asosiy va to‘ldiruvchi ahamiyatga ega bo‘lgan institutsional vektorlarni aniqlashtirish. Bunda universitetning o‘quv jarayonini tashkil etish va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga imkon yaratadigan sig‘imiga mos strategiyaning ishlab chiqilishiga e’tibor qaratish.

Ikkinchidan, ta’lim jarayoni, ayniqsa o‘quv mashg‘ulotlari doirasida innovatsion yondashuvning rivojlanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, yangi bilimlarni yaratishga va ularni ommalashtirish orqali hayot sifatini oshirishga xizmat qila olish imkoniyatini ta’minlash.

To‘rtinchidan, xalqaro tasnif bo‘yicha universitetni rivojlantirishda kamchiliklarni doimiy monitoring qilib borish va raqobat muhitida ko‘rsatkichlarni saqlab qolishga e’iborni qaratish kabilarni keltirish mumkin.

Umuman olganda, xalqaro tasnif bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli rkurslardan yondashuvlarni kuzatamiz. Shunday bo‘lsada, oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnif kategoriyasiga nisbatan umumiylikni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, innovatsion ta’lim, yangi bilimlar yaratish va zamonaviy infratuzilma kabilar shular jumlasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Teshabayev T.Z. Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2019. – 83 b.
2. Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: O‘zMU, 2019. – 84 b.
3. Sa’dullayeva G.S. Oliy ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2020. – 68 b.
4. Zufarova N.G. Oliy ta’limda brend kapitali boshqaruvini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 58 b.
5. Nishonov D.Sh. Oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyalari: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 60 b.
6. Adizov B.I. Innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish (Buxoro viloyati misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 60 b.
7. Xamidova A.A. Ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (oliy ta’lim muassasalari misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – S.: SamDU, 2022. – 61 b.
8. Abdullayev J.A. Oliy ta’lim tizimida davlat-xususiy sherikligi mexanizmi rivojlanishini boshqarish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDTU, 2023. – 77 b.
9. Lee, J. (2013). Creating world-class universities: Implications for developing countries. Prospects, 43, 233-249.
10. De los Rios-Carmenado, I., Sastre-Merino, S., Lantada, A. D., Garcia-Martin, J., Nole, P., & Perez-Martinez, J. E. (2021). Building world class universities through innovative teaching governance. Studies in Educational Evaluation, 70, 101031.

IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHDA METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA ILMIY QARASHLAR



Jiyanova Nargiza Esanboyevna
Iqtisod fanlari nomzodi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya” kafedrasi professori

Annotatsiya: Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan. Moliyaviy resurslarni boshqarish tushunchasining nazariy yondashuvlar tadqiq qilingan, shu bilan birgalikda moliyaviy resurslarni boshqarishning asaosiy instrumentlarining uslubiy jihatlari shakllantirilgan. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda moliyaviy dastaklar qo‘llanilishi izohlangan.

Kalit so‘zlar: xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliviy faoliyati, moliyaviy resurslar, moliyaviy boshqaruv tizimi, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, moliviy dastaklar.

Abstract: The article describes the theoretical and methodological foundations for managing the financial resources of business entities.Theoretical approaches to the concept of financial resource management, as well as methodological aspects of the main tools for managing financial resources, have been studied. The financial levers that are used in the effective management of financial resources of business entities have been studied.

Key words: financial activities of business entities, financial resources, financial management system, effective management of financial resources, financial leverage.

Аннотация: В статье описаны теоретическо-методолгические основы управления финансовыми ресурсами хозяйствующих субъектов. Изучены теоретические подходы к понятию управления финансовыми ресурсами, а также методологические аспекты основных инструментов управления финансовыми ресурсами. Исследованы финансовые рычаги, которые используются в эффективном управлении финансовыми ресурсами хозяйствующих субъектов.

Ключевые слова: финансовая деятельность хозяйствующих субъектов, финансовые ресурсы, система финансового управления, эффективное управление финансовыми ресурсами, финансовый рычаг.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda bozor munosabatlari rivojlanangan sari resurslarni samarali boshqaruv muammosi paydo bo‘ladi, shu jumladan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslari uchun tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Mavjud moliyaviy resurslar haqida tizimli va to‘liq ishonchli ma’lumotga ega bo‘lmasa, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z aktivlarining 20% gacha yo‘qotishi mumkin. Turli tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy resurslardan foydalanish muammolari mavjud, shu jumladan, ularni boshqarish, ya’ni, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanishning past darajadaligi, to‘lov qobiliyati va ishbilarmonlik faolliginining yetarli darajada emasligi va hokazo. Ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun tashqi manbalardan uzoq muddatli kreditlar olish jarayonlarining murakkablashuvi sharoitida ichki salohiyatni oshirish muammosi yanada keskinlashib borayapdi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston–2030” strategiyasida “...Sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish. sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta

yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish., yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish kabi vazifasi belgilangan [2].

Bu esa, ishlab chiqaruvchi korxonalar oldida moliyaviy resurslarni boshqarishning nazariy-uslubiy jihatlarini kompleks tadqiq qilish kabi yangi vazifalarni yuklaydi.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy boshqaruv sohasidagi bir qator tadqiqotchilar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini boshqarish tizim sifatidagi nuqtayi nazarga amal qiladilar, mualliflarning boshqa qismi esa bu tushunchani korxona kapitali miqdoriga ta’sir qilish jarayoni deb hisoblaydilar.

Umuman olganda, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini boshqarishning nazariy asoslari 100 yildan ko‘proq vaqt oldin shakllana boshlagan va ular doimiy ravishda takomillashtirilayotganiga qaramay, bugungi kunda ham ularni boshqarish instrumentlarini rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda. Ushbu instrumentlardan biri moliyaviy tahlilning uslubiy jihatlarini ta’minlash bo‘lib, u amalga oshirilayotgan moliyaviy resurslarni boshqarish siyosatini retrospektiv va joriy baholashda ham, moliyaviy boshqaruv qarorlarini asoslashda ham qo‘llaniladi. Bizning fikrimizcha, moliyaviy boshqaruv tizimida korxonani barqaror rivojlanishi uchun zarur moliyaviy resurslar bilan ta’minlaydigan “xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini boshqarish” nomli quyi tizimini ajratib ko‘rsatish kerak. I.A. Blankning so‘zlariga ko‘ra, “moliyaviy resurslarni boshqarish tizim sifatida ularni samarali shakllantirish, taqsimlash va iqtisodiy faoliyat jarayonida foydalanishni ta’minlash bilan bog‘liq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish tamoyillari va usullarini o‘z ichiga oladi” [10].

V.G. Belolipetskiyning fikriga ko‘ra, korxonaning moliyaviy resurslarini boshqarish - bu ma’lum bir natijaga erishish uchun turli xil moliyaviy faoliyat turlariga ta’sir qilishning turli usullari, operatsiyalari, vositalari va usullarini birlashtirgan tizim [11]. V.V.Kovalyovning nuqtayi nazariga ko‘ra esa, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini boshqarish tizimi qisqa va uzoq muddatli istiqboldagi moliyaviy siyosatga kiritilgan moliyaviy xizmat faoliyatining ma’lum bir yo‘nalishiga asoslangan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish omillarini tahlil qilinishi kabi jarayonlarni qamrab olishi kerak [12]. Mualliflar, shuningdek, boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish moliyaviy menejerlarning o‘z vazifalarini qay darajada amalga oshirishiga, shu jumladan korxonani moliyaviy resurslar bilan ta’minlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga bog‘liqligini ta’kidlaydilar.

Shunday qilib, korxonada moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga erishish uchun moliyaviy boshqaruv tizimining har bir elementining har bir darajadagi javobgarlik chegarasiga qat’iy muvofiq ravishda o‘z vazifalarini bajarishi juda muhimdir. Bundan tashqari, boshqaruv tizimining turli darajalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va o‘zaro bog‘liqlik ham muhimdir. Moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish bo‘yicha qarorlar ushbu jarayonning asosiy jihatlari hisoblanadi.

Moliya nazariyasida moliyaviy resurslarni boshqarishni uzluksiz jarayon sifatida qaraydigan muqobil nuqtayi nazarlar mavjud. Ushbu yondashuvni to‘liq tushunish uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini boshqarishning metodologik jihatlarini, shu jumladan funksional va jarayon-funksional sohalarni hisobga olish kerak.

Moliya nazariyasida moliyaviy resurslarni boshqarishni uzluksiz jarayon sifatida qaraydigan muqobil nuqtayi nazarlar mavjud. Ushbu yondashuvni to‘liq tushunish uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini boshqarishning metodologik jihatlarini, shu jumladan funksional va jarayon-funksional sohalarni hisobga olish kerak.

Moliyaviy resurslar ikki tomonlama ko‘rib chiqilishi kerak:

- bir tomondan, korxona tomonidan shakllangan moliyaviy resurslar va foydalaniladigan ma’lum mablag‘lar majmuasini ifodalaydi; bu talqinda moliyaviy resurslar pul oqimi sifatida qaraladi (bu fikr Yu. A. Gadjiyev va uning hammualliflari ishlarida asoslab berilgan);
- boshqa tomondan, moliyaviy resurslar subyekt ishonishi mumkin bo‘lgan va u tomonidan ma’lum bir davrda moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida foydalanishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir mablag‘ zaxirasini ifodalaydi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarini ularni pul oqimi sifatida tushunishni hisobga olgan holda, ular dinamik xususiyatga ega ekanligini yodda tutish kerak, chunki ular aylanishda ishtirok etib, doimiy ravishda namoyon bo‘lish shaklini o‘zgartiradilar (tovar – pul – tovar va boshqalar). “Moliyaviy resurslar” tushunchasining bu kontekstida ko‘rib chiqilayotgan atama va kapital atamasi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud, ammo ko‘p qirrali tushunchaga ega.

Masalan, A.N.Gavrilova va hammualliflar ta’kidlashicha, “kapital (o‘z mablag‘lari, sof aktivlar) korxonaning majburiyatlardan xoli mulki, uning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratuvchi strategik zaxiradir...” [13].

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va ayrim elementlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari T.S.Malikov, O.O.Olimjonov, R.X.Karlibayeva, B.E.Toshmurodova, M.B.Xamidulin, S.E.Elmirzayev, O.N.Xamdamov, X.X.Xudoyqulov, Sh.Tursunxodjayeva, A.A.Shomirov, N.R.Tursunova, M.P.Eshovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

T.S.Malikov, O.O.Olimjonovlarning ilmiy asarlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasining mohiyati, asosiy tushunchalari va unda ko‘riladigan masalalarning ayrim jihatlari yoritilgan [21]. M.B.Xamidulin o‘zining ilmiy tadqiqotlarida korporativ boshqaruv va uning moliyaviy mexanizmlarini tadqiq qilgan. B.E.Toshmurodova, S.E.Elmirzayev, R.X.Karlibayevalarning ilmiy ishlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlari moliyaqiy resurslarini boshqarishning tlmiy metodologik asoslari, tashkiliy tamoyillari, aksioner jamiyatlarda kapitalni shakllantirish, moliyaviy barqarorligini boshqarish samaradorligi va korxonalarda soliq menejmentini tashkil etish kabi masalalar yoritilgan [14,15,19]. O.N.Xamdamov o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlarida moliyaviy menejment tizimining konseptual asoslari, aksionerlik jamiyatlarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv mexanizmini uslubiy asoslarini takomillashtiri yo‘llari tadqiq etilgan [16]. N.R.Tursunova tomonidan korporativ tuzilmalarda moliyaviy ta’minotni tashkil etishning ilg‘or xorij tajribalari, korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta’minotni samarali tashkil etish yo‘nalishlari xususida fikr yuritilgan. A.A.Shomirov tomonidan aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslarini boshqarishga ta’sir etuvchi omillar va aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy natijalar shakllantirilgan [17]. X.X.Xudoyqulov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliviy resurslarni boshqarishda asosiy masalalaridan biri bo‘lgan kapital tarkibini baholash va uning uslubiy asoslari tadqiq qilingan [20]. Biroq xo‘jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini boshqarishning xorijiy tajribalarni e’tiborga olgan holda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida kompleks tadqiq etilmagan. Bu holat ham tanlangan mavzuning dolzarbligini anglatadi.

TADQIQOT METODOLGOIYASI, NATIJA VA MUHOKAMA

Moliyaviy resurslarni boshqarishni tashkil etishda boshqaruvning muayyan tamoyillari va usullaridan foydalaniladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurlarni boshqarish tamoyillariga an’anaviy ravishda quyidagilar kiradi: integratsiya, maqsadlilik, o‘zgaruvchanlik (alternativlik), o‘z vaqtidalik, murakkablik, ishonchlilik, optimallik va samaradorlik, usullariga esa moliyaviy hisob usullari, moliyaviy tahlil, moliyaviy rejalashtirish, shu jumladan, budjetlashtirish va moliyaviy prognozlash, moliyaviy nazorat, soliqqa tortish kiradi.

Moliyaviy resurslarni boshqarishning sanab o‘tilgan tamoyillaridan birini qo‘llashni ko‘rib chiqishda – moliyaviy tahlilda, avvalo, “moliyaviy resurslarni boshqarish” atamasining o‘zi va uning samaradorligi mezonlarini aniq belgilash kerak.

Moliyaviy resurslarni boshqarish “xo‘jalik faoliyati jarayonida ularni samarali shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishni ta’minlash bilan bog‘liq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish tamoyillari va usullari tizimi”.

Moliyaviy resurslarni boshqarish – bu o‘z funksiyalarini amalga oshirish samaradorligi va natijadorligini oshirishni ta’minlash uchun moliyaviy resurslar harakati bo‘yicha amalga oshiriladigan korxona boshqaruvi harakatlarining majmui.


Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish – bu korxonaning moliyaviy resurslariga samarali va oqilona ta’sir ko‘rsatadigan boshqaruv harakatlarining ketma-ketligini tashkil etish.

Shunday qilib, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish korxona minimal moliyaviy xarajatlar va moliyaviy risk darajasi (moliyaviy mustaqillik va to‘lov qobiliyatini yo‘qotish xavfi)da moliyaviy resurslarni boshqarish maqsadiga erishishning eng maqbul usuli va uslubi hisoblanadi, ya’ni moliyaviy resurslarni boshqarish maqsadi minimal xarajatlar va moliyaviy risklar darajasida amalga oshirilsa, boshqaruv samarali bo‘ladi, aks holda, boshqaruv samarasizdir. Moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishda samarali moliyaviy siyosat muhim o‘rin tutadi. Ko‘pgina tadqiqotlar xulosalariga ko‘ra, aynan u moliyaviy resurslarni jalb qilish va taqsimlashning oqilona tuzilmasini shakllantirishni, ulardan foydalanish samaradorligini oshirishni va eng muhimi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati barqarorligini ta’minlaydigan vositadir.

Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish uchun ko‘rsatilgan mezonlarning bajarilishi va / yoki erishish darajasini miqdoriy va / yoki sifat jihatidan aniqlash uchun ma’lum hisoblagichlar tizimi – moliyaviy (analitik) dastaklar qo‘llaniladi. Ular ma’lum moliyaviy ko‘rsatkichlarni ifodalaydi, ularning yordamida korxonaning moliyaviy resurslari harakati bilan bog‘liq joriy yoki kutilayotgan vaziyatni baholash amalga oshiriladi.

Tadqiqot vazifalarini amalga oshirish maqsadida moliyaviy boshqaruvning mavjud ilmiy yondashuvlar to‘plamiga asoslangan olda tijorat tashkilotlar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarish muammolarining uslubiy jihatlarini tadqiq qilish zarurati bilan bog‘liq xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy boshqaruvi samaradorligini baholash va amalga oshirish uchun tashkiliy qo‘llab quvvatlovchi jarayonlarni o‘z ichiga olgan holda yangi ta’rif shakllantirildi.


Demak xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarish XYUS hayot sikli bosqichi ehtiyojlariga muvofiq moliyaviy resurslarning optimal miqdorini aniqlash, shakllantirish va oqilona foydalanishni rejalashtirish, taxlil qilish, nazorat qilish va moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga aytiladi.



1-rasm: Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarni samarali boshqarish asosiy masalalari

Xo‘jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda quyidagi moliyaviy siyosatning yo‘nalishlarini hisobga olish va muvofiqlashtirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi:

- ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirishga investitsiyalash;
- daromadli moliyaviy instrumentlarga mablag‘larni yo‘naltirish va yig‘ish;
- oqilona dividend siyosati;
- ma’lum bir rivojlanish darajasiga erishgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatiga muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma’muriy-siyosiy omillarni ta’sirini to‘g‘ri optimal hisobga olish boshqalar.



2-rasm: Xo‘jalik yurituvchi subyektlariining moliyaviy resurslarini boshqarish tizimining tarkibiy mazmuni[1]

1 Rasm o‘rganilgan ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga umumiy muammolarni hal qilish orqali erishiladi, ularning ro‘yxati ancha aniq va moliyaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyotida yaxshi ma’lum.

Moliyaviy resurslarni boshqarishni qo‘llab-quvvatlash tizimlarining butun majmuasi orasida, kelajakda analitik ta’minlash tizimiga qaratiladi. Shu munosabat bilan biz quyidagi muhim xususiyatlarni ajratib ko‘rsatamiz:

- moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmining tarkibiy va mantiqiy modeli sifatida analitik ta’minlash tizimi faoliyatining obyekti – uni boshqarish samaradorligini baholash bosqichi;
- moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini baholashning qo‘llaniladigan mezonlari tizimi va ularni aniqlash ko‘rsatkichlari analitik ta’minlash tizimidagi asosiy nuqta hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmining yuqoridagi modelini asoslash doirasida moliyaviy resurslarni boshqarishni baholashda qo‘llaniladigan har bir mezonning mazmunini belgilashga alohida e’tibor qaratish lozim.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarni boshqarish tizimining tarkibiy mazmunini asoslash doirasida 1-jadvalda o‘rganilgan analitik muammolarini hal qilishda har xil vositalaridan foydalanishga xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishning asosiy konsepsiyalari bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi zamonaviy sharoitida ham asos bo‘lmoqda.

1-jadval: Moliyaviy resurslarni boshqarishning asosiy konsepsiyalari[2]

Nomi	Mualliflar	Mazmuni
Moliyaviy resurslarni shakllantirishni boshqarish konsepsiyalari		
Kapital qiymati konsepsiyasi	J.Uilyams, F. Madilyani, M. Miller	U yoki bu moliyalashtirish manbalarini jalb qilish korxonaga har xil xarajatlarni keltirib chiqaradi (korxona kapitaldan foydalanishga majbur bo‘lgan nisbiy xarajatlar mezoniga ko‘ra). Bepul moliyalashtirish manbalari deyarli yo‘q.
Kapital tuzilmasi konsepsiyasi	F. Madilyani, M. Miller	Korxona tomonidan tanlangan xususiy va qarz kapitalining nisbati uning bozor qiymatiga ta’sir qiladi
Korxonaning barqaror o‘sishini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash modeli	D. Van Xorn, R. Xiggins	Korxona tomonidan mavjud mablag‘lardan (aktivlardan) foydalanish kreditorlik qarzlari va kapital manbalari sifatida o‘z mablag‘larining belgilangan nisbatiga to‘g‘ri kelishi kerak. Optimallik sharoitida korxona tashqi moliyalashtirishni ko‘paytirish yo‘lidan bormaydi, balki asosiy e’tiborni foydadan foydalanishga qaratadi, bu qarz va o‘z mablag‘lari nisbatini belgilovchi koeffitsiyentning cheklanishi bilan tavsiflanadi. XM / QM nisbati bo‘yicha cheklovlar qiymatini aniqlash, moliyaviy dastak ta’sirining ijobiy qiymatiga asoslangan korxona mablag‘lari manbalarining oqilona tuzilishini shakllantirish vazifasidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, ushbu oqilona tuzilmani aniqlash vazifasi oqilona dividend siyosati bilan birlashtiriladi.
Moliyaviy resurslardan foydalanishni boshqarish konsepsiyalari		
Muqobil xarajatlar konsepsiyasi (boy berilgan imkoniyatlar konsepsiyasi)	D. Rikkardo, Fridrix fon Vizer, G. Xaberler	Har qanday moliyaviy qarorni qabul qilish ko‘p hollarda har qanday iqtisodiy yoki boshqa foyda keltirishi mumkin bo‘lgan muqobil variantni rad etish bilan bog‘liq.
Zamonaviy portfel nazariyasi	G. Markoves, J. Tobin, U. Sharp	Korxona egalarining boyligini maksimal darajada oshirish mezoniga ko‘ra portfelni shakllantirishda xavfli moliyaviy investitsiya vositalarining risk darajasi va rentabellik nisbatlarini statistik tahlil qilish va optimallashtirishning uslubiy tamoyillarini belgilaydi.
Dividend siyosati konsepsiyasi	J. Linter, F. Madilyani, M. Miller	Dividend siyosatining kompaniyaning bozor qiymatiga, uning aksiyalari narxiga ta’siri mexanizmini shakllantiradi, bu sizga turli omillar ta’sirini hisobga olgan holda joriy dividendlar miqdorini optimallashtirish imkonini beradi.
Agentlik munosabatlari konsepsiyasi	M. Jensen, U. Mekling	Har qanday korxonaga nisbatan har doim uning faoliyatidan manfaatdor bo‘lgan, ammo manfaatlari, qoida tariqasida, bir-biriga mos kelmaydigan odamlar guruhlarini ajratib ko‘rsatish mumkin, bu esa nizoga olib keladi.
Pulning vaqt qiymati konsepsiyasi	I. Fisher, J. Xirshleyfer	Vaqt o‘tishi bilan pulning qiymati o‘zgaradi, ya’ni bugungi so‘m bir yil ichida so‘mga o‘xshamaydi (sabablari: inflyatsiya, xavf, kelajakdagi daromadni qo‘shimcha daromad bilan qayta investitsiya qilish).

2 Jadval o‘rganilgan ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Risk va daromad o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik konsepsiyasi	F. Nayt	Har qanday daromad olish har doim salbiy hodisalar (risk) ehtimoli bilan bog‘liq. Ular o‘rtasidagi munosabatlar, qoida tariqasida, to‘g‘ridan to‘g‘ri proporsionaldir: kutilgan foyda qanchalik yuqori bo‘lsa, risk darajasi ham shuncha yuqori.
Mulkdorlarning iqtisodiy manfaatlari ustuvorligi konsepsiyasi	G. Saymon	Bu mulkdorlarning manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish zaruratidan iborat. Amaliy ma’noda u “korxonaning bozor qiymatini maksimal darajada oshirish” sifatida ifodalanadi.
Qo‘shilgan iqtisodiy qiymat konsepsiyasi	A. Marshall, B. Styuart	Konsepsiyaga ko‘ra, kompaniyaning qiymati uning balans qiymati va kelajakdagi iqtisodiy qo‘shilgan qiymatning joriy qiymatiga bog‘liq (YEVA).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar ning moliyaviy resurslarini boshqarish muammosining ishlanganlik darajasi moliyaviy resurslarning mohiyatini, ularni boshqarish konsepsiyasini ochib beradigan nazariy tadqiqotlar asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarish tizimi hayot sikli(kelib chiqishi, o‘sish, yetuklik va qarish)ning moliyaviy xususiyatlari va moliyaviy siyosatni shakllantirishning moliyaviy xususiyalariga asoslangan holda yaratilishi taklif etiladi.

Umuman olganda, xo‘jalik yurituvi subyektlari moliyaviy resurslarini boshqarishning nazariy-amaliy jihatlari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda moliyaviy resurslarni tahlil qilish, analitik dastaklarni qo‘llash hamda ularni jalb qilish va moliyaviy resurslardan foydalanishning optimal tuzilmasini tanlash xo‘jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini samarali boshqarishni kasb etadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarish muammolarini hal qilish samaradorligi ko‘p jihatdan ularni shakllantirish va foydalanish bilan bog‘liq mavjud jarayonlarni to‘g‘ri baholashga, shuningdek, moliyaviy boshqaruv qarorlarini amalga oshirishdan kutilayotgan moliyaviy samarani baholash natijalarining to‘g‘riligiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. https://lex.uz/docs/6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. lex.uz›docs/6600413
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/6102462
4. Н.Э. Жиянова, А.И.Умарова Финансы бизнеса: Учебное пособие– Т.: “LESSON PRESS”, 2021. – 325 с. 20;
5. Н.Э. Жиянова, Д.Б. Таджибекова Финансы: Модуль 3. Финансы хозяйствующих субъектов: Учебник– Т.: “LESSON PRESS”, 2021. – 335 с.
6. Н.Э.Жиянова Финансовые ресурсы предприятий: пути повышения эффективности их формирования и использования. –Монография. – Т.:ТФИ,2021. –153с.
7. Н.Э.Жиянова Features of capital management in improving commercial activity of enterprises //Россия Экономика и предпринимательство, №1, 2018 г. “Газеты.Журналы”. –Б.136-139.;
8. Н.Э. Жиянова, С.С. Саиднабиев Capital structure optimizations after mergers and acquistions// “Экономика, бизнес, инновации” Пенза МНЦК 2019г. ”Наука и просвещение”. –Б. 72-74.
9. Н.Э. Жиянов Финансовые ресурсы предприятий: повышения эффективности их формирования и использования в современных условиях// Science and Education, 2(8) 2021, 656-668. https://www.openscience.uz/index. php/sciedu /article/view/ 1794.
10. Бланк, И. А. Управление финансовыми ресурсами / И. А. Бланк. – М. : Омега-Л, 2011. – 768 с.
11. Белолипецкий, В. Г.Финансы фирмы : учеб. пособие / В. Г. Бело- липецкий. – М. : ИНФРА-М, 2009.– 244 с.
12. Ковалёв В.В.. Финансовый менеджмент:теория и практика / В.В.Ковалёв. – М. : ТК Велби, Изд-во Проспект, 2019. – 1805 с.
13. Гаврилова, А. Н. Финансовый менеджмент : учеб. пособие / А. Н. Гаврилова, Е. Ф. Сысоева, А. И. Барабанов. – М. : КноРус, 2013. – 432 с.
14. Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo‘llari: diss. avtoreferati. i.f.d. – Toshkent, 2018. – 34 b.
15. Elmirzayev S.E. Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini takomillashtirish. I.f.d (DSs) dissertatsiya avtoreferati. –T.: BMA, 2017. 64 b.
16. Hamdamov O. N. Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2018. – 54 b.
17. Tursunova N.R.Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta’minotni samarali tashkil etish yo‘llari: (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2019. – 55 b.
18. Shomirov A. A. Aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari: PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2019. – 63 b.

19. Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. Автореф. дис. на соискание уч. степ. д.э.н. –Т.: БМА, 2008
20. Xudoykulov X,X. Aksiyadorlik jamiyatlarida kapital qiymatini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish: I.f.d (DSs) dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent 2021. 65 b.
21. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. –T.”Moliya- iqtisod”. –2021-462б.
22. Модильяни Ф, Миллер М. Сколько стоит фирма? Пер. с англ. –М.: Дело. 2001.
23. Ван Хорн, Джеймс К., Вахович (мл.), Джон М. Основы финансового менеджмента. – 12-е изд.: Пер. с англ. – М.: Издательский дом “Вильямс”, 2020. – 1485 с.
24. Гаврилова, А. Н. Финансовый менеджмент : учеб. пособие / А. Н. Гаврилова, Е. Ф. Сысоева, А. И. Барабанов. – М.: КноРус, 2013. – 432 с.
25. Белолипецкий, В. Г.Финансы фирмы: учеб. пособие / В. Г. Бело- липецкий. – М. : ИНФРА-М, 2009.– 244 с.
26. Ковалёв В.В.. Финансовый менеджмент: теория и практика / В.В.Ковалёв. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2019. – 1805 с.
27. https://stat.uz
28. https://lex.uz
29. https://cer.uz

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH MEZONLARI VA OMILLARI

Z. Abdikarimova
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

S. Madaminov
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Butun dunyoda infratuzilma bilan bog‘liq masalalar, jumladan, yangi infratuzilmani barpo etish, mavjud infratuzilma obyektlarida boshqaruv samaradorligini oshirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari tobora rivojlanib bormoqda. Bunda, eng muhim bosqich sheriklik munosabatlarini tashkillashtirish bosqichi hisoblanadi. Ushbu maqolada sheriklik munosabatlarining muvafaqqiyatli tashkillashtirishda davlat-xususiy sherikligining o‘ziga xos jihatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: infratuzilma, loyiha, investitsiya, moliyalashtirish, xususiy sektor, ish o‘rinlari.

Abstract: All over the world, public-private partnerships are increasingly developing in infrastructure-related issues, including the construction of new infrastructure and the improvement of management efficiency in existing infrastructure facilities. In this case, the most important stage is the stage of organizing partnership relations. This article examines the specific aspects of public-private partnership in the successful organization of partnership relations.

Key words: infrastructure, project, investment, financing, private sector, jobs.

Аннотация: Во всем мире государственно-частное партнерство все активнее развивается в вопросах, связанных с инфраструктурой, включая строительство новой инфраструктуры и повышение эффективности управления существующими инфраструктурными объектами. В данном случае важнейшим этапом является этап организации партнерских отношений. В данной статье рассматриваются специфические аспекты государственно-частного партнерства в успешной организации партнерских отношений.

Ключевые слова: инфраструктура, проект, инвестиции, финансирование, частный сектор, рабочие места.

KIRISH

Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda infratuzilma tizimini isloh qilish, shuningdek, yangi obyektlarni barpo etish va moliyalashtirishning yangi manbalarini izlab topishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari tobora rivojlanib, yangi mazmun kashf etmoqda [1]. O‘z navbatida, bu munosabatlar dunyo miqyosida keng ko‘lamdagi o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarning taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatib bermoqda. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari xususiy sektor tomonidan infratuzilmani qurish, loyihalash, boshqarish borasidagi uzoq muddatli kelishuv va ushbu kelishuvdan maqsad obyektning to‘liq yoki muhim qismini moliyalashtirish uchun xususiy sektor kapitalidan foydalanishni nazarda tutadi [2]. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari o‘zining ahamiyatini ko‘rsatishi uchun ushbu munosabatlarni oqilona amalga oshirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Muvafaqqiyatli DXSH loyihalari oxir-oqibatda puxta o‘ylangan tashkiliy mexanizm va istiqbolli siyosatning mahsuli deyish mumkin [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda va xorijda davlat-xususiy sheriklikning umumiy qabul qilingan ta’rifi mavjud emas. Bu umumiy maqsadlarga erishish borasida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning keng ko‘lamli ekanligi bilan izohlanadi. O‘zbekistonda birinchi DXSHmodellari 2017-yildan keyin amalda qo‘llanila boshlandi. Shu sababli ham DXSHmasalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni nisbatan ozchilikni tashkil qiladi. Mahalliy mutaxassislardan G. Ismoilova davlat-xususiy sheriklikni innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi sifatida e’tirof etadi, uning fikricha, davlat-xususiy sheriklik innovatsion ekotizim tashkil etuvchisi hisoblanadi (Ismoilova, 2022).Belorussiyalik mutaxassis S.A. Kasperovich davlat-xususiy sheriklikni ta’lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishning muhim vositasi va moliyalashtirish manbai sifa-

tida e'tirof qiladi, u ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni ta'lim klasterlari,texnoparklar tashkil qilish orqali yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratadi (Kasperovich, 2020).

Shuningdek, Kamilova (2020) davlat-xususiy sheriklikni innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning rag'batlantiruvchisi ekanligini ta'kidlaydi, uning fikricha, davlat-xususiy sheriklik xususiy investitsiyalar oqimining kengayishiga, davlat zimmasiga yuklatilgan vazifalarning xususiy sektorga o'tkazilishi orqali budjet xarajatlarini maqbullashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish O'zbekistonda endi rivojlanayotganligini va bu borada ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rganish jarayonida mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari o'ta murakkab jarayon hisoblanib, bunda sheriklarning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan intilishlarini birlashtirishga to'g'ri kelishi sababli boshqaruv jarayoni va munosabatlarning tashkiliy shaklini yaratishda ichki nomutanosibliklar va ziddiyatlarning vujudga kelishiga guvoh bo'lish mumkin.

Davlat va xususiy sherik tomonidan ushbu munosabatlarga dastlabki va keng qamrovli tayyorgarlik ko'rish davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini samarali tashkil qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayni ushbu bosqichda muvafaqqiyatli hamkorlikni ta'minlash maqsadidagi barcha vazifalar va majburiyatlar kelishib olinadi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari yillar mobaynida mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar natijasida tashkiliy mexanizmini o'zgartirib boradi [4]. Tayyorgarlik ko'rish o'z ichiga xususiy investitsiya imkoniyatlaridan kelib chiqqan holatda loyihani rivojlantirish rejasini yaratish va muntazam ravishda yangilab turushni qamrab oladi. Bunga qo'shimcha ravishda, davlat sherik sifatida qo'llab-quvvatlash borasidagi kafolat va rejadagi xususiylashtirilgan loyihalarga qiziqishni uyg'otish yuzasidan rivojlanish maqsadlari va resurslar imkoniyatini aniqlanishi kerak bo'ladi. Buning muhimligini shunda ko'rishimiz mumkinki, bu sheriklarga jamiyatda loyihani rivojlantirish imkoniyatlarining haqiqiy qamrovi qanday darajada ekanligini tushunib olishini yengillashtiradi [5]. Dastlabki bosqichda davlat o'zining institutsional imkoniyatlariga aniq baho berishi lozim bo'ladi. Bunda, sherikchilik munosabatlarini qo'llab-quvvatlovchi davlat tashkilotlarning mavjud bo'lishiga e'tibor qaratish kerak. Davlat sherik sifatida turli murakkabliklarga ega bo'lgan xususiy sherik bilan muzokaralar olib borish maqsadida yetarli tajribaga ega bo'lishi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam berish maqsadida bir yoki bir nechta konsultantlarni (maslahatchilarni) saqlab turishi lozim.

Oldindan ko'zlangan maqsadlar dasturi davlat uchun imkoniyatlar, niyatlar va jamiyat uchun o'ta muhim bo'lgan maqsadlarni o'zida namoyon eta olishi kerak. Davlat (mahalliy hukumat) o'zining uzoq muddatli maqsadlarini, shuningdek, mabodo loyiha bo'yicha biror bir savollar vujudga kelib qoladigan holatda, ularni bartaraf qilishning yo'llarini ishlab chiqishi kerak. Og'zaki yoki yozma shaklda tasvirlangan butun rivojlanish strategiyasi davlat uchun ham xususiy sektor uchun ham loyiha dasturini tushunishni kafolatlashi kerak[6]. Keyingi bosqichda oldinga qo'yilgan maqsad qanday amalga oshirilishi va unda davlat sherigining maqsad qilib olingan loyihani tashkil etish va amalga oshirishga tayyorgarlik darajasi aniqlanadi.

Davlat sherik sifatida loyihani amalga oshirishni boshlashdan oldin quyidagilar bo'yicha masalarni hal qilib olishi kerak:

- yer bilan bog'liq masalalar;
- joyning atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan tahlili;
- bozor talabi va moliyaviy imkoniyatlar darajasi;
- investitsiya, rivojlanish va boshqaruv jarayonini tashkil etish masalasi;
- texnologik imkoniyatlar darajasi;


Konsultantlar jarayonni amalga oshirish davomida davlat uchun o'zlarining tavsiyalarini ishlab chiqadilar.

Keyingi muhim masala davlat jamg'armalarida taqchilligining oshib borishi sharoitida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish, shuningdek bu borada barcha mavjud bo'lgan va jalb qilish mumkin bo'lgan mablag'lar yuzasidan chuqur mulohaza olib borish davlatning sherikchilik munosabatlaridagi muhim ishtiroklaridan biri hisoblanadi. Bunda, davlat va notijorat tashkilotlarning mablag'lari, jumladan, grantlar, soliqlarni oshirish vositalari (amalga oshirish mumkin hollarda), mahalliy aylanma kredit jamg'armalaridan foydalanishga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Xususiy sektorning ishtiroki masalalari. Avvalo, xususiy sherik munosabatlarga kirishishdan oldin shaffoflikni ta'minlashga tayyor bo'lishi lozim. Jarayonning ba'zi qismlari, ayniqsa, loyiha takliflari bo'yicha raqobat

davrida, ba’zi bir ma’lumotlarning oshkor etilmasligiga qaramasdan, xususiy sektor o‘zi to‘grisidagi ma’lumotlarni davlat tekshiruviga ochiq qilish uchun tayyor bo‘lishi kerak. Ushbu asosiy tamoyilni tan olish barcha keyingi bosqichlardan oldin bo‘lishi kerak. Bunday shaffoflik maqbul bo‘lmasa loyihadan uzoqlashish kerak. Davlat aniq maqsadlar va loyihalarni belgilash davrida, xususiy sherik investorlarga davlat-xususiy sherikchilik munosabatlariing tabiatini tushuntirishi kerak. Davlat xususiy sherikni tayyorgarlik fazasida barcha muhum ma’lumotlar bilan ta’minlashi lozim. Xususiy sherik, shuningdek, loyihani amalga oshirish imkoniyatini aniqlashi va uni baholashi, loyihaning mavjudligini tekshiruvdan o‘tkazishi kerak. Xususiy sektor loyiha va DXSHni amalga oshirish bo‘yicha o‘zining takliflarini ishlab chiqishi mumkin.

Umuman olganda, ushbu jarayonni quyidagicha tasvirlash mumkin(1-chizma):



1-chizma: Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirish bosqichlari va omillari:

Manba: To‘plangan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi chizmadan ko‘rinib turganidek, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining tabiati juda murakkab hisoblanib, bunda ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, texnik va madaniy omillarni ham hisobga olish lozim bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda loyiha dastlabki bosqichdan amalga oshirishgacha bo‘lgan davrda bir nechta murakkab bosqichlarni bosib o‘tadi. Har bir bosqichda davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishning o‘ziga hos maqsadlari va mezonlari mavjud.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirishda ijtimoiy o‘lchovlar. Mamalakat ichidagi ijtimoiy me’yorlar odamlarning hatti-harakatlarini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin va bu oxir oqibatda mamlakatda mavjud tizim va tuzilmalar faoliyatiga ma’lum bir darajada ta’sir ko‘rsatadi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining murakkab tabiati sabab, ayrim davlatlarda ushbu sheriklik munosabatlari xususiylashtirish tushunchasi bilan ayniylashtirilgan va jamiyat tomonidan osonlikcha qabul qilinmagan[7]. Ko‘plab mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari tushunchasi yangi konsepsiya bo‘lganligi bois odamlar xizmat ko‘rsatish

sifati, to‘lovlar, atrof-muxitga ta’siri, yangi ish o‘rinlari bo‘yicha ikkilanishlarga ega. Natijada bu sheriklik munosabatlarining ahamiyatini tushinib olishda ma’lum bir chalkashliklarni vujudga keltirishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirishda xuquqiy o‘lchovlar. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy va me’yoriy baza murakkab shuningdek uzoq muddatli kelishuvlarda loyihani muvofaqiyatli amalga oshirish, investitsiyalarni kengroq jalb qilish, transaksiya xarajatlarini kamaytirish, tartibga solish va nazoratni ta’minlash, shartnoma bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni hal qilishga ko‘maklashadi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkil qilishda huquqiy o‘lchov qiyidagilardan iborat bo‘lishi lozim.

- DXSH loyihasini amalga oshirishga imkon beradigan va uning ishlashini osonlashtiradigan qoidalar (masalan, DXSH kompaniyasini tashkil yetishning qonuniy huquqi, davlat aktivlari nodavlat shaxslarga berilishi mumkin bo‘lgan shartlar).
- hukumatlarga tegishli hollarda moliyalashtirish imkonini beruvchi qoidalar (masalan, subsidiyalar berish yoki DXSH shartnomasining amal qilish muddati davomida davlat xarajatlari bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlarni olish) [8].

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirishda iqtisodiy o‘lchovlar. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining muvofaqiyati bevosita tomonlar maqsadlarining iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqishiga bog‘liq. Shu sababdan sheriklik munosabatlari davlat va xususiy sektor o‘rtasida ma’suliyat, xarajat, xavflar va rollarni adolatli taqsimlanishini inobatga olish lozim. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari shuningdek, tomonlar uchun iqtisodiy barqaror va jozibali bo‘lishi kerak. Davlat budjetining holati, aholi soni, pul massasi va investitsiyalar yalpi ichki mahsulotdagi ulushi DXSH faoliyatining muhim omili hisoblanadi[9].

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirishda madaniy o‘lchovlar. Bilamizki, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari o‘z ichiga hukumat, tadbirkorlik subektlari, turlicha kelib chiqishga ega jamoalarni olishi mumkin. Sheriklik munosabatlarida yana bir muhim jihat xususiy sektor jamoatchilik talablariga va davlat sektori tomonidan qo‘yilgan shartlarga javob beradigan xizmat ko‘rsatish uchun bir qator ijtimoiy muammolarni o‘z zimmalariga olishlari kerak.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirishda texnik o‘lchovlar. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari yuqorida ta’kidlanilganidek uzoq muddatli kelishuv shakli hisoblanadi. Shu sababdan sheriklik jarayonida shartnoma shartlari va texnologiyalarning o‘zgarib turishini inobatga olishi va shunga mos ravishda kerakli o‘rinlarda shartnoma shartlarini shunga mos ravishda moslashuvchan bo‘lishini taqazo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo‘lsak davlat-xusiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirish masalasi juda murakkab hisoblanib, u bir nechta bosqichlar va mezonlarni qamrab oladi. Sheriklik munosabatlarining muvofaqiyatli amalga oshirilishi bir nechta tamoyillarga asoslanadi. Umuman olganda ushbu jarayon o‘ziga hos murakkabliklardan iborat bo‘lib, sheriklik munosabatlarida qatnashayotgan tomonlar javobgarliklari va majburiyatlarini to‘g‘ri tushinib yetishi ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lini osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bing Li , Akintola Akintoye, Cliff Hardcastle. Conceptual framework for construction public private partnerships. https://www.arcom.ac.uk/-docs/proceedings/ar2000-229-240_Li_Akintoye_and_Hardcastle.pdf
2. Yescombe E.R., Farquharson E. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principals of Policy and Finance. 2nd Edition. Butterworth-Heinemann, 2018. ISBN: 978-0-08-100766-2.
3. Kalpana Gopalan. Public Private Partnerships: A Study of Organisational Design: Journal of Management & Entrepreneurship (JME) Vol 10 (2), 2016. · Jul 1, 2016
4. Miles, R.E., & Snow, C.C. (1992). Causes of Failure in Network Organizations. California Management Review, 34(4), 53-72.
5. Huanming Wang, Wei Xiong, Guangdong Wu & Dajian Zhu. Public–private partnership in Public Administration discipline: a literature review. Public Management Review. DOI: 10.1080/14719037.2017.1313445.
6. Public-Private Prtnership Handbook. Asian Development Bank. https://www.adb.org/sites/default/files/institutional-document/31484/public-private-partnership.pdf
7. Gunnigan, L., Rajput, R., 2010. Comparison of Indian PPP Construction Industry and European PPP Construction Industry: Process, Thresholds and Implementation. Proceedings of CIB World Congress 2010, Salford.
8. I. Yitmen, İlknur Akıner, I. Tekce. Applicability Of Second Generation Public Private Partnership Projects (PPP) in Turkey: A Conceptual Framework. 2012. https://www.semanticscholar.org/paper/APPLICABILITY-OF-SECOND-GENERATION-PUBLIC-PRIVATE-A-Yitmen-Ak%C4%B1ner/41cced407c0817ae39d5ae9a885e50acdf43fa5c
9. Hakan Yurdakul, Rıfat Kamaşak, Tülay Yazar Öztürk. Macroeconomic drivers of Public Private Partnership (PPP) projects in low income and developing countries: A panel data analysis. Borsa Istanbul Review. Volume 22, Issue 1, January 2022, Pages 37-46.

SAVDO KORXONALARI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI





Q. J. Mirzayev
I.f.d., SamISI Raqamli iqtisodiyot kafedrasi mudiri, professor

Sh. M. Islomov
I.f.n., SamISI Iqtisodiyot fakulteti dekani

Annotatsiya: Respublikamiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirishning imkoniyatlari sifatida boshqaruv maqsadlari shajarasini tizmilashtirish, boshqaruv tamoyillari ijrosini tizimli ketma-ketlikda tashkil etish, shuningdek, boshqaruvning chiziqli, divizion usullaridan foydalanish yo‘llari ilmiy asoslanilgan.

Kalit so‘zlar: Savdo, savdo korxonalari, boshqaruv, boshqaruv samaradorligi, sifat, boshqaruv usullari va boshqaruv tamoyillari.

Abstract: In the conditions of intensive development of the economy of our republic, it is important to increase the efficiency of management of trading enterprises. This article scientifically substantiates methods of systematization and management goals, scientifically based organization of implementation of management principles, as well as methods of using linear, divisional management methods as opportunities to increase the management efficiency of trading enterprises.

Key words: Trade, trading enterprises, management, management efficiency, quality, management methods and management principles.

Аннотация: В условиях интенсивного развития экономики нашей республики важно повышать эффективность управления торговыми предприятиями. В данной статье научно обоснованы способы систематизации и целей управления, ноучно-обоснованный организации реализации принципов управления, а также способы использования линейных, дивизиональных методов управления как возможностей повышения эффективности управления торговых предприятий.

Ключевые слова: Торговля, торговые предприятия, менеджмент, эффективность управления, качество, методы управления и принципы управления.

KIRISH

Respublikamiz xizmat ko‘rsatish sohalarida savdo xizmatlari salmoqli o‘rinni egallab, taraqqiyotida savdo korxonalari va uning boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish muhim hisoblanadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan “O‘Zbekiston–2030” strategiyasiga ko‘ra “Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish”[1], ayniqsa “o‘rta va yirik shahar markazlarida... 36 mingta savdo va servis obyektlarini tashkil etish. “Yangi O‘zbekiston” massivlarida va halqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida 6 mingta savdo va servis obyektlarini qurish. Yetakchi loyiha tashkilotlarini jalb qilib bozorlarni zamonaviy, qulay, barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish”[2] vazifasi belgilangan.

ADABIYOTLARGA SHARH

Iqtisodiyotni turli korxona va tashkilotlarida boshqaruv samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etib, ayniqsa, o‘ziga xos tarixiy-iqtisodiy rivojlanish jixatalari bilan farq qiluvchi savdo sohasi korxonalari boshqaruv samaradorligi masalasi bir qator soha olimlari va mutaxasislari tomonidan o‘rganilib, o‘z fikr va mulohazalarini bayon qilgan. Bu borada jahonning yetakchi olimlaridan F.Kotler[3], A.M.Fridman[4] alohida o‘z fikr va qarashlarini bayon qilgan.

Shuningdek, bu borada respublikamiz olimlaridan B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev[5], I.Ivatov[6], Q.J.Mirzayev[7] va boshqalar aloxida ilmiy fikrlarini bildirgan.

Yuqorida bayon qilingan olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, savdo korxonalarini alohida boshqaruv subyekti sifatida chuqur o‘rganish iqtisodiyotimiz taraqqiyoti uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib berishligi asoslanilgan.

Foydalanilgan tadqiqot usullari. Mazkur maqolani bayon qilishda ilmiy bilishning bir qator uslub va uslubiyatidan foydalanilgan bo‘lib ulardan analiz va sintez, induksiya-deduksiya, tizimli tahlil, mantiqiy yondashuv kabi usullar ishning ilmiy mohiyatini ochib berishga yordam qilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Savdo korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, eng avvalo boshqaruv samaradorligiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Savdo korxonalarini samarali boshqarish jarayoninini birinchi navbatda shu korxonani boshqaruv usullari va tamoyillariga qanchalik asoslanganligi bilan belgilanadi. Bunda savdo korxonasining boshqaruv samaradorligiga erishish muvaffaqqiyati quyidagilarda ya’ni, boshqaruvning ijtimoiy ahamiyati, boshqaruv jarayonida yetishtirilgan mahsulotning nafliligi, iste’molchilar va bozorlar haqida ma’lumotlarning yetarliligi, savdo texnologiyasi, tashkilotning tovar bilan bog‘liq konsepsiyasi, imidji va boshqa shu kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo korxonasi samaradli boshqaruvining birinchi sharti bu qo‘yilgan boshqaruv maqsadini to‘g‘ri ijrosini ta’minlashdan iborat. Ta’kidlash joizki, savdo korxonalaring boshqarishda to‘g‘ri va eng muhimi erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarini qo‘yish uning qisqa va uzoq muddatda muvaffaqiyat qozonishida asosiy rolni o‘ynaydi. Bunda avvalambor korxona o‘z oldiga bitta bosh maqsad va shu asosda boshqa maqsadlarni qo‘yadi. Tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra savdo korxonasini boshqarishda quyidagi asosiy maqsadlarini belgilab olish lozim yuqori samara beradi (1-rasm). Bunda savdo korxonasining asosiy maqsadlari tijoriy, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga bo‘lingan. Savdo korxonasining tijoriy maqsadlari sifatida mahsulotlarga talabni o‘rganish, hamda tovar zaxiralarini shakllantirish va boshqarish, reklama va savdoni boshqarishni samarali tashkil etishni keltirish mumkin. Iqtisodiy maqsadlarda savdoda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni rejalashtirishva bajarilishini nazorat qilish, mehnat resurslarini boshqarish va ularga ish haqini belgilash hamda xo‘jalik faoliyati natijalari hisobini samarali tashkil etish aks etadi. Ijtimoiy maqsadlari malakali kadrlarni tayorlash va ishlarni taqsimlash, tanlangan kadrlarni korxona falsafasi va bosh maqsadiga mos holda tarbiyalash hamda shu orqali boshqaruv

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 12-sentyabr.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 12-sentyabr.

3 Котлер Ф. Основа маркетинга. – М. Экономика, 1990. –660 с.


4 Фридман А.М. Экономика предприятий торговли и питания потрибителского обшества. Учебник. –М. “Дишков и К”. –2003. –628 с.

5 Pardayev M.Q. Xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati va uning rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. (Nazariy jixatalar) //Servis. –Samarqand. –2009. –№1. –S. 38-46.

6 Ivatov I. Savdoda marketing faoliyati. Monografiya. –T.: TGEU, 2004 – 104s.

11. Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar.Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich Guliston davlat universiteti, Kamilova Sanobar Mirdjamalovna TDIU huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazi. file:///C:/Users/99897/Downloads/INSON_KAPITALI_VA_IQTISODIYOTNING_INNOVATSION_RIVO.pdf

AGROKLASTERLARDA ASOSIY VOSITALARNI MODERNIZATSIYALASH VA TA'MIRLASH XARAJATLARINI TAHLIL QILISH



G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich
TDIU Samarqand filiali
"Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrasi assistenti

Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li
TDIU Samarqand filiali
"Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrasi assistenti

Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li
TDIU Samarqand filiali
"Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotni jadal rivojlantirish sharoitida agroklasterlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tan olinishi, ular hisobini hozirgi holati atroflicha tahlil qilinib, asosiy vositalarni modernizatsiyalash hamda ta'mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: agroklaster, asosiy vositalar, modernizatsiya, ta'mirlash, joriy ta'mirlash, o'rtacha ta'mirlash, kapital ta'mirlash, amortizatsiya, amortizatsiya me'yori.

Abstract: In this article, in the conditions of rapid economic development, recognition of the costs of modernization and repair of fixed assets in agroclusters based on national accounting standards, the current state of their accounting is thoroughly analyzed, and suggestions and recommendations are given for improving the calculation of costs of modernization and repair of fixed assets.

Key words: agricultural cluster, fixed assets, modernization, repairs, current repairs, medium repairs, major repairs, wear and tear, depreciation rate.

Аннотация: В данной статье в условиях стремительного экономического развития, признания затрат на модернизацию и ремонт основных фондов в агрокластерах на основе национальных стандартов бухгалтерского учета тщательно анализируется современное состояние их учета, а также даются предложения и рекомендации по совершенствованию расчет затрат на модернизацию и ремонт основных средств.

Ключевые слова: агрокластер, основные фонды, модернизация, ремонт, текущий ремонт, средний ремонт, капитальный ремонт, износ, норма амортизации.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini va turlarini ko'paytirish, ichki va tashqi bozor talabini qondirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan subyektlar daromadini oshirish, qishloq aholisini turmush farovonligini yuksaltirish uchun "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish ustuvor ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirib,

eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish” [2] kabi bir qator islohotlar hayotga samarali tatbiq qilinmoqda.

Ushbu vazifalarni bajarishda qishloq xo‘jaligidagi mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishga innovatsiyalar va ilg‘or ishlab chiqarish shakllarini joriy etish, mavjud asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish va yangilashni talab qiladi. Bularning barchasi moliyaviy resurslar bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa asosiy ishlab chiqarish fondlari hisoblangan mavjud asosiy vositalarni modernizatsiyalash xarajatlari yuqori salmoqqa ega bo‘ladi. Bunday holatda, asosiy vositalar hisobini to‘g‘ri tashkil etish va yuritish dolzarbdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asosiy vositalar hisobini to‘g‘ri tashkil etish va yuritishda, asosiy vositalarni buxgalteriya hisobida tan olinishi, baholanishi va buxgalteriya hisobida soliqqa tortish nuqtai-nazaridan yuritishda muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolarning mavjudligi, ular hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlari asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Xarajatlar tahlilida xarajatlar elementlari bo‘yicha tahlil qilish bilan birga, xarajat moddalari bo‘yicha tahlil samaralidir. Bunda xarajatlarni boshqarishda tegishli boshqaruv qarorlari xarajatlarni turlari bo‘yicha qabul qilinadi – ishlab chiqarish xarajatlari tahlili xarajat kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha ishlab chiqarish turlari, xarajatlarning vujudga kelish joylari, mahsulot turlari bo‘yicha o‘tkaziladi. Bugungi kunda har bir xo‘jalik subyekti tannarxni pasaytirish bo‘yicha rejani mustaqil belgilaydi. Mahsulot tannarxining umumlashgan ko‘rsatkichlaridan biri - bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatdir. Bu ko‘rsatkich tiyin hisobida quyidagicha aniqlanadi: Bir birlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat = Tovar mahsuloti ishlab chiqarish tannarxi : Tovar mahsuloti miqdori[1] [7.-b.132].

S.Ya.Muslimov va R.N. Kyazimovning fikriga ko‘ra, “korxona faoliyati va tadbirkorlik faoliyati tahlil qilingan ko‘rsatkichlarining aniqlanmagan soni va tarkibi, keng qamrovli tahlil asosiy nuqtalarining hozirgi uslublarida ahamiyati yo‘qolishi va MHXS hamda milliy buxgalteriya standartlari asosida mutlaqo yangi hodisalarni o‘rganishga yo‘naltirilishi muammoni o‘rganishga tubdan boshqacha yondashuvni, foyda va rentabellikni tahlil qilish uchun xarajatlar parametrlari tizimini shakllantirishni talab qiladi”[2] [5.-b.16]

Iqtisodiy adabiyotlarda yetakchi bo‘lgan g‘oyani rivojlantirib, xuddi shunga o‘xshash pozitsiyani egallagan M.B.Kalonovning fikriga ko‘ra: – Korxonalarda daromad olish asosiy e’tiborda bo‘lgani bilan bu topilgan daromadni sarflanishini boshqarish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ishlab topilgan daromad aniq rejalar va maqsadlarga yo‘naltirilmasa, bunday daromadning samaradorligi past bo‘lib, foydaning ko‘payishi rivojlanish omili bo‘la olmaydi. Shu bois, daromadlar hisobini xarajatlar hisobi bilan uzviy bog‘lagan holda, doimiy tahlil qilgan holda yuritish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, xarajatlar tahlilini amalga oshirish, nafaqat xarajatlar bo‘yicha, balki butun korxonaning xo‘jalik-moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq jarayonlariga tegishli bo‘lgan xulosalar shakllantirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotlar shakllanishiga olib keladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Mavzuga oid respublikamizda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, soha iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, faoliyat yuritayotgan agroklasterlarga biriktirilgan yer maydonlari, shundan ekin maydonlari, qishloq xo‘jaligi ekinlaring hosildorligi, mavjud asosiy vositalar, ularning turlari, agroklasterlar yalpi hosilni aks ettiruvchi statistik ma’lumotlar hamda ilmiy tadqiqot natijalarining materiallaridan foydalanildi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda qo‘llaniladigan kuzatish, guruhlash, tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan institusional va tarkibiy o‘zgarishlar natijasida shakllangan xo‘jalik yuritish subyektlari hamda tarmoqda ular o‘rtasidagi huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlarning muntazam ravishda takomillashtirib borilishini taqozo etishdan kelib chiqqan holda agroklasterlarni barpo etish borasida yangi yo‘nalishni amalga oshirish bugungi kunda agrar siyosatining muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda.

“Agroklaster – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish va yuqori texnologik innovasiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish, qishloq joylarda infratuzilma majmuini shakllantirish va rivojlantirish, qishloq aholisini ish bilan bandligi darajasi va daromadlarini oshirish hamda kelajakda

1 Murodov Ch., Hasanov Sh., Murodova M. Agroklaster: tashkil etishning nazariy asoslari// Iqtisod va moliya, 2014. №2.
2 https://www.agro.uz/yil-yakunlari-qishloq-xojaligi-2021

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati va ekologik muhitni yaxshilashda faoliyat yuritadigan xo‘jalik yuritish subyektlaridan tarkib topadi” [7.24].

Respublika bo‘yicha tashkil etilgan klasterlar [8] umumiy soni 463 ta bo‘lib, “Qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishda 25 ta paxta-to‘qimachilik (106 ming ga), 80 ta g‘allachilik (801 ming ga), 13 ta sholichilik (17 ming ga) 2 ta dorivor klasterlar yo‘lga qo‘yildi. Natijada 2021-yilda 122 ta paxta-to‘qimachilik, 157 ta g‘allachilik, 146 ta meva-sabzavotchilik, 29 ta sholichilik, 9 ta dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi klasterlar faoliyat yuritmoqda. Agroklasterlar tomonidan sohaga ilm-fan, innovasiyalar hamda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish natijasida, 3,4 mln tonna paxta, 7,8 mln tonnaga yaqin don yetishtirildi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan qiymati 8,4 trln so‘mlik 54 ta, g‘allachilik klasterlari tomonidan 783,7 mlrd so‘mlik 42 ta, meva-sabzavotchilik klasterlari tomonidan 328 mlrd so‘mlik 22 ta jami 118 ta loyihalar ishga tushirilib, 24 ming nafar yangi ish o‘rinlari yaratildi” [9].

“Asosiy vositalar – korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar. Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga bir vaqtning o‘zida javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

a) bir yildan ortiq xizmat muddati;

b) bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan buyumlar.

Korxona rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilash huquqiga ega.

Asosiy vositalar tarkibida qonunchilik hujjatlariga muvofiq korxona mulkiga topshirilgan yer uchastkalari ham hisobga olinadi.

Ko‘p yillik ko‘chatlarga, yerni tubdan yaxshilashga, ijaraga olingan asosiy vositalar obyektlariga kapital qo‘yilmalar har yili butun ishlar majmui yakunlangan sanadan qat’iy nazar, hisobot yilida foydalanishga qabul qilingan asosiy vositalarga tegishli xarajatlar summasida asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi” [3].

Asosiy vositalarni modernizatsiyalash xarajatlari xisobini yuritishda, amalga oshirilayotgan ishning mohiyati va uning asosiy vositalar qiymatiga olib borilishi yoki olib borilmasligiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Asosiy vositalrni modernizatsiyalash xarajatlari hisobining o‘ziga xos xususityalarini yoritishdan oldin, uni modernizatsiyalash ishlari xarajatlaridan farkini ko‘rib chiqishni lozim deb xisoblaymiz, chunki, modernizatsiyalash xarajatlari: moderinizatsiya kilish hamda tuzatish va modernizatsiyalash ishlariga bo‘linib, ularni buxgalteriya hisobida hisobga olish bir-biridan farq qiladi (1-jadval).

1-jadval: Asosiy vositalarni moderinizatsiya kilish hamda tuzatish va modernizatsiyalash ishlarini farqlash mezonlari.

Farqlash mezonlari	Moderinizatsiya qilish	Tuzatish va modernizatsiyalash ishlari
Tan olinishi nuqtai nazaridan	Kapital qo‘yilma	Xarajat
Hisobda yuritilishi nuqtai nazaridan	0860, 0890 schetlarda yuritiladi	2010, 2310, 2710, 9420 schetlarda yuritiladi
Maqsad nuqtai nazaridan	Ishlab chiqarish quvvatini oshirish, ishlash sifatini yaxshilash	Ishlamay qolgan, buzilgan joylarni to‘g‘rilash
Foydali xizmat muddatiga ta’siri	Foydali xizmat muddatini oshishiga olib keladi	Foydali xizmat muddatiga ta’sir etmaydi.
Tannarxga qo‘shilishi nuqtai nazaridan	Amortizatsiya hisoblash orqali tannarxga qo‘shiladi	Xarajat sarflangan davrdagi ishlab chikarish tannarxiga qo‘shiladi (rezerv xisoblanishi mumkin)
Amalga oshirilishi nuqtai nazaridan	Asosan, pudrat usulida	Ham pudrat, ham xo‘jalik usulida

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, asosiy vositalarni modernizatsiyalash xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kapital xarajat sifatida tan olinadi, xamda 0860 (uzok muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar modernizatsiya qilinganda), 0890 (boshka asosiy vositalar modernizatsiya qilinganda) schetlarida hisobga olinadi.

“Asosiy vositalarni ishlash holatida saqlab turish ularni ta’mirlash (joriy, o‘rtacha va kapital tarzda) orqali amalga oshiriladi. Joriy ta’mirlash – asosiy vositalarni ishlash holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta’mirlashdir. O‘rtacha ta’mirlashda ta’mirlanayotgan agregatni qismlarga qisman ajratish va detallarning qismlarini qayta tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi.

Uskunalar va transport vositalarini kapital ta’mirlash – agregatni qismlarga to‘liq ajratib amalga oshiriladigan ta’mirlash, bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta’mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki qayta tiklash, agregatni yig‘ish, sozlash va sinab ko‘rishdir.

Binolar va inshootlarni kapital ta’mirlash – bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta’mirlash, detallar va uzellarning barcha eskirgan konstruksiyalarini almashtirish yoki qayta tiklash amalga oshiriladigan ta’mirlashdir” [3].

Xo‘jalik yurituvchi subyektlardagi asosiy vositalarni ta’mirlash natijasida sarflangan xarajatlar mazkur subyektning hisobot davri xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Bunda ta’mirlangan asosiy vosita xo‘jalik yurituvchi subyektning qaysi javobgarlik markazida joylashgani e’tiborga olinadi. Masalan, agar asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan asosiy vositalar ta’mirlansa, u bilan bog‘lik xarajatlar 2010 “Asosiy ishlab chiqarish”, ma’muriy ahamiyatdagi asosiy vositalar ta’mirlanganda esa, 9400 “Davr xarajatlari” schetida hisobga olinadi.

Ta’mirlash ishlari xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z kuchi hisobiga yoki pudrat usulida amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar kapital ta’mirlanganda, uning ish sifati va quvvati oshirilmasa uning qiymati oshmaydi, yuqorida qayd etganimizdek ushbu xarajatlar tegishli buxgalteriya schetlarida hisobga olib boriladi. Agar, asosiy vositaning ish sifati va quvvati oshsa, bunday kapital ta’mirlash xarajatlari “Asosiy vositalarni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan ta’minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta qurollantirishga xarajatlar, ular tugatilganidan so‘ng, agar ular natijasida asosiy vositalar ishlatilishining dastlab qabul qilingan me’yoriy ko‘rsatkichlari (foydali xizmat muddati, quvvati, qo‘llash sifati va h.k.) yaxshilansa (oshsa), bunday obyektning boshlang‘ich qiymatini oshiradi”[3] [3].

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalarni kapital ta’mirlash xarajatlarini hisobga olishda, ayrim holda asosiy vositalar ish sifati va ish hajmi oshsada, ushbu xarajatlarni joriy xarajatlar sifatida tegishli tartibda hisobdan chiqarish hollari mavjud.

Bunda asosiy vositalarni ish sifati va hajmi oshishiga hamda foydalanish muddati uzayishiga qaramasdan, ularning balans qiymati o‘zgarmasdan qoladi. Bu holatda, buxgalteriya hisobini yuritishning uslubiy qoidalariga rioya qilinmaslikka olib kelish bilan birga, asosiy vositalardan samarali foydalanish va ular nazoratini pasayishiga olib keladi.

Shuning uchun, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, ya’ni uning ish sifatini va hajmini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan xarajatlar buxgalteriya hisobi schetlar rejasida quyidagicha bog‘lanishlar bilan aks ettirishni taklif qilamiz (2-jadval).

2-jadval: Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish xarajatlari bo‘yicha buxgalteriya schetlari bog‘lanishi.

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish ishlarida foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirishi hisoblanganda	0890	0211-0299
2	Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish ishlariga qurilish va boshqa materiallar sarflanganda	0890	1010-1090
3	Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish ishlarida yordamchi ishlab chiqarishlar xizmatlaridan foydalanilganda	0890	2310
4	Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish uchun olingan bank kreditlari bo‘yicha foizlar hisoblandi	0890	6920
5	Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish ishlari pudratchilar tomonidan amalga oshirilganda	0890	6010, 7010
6	Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish ishlarida band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	0890	6710
7	Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish tugagandan so‘ng, xarajatlar asosiy vositalar qiymatiga qo‘shilganda	0110-0190	0890

Bundan tashqari, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish tugagandan so‘ng ularning balans qiymatini aniqlash va ishlash muddatiga tegishli tartibda o‘zgartirishlar kiritishni lozim.

3 O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti “Asosiy vositalar” 5-sonli BHMS. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 20-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1299. 47-punkt. www.lex.uz

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, agroklasterlarda agroklasterlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar qilindi.

1. Asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash uchun qilinadigan xarajatlarni asosiy vositalar qiymatini oshiradigan va oshirmaydigan xarajatlarga.
2. Asosiy vositalarni modernizatsiyalash xarajatlarini hisobga olish uchun buxgalteriya hisobi schetlari rejasiga 0870-"Asosiy vositalarni modernizatsiyalash xarajatlari" schetini kiritish va asosiy vositalarni modernizatsiyalashdan tugagandan so'ng tegishli buxgalteriya schetlari bog'lanishi orqali ushbu xarajatlarni asosiy vositalar schetiga o'tkazish.
3. Asosiy vositalarni modernizatsiyalash tugagandan so'ng, asosiy vositalarni qayta baholash orqali ularning balans qiymatini, foydalanish muddati va eskirish (amortizatsiya) hisoblash normalarini aniqlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi (yangi tahriri)" Qonuni. 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son. www.Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. www.Lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti "Asosiy vositalar" 5-sonli BHMS. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004 -yil 20-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami/ 1299. 47-punkt. www.lex.uz
4. M.Xalmurzayev, I.Gafforov Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish usullari The Journal of Economics, Finance and Innovation, 2023 671-681.
5. G'afforov I.I., Abdushukurov M.B. "Korxonalar moliyaviy barqarorligini taminlashda moliyaviy natijalar tahlilining muhimligi" barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali 5-son 2023-yil 471-474-bet.
6. Abdigapparovich, I. X. (2024). Qishloq xo 'jaligida mashina-traktor parklari xizmatlarining axamiyati. world of science, 7(2), 105-113.
7. Abdigapparovich, I. X. (2024). Qishloq xo 'jaligi maxsulotlarini tayyorlov va sotish xizmatlarini boshqarish. journal of innovations in scientific and educational research, 7(2), 148-157.
8. .Abdigapparovich, I. H., & Abdigapparovich, I. H. (2024). Mamlakatimizda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi. journal of innovations in scientific and educational research, 7(3), 189-196.
9. https://www.agro.uz/yil-yakunlari-qishloq-xojaligi-2021/rtibga.
10. https://www.agro.uz/yil-yakunlari-qishloq-xojaligi-2021.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



IMPROVING THE PRACTICE OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF MANAGING INNOVATION PROCESSES IN COMMERCIAL BANKS

Juraev K. T.
National University Uzbekistan named after M. Ulugbek Lecturer of "Macroeconomics'Department

Abstract: The given article discusses theoretical views on improving the efficiency of managing innovation processes in commercial banks. Thanks to this, issues of development of the credit system were studied. Practical proposals are also given for the innovative activities of banks, characterized by high uncertainty, which in turn requires the use of flexible and adaptive risk management models.

Key words: innovative activity, commercial bank, loan, bank loan portfolio, loan portfolio management, profitability, risks, diversification.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirishga oid nazariy qarashlar muhokama qilinadi. Buning natijasida kredit tizimini rivojlantirish masalalari o'rganildi. Banklarning yuqori noaniqlik bilan ajralib turadigan innovatsion faoliyati bo'yicha ham amaliy takliflar berilgan, bu esa o'z navbatida risklarni boshqarishning moslashuvchan va moslashuvchan modellaridan foydalanishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, tijorat banki, kredit, bank kredit portfeli, kredit portfelini boshqarish, rentabellik, risklar, diversifikatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические взгляды на повышение эффективности управления инновационными процессами в коммерческих банках. Благодаря этому были изучены вопросы развития кредитной системы. Также даются практические предложения по инновационной деятельности банков, характеризующейся высокой неопределенностью, что, в свою очередь, требует использования гибких и адаптивных моделей управления рисками.

Ключевые слова: инновационная деятельность, коммерческий банк, кредит, кредитный портфель банка, управление кредитным портфелем, доходность, риски, диверсификация.

INTRODUCTION

One of the main factors for the effective operation of commercial banks is the policy of constant updating of banking products and management systems. This follows from many conditions that determine the innovative type of economic development. Firstly, banks and bank clients are business partners. Each of them pursues their own goals, but at the same time they participate in each other's affairs. This is expressed in the preservation and increase of clients' capital based on the bank's balanced financial and innovation policy, which, in turn, ensures the generation of bank income. Secondly, the innovative activity of banks is a factor in their competitiveness, and not only in the internal, but also in the external environment. Thirdly, the bank's innovative activities are associated with the development of new communications and banking technologies [1].

Commercial banks selling innovative goods (services) face a number of problems associated with insufficient methodological elaboration of issues of managing innovation activities. The banking sector, unlike the sphere of material production, has certain features in organizing the innovation process. These include a large number of clients and high dependence on them; strong interbank competition, which necessitates innovation; the unpredictable process of the emergence of new ideas that do not relate to the results of scientific research.

Innovation activity is characterized by high uncertainty, which in turn requires the use of flexible and adaptive risk management models. The objective difficulties of the practical implementation of innovations in banks show that innovative activity requires the separation of innovation risk management into a separate area of

risk management of a commercial bank, the main elements of which, on the one hand, take into account the peculiarities of the bank's activities, and on the other hand, they can significantly reduce the damage from the occurrence of risk risks. situations and increase the effect of commercialization of innovations.

In these conditions, research in the field of risk management tools for innovative activities of a commercial bank becomes relevant, which determined the choice of the topic of the dissertation work.

LITERATURE REVIEW

There are a number of approaches to the issue of defining the concept and essence of the loan portfolio of a commercial bank, which in various economic literature were interpreted differently by a number of foreign scientists, Russian scientists and domestic economists.

For example, American academic economist Chris J. Barlton describes Diana Mac Naughton's loan portfolio as involving a categorization of loans. This definition represents part of a bank's loan portfolio.

Russian economist N. Sokolinskaya describes: "The loan portfolio consists of the sum of short-term and long-term loans." In this definition, this situation, which focuses on the loan term, does not fully reveal the essence of the loan portfolio. Because the terms and compliance with the requirements of loans issued by a bank can only be an important factor in determining the quality of the loan portfolio. Significant contributions to the development of the theory of innovative development were made by such scientists as S.Yu. Glazyev, A. Kleinecht, N.D. Kondratyev, M.I. Tugan-Baranovsky, J. Schumpeter, Yu.V. Yakovets and others.

Issues of development of management of innovative activities of commercial banks were considered in the works of A.A. Ayupova, I.T. Balabanova, A.S. Borisova, V.I. Vagizova, B.C. Vikulova, Yu.N. Zakharova, P.A. Isaeva, JT.B. Koch, J.I.P. Kurmanova, O.I. Lavrushina, A.B. Muravyova, T.V. Nikitina, I.M. Podlenova, T.IO. Popova, I.A. Semagina, E.A. Utkin and other scientists.

Besides that E.A. Grishina, I.N. dealt with the problems of managing the risks of innovative activities of banks. Demchuk, V.A. Kondratov, V.I. Korneychuk, A.I. Polishchuk, Yu.Yu. Rusanov, T.A. Ustinova, V.I. Chalenko and others.

Another famous Russian economist O.I. Lavrushin describes that "the concept of a loan portfolio in the banking business usually means the amount of loans from a particular bank." At the same time, he believes that the formation of a loan portfolio in a bank and its analysis will increase the chances of lending to clients, which will make it possible to accurately develop the strategy and tactics of a commercial bank. [2]

According to L.I. Abalkin, G.S. Panov, the loan portfolio of commercial banks is a classification of loans by quality and composition. This definition, in our opinion, has a positive approach to revealing the essence of the loan portfolio. On the positive side, they highlight the need for categorization based on certain factors, depending on the qualitative composition of the loans [3-4].

Local economists in this area are Sh.Z.Abdullaeva, T.S.Malikov, S.H.Norkobilov, T.M.Karaliev, Z.A.Kholmakhmadov, M.B.Nurmurodov, A.K.Kadyrov, N.F. The scientific research of Karimov and others deserves attention.

According to Sh.Z. Abdullaeva, the loan portfolio of banks is the sum of bank claims on a scale of loans, which are classified according to certain criteria based on various credit risks. In his definition, the economist specifically touched upon the classification of loans based on certain criteria and, at the same time, credit risks [5].

RESEARCH METHODOLOGY

As the theoretical and methodological basis of this article, conclusions, proposals and recommendations in relevant areas were taken by studying general economic literature and scientific articles, research by economists on the issues of effective management of the loan portfolio in commercial banks, analysis of their reviews, expert assessment, monitoring of processes , a systematic approach to economic phenomena and processes, a comparative analysis with the author's experience.

ANALYSIS AND DISCUSSION OF RESULTS (MAIN PART)

Modern economic conditions require the creation of a banking system that is consistent with international banking practice, based on increasing the efficiency of banking activities in our country and preventing existing problems in the activities of commercial banks.

As in any activity, banking provides the opportunity to earn higher income by investing available funds on the basis of the least risk. Higher profitability, in turn, increases the level of risk of transactions carried out by banks, since banks work mainly with resources attracted from abroad. On the one hand, they are responsible

to their shareholders, and on the other, they have obligations to clients who have entrusted their funds and use banking services. For this reason, commercial banks operate with risks that are several times higher than the risks of other business entities.

Analyzing the specifics of the definitions discussed above, we believe that the loan portfolio can be defined as follows: the bank's loan portfolio is the sum of the total volume of loans issued by the bank, which are considered necessary for the implementation of the bank's credit operations.

Table 1: Gross domestic product (GDP) in the Republic of Uzbekistan, the volume and level of loans from commercial banks [6]

Specification name	2019	2020	2021	2022
1	2	3	4	5
GDP (billion soums)	511 838,10	529 391,40	602 193,0	734 587,7
BBank assets (billion soums)	272 726,90	272 726,9	366 121,1	444 922,5
Assets to GDP ratio, percent	53,30	51,50	60,80	60,57
Credit investments (billion soums)	211 580,50	211 580,5	276 974,8	326 385,6
Ratio of credit investments to GDP at interest	41,3	40	46,0	44,4

From the data presented in Table 1, it is clear that in 2018–2021, the gross domestic product of the Republic of Uzbekistan and commercial banks tended to increase the volume of loans issued. The volume of credit investments directed to the real sector of the economy as of January 1, 2022 was 326,385.6 billion soums. It can be seen that the volume of credit reached 41.4 percent in relation to GDP.

Despite the totality of studies of various aspects of the innovative activities of commercial banks, the issues of risk management tools for the innovative activities of banks are insufficiently developed, which determined the choice of topic and the objectives of the dissertation research.

The purpose of the research is to substantiate the theoretical aspects and practical recommendations for improving risk management of innovative activities of commercial banks.

In accordance with the goal, the following research objectives were identified:

- highlight the most significant risks of innovative activities of commercial banks;
- develop methodological recommendations for risk management of innovative activities of commercial banks based on the morphological method;
- highlight the risk factors for the innovative activities of commercial banks;
- substantiate the relationship between the innovative development strategy of commercial banks and the risk management system;
- develop methodological recommendations for managing the strategic risk of innovative activities of a commercial bank.

The subject of the given research is the set of economic relations that are formed in the banking services market, in the aspect of risk management of innovative activities of a commercial bank. The object of the research is the innovative activity of commercial banks of the Republic of Uzbekistan.

The theoretical and methodological basis of the research was the works of national and foreign scientists on the theory of innovative economic development, banking management and risk management, materials of scientific seminars and conferences.

In the process of performing the dissertation work, such general scientific research methods as a systematic and morphological approach to the study of economic phenomena, expert assessments, formalization and modeling were used.

The information base for the research was the regulatory legal acts of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, scientific publications; materials from periodicals and the Internet.

The scientific novelty of the research lies in the theoretical and methodological substantiation and development of methodological and scientific-practical recommendations for improving the risk management system for innovative activities of a commercial bank.

CONCLUSIONS AND OFFERS

Based on these mentioned ideas above, the following main results were obtained and presented for defense, reflecting the scientific novelty of the research:

- three significant risks in the innovative activities of commercial banks are identified: operational risk, risk of loss of business reputation and risk of decreased profitability, and operational risk among these risks is decisive;
- methodological recommendations have been developed for managing the risks of innovative activity of commercial banks based on the combinatorics of the components of a balanced scorecard and the stages of preparation and implementation of an innovative banking product (service), which allows us to consider the morphology of the risks of innovative activity of a commercial bank, their internal structure and make management decisions on this basis to reduce risks; the proposed approach is a new development, which significantly expands the capabilities of managing the risks of innovative activities of commercial banks;
- risk factors for the innovative activity of a commercial bank are identified according to the stages of preparation and implementation of innovation, a ranking of risk factors is carried out using expert assessments, which helps to identify key risk factors and identify areas of risky activity of the bank in the morphological matrix of risks of innovative activity;
- the relationship between the strategy of innovative activity of commercial banks and the risk management system is substantiated, based on the coordination of the stages of strategic management of the innovative development of a commercial bank and the stages of risk management;
- methodological recommendations have been developed for managing the strategic risk of innovative activities of a commercial bank in the system: “strategic map of a new product - directed graph - adjacency matrix of a directed graph”, which provides unlimited opportunities for modeling strategic risk when implementing an innovative development strategy and making effective management decisions to minimize it and neutralization.

References:

1. Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan, dated January 28, 2022 PD-60
2. O.I. Lavrushin. Management of commercial bank activities. Textbook. M. Lawyer 2003
3. Diana Mac Naughton. Banking institutions in developing countries. I am MBRR. - Washington, DC, 2001. - P.75
4. Panova G.S. Credit policy of a commercial bank. - M.: MKS, 1997. - P.464.
5. Abdullaeva Sh.Z. Banking risks and lending. T.: Finance, 2002.- P.166.
6. https://cbu.uz website of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH

Mamasoatov Dilshod Ravshanovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada raqamli platformalardan eksport faoliyatida foydalanishni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarini rivojlantirish, raqamli platforma uchun foydalanuvchi guruhini ajratish, shuningdek, raqamli platformalar faoliyati muayyan mahsulot yoki geografik joylashuvga qaratilgan ilmiy izlanishlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli platforma, eksport faoliyati, tadbirkorlik, avtomatlashtirilgan tizim, platforma operatori, AKT, raqamli iqtisodiyot, B2C va C2C biznes texnologiyalari, regulyator.

Abstract: The article describes scientific research aimed at improving the use of digital platforms in export activities, the development of digital technologies, the separation of the group of users of the digital platform, as well as focusing the activities of digital platforms on a specific product or geographical location.

Key words: Digital platform, export activity, entrepreneurship, automated system, platform operator, ICT, digital economy, B2C and C2C business technologies, regulator.

Аннотация: В статье описаны научные исследования, направленные на совершенствование использования цифровых платформ в экспортной деятельности, развитие цифровых технологий, разделение группы пользователей цифровой платформы, а также фокусировку деятельности цифровых платформ на конкретном товаре или географическом местоположении.

Ключевые слова: Цифровая платформа, экспортная деятельность, предпринимательство, автоматизированная система, оператор платформы, ИКТ, цифровая экономика, бизнес-технологии B2C и C2C, регулятор.

KIRISH

Tadbirkorlik subyektlari raqamli platformalardan foydalanish nafaqat eksport faoliyatida, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida muhim ahamiyatga ega ekanligi mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan hamda o‘rganilgan. Shu jihatdan biz, tadqiqot ishining muammolari sifatida, “tadbirkorlik faoliyati”, “raqamli iqtisodiyot” va “raqamli platformalar” tushunchalarini ilmiy-nazariy jihatdan sharhlanga.

Avvalambor, ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berish uchun kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyatning bir turi sifatida tadqiq qilinishi maqsadga muvofiqdir. “Tadbirkorlik faoliyati” va “tadbirkorlik subyektlari eksporti” tushunchalarining asosini “tadbirkorlik va biznes” – so‘zlari xarakterlaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu tushunchalarga o‘zbek, rus va xorij adabiyotlarda ko‘plab ta’riflar berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga [1] murojaat qiladigan bo‘lsak, unda: “Tadbirkorlik – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat”, deb ta’rif berilgan.

Raqamli iqtisodiyot atamasini 1995-yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte amaliyotga kiritdi [2]. Bugungi kunda butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo‘llayotgan “raqamli iqtisodiyot” atamasi esa ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels tomonidan kiritilgan.

“Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish” tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak, tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish – bu tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan eksport jarayonida raqamli platformalarga bo‘lgan ehtiyojni mumkin qadar to‘liq qondirish hamda ushbu texnologiyalar orqali mahsulotlarni eksportni rivojlantirishga qaratilgan xizmatlar majmuasi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mullajanov I.T. Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati rivojlantirish maqolasida O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati rivojlantirish, shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati rivojlantirish bo‘yicha islohotlar hamda amalga oshirilayotgan tadbirlar o‘z aksini topgan [3].

Mamasoatov D.R. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish bo‘yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanishni takomillashtirish keltirib o‘tilgan [4].


Mamasoatov D.R. Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirish samaradorligiga tasir etuvchi omillarni aniqlash istiqbollari tahlil qilinga [5].

X.L.Turgunov axborot almashinishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish zarurligi, bunda ayniqsa qishloq va tumanlar faolligini ta’minlashga katta e’tibor qaratish kerakligi ta’kidlangan[5]. Jahon bankining qishloq xo‘jaligi bo‘yicha yetakchi iqtisodchisi Sergiy Zorya [6] mamlakatimizning agro oziq-ovqat mahsulotlari eksportidagi quyidagi masalalarga e’tiborini qaratadi:

TADQIQOT METODIKASI

Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, eksport tarifi va narx shakllanishini qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruxlash, analiz va sintez, usullaridan keng foydalanilgan.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport bo‘yicha axborotlarga avtomatlashtirilgan tizimda ishlov berish ham mumkin (1-rasmga qarang) [7].




1-rasm: Avtomatlashtirilgan tizimda axborotlarga ishlov berish

Dunyoning ko‘p mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini rivojlantirish uchun tashkilotlar yaratilgan, chunki rivojlangan mamlakatlarda texnologiya jihatidan kamroq rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ustun texnologiyalar mavjud. Bu esa, o‘z navbatida, texnologiyalar mavjud bo‘lmagan hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy ajralishni keskinlashtirishi mumkin. Jahon miqyosida BMT tomonidan raqamli tabaqalanishga qarshi vosita sifatida “AKT rivojlanish uchun” dasturi faol ravishda olg‘a surib kelinmoqda [7]. Shu jihatlarni hisobga olgan holda olib borilgan ilmiy tadqiqot tahlillari natijalariga asoslanib aytish mumkinki, rivojlangan davlatlar tajribasi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarimiz uchun ancha foyda keltiradi. Jumladan, tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport jarayonida raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalanish darajasi rivojlangan davlatlar darajasida bo‘lish zarur (2-rasm).

Yuqoridagi olib borilgan tahliliy ma’lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport jarayonlarini amalga oshirishda zarur bo‘ladigan raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining shu atrofda bo‘lishi eksportni yanada rivojlantirishga va bu sohada mavjud texnik muammolarni bartaraf etishga olib kelishi mumkin.


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



2-rasm:Tadbirkorlik subyektlari tomonidan raqamli platformalardan foydalanish darajasi (biznes sohasidagi tashkilotlar umumiy soniga nisbatan foizda)[1]

Har bir ishlab chiqilgan raqamli platforma uchun beshta foydalanuvchi guruhini ajratish mumkin (3-rasmga qarang):

- platforma operatori – platformaning ish faoliyatini ta'minlaydi, funksional rivojlanish jarayonini boshqaradi;
- yetkazib beruvchilar – platformada reklama qilingan hamda sotiladigan tovarlar va xizmatlarni taqdim etish;
- iste'molchilar – tovar va xizmatlar xaridorlari;
- xizmat ko'rsatuvchi provayderlar – yetkazib beruvchilar va iste'molchilar uchun muhim bo'lgan funksional modullarni yaratish;
- regulyator – qonunchilik bazasiga rioya etilishini nazorat qiluvchi organ.



3-rasm: Raqamli platformadan foydalanuvchi guruhlar[2]

Har bir ishlab chiqilgan raqamli platforma iste'molchilar va yetkazib beruvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlaydigan biron-bir ommaviy iqtisodiy jarayon atrofida qurilgan.

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan
2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tadbirkorlar tomonidan ularning mahsulotlari “AliExpress” yoki “Ebay”ga joylashtirilib, ishlab chiqaruvchi o‘z logistika tizimini ko‘rmasdan, uni butun dunyodagi milliardlab mijozlarga namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xaridor, ushbu bozor platformalaridan foydalanib, barcha mumkin bo‘lgan narx va sifat jihatidan eng yaxshi mahsulotni tanlashi mumkin.

Platformadagi iqtisodiy jarayonlarning odatdagi o‘zaro ta’sir shakllaridan ajratib turadigan eng muhim xususiyatlaridan biri algoritmlashtirishdir. Platforma foydalanuvchi harakatlari o‘zgaruvchan-ligining hozirgi funksiyalarini cheklaydi: masalan, bozor platformasi sotib olish funksiyasini taqdim etishi mumkin, ammo xaridlarni to‘lash yoki kreditda qo‘llab-quvvatlamaydi. Rivojlangan sanoat platformalarining funksional imkoniyatlari juda moslashuvchan va xilma-xil bo‘lishi mumkin, ko‘plab o‘zaro aloqalarni ta’minlaydi. Shuningdek, platforma, tabiiy ravishda, barcha operatsiyalarni ushlab turadi va eslab qoladi. Platformalar asosida amalga oshirilayotgan iqtisodiy jarayonlar shaffof va tahlil qilish uchun qulaydir. Muhim platformalashtirish bilan mamlakatning butun iqtisodiyoti tabiiy ravishda raqamlashtiriladi va shaffof bo‘ladi: davlat iqtisodiyotining ko‘p bosqichli raqamli modeli har bir operatsiyaga qadar batafsil shakllanadi.

Hozirgi kunda jahon eksporti rivojlanishining global tendensiyasi elektron sotuvlar va onlayn eksportning o‘sishi hisoblanadi. Tashqi bozorga yo‘naltirilgan o‘z Internet-savdo saytini yaratishdan farqli o‘laroq, ko‘plab eksport qiluvchi kompaniyalar allaqachon tasdiqlangan Internet-savdo saytlaridan foydalanishni ma’qul ko‘rishadi. Ular elektron tijorat savdosini boshlashda eng past narxni ta’minlaydi. Hozirgi vaqtda turli xil tovarlar va xizmatlarni sotishni ta’minlaydigan ko‘plab elektron savdo maydonchalari mavjud. Eng mashhur raqamli platformalar qatorida Alibaba, Aliexpresse, eBay, Amazon, Etsy va boshqalarni qayd etish mumkin. Raqamli savdo texnologiyalaridan foydalanish katta moliyaviy sarmoyalarsiz xaridorlar sonini keskin oshirishi mumkin, bu biznes uchun juda foydali jarayon hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda ko‘p tarmoqli bozorlar mavjud, xususan, Alibaba.com, shuningdek, tor profilli raqamli platformalar faoliyati muayyan mahsulot yoki geografik joylashuvga qaratilgan. Odatda, yirik xalqaro bozorlar maqsadli auditoriyani aniqlab olish va milliy o‘ziga xosliklarni hisobga olish uchun domenlar bilan mintaqaviy filiallarni yaratadi, Bular jumlasiga Fransiya va Buyuk Britaniya kabi davlatlarni kiritishimiz mumkin. Xitoy onlayn sotishda yetakchi hisoblanadi, u butun dunyo bo‘ylab sotuvchilar va xaridorlarga xizmat ko‘rsatadigan ko‘plab bozorlarga ega. Eng mashhur bozorlarga:“Alibaba”, “Aliexpress”, “eBay”, “Amazon” kiradi. “Alibaba.com” elektron platformasi dunyodagi eng yirik elektron loyihalardan biridir. Ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni 240 ta mamlakat va mintaqalardan kelgan 260 milliondan ortiq odamni tashkil etadi, ular oyiga 185 millionta xaridni amalga oshirmoqdalar[8]. Alibaba - tashqi bozorlarga chiqishni ancha osonlashtiradigan, xaridorlar va sotuvchilar o‘rtasida asosiy aloqa amalga oshiriladigan onlayn do‘kon, shuningdek, B2B bozor maydonlarining biznes modelini amalga oshiradi. Alibaba ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va iste’molchilar uchun butun dunyo bo‘ylab tovarlar va xizmatlarni taqdim etadigan yagona axborot savdo maydonini tashkil etadi. Raqamli platformada Alibaba.com saytida dunyodagi har qanday kompaniya sotuvchi sifatida ro‘yxatdan o‘tishi mumkin. EBay.com bozori B2C va C2C biznes texnologiyalarini tatbiq etadigan dunyodagi eng taniqli onlayn platformalardan biridir[9]. B2C texnologiyasi (biznes iste’molchiga) tovar va xizmatlarni iste’molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotishni anglatadi, C2C (iste’molchi iste’molchiga) iste’molchilar o‘rtasida tovar va xizmatlarni sotishni ta’minlaydi. Elektron tijorat yuritish uchun ham turli xizmatlar yaratilgan bo‘lib, ular elektron biznesni yuritishga ko‘maklashadi. Bugungi kunda o‘z onlayn do‘kon yaratish uchun Bigcommerce.com, Shopify.com[10] va boshqa xizmatlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda raqamli platformalardan foydalanish barcha sohalarda, jumladan, mahsulotlar eksportida tub o‘zgarishlarga olib keladi. Mahsulotlar va xizmatlar eksportining an’anaviy shakllari bilan bir qatorda, to‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida innovatsion raqamli texnologiyalar paydo bo‘lmoqda.

Raqamli platformalar an’anaviy sanoat tarmoqlarida tobora ko‘proq paydo bo‘lib, bir qator o‘zgarishlarni olib keladi:

- sanoat bozorlari chegaralari, tarkibi va ulardagi raqobat qoidalarining o‘zgarishi;
- raqamli platformalar paydo bo‘lishi an’anaviy biznesdan ustun keladi;

Shuningdek, raqamli platformalarni rivojlantirishni rag‘batlan-tirish vositalariga quyidagilar kiradi:

- ma’lumotlarni himoya qilish standartlari va qoidalarini uyg‘unlashtirish;
- transchegaraviy ma’lumotlar almashinuvini soddalashtirish;
- xalqaro elektron tijoratni rivojlantirish;

- raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish;
- ishlab chiqarish va ayirboshlash, ulardan keraksiz vositachilik aloqalarini yo‘q qiladi, samaradorlikni keskin oshiradi;
- xalqaro bozorlar va mehnat unumdorligi.

Raqamli platformalar asosida eksportni rivojlan-tirishga qaratilgan savdo-eksportni qo‘llab-quvvatlash va biznes tuzilmalarini rivojlantirish bo‘yicha davlat muassasalari o‘rtasida yaqin hamkorlik qilish zarurati mavjud. Istiqbolli jihatlardan yana biri eksport xizmatlari ehtiyojlariga javob beradigan milliy raqamli platformani yaratish hisoblanadi. Raqamli platformalarning rivojlanishi ko‘plab yangi imkoniyatlarni yaratishi mumkin.

Raqamli platformalarning rivojlanishi eksport bo‘yicha muammolarni hal qilishda, shu jumladan, iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bog‘liq holda amalga oshishi mumkin. Bu iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni yaxshilashga yordam berishi hamda innovatsiyalar va mahsuldorlikni oshirish uchun harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Platformalar tomonidan taqdim etilgan infratuzilma aloqa, operatsiyalar, ma’lumot almashish va hamkorlik samaradorligini oshirishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakat-lardagi mahalliy firmalar raqamli platformalar tomonidan taqdim etilgan raqamli xizmatlardan foydalana olishsa, sezilarli foyda olishlari mumkin. Raqamli platformalar an’anaviy bitimlarga nisbatan tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi mumkin, shuning uchun, ayniqsa, mikrofirmalar hamda kichik va xususiy tadbirkorlar uchun ichki va tashqi bozorda keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-son Qonuni Toshkent sh., 2012-yil 2-may,
2. Negroponte N. Being digital / N. Negroponte – Text: electronic// Alfred A. Knopf, Inc – 1995. – URL: http://archives.obs-us.com/obs/english/books/nn/ch19epi.htm (дата обращения 08.11.2020).
3. Mullajanov I.T. “Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati rivojlantirish” Innovative Development in Educational Activities VOLUME 3 Social Sciences & Humanities March, 2024
4. Mamasoatov D.R. “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish bo‘yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanishni takomillashtirish”.Iqtisodiyot va ta’lim 24 (5), 394-399 2023-y.
5. Mamasoatov D.R. Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirish samaradorligiga tasir etuvchi omillarni aniqlash istiqbollari. Science and innovative development jurnali 5 (3), 122-133 2022-y.
6. Sergiy Zorya Jahon bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasida qishloq xo‘jalik muammolari bo‘yicha yetakchi iqtisodchisi.
7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati - Toshkent 2010.
8. www.undp.org/facs/publications/working-power-multi-stakeholder-processes
9. Alibaba.com
10. EBay.com
11. Bigcommerce.com, Shopify.com

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISHDA SOLIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI

Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti

Rizayev Xabib Abduraufovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti

Namazov Sa’dulla Namozovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada respublikamizda iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlar dastagini to‘g‘ri qo‘llash masalalari muhokama qilingan. Shu bilan birga, soliq majburiyatlari hajmini hisoblash uchun ma’lumotlarning shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ahamiyati ta’hlil qilindi. Innovatsion raqamli texnologiyalarni doimiy ravishda korxona ishlab chiqish jarayoniga joriy etish orqali amalga oshiriladigan rivojlanishning yangi bosqichida, soliq ma’murchiligini takomilashtirish, yashrin iqtisodiyotni kamaytirish haqida ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va boshqa sharoitlarni o‘rganildi va takliflar berildi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, yashrin iqtisodiyot, soliq ma’muriyati, dasturiy ta’minot kompleksi, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This article discusses the issues of digitalization of the economy and the correct use of the tax lever to reduce the hidden economy in our republic. At the same time, the importance of using digital technologies in the formation of data for calculating the amount of tax obligations was analyzed. At the new stage of development, which is carried out by constantly introducing innovative digital technologies into the enterprise development process, socio-economic, organizational and other conditions were studied and suggestions were made about improving tax administration and reducing the hidden economy.

Key words: digital economy, hidden economy, tax administration, software complex, digital technologies.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос цифровизации экономики и правильного использования налогового рычага в сокращении теневой экономики в нашей республике. При этом проанализирована важность использования цифровых технологий при формировании данных для расчета суммы налоговых обязательств. На новом этапе развития, который осуществляется за счет постоянного внедрения инновационных цифровых технологий в процесс развития предприятия, изучены социально-экономические, организационные и другие условия и внесены предложения по совершенствованию налогового администрирования и сокращению теневой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, скрытая экономика, налоговое администрирование, программный комплекс, цифровые технологии.

KIRISH

Soliq tizimi iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida mamlakatni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor maqsadlariga erishishning eng muhim mexanizmi hisoblanadi.

2018-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi soliq yukini kamaytirish uchun qulay muhit yaratish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, soliq ma’murchiligini takomillashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish vazifalarini amalga oshirish imkonini berdi.

Mamlakatda pul-kredit, valyuta, soliq va tashqi savdo siyosati sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ekspertlarning baholashlari va tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida o‘tkazilayotgan so‘rovlar iqtisodiyotdagi yashirin aylanmaning, ayniqsa, savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta’mirlash, turarjoy xizmatlarini ko‘rsatish kabi sohalarda yuqori darajada saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi, bu esa vijdonli tadbirkorlarning iqtisodiy manfaatlariga putur yetkazmoqda, ular uchun teng bo‘lmagan biznes yuritish shartlarini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma’muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish maqsadida Ozbekiston Respublikasi president farmoni mavjud va alohida sohalarga qaratilgan.

2021-yil 1-yanvardan[1]:

a) 2022-yil 1-yanvargacha bo‘lgan muddatga umumiy ovqatlanish sohasidagi kichik tadbirkorlik sub’ektlarining bank kartalari va kontaktsiz to‘lovlardan foydalangan holda jismoniy shaxslardan olingan daromadlari umum belgilangan soliqlarni to‘lashga majburiy tartibda o‘tish maqsadida umumiy daromadga kiritilmasligi tartibi joriy etiladi;

b) rieltorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 25 foizdan 13 foizgacha pasaytiriladi;

d) qurilish korxonalariga hisobot davri uchun mehnatga haq to‘lash fondi jami miqdorining 10 foizidan oshmagan hajmda (ijtimoiy soliq summasini hisobga olmaganda) ish haqini naqd pulda to‘lash huquqi bilan shartnoma tuzmasdan muddatli ravishda ishchilar yollashga ruxsat beriladi. Bunda: qurilish tashkilotlari belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliqning to‘lanishini ta’minlaydi, shuningdek, har oyda shartnoma tuzmasdan yollangan ishchilarga to‘langan naqd pul miqdorini ko‘rsatgan holda ularning reyestrini davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilib boradi;

e) davlat soliq xizmati organlari qurilish tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan reyestrlar asosida soliq to‘lovchilarni avtomatik ravishda identifikatsiya qiladi va to‘langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq hisobga olinishini ta’minlaydi.

Belgilansinki, shartnoma tuzmasdan ishga yollangan shaxslarga ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar ro‘y bergan taqdirda xodimlarni ijtimoiy himoya qilishni nazarda tutuvchi qonun hujjatlari normalari tatbiq etiladi.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha maxsus komissiya (keyingi o‘rinlarda – Maxsus komissiya) 1-ilovaga muvofiq tarkibda, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha hududiy komissiyalar (keyingi o‘rinlarda – hududiy komissiyalar) 2-ilovaga muvofiq namunaviy tarkibda tashkil etilishi ta’kidlangan.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan quyidagilar Maxsus komissiyaning asosiy vazifasi etib belgilashda:

- biznesning “soyadan” chiqishini rag‘batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, soliq rejimini soddalashtirish hamda naqdsiz to‘lovlarni kengaytirish choralarini ko‘rish;
- qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni shakllangan biznes yuritish amaliyotiga moslashtirish;
- soliq va bojxona ma’muriyatchiligi vositalari hisob va tushumlarning to‘liqligiga, shu jumladan soliqlardan bo‘yin tovlagan jismoniy va yuridik shaxslarni aniqlash va javobgarlikka tortishga qaratilishini ta’minlash;

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV Toshkent shahri, 2020-yil 30-oktyabr.

- yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini “pulni yuvish”ga qarshi kurashish sohasidagi tashkilotlar faoliyati bilan muvofiqlashtirish;
- ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishga keng jamoatchilikni, ommaviy axborot vositalarini jalb qilish, jamiyatda yashirin iqtisodiyotga murosasizlik hissini shakllantirish, legal biznes yuritishning nufuzini oshirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Shumpeter (2007) ikki turga bo‘linishni taklif qiladi: ishlab chiqarishda mumkin bo‘lgan texnik nosozlik bilan bog‘liq xavf va tijorat muvaffaqiyatining etishmasligi bilan bog‘liq xavf.

Pokrovskiy (2011) ko‘rib chiqish uchun xavfning tarkibiy xususiyatlarini taklif qiladi: xavf, xavfga moyillik, xavfga sezgirlik (zaiflik), boshqa xavf-xatarlar bilan o‘zaro ta’sir qilish, xavf haqida mavjud ma’lumotlar, xavf miqdori, xavf bilan bog‘liq xarajatlar (xarajatlar), o‘ziga xoslik xavflar.

Shvesiyalik iqtisodchi olim Becker (2004) tomonidan xufiyona iqtisodiyotning o‘ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo‘lmaydigan qismi ekanligi ta’kidlanib, qaysiki ular rag‘batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko‘rsatishlarini ma’lum qilgan.

Aronov, Kashinlar (2004) o‘zining tadqiqotida esa, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o‘rgangan holda soliq to‘lashdan bosh tortgan soliq to‘lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatlari, kelgusida har bir soliq to‘lovchi o‘z xohishi bilan soliq to‘lash majburiyati bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish sohasida qo‘llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarni amalga oshirishgan.

Lekin, Jalonkinani (2012) fikrlaridan butunlay boshqacha taklif bilan Toshmatov “Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli to‘g‘risida”gi kitobida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini rag‘batlantirish hamda ularning debitor va kreditor qarzlarini qisqartirish va ularni faolligini oshirish orqali undirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar bergan.

Insoniyat raqamli texnologiyalarga asoslangan to‘rtinchi sanoat inqilobining ostonasiga yetdi. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida globallashuvni to‘xtanish imkoniyati yoqligi haqida gapirila boshladi endi butun dunyodagi barcha sohalarda raqamlashtirishni qo‘llash, yozish va muhokama qilishni boshladilar. Haqiqatan ham, barcha tarmoqlarning raqamli transformatsiyasi davom etmoqda. Dubayda o‘tgan Jahon hukumati sammitida inson miyasi va uning raqamli versiyasi o‘rtasida axborot almashinuvi haqida munozaralar bo‘lib o‘tdi.

Dastlabki, “raqamli iqtisodiyot” atamasi Yaponiyada 1990-yillardagi Yapon inqirozining balandligida birinchi marta qayd etilgan. Keyinchalik g‘arbga 1995-yillarda Don Tapskottning “Raqamli Iqtisodiyot: tarmoq ma’lumotlari davrida imkoniyatlar va tahdidlar” kitobida qayd etilgan. Internet biznes yo‘lni albatda o‘zgartiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qo‘yilgan masala muamosi ko‘rib chiqishda ekspert baholash, deduktsion va induktsion belgilash yondashuv etakchi usuli bo‘ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot nafaqat axborot iqtisodiyoti, balki IT texnologiyalaridan foydalanish soliq o‘rganlari va qonunchiligiga ixtiyoriy rioya etishning va amal qilishni ta’minlashga imkon beruvchi ishonch iqtisodiyoti tizimi hamdir.

Soliq ma’murchiligining samaradorligi soliq tizimining holati, uning yaxlitligi, barqarorligi, fiskal va iqtisodiy samaradorligidan iboratdir. Mamlakat byudjet tizimini soliq to‘lovlari bilan to‘ldirishning barqarorligi, soliq huquqbuzarliklarini aniqlash va oldini olishning o‘z vaqtida amalga oshirilishi va soliq to‘lovchilarga o‘z konstitutsiyaviy vazifalarini bajarishda qulay shart-sharoitlarni ta’minlash qanchalik yuqori ekanligiga bog‘liq.

Hozirgi bosqichda soliq organlarining asosiy vazifasi soliq to‘lovchilar bilan bevosita o‘zaro munosabatlarni deyarli to‘liq chiqarib tashlash va barcha operatsiyalarni elektron formatga o‘tkazishdir. Yaqinda soliq xizmati elektron shakldagi hujjatlar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha samarali ish olib bordi. 2018-yilning oktyabridan boshlab O‘zbekistonda “katta ma’lumotlar” asosida yirik loyiha ishga tushirildi va u QQS to‘lovini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga asos bo‘ldi. Chirchiq shahri, Toshkent viloyati, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hududida tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektron hisob-fakturalarni joriy etish bo‘yicha tajriba allaqachon muvaffaqiyatli o‘tkazilgan.

Soliqdan qochish holatlarini tahlil qilishda dunyo amaliyotida yana bir muhim uslubiyot qo‘llanildiki, bu milliy iqtisodiyot darajasida yashirin iqtisodiyotning holati, uning yuzaga kelish sabablari hamda soliqdan qochish

holatlari bo‘yicha qo‘llanilayotgan iqtisodiy-huquqiy choralarning qanday samara berayotganligi ham birgalikda tahlil qilinadi.

Darhaqiqat, soliqdan qochish holatlarining yuzaga kelishida eng ko‘p ta’sir omili bu yashirin iqtisodiyotning darajasi bo‘lib, unga oid davlat siyosati o‘z navbatida soliqdan bo‘yin tovlashga oid mexanizmlar bilan o‘zaro bog‘lanib ketadi. Bundan tashqari aniqlangan holatlarni huquqiy jihatdan baholab, ularga mos adolatli javobgarlik choralarini belgilash ham muhim sanaladi. Biz tadqiqotimizning ushbu bobining boshida soliqdan qochishning usullarini ham nazariy ham amaliy jihatdan tavsiflagan edik. Ushbu usullar o‘z navbatida soliqdan qochish choralariga qo‘llanilgan javobgarlik usullarini ham ko‘rib chiqishni taqozo etadi, albatta, ushbu paragrafimizda buning tahliliga ham to‘xtalib o‘tamiz.

Ma’lumki, soliq tizimida soliqdan qochish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik va yashirin iqtisodiyotning oldini olish maqsadida elektron hisobvaraq-fakturalari bilan qamrov darajasi 100 foizga, hisobotlarni avtomatlashtirish 76 foizdan 86 foizga etkazilganligi, “Tahlika-tahlil” AAT, “E-ijara”, “Avtokameral”, “Eimtiyoz”, Tax.gap, “Cashback”, “Soliq” mobil ilovasi va boshqa qator dasturiy mahsullarning ishga tushirilishi yashirin iqtisodiyotni jilovlash va soliq tushumlariga ijobiy ta’siri bilan birga, teng raqobat sharoitini yaratish hamda tadbirkorlarga majburiyatini bajarishda haqiqiy ko‘makchiga aylanmoqda. Ammo, shu bilan birgalikda tahlillar ko‘rsatishicha soliqdan qochish holatlarida yashirin iqtisodiyotning darajasining ta’siri yuqoriligicha qolmoqda. Buni alkogol mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanayotgan hamda noqonuniy spirt ishlab chiqargan tadbirkorlik sub’ektlarida 2021-2022 yillar davomida o‘tkazilgan sayyor tekshirishlar natijalari tahlili natijalarida ham ko‘rish mumkin.

Yangi tizim yordamida QQS to‘lov zanjirlarining monitoringi deyarli real vaqt rejimida joriy etildi. Tizim soliq to‘lovchi-kontragent zanjirlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash imkonini berdi, to‘lov evaziga foydalanish sxemalari iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lib qoldi, QQS to‘lovlari o‘sa boshladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik subektlari onlayn-kassa apparatlariga o‘tishi bilan to‘lov miqdori, tovarlar (xizmatlar) miqdori va nomi, QQS va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa ma’lumotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlarni qayta ishlash markaziga (ma’lumotlar markaziga) o‘tkazila boshlandi va bu biznesning shaffofligini ta’minladi, tadbirkorlar va soliq organlari o‘rtasida ishonch muhitini yaratdi, chunki axborotni tezkor olish va ularni avtomatlashtirilgan tahlil qilish qo‘shimcha tekshirishlarni talab qilmaydi.

Soliq organlarining ma’lumotlar markazini modernizatsiya qilish loyihasi iqtisodiyotning “soya” va “xufiyona” sektorini qisqartirish, iqtisodiyotning shaffofligini oshirish, teng raqobat sharoitlarini yaratish bilan bog‘liq katta umidlarga ega edi. Soliq to‘lovchilar uchun bu “aqlli” portallar va individual faol xizmatlarni yaratish, yanada qulay ish sharoitlari va minimal ma’muriy yukni kasb etadi.

Yanada raqamli texnologiyalar rolini oshirish va xufiyona iqtisodiyotiga qarshi kurashish uchun muhim chora sifatida soliq ma’murchiligi samaradorligini oshirish, davlat iloji boricha tezroq ma’lumotlar markazi loyihasi vazifalarni amalga oshirilishini ta’minlash kerak. Ma’lumotlar markazini kengaytirish va soliq ma’murchiligining texnologik jarayonlarini modernizatsiya qilish qo‘lda bajariladigan operatsiyalar hajmini, axborotni qayta ishlash vaqtini qisqartiradi, protseduralarni imkon qadar rasmiylashtiradi va avtomatlashtiradi hamda soliq to‘lovchi xizmati sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. To‘liq avtomatlashtirish soliq ma’murchiligini takomillashtirishning asosiy vektorlaridan biridir.

QQS to‘lovini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi maqsadida tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektron hisobvaraq-fakturalarni joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari ommaga e’lon qilinishi, mavjud muammolar umumlashtirilishi va ularni hal etish bo‘yicha favqulodda choralar ko‘rilishi lozim.

Hozirgi kunda soliq ma’murchiligi, shu jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish, soliq bazasini kengaytirish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish sohasidagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- soliq organlari faoliyatiga manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan samarali nazorat va o‘zaro hamkorlikni, shuningdek davlat xizmatlaridan foydalanish tizimining yaxshi yolga qo‘yilmaganligi;
- soliq huquqiy munosabatlarining holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, soliq siyosatining o‘rta va uzoq muddatli yo‘nalishlarini ishlab chiqish, joriy soliq muammolarini o‘rganish, shuningdek soliq tushumlarini byudjetga ishonchli prognozlashtirishni amalga oshirish;
- soliq nizolarini sudgacha hal etish instituti imkoniyatlari, soliq apellyatsiyasi, ussularining etarliy darajada qo‘llanilmayapti;
- soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularning soliqlarni to‘lash bo‘yicha o‘z konstitutsiyaviy burchini ixtiyoriy ravishda bajarishini ta’minlashga qaratilgan ishlar, ayniqsa mahaliy joylarda nomukammallik;

- bozorlar va savdo majmualari faoliyati ustidan soliq nazoratining to‘g‘ri samaradorligining yo‘qligi mahalliy byudjetlarni to‘ldirish uchun mavjud zaxiralarni to‘liq safarbar etishni, shuningdek naqd pul qaytarilishini kafolatlashni ta’minlamaydi;
- soliq yig‘ish va boshqa majburiy to‘lovlar ko‘rsatkichlarini yaxshilash, korrupsiyaning oldini olish, shuningdek, soliq organlarida xizmat qilish uchun vijdonli va yuqori malakali xodimlarni jalb qilish uchun davlat soliq xizmati organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish kerak.
- Soliq ma’murchiligini takomillashtirish nafaqat qonunchilikka asoslanadi, balki soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi munosabatlar madaniyati va mafkurasini o‘zgartirishni talab qiladi-soliq ma’murchiligi tizimini yanada rivojlantirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, soliq ma’murchiligi jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, unga kamroq vaqt sarflash va ma’lum bir soliq to‘lovchiga kerakli dolzarb ma’lumotlarni tezroq olish imkonini beradi. Bundan tashqari, dasturiy mahsulotlarda ishlash mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan biznes-jarayonlarga “oshkoralik” beradi. Bu omillarning barchasi umuman soliq ma’murchiligi samaradorligini oshirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashga qarshi kurash choralarini kuchaytirish maqsada kompleks iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashga qarshi kurashishdan iborat. Ushbu choratadbirlar soliqqa rioya qilishni kuchaytirish, daromadlarni yig‘ishni ko‘paytirish, adolatli va shaffof biznes muhitini mustahkamlashga qaratilgan.

Soliq ma’muriyatchiligini kuchaytirish uchun soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni yanada samarali aniqlash va oldini olish uchun soliq ma’muriyatining imkoniyatlarini, jumladan texnologik infratuzilma, ma’lumotlar tahlili va malakali ishchi kuchini oshirish.Yashirin iqtisodiyot bilan shug‘ullanishga moyilligi yuqori bo‘lgan tarmoqlar va shaxslarga qaratilgan riskga asoslangan audit yondashuvlarini amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi” (yangi tahriri), 2019-yil 30-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020-yil 25-yanvardagi 2020-yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-sonli.
4. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018-yil 3 -iyuldagi PQ-3832-sonli.
5. Tohirovich, Q.N. (2021). XALQARO MOLIYAVIY HISOB STANDARTLARIGA O ‘TISH DOLZARBLIGI. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 1(2), 56-64.
6. O‘G‘Li, R.U.R., Tohirovich, Q. N., & O‘G‘Li, Q. N. A. (2021). BILVOSITA SOLIQLARNING SOLIQ TIZIMIDAGI TUTGAN O’RNI VA AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 719-723.
7. Sultonova, M. A. (2021). MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI. Scientific progress, 2(8), 608-613.
8. Abduraximov, B. U. O., Qudbiyev, N. T., & Mominov, I. L. O. (2021). AYLANMA MABLAG‘LARNI BOSH-QARISH TIJORAT KORXONASI MUVAFFAQIYATINING ASOSI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 724-733.
9. Rasulova, Shaxnoza Xatamovna (2021). ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNI TO‘G‘RI HISOBGA OLISH ZARURIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 713-718.
10. Abduxalimovna, A. Z., & Nabiyevich, I. I. (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11), 86-92.
11. Ibragimova, Z. (2021). BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINING HOLATI VA UNING FAOLIYATINI BAHOLASH. Scientific progress, 2(2), 811-815.
12. Кудбиев, Д. (2021). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕТА АРЕНДОВАННЫХ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ. In Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp. 119-124).
13. Kunduzova, K. I. (2020). The problems of accounting of liabilities in insurance organizations and its improvement. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 312-318.
14. Нурматов, О. Т. (2018). Вопросы соответствия международным стандартам национального стандарта бухгалтерского учёта Республики Узбекистан. Вопросы науки и образования, (11 (23)).
15. Давлятшаев, А. А. (2021). Процессы Интернационализации и Их Роль в Развитии Межвузовских Отношений. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11), 48-55.

16. Темиркулов, А. А. (2021). Страхование жизни: зарубежный опыт и необходимость развития в Узбекистане. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11), 56-63.
17. Тошмаматов, Н. Т., Темиркулов, А. А., & Хабижанов, С. К. (2019). 4.1. Особенности организации внутреннего аудита промышленного предприятия на примере Республики Узбекистан. Аудит и финансовый анализ, (1), 77-81.
18. Akbaralievich, P. E. A. (2021). Theoretical Bases Of The Organization Of Private Capital Accounting In The Republic Of Uzbekistan. EFFLATOUNIA-Multidisciplinary Journal, 5(2).
19. Якубов, В. Г. (2021). ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(7), 37-40.
20. Rakhimovich, F. I., & Rakhimovich, F. H. SOME ASPECTS OF ECONOMIC ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF ECONOMIC OBJECTS.
21. Ugli, A. B. U., Tohirovich, Q. N., Khatamovna, R. S., & Nigoraxon, M. (2021). Current Assets and Their Role in Company Activity. Journal of Marketing and Emerging Economics, 1(7), 25-30.
22. Abduazizov, S. R. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА И АНАЛИЗА ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ. Theoretical & Applied Science, (6), 461-463.
23. Qudbiyev, N. T., Ulug'Bek Erkinjon, O. G. L., & Mominov, I. L. O. (2022). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI NAZORATNING SAMARALI TIZIMI SIFATIDA ICHKI AUDITNING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 3(1), 449-457.
24. Abduazizov, S. R. (2021). DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI. Scientific progress, 2(8), 250-256.
25. Polatjonogli, T. M. A., & Abdulajonovich, S. M. (2022). HUNTING A SUITABLE TYPE OF LEGAL ENTITYFOR CENTRAL ASIAN BUSINESSMEN IN CHINA. Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали, 2(1), 75-77.
26. Садиков, М. А. (2019). Нормативно-правовые аспекты привлечения иностранных инвестиций в Республику Узбекистан. Молодой ученый, (23), 539- 541.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHNING JORIY HOLATI TAHLILI

Rahmatullayeva Dilbar Olimovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi asistenti

Annotatsiya: Jahon hamjamiyati ekologik muammolar bilan tobora ko‘proq kurashayotgan bir paytda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish muhim imperativ bo‘lib chiqdi. Mo‘l-ko‘l tabiiy resurslarga ega va iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lining hal qiluvchi pallasida turibdi. Ushbu maqola O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishi bilan bog‘liq imkoniyatlar, muammolar va siyosat oqibatlarini o‘rganadi. Mavjud adabiyotlar, empirik ma’lumotlar va siyosiy tahlillarga tayangan holda, ushbu maqola O‘zbekistonning ekologik barqarorlikni ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlarining hozirgi holati haqida tushuncha beradi, va davlat aralashuvning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi, hamda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun tavsiyalarni va takliflarni ishlab chiqadi.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, uglerod chiqindilari, “yashil” o‘sish, subsidiya, “yashil” investitsiya.

Abstract: As the global community increasingly grapples with environmental issues, transitioning to a green economy has become an important imperative. Uzbekistan, which has abundant natural resources and a developing economy, is at a crucial stage of its development. This article examines the opportunities, challenges, and policy implications of Uzbekistan’s transition to a green economy. Based on existing literature, empirical data, and policy analysis, this article provides an understanding of the current state of Uzbekistan’s efforts to ensure environmental sustainability, and outlines the main directions of state intervention, as well as recommendations for sustainable economic development. and develops proposals.

Key words: green economy, carbon emissions, green growth, subsidy, green investment.

Аннотация: Поскольку мировое сообщество все чаще сталкивается с экологическими проблемами, переход к “зеленой” экономике стал важным императивом. Узбекистан, обладающий богатыми природными ресурсами и развивающейся экономикой, находится на решающем этапе своего развития. В данной статье рассматриваются возможности, проблемы и политические последствия перехода Узбекистана к зеленой экономике. На основе существующей литературы, эмпирических данных и анализа политики в данной статье дается понимание текущего состояния усилий Узбекистана по обеспечению экологической устойчивости, а также излагаются основные направления государственного вмешательства, а также рекомендации по устойчивому экономическому развитию. и разрабатывает предложения.

Ключевые слова: зеленая экономика, выбросы углерода, зеленый рост, субсидия, зеленые инвестиции.

KIRISH

Barqaror va iqlimga asoslangan iqtisodiy o‘sish yo‘li, shuningdek, Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) maqsadlariga erishish O‘zbekistonning rivojlanish traektoriyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Jahon banki tomonidan o‘ziga xos rivojlanish sur’atiga ega ekanligi e’tirof etilgan O‘zbekiston 2030-yilga borib sanoati rivojlangan, o‘rtadan yuqori daromadli mamlakatga aylanishga tayyor. Keng miqyosda qo‘llab-quvvatlangan ushbu ulkan istiqbol mamlakatning liberallashtirishga qaratilgan murakkab islohotlarni amalga oshirishga sodiqligini ta’kidlaydi. narxlar, yerga egalik huquqini isloh qilish va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish. Hozirdan boshlab amalga oshirilayotgan bu islohotlar o‘tmishdagi asosan ichkariga qaratilgan iqtisodiy modeldan sezilarli darajada chetga chiqishni ko‘rsatib, xususiy biznesning global va mintaqaviy qiymat zanjirlariga yanada kengroq integratsiyalashuviga o‘tishdan dalolat beradi.

Ekologik toza yechimlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va kam uglerodli texnologiyalarga xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish kabi tashabbuslar Parij kelishuvida qayd etilganlar kabi iqlim bo‘yicha majburiyatlarni bajarishda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun juda muhimdir. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish turli tarmoqlar bo‘yicha siyosat, tartibga solish va fiskal chora-tadbirlarni amalga oshirishni, shuningdek, barcha

darajalarda samaradorlik, sinergiya va samarali amalga oshirishni rag‘batlantirish uchun tarmoq siyosatlarini birlashtirishni talab qiladi[1].

Bundan tashqari, sanoat tarmoqlarida korporativ va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish va ekologik barqaror amaliyotlarni rag‘batlantirish ifloslanishni, uglerod chiqindilarini kamaytirish va tabiiy resurslarni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega. “Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha Milliy idoralararo kengashning tashkil etilishi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish va O‘zbekistonning “yashil” o‘tish kun tartibini ilgari surish uchun tarmoqlararo integratsiyaga ustuvor ahamiyat berishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga intilishi barqaror rivojlanish va barqarorlik uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Qayta tiklash bo‘yicha sa’y-harakatlarni “yashil” maqsadlarga muvofiqlashtirish va keng qamrovli siyosat choralarini amalga oshirish orqali O‘zbekiston inklyuziv va ekologik barqaror o‘sish yo‘lini belgilashi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil o‘sish umumiy ijtimoiy farovonlik va adolatni birinchi o‘ringa qo‘yadigan “yashil” iqtisodiyot kontseptsiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayni paytda ekologik xavf va ekologik kamchiliklarni yumshatadi (UNEP, 2011)[2]. Garchi so‘nggi paytlarda “yashil” o‘sish g‘oyasi xalqaro munozaralarda o‘rin egallagan bo‘lsa-da, u uzoq vaqtdan beri ilmiy hamjamiyatlarda, xususan, atrof-muhit va ekologik iqtisodiyot sohasida muhokama va tahlil mavzusi bo‘lib kelgan.

“Yashil iqtisodiyot” atamasi birinchi marta 1989-yilda Birlashgan Qirollik hukumati tomonidan topshirilgan va bir guruh taniqli atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan tuzilgan “Yashil iqtisodiyot uchun loyiha” nomli hisobotda kiritilgan (Barbier, 2009)[3]. Biroq, uning sarlavhasiga qaramay, hisobot “yashil” iqtisodiyot kontseptsiyasini chuqurroq o‘rganmagan, bu atama aniqlangan tushunchadan ko‘ra ko‘proq kontseptual asos sifatida ishlatilganligini ko‘rsatadi.

2008-yilda bu atama global moliyaviy inqirozga javoblar kontekstida qayta tiklanishni boshdan kechirdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) 2008-yil oktyabr oyida ekologik barqaror sektorlarga investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va an’anaviy, resurslarni ko‘p talab qiladigan va ifloslantiruvchi sanoatlarni ekologik toza sanoatga aylantirish uchun “yashil” iqtisodiyot tashabbusini boshladi. Keyinchalik, 2009-yil aprel oyida global “yashil” yangi kelishuv (GGND) hisoboti e’lon qilindi, unda iqtisodiyotni qayta qurish va global iqtisodiy barqarorlik bo‘yicha chora-tadbirlar taklif qilindi. UNEPning “yashil” iqtisodiyot kontseptsiyasini shakllantirish va ilgari surishdagi hal qiluvchi roli vazirlar va delegatlar tomonidan 2010-yil fevral oyida Nusa Duada bo‘lib o‘tgan Global atrof-muhit forumida e’tirof etildi (Allen va Klouth, 2012)[4].

2011-yilda UNEP “yashil” iqtisodiyot hisobotini e’lon qildi, u “yashil” iqtisodiyotning amaliy ta’rifini taqdim etdi va keyinchalik ko‘plab nashrlarda keng iqtibos keltirildi. UNEP ma’lumotlariga ko‘ra, “yashil” iqtisodiyot inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshiradi, shu bilan birga ekologik xavf va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytiradi. U past uglerod chiqindilari, resurslar samaradorligi va ijtimoiy inklyuzivlik bilan tavsiflanadi (UNEP, 2011). Xalqaro miqyosda ma’qullangan ushbu ta’rif eng keng qamrovli bo‘lib qolmoqda, ammo ilmiy adabiyotlarda “yashil” iqtisodiyotning turli talqinlari mavjud bo‘lib, kamida beshta aniq ta’riflar aniqlangan.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Iqlim o‘zgarishlarini hal qilmasdan turib, O‘zbekistonning rivojlanish istiqbollariga erishib bo‘lmaydi. O‘zbekiston jadal iqtisodiy o‘sish traektoriyasida bo‘lishiga qaramay, bu o‘sish emissiya intensivligining kamayishi bilan bir hil trendga ega emas. Iqlim o‘zgarishining yaqin oqibatlari O‘zbekistonning ulkan iqtisodiy maqsadlariga ikkita asosiy sababga ko‘ra jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi. Birinchidan, prognoz qilinayotgan aholi va iqtisodiy kengayish muhim resurslar va ekotizimlarga barqaror bo‘lmagan bosim o‘tkazadi, bu esa hozirgi traektoriyani barqaror bo‘lmasligiga olib keladi. Ikkinchidan, moslashuv chora-tadbirlarining yo‘qligi O‘zbekistonni o‘zining geografik va ekologik xususiyatlari, barqaror iqtisodiy tuzilmalari tufayli iqlim bilan bog‘liq jiddiy zararlarga zaif qoldiradi.

Energiyadan samarasiz foydalanish har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi, bunda elektr energiyasi ishlab chiqarish, issiqlik ta’minoti va binolar energiya yo‘qotilishining muhim manbalari hisoblanadi. O‘zbekistonning mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining deyarli 40% xizmat muddatini

1 Uzbekistan Energy/Power Sector Issues Note, World Bank, 2013

2 UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. [Retrieved 2015-11-03] Available at: http://www.unep.org/greeneconomy/Portals/88/documents/ger/ger_final_dec_2011/Green%20EconomyReport_Final_Dec2011.pdf


3 Barbier, E. B. (2009). Rethinking the Economic Recovery: A Global Green New Deal. Report prepared for the Economics and Trade Branch, Division of Technology, Industry and Economics, UNEP.

4 Allen, C., Clouth, S. (2012). A Guidebook to the Green Economy. Issue 1: Green Economy, Green Growth, and Low-Carbon Development – History, Definitions and a Guide to Recent Publications. UN Division for Sustainable Development.

o‘tgan bo‘lib, elektr ta’minotida uzilishlarga olib keladi[5]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalari salohiyati 270 million tonna referent yoqilg‘ini tashkil etadi, bu energiya resurslariga yillik ehtiyojdan uch barobar ko‘proqdir va bu salohiyatning katta qismi quyosh energiyasiga to‘g‘ri keladi[6]. Quyosh elektr energiyasi 10 yil ichida dunyo bo‘ylab energiya xarajatlarini 80% ga kamayishiga olib keldi va quyosh nuri ko‘p bo‘lgan O‘zbekistonda yanada qulayroqdir[7].

Makroiqtisodiy modellashtirish shuni ko‘rsatadiki, iqlim o‘zgarishi ta’siri iqtisodiy o‘zgaruvchanlikni kuchaytiradi va o‘sish istiqbollarini bo‘g‘adi, 2050 yilga kelib iqtisodiyot iqlim bilan bog‘liq zararlarsiz bo‘lganidan 10 foizga kichikroq bo‘ladi. Ushbu prognozlar iqlim o‘zgarishi “ho‘l-issiq” yoki “quruq-issiq” shaklda namoyon bo‘lishidan qat’i nazar, haqiqiydir. Iqtisodiy modellashtirish dekarbonizatsiya harakatlarining potentsial traektoriyasini yanada ko‘rsatadi. Sof nol emissiyaga o‘tish samaradorlikni oshirish va bozor imkoniyatlarini kengaytirish kabi iqtisodiy manfaatlarni va’da qiladi. Bundan tashqari, emissiyalarning kamayishi makroiqtisodiy hisob-kitoblarga kiritilgan mahalliylashtirilgan havo ifloslanishining kamayishi natijasida kelib chiqadigan sog‘liq uchun foyda bilan bog‘liq.

Biroq, o‘tish davrida katta investitsiya talablari va energiyani ko‘p talab qiladigan texnologiyalardan kam uglerodli texnologiyalarga tez o‘tish uglerodli ishlab chiqarish omillari samaradorligini vaqtincha pasaytirishi va boshqa investitsiyalarga, xususan, investitsiyalarni siqib chiqarishga olib kelishi mumkin. Shunga qaramay, sof nol emissiya ega iqtisodiyotga o‘tishning ijobiy iqtisodiy ta’siri bu qiyinchiliklarni keng miqyosda qoplaydi, natijada yillik o‘sish yuqori bo‘lsa-da, dekarbonizatsiyasiz kutilgan hajmga o‘xshash iqtisodiyotga olib keladi.



1-rasm: YaIMning iqlim o‘zgarishi va o‘zgarmagan holatda o‘zgarishlari prognozlari

Manba: Jahon Bankining O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishlari haqida hisoboti


Energiya subsidiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish, dekarbonizatsiya uchun muhim qadam va mavjud hukumat siyosati dastlab dastlabki yillarda o‘sishning vaqtincha yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Biroq, bu siyosat o‘zgarishi, ayniqsa, havo ifloslanishini kamaytirish nuqtai nazaridan uzoq muddatli foyda keltirishi kutilmoqda. Modellashtirish hukumat to‘rt yil davomida ijtimoiy transfertlarni ko‘paytirish, mehnat soliqlarini kamaytirish va energiya samaradorligi dasturlariga davlat investitsiyalarini yalpi ichki mahsulotning 2,5 foiziga ko‘paytirishni o‘z ichiga olgan tuzatish xarajatlarini yumshatish uchun kontratsiklik siyosatni amalga oshirishini nazarda tutadi.

Kompensatsiya siyosatini amalga oshirish aholining zaif qatlamlariga nomutanosib ta’sir ko‘rsatadigan o‘zgarishlarning salbiy oqibatlarini yumshatish va imtiyozlarni yanada adolatli taqsimlash uchun juda muhimdir. Maqsadli transfertlar va umumiy soliqlarni kamaytirish ushbu o‘zgarishlar natijasida kelib chiqadigan narxlarning oshishi yukini engillashtirishga yordam beradi. Barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash va “yashil” sanoatga investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun energiya sektoridagi zarur narxlarni o‘zgartirish muqarrar ravishda energiya xarajatlarining oshishi va bilvosita boshqa tovarlar va xizmatlarga kiritilgan harajatlarning oshishi orqali iste’mol narxlarining oshishiga olib keladi.

5 Sustainable Infrastructure for Low-Carbon Development in Central Asia and the Caucasus Hotspot Analysis and Needs Assessment, OECD, 2019

6 See https://ineaconsulting.eu/en/news/bright-future-for-the-solar-power-industry-in-uzbekistan-as-2-5-gw-of-solar-projectsare-planned-by-2030


7 See https://www.energy-transitions.org/publications/7-priorities-to-help-the-global-economy-recover/



2-rasm: Energiya subsiyalaridan voz kechishning qisqa muddatda xarajatlarni oshirisgi, ammo uzoq muddatda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi tahlili (uzoq muddatli, asosiy va siyosat senariylari, 2022–2060)

Ta’sir qilingan guruhlar orasida eng kambag‘al uy xo‘jaliklari narxlarning oshishiga ayniqsa ko‘p zarar ko‘radilar, chunki ular cheklangan byudjetlarining katta qismini energiya va transport kabi muhim ehtiyojlarga ajratadilar. Shu bilan birga, subsidiyalar bo‘yicha islohotlar natijasida hosil bo‘lgan byudjet mablag‘lari aholining ko‘pchiligining turmush darajasi pasaymasligini ta’minlab, kompensatsiya dasturlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishi mumkin. Darhaqiqat, eng kambag‘al uy xo‘jaliklari ushbu dasturlardan sezilarli darajada foyda ko‘radilar, faqat eng badavlat o‘ntalikka kiruvchi uy xo‘jaliklariga (yuqori 10 foizlik detsilda) faqat energiya subsidiyasi islohotiga qaratilgan stsenariy bo‘yicha imtiyozlar biroz qisqarishi mumkin.

Ushbu stsenariylarga ko‘ra, qo‘shimcha fiskal resurslarning qariyb 40 foizi daromad solig‘i stavkalarini pasaytirishga, 30 foizi daromad solig‘i stavkalarini pasaytirishga, qolgan 30 foizi esa davlat investitsiyalarini ko‘paytirishga yo‘naltiriladi. Resurslarni strategik taqsimlash kengroq iqtisodiy barqarorlik va o‘sishni rag‘batlantirish bilan birga, eng zaif qatlamlarning yukini engillashtirishga qaratilgan.




3-rasm: So‘ngi uch yilda “yashil” investitsiyalar bilan shug‘ullangan firmalar ulushi (%, 2019-yil)
Manba:Lotte va boshqalar (2022)

Xususiy sektor O‘zbekistonning rivojlanish intilishlarini ilgari surishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va “yashil” iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o‘tishga ko‘maklashish uchun ham birdek zarur. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan

dadil iqtisodiy islohotlarning mantiqiy asosi o‘tmishdagi asosan davlat tomonidan rejalashtirilgan modelga nisbatan mustahkam, mustaqil va dinamik xususiy sektor aholiga xizmat ko‘rsatish va bandlik imkoniyatlarini yaratishda samaraliroq bo‘ladi, degan gipotezaga asoslanadi. Shu sababli, davlat organlari ushbu maqsadlarga erishish yo‘lini belgilashda muhim mas’uliyatni o‘z zimmalariga oladilar, bu mas’uliyat “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni osonlashtirishga qaratilgan.

Mamlakat tomonidan boshlangan islohot yo‘nalishidagi taraqqiyotni tezlashtirish xususiy investitsiyalarni faollashtirish va “yashil” sektorlarda samarali o‘sishni rag‘batlantirish uchun zarurdir.



4-rasm: “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish siyosati bilan shug‘ullanuvchi firmalar ulushi (%, 2019)

Manba:Lotte va boshqalar (2022)

Dalillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi biznes vakillari qo‘shni mamlakatlardagi hamkasblariga qaraganda “yashil” sektorlarda faollik darajasi yuqori. Iqlim o‘zgarishi O‘zbekistonda nisbatan yaqinda davlat siyosati muammosi sifatida paydo bo‘lganiga qaramay, 2019-yilga kelib mamlakatdagi firmalarning qariyb 90 foizi “yashil” investitsiyalarning qandaydir shaklini boshlagan edi (3-rasm). Bundan tashqari, firmalarning sezilarli ko‘pchiligi o‘zlarining “yashil” natijalarini kuzatdilar, taxminan 80 foizi “yashil” maqsadlarga ega (4-rasm). Shunisi e’tiborga loyiqki, O‘zbekiston ishbilarmon doiralari qo‘shni mamlakatlardagi hamkasblariga qaraganda iqlim bilan bog‘liq muammolarga ko‘proq e’tibor qaratmoqda.

Biroq, O‘zbekistondagi korxonalar “yashil” investitsiyalar va amaliyotlarga katta qiziqish bildirayotgan bo‘lsa-da, strategik rejalashtirish jarayonlariga “yashil” fikrlarni kiritishda takomillashtirish uchun imkoniyatlar mavjud. Firmalarning atigi kichik bir qismi, taxminan 10 foizi hozirda biznesni rejalashtirish va strategik maqsadlarni belgilashda “yashil” masalalarni o‘z ichiga oladi, atigi 8 foizi “yashil” muammolarni hal qilish uchun aniq boshqaruv rollarini belgilaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda “yashil” moliyalashtirishga o‘tish me’yoriy-huquqiy bazani uyg‘unlashtiruvchi, xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantiradigan va iqlim bilan bog‘liq xavflarni har tomonlama hal qiluvchi muvozanatli yondashuvni talab qiladi. O‘zbekiston Markaziy banki (MB) tomonidan prudensial talablarga o‘zgartirishlar kiritish va “yashil” kredit berishni rag‘batlantirish kabi tashabbuslar maqtovga sazovor bo‘lsa-da, tartibga soluvchi tuzatishlar prudensial vositalar samaradorligiga putur etkazmasligi yoki beixtiyor tartibga soluvchi risklarni keltirib chiqarmasligini ta’minlash zarur. Kutilmagan oqibatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun “yashil” moliyani rivojlantirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuv vositalarini qo‘llashda ehtiyot bo‘lish kerak, masalan, minimal “yashil” kvotalar yoki jigarrang sektorlarga maksimal kreditlash cheklovlari.

Bundan tashqari, davlat sektori rag‘batlantirish mexanizmlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari orqali xususiy “yashil” moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Banklarni ekologik xavflarni kredit qarorlari va ichki tizimlariga integratsiya qilishga undash orqali hukumat moliyaviy institutlar vositachiligida “yashil” moliyalashtirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari kabi tashabbuslar orqali “yashil” kreditlashni yanada rag‘batlantirishi mumkin. “Yashil” taksonomiya va ta’sirni tekshirish tizimlari bilan

muvofiqlashtirilgan bank ekologik, ijtimoiy va boshqaruv tizimini takomillashtirish xalqaro moliya institutlaridan “yashil” moliyalashtirish uchun muhim resurslarni ochishi mumkin.

Bundan tashqari, sug‘urta sektorining iqlim tavakkalchiligini boshqarishdagi rolini, xususan, tabiiy ofatlardan sug‘urtalashda o‘z rolini kuchaytirish zarurati mavjud. O‘zbekistonning iqlim ta’siridan kelib chiqadigan ofatlarga nisbatan zaifligi va xususiy sug‘urta sanoati imkoniyatlari cheklanganligini hisobga olib, tabiiy ofatlar xavfini moliyalashtirish bo‘yicha milliy strategiyani ishlab chiqish zarur. Ushbu strategiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi va xususiy kapital ishtirokini kuchaytirish uchun mahalliy xususiy sug‘urta bozorlaridan potentsial foydalanish va global kapital-qayta sug‘urta bozorlariga kirishni ta’minlaydigan iqtisodiy jihatdan samarali risklarni qatlamlash yondashuvini qabul qilishi kerak.

Mohiyatan, O‘zbekiston “yashil” moliyalashtirish tashabbuslarini samarali ilgari surish uchun birgalikda sa’y-harakatlarni talab qiladigan muhim pallada turibdi. Normativ-huquqiy islohotlarni o‘zida mujassamlashtirgan, xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantiradigan va tabiiy ofatlar xavfini boshqarishni kuchaytiruvchi yaxlit yondashuvni qo‘llagan holda, O‘zbekiston iqlim bilan bog‘liq xavflarni yumshatish va kelajakdagi muammolarga chidamlilikni oshirish bilan birga barqaror iqtisodiy rivojlanishga yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allen, C., Clout, S. (2012). “Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha qo‘llanma. 1-masala: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” O‘sish va kam uglerodli rivojlanish - tarix, ta’riflar va yaqinda qo‘llanma Nashr. BMTning Barqaror rivojlanish bo‘limi.
2. Barbier, E. B. (2009). Iqtisodiy tiklanishni qayta ko‘rib chiqish: global “yashil” yangi kelishuv. Hisobot Iqtisodiyot va savdo filiali, Texnologiya, sanoat va Iqtisodiyot, UNEP.
3. Barbier, E. B. (2011). “Yashil” iqtisodiyot va barqarorlik uchun siyosat muammolari Iqtisodiy rivojlanish. Tabiiy resurslar forumi, 35(3), 233–245. https://doi.org/10.1111/j.1477-8947.2011.01397.x.
4. Kaprotti, F., Bailey, I. (2014). “Yashil” iqtisodiyotni anglash. Geografik annaler: B seriyasi, Inson geografiyasi, 96(3), 195–200. https://doi.org/10.1111/geob.12045
5. Diyar, S., Akparova, A., Toktabayev, A., Tyutunnikova, M. (2014). “Yashil” iqtisodiyot - Qozog‘istonning innovatsiyalarga asoslangan rivojlanishi. Procedia - Ijtimoiy va xulq-atvor fanlari, 140, 695–699. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.04.497.
6. Endl, A., Sedlacko, M. (2012). Barqaror rivojlanish milliy strategiyalari – kelajakdagi roli, UNCSD tomoni voqealar siyosati qisqacha bayoni, Yevropa barqaror Rivojlanish tarmog‘i (ESDN), Vena.
7. Global “yashil” o‘sish instituti (GGGI) (2012). “Yashil” rivojlanishni rejalashtirish GGGI mamlakat dasturlari: http://www.gggi.org/project/main
8. www.worldbank.org - Jahon bankining rasmiy ma’lumotlari
9. “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O‘zbekistonda “Yashil” o‘sish va Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To‘plami. Jahon banki: Washington D.C.”
10. 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” Iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori

BUXORO VILOYATIDA SAVDO XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH



UO‘K:339.138

Raxmatov Akmal Anvar o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash bo‘yicha tadqiqot natijalari yoritib berilgan. Buxoro viloyatida sohada faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyektlarda ko‘rsatilayotgan savdo xizmatlarining raqobatbardoshligi tadqiqot gipotezasiga asoslanib savdo muhiti, tovar va xizmatlarning xarid afzalligi hamda do‘konning ichki muhitiga taalluqli bo‘lgan mezonlar orqali baholangan. muallif yondashuviga asoslanib savdo xizmatlari ko‘rsatishda asoslanib Buxoro viloyatida qo‘shimcha xaridorlarni keng jalb qilishga urg‘u berish, savdoning merchendayzing texnologiyasini rivojlantirish taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: savdo xizmatlari, raqobatbardoshlik, savdo muhiti, xarid afzalligi, raqobat ko‘pburchagi, Laykert shkalasi, Sterjess formulasi, statistik guruhlash.

Abstract: The article highlights the results of a study on the assessment of the competitiveness of trade services in the Bukhara region. Based on the hypothesis of the study, was assessed according the competitiveness of trade services provided by economic entities operating in the Bukhara region to criteria related to the trading environment, consumer preferences for goods and services, as well as the internal environment of the store. Based on the author’s approach to the provision of trade services, it is proposed to develop a technology for merchandising trade and attracting additional customers.

Key words: trading services, competitiveness, trading environment, purchase value, competitiveness polygon, Likert scale, Sturgess formula, statistical grouping.

Аннотация: В статье освещаются результаты исследования по оценке конкурентоспособности торговых услуг Бухарской области. основанной на на основе гипотезе исследования конкурентоспособность торговых услуг, оказываемых экономическими субъектами, осуществляющими деятельность в Бухарской области, оценивалась по критериям, касающимся торговой среды, покупательского предпочтения товаров и услуг, а также внутренней среды магазина. На осонове авторском подходе к оказанию торговых услуг, предложено разработать технологию мерчендайзинга торговли и привлечение дополнительных покупателей.

Ключевые слова: торговые услуги, конкурентоспособность, торговая среда, ценность покупки, многоугольник конкурентоспособности, шкала Лайкерта, формула Стерджесса, статистическая группировка.

KIRISH

Mamlakatimizda savdo xizmatlarining rivojlanishi bilan bir qatorda iste’molchi xulq-atvorining o‘zgarishi, xaridorlar tomonidan tovarlarning sifati va assortimentiga hamda ko‘rsatilayotgan savdo xizmatlariga bo‘lgan talabining tobora ortib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu borada savdo mexanizmlarini yanada takomillashtirish, tovarlar bozorida sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish, xaridorlarga qo‘shimcha savdo xizmatlarini taklif etish orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va takroriy xaridini rag‘batlantirish,.shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish va harajatlarini kamaytirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga raqobatbardoshlikning o‘ziga xos jihatlari, ta’sir darajasi, harakteri, boshqa tarmoqlarga nisbatan turlicha ekanligi, bozor faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlarga kompleks ta’sir ko‘rsatishini nazarda tutilganda hamda savdo sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarining raqobatbardoshlik omillarini tadqiq etish ular uchun nafaqat tashqi bozorda, balki ichki bozorda ham raqobatbardoshligini oshirishning lozim.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijlik olimlardan Xorijlik olimlardan M.Meskon, M.Albert, F.Xeodurilarning fikriga ko‘ra, “...raqobatbardoshlik iste’molchilarni jalb qilish va ularni saqlab qolish imkoniyatini ifoda etadi. Bunda eng asosiy masala harajatlarni raqobatchi korxona darajasida saqlab qolishdir. Shuningdek, raqobatbardoshlik tovar narxi va iste’molchining ushbu tovardan olishi mumkin bo‘lgan nafliligi o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik hamdir” [1].

P.Druker raqobatbardoshlik masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatiga keng urg‘u berilgan bo‘lib, “...tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi. tadbirkor qancha ko‘p foyda olsa u iste’molchilarga shuncha yaxshi xizmat ko‘rsatishni, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. Natijada u boshqa ishtirokchilariga nisbatan raqobatbardosh hisoblanadi” [2].

I.N.Gerchikova tomonidan berilgan tarifda tovar va korxona raqobatbardoshligini umumlashtirishga harakat qilingan. “...korxona va tovar raqobatbardoshligi o‘zaro yaxlit va bir-birini to‘ldiruvchi hisoblanadi. Korxonaning bozorda raqobatlasha olish qobiliyati uning tovari raqobatbardoshligiga va korxona tomonidan raqobat kurashiga ta’sir ko‘rsatish maqsadidagi qo‘llaydigan usullari majmuidan iboratdir” [3].

K.M.Ibodovning ilmiy-uslubiy ishlarida korxona yoki tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini baholash uslubiyati kengaytirilgan marketing kompleksi asosida takomillashtirilgan bo‘lib, xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish “...xizmat ko‘rsatish jarayonini mijozlarning individual xohish-istaklari negizida takomillashtirishga ko‘p jihatdan bog‘liq” [4] ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

U.N.Normurodov tadqiqotlarida raqobatbardoshlik chakana savdo korxonasi darajasida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu tushunchaga – “...raqobatchilarga nisbatan chakana savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi iqtisodiy subyektning aholi uchun qulay joylashishi, savdo maydonining qulay va zamonaviy sotish usullariga mos jihozlanganligi, tovarlar assortimentlarini mo‘l-ko‘lligi hamda xaridorlarga tovarlarni vaqt birligida malakali xodimlar tomonidan sifatli savdo servisi ko‘rsatish orqali ko‘proq sotishga va yuqori foydaga erishishidagi ustunligi” [5] sifatida ta’rif berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda induksiya va deduksiya, guruhlash, mantiqiy tahlil usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumiy yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadval va rasmlardan foydalanilgan. Tadqiqot gipotezasi savdo xizmatlari raqobatbardoshlik darajasini Leykert shkalasining “yuqori”, o‘rtachadan yuqori”, “o‘rtacha”, “o‘rtachadan past” va “past” bo‘lgan oraliqlarida baholash asosida ishonchlilik darajasini oshirish mumkinligiga asoslanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Savdo sohasi subyektlarining raqobat imkoniyati, milliy yoki hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda yuqori darajadagi savdo xizmatlari ko‘rsatish asosida iste’molni qondirishda muhim hisoblanadi. ma’luumki, savdo xizmatlari sohasi raqobatbardoshligi eng avvalo iste’molchilarni yuqori sifatli mahsulotlar va savdo xizmatlariga bo‘lgan talablarini qondirish qobiliyatidir. Savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholashda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish lozim:

- mezonlarni tanlash va ularni baholash;
- mezonlarning ahamiyatlilik darajasini aniqlash;

umumlashtirilgan raqobatbardoshlik indeksini hisoblab chiqish.

Savdo xizmatlari sohasi raqobatbardoshligining muhim mezoni bu – real ehtiyojlarni qondirish darajasi bo‘lib, bu raqobatchilarning iste’molchilar uchun taklif etayotgan turli xildagi jozibadorlik mezonlaridan iborat. Tadqiqotimiz davomida savdo xizmatlari sohasi raqobatbardoshligini savdo korxornalarining muhiti, ichki muhiti, tovarlar va xizmatlarning xarid afzalligi kesimida baholash amalga oshirildi.


Savdo muhiti bilan bog‘liq omillar, avvalo savdoni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha jarayonlar, ushbu jarayonlar amalga oshishini rag‘batlantiruvchi makon va zamon xususiyatlari hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich doirasida biz savdo do‘konining “…joylashishi, mijozlarning xabardorlik darajasi, savdo xodimlari tomonidan yetkazilayotgan ma’lumotlarning ishonchlilik darajasi, transport imkoniyatlarining mavjudligi, do‘koning ish rejimi hamda do‘konning xizmat ko‘rsatish davomiyligini” [6] asosiy mezonlar sifatida tanlab oldik.

Tovar va xizmatlarning xarid afzalligi ko‘rsatkichi bo‘yicha xodimlarning savdo madaniyati darajasi, tovarlarning narx darajasi, tovar assortimentining yangilanish darajasi, do‘konda ko‘rsatilayotgan savdo xizmatlari sifati, savdo xizmatlaridan foydalanishni rad etishi, savdo xizmatlaridan foydalanish tajribasi, iste’molchilarning tashrif davomiyligi va tovarlarning sifat darajasi asosiy mezon sifatida tanlab olindi.

Savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlarning ichki muhiti ham o‘ziga xos raqobat ustunligi hisoblanib, mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha raqobatbardoshlik mezonlari sifatida do‘konning ichki ekomuhiti, kassa zonasining

jihozlanish darajasi, savdo zalida tovarlarning joylashtirish darajasi, tovarlarning sifat darajasi, do‘konning ichki intereri va bezatilish darajasi tanlab olindi.

Savdo korxonasining raqobatbardoshlik darajasini ta’minlash uni miqdoriy jihatdan baholash zarurligini anglatadi. Raqobatbardoshlikni miqdor jihatdan baholash sohaning samarali ishlashini, ko‘zda tutilgan barcha chora-tadbirlarni to‘g‘ri amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash jarayoni raqobatbardoshlikni boshqarish modelida aks etadi (1-rasm).



1-rasm: Savdo xizmatlari raqobatbardoshligini boshqarish modeli

Taklif etilayotgan integral ko‘rsatkich savdo xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq sifat ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olib, faoliyatning turli bosqichlarida raqobatbardoshlikni iste’molchilar nuqtai nazaridan hamda qo‘shimcha

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash jarayonini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Raqobatbardoshlik mezonlarini tanlash;
- Mezonlarning va ahamiyatlilik darajasini belgilash;
- Mezon ko‘rsatkichlarni hisoblash va yakuniy integral qiymatni aniqlash.

Tadqiqotda savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash Laykert shkalasi bo‘yicha 10 ballik tizimda baholandi. Mezonlarning ahamiyatlilik darajasi ishlab chiqilgan tadqiqot so‘rovnomasi asosida aniqlandi (1-jadval).

1-jadval: Savdo xizmatlari raqobatbardoshligi mezonlari va ularning ahamiyatlilik darajasi

Raqobatbardoshlik ko‘rsatkichi	Mezonlar Pi	Mezonlarning ahamiyatlilik darajasi (Wi)
Savdo muhiti	savdo do‘konining joylashishi	0,30
	mijozlarning xabardorlik darajasi	0,73
	savdo xodimlari tomonidan yetkazilayotgan ma’lumotlarning ishonchlilik darajasi	0,33
	transport imkoniyatlarining mavjudligi	0,38
	do‘koning ish rejimi	0,18
	do‘konning xizmat ko‘rsatish davomiyligi	0,17
Do‘konning ichki muhiti	do‘konning ichki ekomuhiti	0,97
	kassa zonasining jihozlanish darajasi	0,86
	savdo zalida tovarlarning joylashtirish darajasi	0,25
	tovarlarning sifat darajasi	0,09
	do‘konning ichki intereri va bezatilish darajasi	0,21
Tovar va xizmatlarning xarid afzalligi	do‘konda xodimlarning savdo madaniyati darajasi	0,72
	tovarlarning narx darajasi	0,62
	tovar assortimentining yangilanish darajasi	0,89
	do‘konda ko‘rsatilayotgan savdo xizmatlari sifati	0,35
	savdo xizmatlaridan foydalanishni rad etishi	0,81
	savdo xizmatlaridan foydalanish tajribasi	0,57
	xaridorlarning tashrif davomiyligi	0,71
	tovarlarning sifat darajasi	0,41

Har bir guruh bo‘yicha raqobatbardoshlikning umumlashgan ko‘rsatkichi mezonning ahamiyatlilik darajasini hisobga olgan holda hisoblab chiqiladi:

$$R_i = \sum_{i=1}^{n} P_i W_i$$

bu yerda R_i – savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonaning i-ko‘rsatkich bo‘yicha raqobatbardoshligi; W_i – mezonning ahamiyatlilik darajasi.

Savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlarning raqobatbardoshligining iyentegral ko‘rsatkichi Rint quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R_{int} = R_{sm} + R_{im} + R_{xa}$$

bu yerda R_i – raqobatbardoshlikning integral ko‘rsatkichi, R_{sm} – savdo muhitini aks ettiruvchi mezonlarning integral ko‘rsatkichi; R_{im} – savdo korxonasining ichki muhitini ifodalovchi mezonlarning integral ko‘rsatkichi; R_{xa} – tovar va xizmatlarning xarid afzalligini aks ettiruvchi mezonlarning integral ko‘rsatkichi.

Tadqiqot so‘rovnomasi asosida to‘plangan ma’lumotlar asosida Buxoro viloyatidagi 17 ta savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar tanlov asosida tahlil qilindi va raqobatbardoshlik darajasiga baho berildi. Hisoblash ishlari 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval: Buxoro viloyatidagi savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar raqobatbardoshlik darajasi

№	Savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar	Rsm	Rim	Rxa	Rint
1.	“Азия-Центр”	3,9	9,5	4,5	17,9
2.	“Бие-Нур”	11,5	14,4	10,6	36,5
3.	“Рузимурод”	19,4	19,9	36,4	75,6
4.	“Мухаммад” КК	17,6	23,0	31,4	71,9
5.	“Azamat”	6,5	13,2	50,1	69,8
6.	“РАЪНО-94” ХК	4,2	5,5	17,8	27,5
7.	“САЙФИДДИН БОХОРЗИЙ”	19,4	10,6	40,9	70,9
8.	“Seven”	13,7	10,1	29,0	52,8
9.	“Maxmud”	7,3	11,2	36,2	54,8
10.	“Жасур”	13,1	23,2	20,7	57,0
11.	“Куй дарвоза”	1,9	10,7	36,8	49,3
12.	“Arzon”	20,1	6,1	25,8	52,0
13.	“BELAYA BEROZKA”	10,5	22,5	35,4	68,5
14.	“Смау” савдо уйи	1,3	19,7	19,4	40,4
15.	“Хумо”	11,3	15,8	19,4	46,6
16.	“Самрад”	5,1	23,2	48,0	76,3
17.	“Гарни”	16,1	23,8	41,3	81,1
	Mezonlarning umumiy qiymati	**183,0**	**262,4**	**503,7**	**949,0**

Endi ushbu savdo subyektlarini raqobatbardoshlik darajasiga ko‘ra guruhlaymiz. Guruhlar sonini Sterjess formulasiga asoslanib hisoblaymiz:

$$n = 1 + 3{,}322 \times \log N$$

bu yerda n – guruhlar soni, N – guruhlanayotgan savdo korxonalari soni.

$$n = 1 + 3{,}322 \times \log 17 \approx 5$$


Demak, 2-jadvalda tahlil qilingan korxonalarni shartli ravishda 5 ta guruhga, ya’ni raqobatbardoshlik darajasi “yuqori”, o‘rtachadan yuqori”, “o‘rtacha”, “o‘rtachadan past” va “past” bo‘lgan guruhlarga ajratamiz:

3-jadval: Buxoro viloyatidagi savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar raqobatbardoshlik darajasiga ko‘ra guruhlanishi

Guruhlar	Raqobatbardoshlik darajasi	Guruh intervali, ball	Savdo korxonalari
1-guruh	“past”	17,9-30,5	1, 6
2-guruh	“o‘rtachadan past”	30,6-43,1	2, 14
3-guruh	“o‘rtacha”	43,2-55,7	8, 9, 11, 12, 15.
4-guruh	o‘rtachadan yuqori”	55,8-68,3	10, 13
5-guruh	“yuqori”	68,4-81,1	3, 4, 5, 7, 16, 17

Tahlillar Buxoro viloyatida savdo xizmatlarining raqobatbardoshlik darajasi tovar va xizmatlarning xarid afzalligi mezoniga ko‘ra yuqori ekanligini, shu bilan birga savdo muhiti mezoniga ko‘ra integral ko‘rsatkichni savdo do‘konining joylashishi, do‘koning ish rejimi va do‘konning xizmat ko‘rsatish davomiyligi yo‘nalishlarida rivojlantirishg zarurligini ko‘rsatdi. Buni Buxoro viloyati bo‘yicha savdo xizmatlari raqobatbardoshlik mezonlarining “raqobat ko‘pburchagi” orqali qiyosiy tahlil qilishimiz mumkin (2-rasm).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



2-rasm: Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligining “raqobat ko‘pburchagi”

2-rasmdan ko‘rinib ko‘rinib turibdiki, tahlil qilingan savdo korxonalarining raqobatbardoshlik pozitsiyasi mijozlarning xabardorlik darajasi, do‘konda xodimlarning savdo madaniyati darajasi, tovar assortimentining yangilanish darajasi, savdo xizmatlaridan foydalanishni rad etishi, xaridorlarning tashrif davomiyligiga ko‘ra belgilanmoqda. Buning natijasida, mijozlarning qoniqqanlik darajasiga erishilgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib, Buxoro viloyati savdo xizmatlari sohasi raqobat ustunligining “eng zaif” yo‘nalishlari do‘koning ish rejimi, do‘konning xizmat ko‘rsatish davomiyligi, tovarlarning sifat darajasi va do‘konning ichki intereri va bezatilish darajasida kuzatilgan. Bunga asoslanib mazkur mezonlarni yanada rivojlantirish kelgusida nafaqat savdo xizmatlari sifatni yaxshilaydi, balki raqobatbardoshlikni ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga asoslanib, Buxoro viloyatidagi raqobatbardoshlik darajasi “yuqori” baholangan savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlarda ichki muhit mezonlariga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

Tahlil qilingan “Azamat” savdo korxonasida savdo xizmatlarining xarid afzalligi “yuqori”, “Seven” va “Maxmud” savdo korxonalarida qo‘shimcha savdo xizmatlarining sifati yuqori darajada tashkil etilgan, “Arzon” supermarketida esa servis muhiti yuqori darajada tashkil etilgan.


Raqobatbardoshlik darajasi baholangan savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlarining 11,8% i (2 ta) “past”, 11,8%i (2 ta), “o‘rtachadan past”, 29,4%i (5 ta) “o‘rtacha”, 11,8% (2 ta) “o‘rtachadan yuqori” va 35,3%i (6 ta) “yuqori” ko‘rsatkichga ega.

Raqobatbardoshlik darajasi “past” bo‘lgan savdo subyektlarida tovar va xizmatlarning xarid afzalligi sezilarli darajada past ekanligi, asosan kundalik ehtiyoj va oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qilishi aniqlandi. Yuqoridagilarga asoslanib Buxoro viloyatida xaridorlarni keng jalb qilishda savdoning merchendayzing texnologiyasini rivojlantirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Основы менеджмента. / Майкл Х.Мескон, Майкл Альберт, Франклин Хедоури; [пер. с англ.]. - 3-е изд. - Москва [и др.]: Вильямс, 2007. - 665 с.
2. Друкер, П, Ф. Энциклопедия менеджмента. : Пер. с англ. – М.: Издательский дом. “Вильяме”, 2004. – 432 с.
3. Герчикова И.Н. Международное коммерческое дело. Учебник/Герчикова И.Н. - М.: ЮНИТИ, Банки и биржи, 1996. – 501 с.
4. K.M.Ibodov. Restoran xizmatlari sohasi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoreferat: 08.00.05: 08.00.11/Ibodov Kamoliddin Mamatqulovich. -08.00.05:08.00.11. S.: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2022. – 52 b.
5. U.N.Normurodov. O‘zbekistonda savdo korxonalari raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand 2022 y. –58 b.
6. Ibodov, K. (2022). Restoran xizmatlari sohasi raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini kengaytirilgan marketing kompleksi (7P'S) va mijozlarning qoniqqanlik indeksi (CSI) asosida takomillashtirish. IQTISODIYOT VA TA'LIM, 23(1), 173–180. https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/369

THE CONTRIBUTION OF TRANSPORT IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM INDUSTRY (CASE STUDY: UZBEKISTAN)



Rofeeva Rukhshona Shavkatovna
a PhD student, Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage, Samarkand

Abstract: This article examines the various functions that transportation plays in the tourism industry, focusing on how it not only makes it easier to go to places physically but also makes a substantial contribution to the sociocultural and economic advancement of popular tourist areas.

Key words: tourism, transport industry, Uzbekistan, travel behavior, air travel.

Annotatsiya: Ushbu maqolada transportning turizm sanoatida bajaradigan turli funktsiyalari ko‘rib chiqiladi va u nafaqat joylarga borishni osonlashtirishi, balki mashhur turistik hududlarning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shishiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, transport sanoati, O‘zbekiston, sayohat xatti-harakati, havo sayohati.

Аннотация: В этой статье рассматриваются различные функции, которые транспорт играет в индустрии туризма, уделяя особое внимание тому, как он не только облегчает физическое перемещение в места, но и вносит существенный вклад в социокультурное и экономическое развитие популярных туристических районов.

Ключевые слова: туризм, транспортная отрасль, Узбекистан, туристическое поведение, авиаперелеты.

INTRODUCTION


Tourism is widely recognized as a key driver of economic growth and socio-cultural exchange. At the heart of this dynamic industry lies transportation, an essential component that interlinks destinations with markets and cultures across the globe. The aim of this research is to delve into the multifaceted role of transport within the tourism sector, examining how it not only facilitates access to and from destinations but also enhances the overall tourist experience, contributes to economic development, and supports sustainable travel practices.

Transportation’s influence on tourism is profound and pervasive, shaping everything from the initial decision of a tourist to visit a destination to their satisfaction and subsequent choices. Whether by air, land, or sea, transport systems enable the very possibility of tourism, allowing people to explore new landscapes, immerse in different cultures, and partake in local economies. Moreover, as the world increasingly prioritizes sustainability, the transport sector faces pressing challenges and opportunities to innovate and minimize its environmental footprint while continuing to support tourism growth. It is fact that, tourism is an indispensable component of the global economy.

Research indicates that tourists typically allocate 30 to 40 percent of their total vacation budget to transportation, with the remainder spent on accommodations, food, and other activities, underscoring the critical role of transport in tourism economics (SANTACO, 2023). Industry revenues are expected to reach an historic high of $964 billion in 2024. An inventory of 40.1 million flights is expected to be available in 2024, exceeding the 2019 level of 38.9 million and up from the 36.8 million flights expected in 2023 (IATA, 2023). Tourism’s contribution to economic stability extends to numerous countries, including Uzbekistan, which welcomed 6.6 million tourists in 2023. (Kun.uz, 2024) This influx underscores the sector’s vital role in Uzbekistan’s economy, highlighting tourism’s potential to drive economic growth and cultural exchange on both a local and global scale.

LITERATURE REVIEW

Most utility trips occur regularly and typically within the traveler's local or broader residential area. According to the World Tourism Organization (2019), tourism-related trips involve travel beyond one's usual environment. These trips often include seasonal, one-time, or solo journeys, leaving travelers unfamiliar with local transportation systems and options. Today, there is a pressing need for modes of transport that are safe, convenient, and affordable for travelers. The scientists provided the classification of the transport modes which is given in the following figure (fig. 1). To some extent, the choice of transportation for travel can be influenced by individual factors such as financial means, time constraints, and personal preferences. Attractions or destinations seeking to draw visitors from distant locations have significant considerations to make. Travel modes between starting points and destinations can include a wide array of options like bicycles, horses, cars, buses, trains, ships, and planes. In many parts of the world, cars and air travel are the predominant modes, though this is not always the case.



Pic.1: Classification of transport modes


Tourist journeys often involve multiple forms of transport such buses, planes or combination of them. Conversely, many domestic vacations undertaken by families might only utilize one type of transport, such as a car. The selection of transportation is crucial not only for the convenience and preferences of the traveler but also for its impacts on both the origin and destination areas. The decision for choosing a certain transport mode is made according to:

Tab. 1: Essential factors while choosing transport by the tourists

Consideration	Details
1. Cost	Public Transport, Trains, Buses, Air Travel
2. Comfort and convenience	Seating, Amenities, Punctuality, Ease of Use
3. Travel time	Duration, Speed
4. Accessibility	Connectivity, Direct Routes
5. Safety and reliability	Safety Record, Reliability, Regularity
6. Nature of trip	Purpose, Group Size, Duration, Luggage
7. Flexibility	Self-Driven Cars, Rental Vehicles

It is clear that countries with well-developed transport infrastructure tend to attract more international tourists. For example, in 2023, the USA generated over $190 billion in tourism receipts, followed by China with $154 billion, and Canada with $16 billion. This correlation highlights the importance of efficient and accessible transportation systems in boosting a country's appeal to international visitors (Yam Chhetri, 2023). Taleb Rifai (2017) said that Sustainable transport and mobility are essential for the future of tourism. Prideaux (2010) echoes this by stating that in the context of tourism, transport is primarily functional, and the level of satisfaction or utility it provides is tied to time, which acts as a proxy for cost. This is interpreted as an implied demand where the travel mode contributes little intrinsic environmental value to the tourism experience.

Turning to the Uzbekistan, it is actively engaged in the global transport framework, being a member of nine international conventions and two international organizations that govern road transport. Additionally, the country has established bilateral intergovernmental transport agreements with 26 countries across Europe, Asia, and the CIS. The population is actively using cars as the main mode of transportation for their personal reasons while public transport is used less and is applied only for almost 19% (Numbeo, 2024). This clearly shows that public transport must be developed which will result in the wider usage by not only the locals but also foreigners.



Pic. 2: Statistics on the usage of different modes of transport in Uzbekistan

According to NUMBEO (2024), each passenger produces approximately 620.84kg of CO2 annually as a result of commuting to work or school. To counterbalance this carbon emission, it would require approximately 28.52 trees per passenger to produce enough oxygen. The total number of air passengers in Uzbekistan is projected to be 2.38 million in 2024. While the total number of registered carrier departures in Uzbekistan is forecast to amount to 16.24k inhabitants in 2024 (Statista, 2024). According to the Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan (2023), the length of public roads in Uzbekistan is almost 43 thousand km resulting in fourth place in the CIS in terms of the indicator. Besides that, Uzbekistan and Italy will launch a luxury train for foreign tourists through the ancient cities of the republic. This will be the first global scale project in Central Asia. Its launch is scheduled for the end of 2026 (Podrobno.uz, 2024).

As a result of analyzing data for the spring tourist season (from January to May), it was determined that out of 2,589.2 thousand foreign citizens who visited Uzbekistan, those who arrived by air amounted to 428.4 thousand people (16.5%), by rail - 32, 8 thousand people (1.3%), road transport - 18.4 thousand people (0.7%). The largest number were hikers - 2,109.6 thousand people (81.5%) (the Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan, 2023). According to the Statistics Agency, in January-March 2024, 63.8 million passengers were transported in the Tashkent metro.

MATERIALS AND METHODS

To achieve the research objectives, a quantitative approach was used. The quantitative research method includes the usage of the secondary data (a review of the literature on transport and tourism development) and semi-structured interview. The literature review included a broad overview of the theories and ideas pertaining to the transport, the tourism industry, as well as the elements that either help or hinder the growth in the hospitality industry. This aided in a better understanding of the study's context and provided information for the analysis of the data gathered.

ANALYSIS AND RESULTS

The results of the secondary data showed the lack and problems of the public transport. There is the research that was conducted by independent journalist in Tashkent. We can use this research as the main resource of the analysis because the public transport of Tashkent is the leading one among the regions of Uzbekistan. The problems found in this area can be generalized to other cities as well. It must be said that a small part of the respondents was satisfied with everything, according to them, nothing needs to be improved. However, majority of the respondents indicated following complaints about the usage of public transport such as:

Table. 1: Problems with the transport (in the case of Uzbekistan)

Problems	Description	Results
1. Problems of congestion	Buses and subways are often crowded especially during rush hours	• discomfort, • increases the risk of disease and transmission of infections
2. Stuffiness in the subway	Lack of air conditioning in the subway cabs	• Cases of fainting
3. Lack of air conditioning in the old buses	It is usually hot in the old buses	• Cases of fainting • Overheat
4. Insufficient number of vehicles	insufficient public transport and overcrowded routes	• Crush in transport • Long stops
5. Long delays at stops	Buses stop more than it is needed	• late for the work, study • buses get crowded because there are not enough of them

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

In conclusion, transport is indispensable for the tourism sector, yet it poses significant challenges, particularly regarding environmental degradation and the sustainability of tourism practices. Our analysis highlights the advantages and disadvantages of air and road transport, which dominate tourist travel. Key factors that tourists should consider when choosing transportation modes were discussed in detail. Additionally, we examined the transport services in Uzbekistan, assessing both their achievements and shortcomings within the tourism industry. Insights were gathered from tourists and tour agencies, leading to informed conclusions about the role and impact of different transport types in tourism. Effectively addressing these impacts can promote the development of more sustainable, economically viable and socially responsible tourism practices. The solutions and recommendations consist of:

Strategic policy development	Governments should formulate and implement policies that promote sustainable transportation infrastructure, such as encouraging the use of electric buses or scooters in tourist areas
Regulatory controls	Establish rules to limit the number of visitors to environmentally sensitive areas to avoid overtourism and its associated negative impacts
Adopt green technologies	Encourage transportation companies to adopt sustainable technologies such as electric or hybrid engines to significantly reduce carbon emissions
Expanded service offerings	development of new services for the growing market of environmentally conscious travelers, such as eco-friendly transportation to major tourist attractions.
Operational adjustments	review of operating methods to improve efficiency and reduce environmental impact, such as optimizing route planning to minimize fuel consumption
Sustainable practices	Integrate sustainability into business models by offering packages that include environmentally friendly transportation options
Educational proposals	develop courses and programs focused on tourism and sustainable transportation to prepare future leaders in these fields

The users of the transport including both foreign and local passengers found out some drawbacks of the transport system. To tackle the problems, the government must promote green alternatives and encourage the use of e-cars. Another idea would be the introduction of the special app that displays real-time schedules for various types of transportation, increasing schedule accuracy. To make the travel more pleasant and comfortable for the tourists, it is advised to limit the airline monopoly and increase the tourism potential of Uzbekistan, reduce the monopoly of the national airline Uzbekistan Airways. The emergence of competing companies will reduce prices and offer citizens more affordable and comfortable travel options. By adopting these strategies, Uzbekistan can enhance its tourism sector's sustainability, efficiency, and overall appeal.

References:

1. South African National Taxi Council (SANTACO). (2023). The critical role of transport in tourism economics. Retrieved from (SA Taxi)(https://sataxi.co.za/2023).
2. Kun.uz. (2024). Uzbekistan welcomes 6.6 million tourists in 2022. Kun.uz.
3. Yam Bahadur Chhetri, (2023). Global Tourism Statistics 2024:Facts and Forecasts. Rretrived from https://wptravel.io/global-tourism-industry-statistics.
4. IATA, (2023). Airlines Set to Earn 2.7% Net Profit Margin on Record Revenues in 2024. Press Release No: 68
5. World Tourism Organization (2019). Transport emissions and tourism impact. World Tourism Organization (UNWTO). Retrieved from (UNWTO) (https://www.unwto.org).
6. Bursa, B., Mailer, M., & Axhausen, K. W. (2022). Intra-destination travel behavior of alpine tourists: A literature review on choice determinants and the survey work. Transportation, 49(5), 1465-1516. https://doi.org/10.1007/s11116-022-10267-y
7. Rifai, T. (2017). Sustainable transport and mobility for the future of tourism. United Nations World Tourism Organization. Retrieved from (UNWTO) (https://www.unwto.org).
8. Prideaux, B. (2010). The role of the transport system in destination development. Tourism Management, 21(1), 53-63
9. Cooper, C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., & Wanhill, S. (2012). Tourism: Principles and Practice. Pearson Education.
10. NUMBEO, (2024).Traffic in Uzbekistan. Retrieved from https://www.numbeo.com/traffic/country_result.jsp?country=Uzbekistan
11. Statista, (2024). Logistics and transport indicators - Uzbekistan. Retrived from https://www.statista.com/outlook/co/logistics-transport-indicators/uzbekistan
12. The Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan, (2023). Uzbekistan ranks 4th in terms of the length of highways among the CIS countries. December 3rd.
13. Podrobno.uz, (2024). Uzbekistan and Italy will launch the tourist "Samarkand Express" in 2026. Retrieved from https://news.mail.ru/economics/60939093/
14. The Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan, (2023). What types of transport do foreign citizens arriving in the Republic of Uzbekistan for tourism purposes use? Retrieved from https://shorturl.at/bopnE

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



YOSHLARNING SAYOHAT MANZILLARINI TANLASHDAGI OMILLAR

Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich
UrDU, Turizm kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Quyidagi maqolada yoshlar turizmi haqida ma’lumotlar, yoshlar turizmi atamasiga turli olimlar va tashkilotlar tamonidan berilgan ta’riflar o‘rganildi. Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillarni SCOPUS ma’lumotlar bazasida nashr qilingan ilmiy izlanishlardan foydalangan holda PRISMA (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses) chizma orqali aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: yoshlar turizmi, sayohat maqsadlari, istemolchi fel-atvori, yosh segmenti, turistlar oqimi, PRISMA chizmasi.

Abstract: In the following article, information about youth tourism, the rates given to the term youth tourism by various scientists and organizations were studied. Factors in the choice of young people’s travel destinations are determined by drawing PRISMA (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses) using scientific research published in the SCOPUS.

Key words: youth tourism, travel goals, consumer behavior, age segment, tourist flow, PRISMA chart.

Аннотация: В следующей статье изучены сведения о молодежном туризме, оценки, данные термину молодежный туризм различными учеными и организациями. Факторы выбора молодежью туристических направлений определяются путем составления PRISMA (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses) с использованием научных исследований, опубликованных в базе данных SCOPUS.

Ключевые слова: молодежный туризм, цели путешествий, потреби-тельское поведение, возрастной сегмент, турпоток, диаграмма PRISMA.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida butun dunyoda kuzatilyotganidek, turizmga katta e’tibor qaratilmoqda. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasiga 5,2 million turist sayohat qilgan [1]. 2010-yilda mamlakatimizga sayohat qilgan turistlarning o‘rtacha yoshi 60 yoshni tashkil qilgan bo‘lsa 2018-yilga kelib 45 yoshni tashkil qilgan [2].

Birlashgan millatlar tashkilotini 2022-yilda taqdim etgan ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda 1,2 milliard yoshlar bor va jami aholini 16 %ini tashkil etadi. Birlashgan millatlar tashkiloti yoshlar guruhiga 15-24 yoshdagilarni qo‘shgan shuningdek, shu tashkilotning prognoziga ko‘ra 2030-yilga borib yoshlar jami aholini 23%ni tashkil etadi [3]. Ushbu ma’lumotlardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, yoshlar turizmi rivojlanishda davom etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlar turizmi bo‘yicha adabiyotlar tahlilini ikki guruhga bo‘lib o‘rgandik, bunda yoshlar turizmi bo‘yicha nazariy jihatdan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga va yoshlarni turizm yo‘nalishlarni tanlashdagi omillarni o‘rganishga qaratilgan adabiyotlarga bo‘lishimiz mumkin.

Quyida biz yoshlar turizmi bo‘yicha adabiyotlarni tizmli tahlilini ko‘rishimiz mumkin (1-chizma). Bunda manbalar 2020–2024-yillar oraliqida SCOPUS ma’lumot-lar bazasiga kirgan jurnallarda nashr qilingan ilmiy izlanishlar asosida tuzilgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yoshlar turizmi bo‘yicha mavjud ilmiy ishlarni o‘rganish va O‘zbekiston Respublikasida yoshlar turizmini rivojlantirish uchun ahamiyat qaratilishi zarur bo‘lgan islohotlar bo‘yicha tavfsiyalar berishga qaratilgan. Bu maqsadga erishish uchun tadqiqotda meta analiz va qiyosiy tahlil uslublaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yoshlar turizmi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarni o‘rganish orqali biz ikkita maqsadni o‘zimiz uchun belgilab olamiz. Yoshlar turizmi haqida ta’riflarni o‘rganib chiqish va yoshlarni sayohat distenatsiyalarini tanlashda nimalarga ahamiyat berishini o‘rganishdir.

Ma’lumotlarni to‘plash: tahlilni bu qismida 2020–2024-yillar oraliqida SCOPUS ma’lumotlar bazasiga kirgan jurnallarda nashr qilingan maqolalardan foydalangan holda PRISMA usulidan foydalanildi. (1-chizma)



1-chizma: PRISMA tadqiqot usulidan foydalangan holda o‘rganiladigan adabiyotni tanlash [4]

1-chizmada biz SCOPUS ma’lumotlar bazasiga kirgan barcha jurnallardagi ilmiy izlanishlarni bizning tadqiqotimizga mos keladiganlarini tanlab olish jarayoni tasvirlangan. Shuni takitlash joyizki, o‘rganildi qismidagi 12

ta maqolani barchasini tadqiqotimizda yozilmagan, sababi ularni bazilarida tadqiqot narijalari o‘xshash bo‘lgani uchun. Tanlangan maqolalar o‘rganib, yoshlar turizmiga nazariy ta’riflarni tanlab olamiz va ularni umumiy jadvalda bayon etamiz(1-jadval).

1-jadval: Yoshlar turizmi bo‘yicha ta’riflar va mulohazalar [5]

Mualliflar	Maqola nomi	Ilmiy jurnal nomi	Ta’riflar va mulohazalar
Bing Pan, Lucy Harbor va boshqalar	Turistlarning motivatsiyasi va tajribasini o‘rganish	Turizm tadqiqotlari yilnomalari, empirik tushunchalar (Annals of Tourism Research Empirical Insights)	Yoshlar turizmida turli millatlardan bo‘lgan qatnashchilar chegarasiz aloqada bo‘ladi. Ishtimoiy sinf, jins, din va jamiyat tuzilishi sayohatlarda muhimligi kamayadi [6].
Sarah Gardiner, Ingo Janowski, Anna Kwek	O‘z-o‘zini aniqlash va yosh iste’molchilar sarguzasht turizmi sifatida:	Turizm menejmenti istiqbollari (Tourism Management Perspectives)	Yoshlar turizmi o‘zida 16 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan shaxslarning dunyoni bilishga, o‘rganishga, hayotiy tajribaga ega bo‘lishga, biror sohada bilimini oshirishga qaratilgan sayohatlar majmuasidir [7].
Meltem Caber, Tahir Albayrak, Duane Crawford	Yoshlarning turizmdagi tasiri va muhumligi	Ochiq havoda hordiq chiqarish va turizm jurnali (Journal of Outdoor Recreation and Tourism)	15-29 yosh oraliqida bo‘lgan va asosiy qismi universitet va kollejlarda ta’lim olayotgan sayohatchilar guruhidir [8].
Richard N.S. Robinsona, Tom Baum va boshqalar	Endosimbioz nazariyasini qo‘llash: Turizm va yosh ishchilari	Turizm tadqiqotlari yilnomalari empirik tushunchalar (Annals of Tourism Research Empirical Insights)	Yoshlarni turizmdagi harakatini kam daromadli, harakatchan, sayohat va ishni birga olib borishni istovchilar sifatida baxolash mumkin [9].
Elin Blomgren va Sofie Ljungstrom	Yoshlar turizmi: - Iste’molchi nuqtai nazaridan joylarga ta’siri	Procedia - Ijtimoiy va xulq-atvor fanlari (Procedia - Social and Behavioral Sciences)	Yoshlar turizmi - yosh sayohatchilar faoliyati hisoblanib, arzon turar joyni afzal ko‘rishadi, boshqa sayohatchilar bilan uchrashishga urg‘u berishadi, mustaqil ravishda tashkil etiladigan sayohatlardir [10].
Mona Mirehie, HeatherJ. Gibson va boshqalar	Yoshlarni oilaviy sayohatlarda qaror qabul qilishga ta’siri	Sayohat yo‘nalishlarni Marketing va menejmenti jurnali (Journal of Destination Marketing & Management)	Yoshlar guruhini ham turli yosh segmentlariga bo‘lishimiz mumkin lekin deyarli barchasi sayohatlarni xarajatlarini o‘zlari qoplamaydi, shu sababli oilaviy sayohatlarda qaror qabul qilishga ta’sirisiz hisoblanadi [11].

Mazkur jadvalda berilgan ta’riflarga asoslanib, yoshlarni turizmga qaratilgan qiziqishlarini, ular uchun taklif qilanadigan maxsus sayohat turlarini va ularni yosh chegaralarini bo‘yicha fikrlarni bilib olishimiz mumkin. Ammo yoshlar segmentini yosh oraliqi bo‘yicha umumiy qabul qilingan chegaralar yo‘q. Umumiy olib qaraganda, maktablardagi ta’limni tugatgan, kollej va universitetlarda ta’lim olayotgan yoshlar ushbu guruhning asosi hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqanholda biz yoshlar turizmiga quyidagicha ta’rif bertishimiz mumkin: Yoshlar turizmi – bu turizm istemolchilarini maxsus segmentiga yo‘naltirilgan bo‘lib, ishtiriokchilari kam xarajat qilishni, doim internet ta’minoti bo‘lishini muhim, deb qarashadi, shuningdek, faol mashg‘ulotlar qilishdan zavq olishadi.

PRISMA tadqiqot usuli orqali tanlab olgan maqolalardan yoshlarni turizm sayohat yo‘nalishlarini tanlashga ta’sir qiladigan omillarni o‘rganib chiqamiz (2-jadval)/

2-jadval: Turli maqolalarda yoshlarni turizm yo‘nilishini tanlashda ta’sir qiluvchi omillar [12]

Elin Blomgren va Sofie Ljungstrom	Bing Pan, Lucy Harbor va boshqalar	Sarah Gardiner, Ingo Janowski, Anna Kwek	Meltem Caber, Tahir Albayrak, Duane Crawford	Richard N.S. Robinsona, Tom Baum va boshqalar	Mona Mirehie, Heather J. Gibson va boshqalar	Shimaditya Nuraenia, Arlavianyssa Pradiva Arru
online buyurtma berish imkoniyati	do‘stlar ta'siri	online buyurtma berish	kam xarajat	ish va sayohat dasturlari	oilaviy ta'sir	kam xarajat
kam xarajat	ijtimoiy tarmoq	aktiv mashg‘ulotlar	ovqatlar va spirtli ichimliklar	kam xarajat	sport	aktiv mashg‘ulotlar
doimiy internet aloqasi mavjud bo‘lishi	ko‘ngil ochish va zavq beradigan mashg‘ulotlar	kam xarajat	ochiq osmon va plajlar	yaqin davlatlarga sayohat	transport imkoniyati	yaqin madaniyat

SCOPUS ma'lumotlar bazasidan tanlab olingan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish natijasida ushbu jadvalni ishlab chiqildi. Tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida sayohat joylarini tanlashda ko'plab omillar ko'rsatgan, lekin biz eng ko'p ta'sirli deb qaralgan uchtasini oldik. 2-jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, yoshlar uchun sayohatga sarflanadigan pul miqtori juda muhim. Internet bilan ta'minlanganlik va online buyurtma berish imkoniyati ham mavjudligiga katta e'tibor berishdi.

Yoshlar uchun sayohat sayohat harajatlari transport xizmati, joylashtirish va ovqatlantirish xizmatlariga sarflaydigan pul mablag'larini o'rganib chiqqandan so'ng sayohatga chiqishadi. Internet orqali yuqoridagi xizmatlarni narxlarini bilib olish imkoniyati juda muhim. Xalqaro tajribadan shu ko'rishimiz mumkinki, turizmini rivojlantirishni maqsad qilgan davlatlar aviakatnovlarga, yangi mehmonxonalar ochishga ko'plab subsidiya va imtiyozlar bermoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi hukumati turizmini rivojlantirish uchun ulkan va infratuzilmaviy islohotlar amalga oshiryapdi. Turizmni turli tarmoqlari yanada rivojlanishi uchun tashkiliy-huquq asoslarni yaratilyapdi. Ushbu islohotlar natijasida turistlar oqimi yildan yilga oshib bormoqda. Lekin mavjud imkoniyatlardan yanada mukammal foydalanish uchun aniq turistik mijozlar segmentlarini alohida o'rganib, ularni talablari asosida turistik mahsulotlarni yaratishda davom etishimiz kerak.

Yoshlar turizmi bu ommaviy turistlarni O'zbekistonga jalb qilishni eng istiqbolli mijozlar segmetidir. Charter reyslar, loukoster biletlarni dunyoga mashhur sayohat saytlari orqali sotishni yo'lga qo'yish, Booking.com, hotel.com kabi saytlarda mehmonxona buyurtma qilishdagi muammolarni bartaraf etish orqali O'zbekiston Respublikasiga dunyo yoshlarini qiziqishlarini oshirish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi www.stat.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali www.old.gov.uz
3. https://www.un.org/en/global-issues/youth#:~:text=Today%2C%20there.
4. Muallif ishlanmasi.
5. Muallif ishlanmasi.
6. Bing Pan, Lucy Harbor, Soyoung Park, Rui Li, Ashley Schroeder, Yaqi Gong, (2024). "The motivation and experience of alma mater tourists" Annals of Tourism Research Empirical Insights Jurnal.
7. Sarah Gardiner, Ingo Janowski , Anna Kwek, (2023) "Self-identity and adventure tourism: Cross-country comparisons of youth consumers" Tourism Management Perspectives Jurnal.
8. Meltem Caber, Tahir Albayrak, Duane Crawford, (2020). "Perceived value and its impact on travel outcomes in youth tourism" Journal of Outdoor Recreation and Tourism.
9. Richard N.S. Robinsona, Tom Baumb , Maria Golubovskayaa , David J. Solneta , Victor Callan, "Applying endosymbiosis theory: Tourism and its young workers". Annals of Tourism Research.
10. Elin Blomgren & Sofie Ljungström, (2018) Youth Tourism –Impacts on places from a consumer perspective. Linnaeus university, Sweden 55 p.
11. Mona Mirehie, Heather J. Gibson, Richard J. Buning, Cassandra Coble, Meredith Flaherty. (2021). Towards an understanding of family travel decision-making processes in the context of youth sport tourism. Journal of Destination Marketing & Management.
12. Muallif ishlanmasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

IMPROVING THE EFFECTIVE USE OF FUNDS FROM TAXES AND FEES IN KASHKADARYA REGION

Shakhzod Zokhidov
Teacher, institute TMS

Abstract: The Kashkadarya region in Uzbekistan has significant potential for economic growth, which can be realized through the optimized use of funds from taxes and fees. This article examines the current challenges in fund allocation and proposes strategies to enhance transparency, accountability, and strategic allocation of resources. Key recommendations include implementing comprehensive auditing processes, adopting participatory budgeting, and prioritizing spending on infrastructure, education, healthcare, and support for agriculture and industry. The article also discusses the challenges of institutional resistance and the need for capacity building. Effective implementation of these strategies can lead to substantial improvements in the region's development and set a model for other regions.

Key words: Kashkadarya region, Tax revenue, Fund allocation, Fiscal transparency, Participatory budgeting, Infrastructure development, Economic growth, Capacity building, Uzbekistan.

Annotatsiya: O'zbekistonda Qashqadaryo viloyati iqtisodiy o'sish uchun salmoqli salohiyatga ega bo'lib, uni soliq va yig'imlar mablag'laridan optimal foydalanish hisobiga amalga oshirish mumkin. Ushbu maqola mablag'larni taqsimlashda mavjud muammolarni ko'rib chiqadi va shaffoflik, hisobdorlik va resurslarni strategik taqsimlashni kuchaytirish strategiyalarini taklif qiladi. Asosiy tavsiyalar qatoriga keng qamrovli audit jarayonlarini amalga oshirish, hamkorlikda byudjetlashtirishni qabul qilish, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda qishloq xo'jaligi va sanoatni qo'llab-quvvatlashga sarflanadigan xarajatlar ustuvorligini belgilash kiradi. Maqolada, shuningdek, institutsional qarshilik muammolari va salohiyatni oshirish zarurati muhokama qilinadi. Ushbu strategiyalarni samarali amalga oshirish mintaqaning rivojlanishida sezilarli yaxshilanishlarga olib kelishi va boshqa mintaqalar uchun namuna bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, Soliq tushumlari, Jamg'arma taqsimoti, Fiskal shaffoflik, Hamkorlik asosidagi byudjetlashtirish, Infratuzilmani rivojlantirish, Iqtisodiy o'sish, Potentsial oshirish, O'zbekiston.

Аннотация: Кашкадарьинская область Узбекистана имеет значительный потенциал экономического роста, который может быть реализован за счет оптимизации использования средств от налогов и сборов. В этой статье рассматриваются текущие проблемы распределения средств и предлагаются стратегии по повышению прозрачности, подотчетности и стратегического распределения ресурсов. Ключевые рекомендации включают внедрение комплексных процессов аудита, принятие совместного бюджетирования и определение приоритетности расходов на инфраструктуру, образование, здравоохранение и поддержку сельского хозяйства и промышленности. В статье также обсуждаются проблемы институционального сопротивления и необходимость наращивания потенциала. Эффективная реализация этих стратегий может привести к существенному улучшению развития региона и стать примером для других регионов.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, Налоговые поступления, Распределение средств, Фискальная прозрачность, Партисипаторное бюджетирование, Развитие инфраструктуры, Экономический рост, Наращивание потенциала, Узбекистан.

The Kashkadarya region, situated in the southern part of Uzbekistan, holds significant potential for economic growth and development. To realize this potential, it is imperative to optimize the use of funds derived from taxes and fees. This article explores the current challenges and proposes strategic measures for enhancing the effective utilization of these funds in the region.

INTRODUCTION

Efficient use of public funds is critical for regional development, particularly in areas like Kashkadarya, which boasts rich natural resources and a strategic location. However, maximizing the benefits from collected taxes and fees requires a robust framework that ensures transparency, accountability, and strategic allocation of resources.

Efficient use of public funds is critical for regional development, particularly in areas like Kashkadarya, which boasts rich natural resources and a strategic location. The region's economy is primarily driven by agriculture, industry, and energy production, making it a vital contributor to Uzbekistan's overall economic performance. However, maximizing the benefits from collected taxes and fees requires a robust framework that ensures transparency, accountability, and strategic allocation of resources.

Currently, the Kashkadarya region faces several challenges in optimizing the use of public funds. These challenges include bureaucratic inefficiencies, lack of transparency, and misalignment between fund allocation and regional needs. Addressing these issues is essential for fostering sustainable development and improving the quality of life for the region's inhabitants.

This article explores the current challenges in the allocation and utilization of funds in Kashkadarya and proposes strategic measures to improve efficiency. By enhancing fiscal transparency, implementing participatory budgeting, and prioritizing key sectors such as infrastructure, education, and healthcare, the region can ensure that public funds are used effectively to drive economic growth and development.

Additionally, the article discusses the implementation challenges, such as institutional resistance and the need for capacity building, which must be addressed to achieve these goals. By overcoming these obstacles, Kashkadarya can unlock its full potential and serve as a model for other regions seeking to improve the effective use of public funds.

METHODS OF FUND ALLOCATION

A thorough examination of the existing fund allocation processes reveals several areas for improvement. Current methods often suffer from bureaucratic inefficiencies and a lack of transparency. To address these issues, the following strategies are recommended:

1. **Enhanced Fiscal Transparency:** Implementing comprehensive auditing processes and making financial data publicly accessible can help in tracking expenditures and ensuring funds are used as intended.

Implementing comprehensive auditing processes and making financial data publicly accessible are crucial steps towards enhanced fiscal transparency in the Kashkadarya region. Transparency in the management of public funds ensures that expenditures can be tracked effectively and that funds are used as intended, fostering trust among citizens and encouraging more responsible governance.

Comprehensive Auditing Processes

Kalit so‘zlar: temir yo‘l transporti tizimining innovatsion faoliyati, innovatsion model, innovatsion faoliyat, transport tizimi, vazifalar irarxiyasi, transport kompleksi, innovatsion salohiyat, intermodal va multimodal tashuv turlari, xizmatlar bozori, temir yo‘l transport infratuzilmasi, asosiy yo‘nalishlar, logistik konsepsiya imitatsion model.

Abstract: In this article, the main directions defining the development of innovation activities of the railway transport system, the main tasks of economic development of the railway transport system, trends in indicators of the work of rail transport in Uzbekistan were studied, the most important conditions for structural reform of rail transport were outlined, the problems studied according to the results of the analysis were systematized.

Key words: innovation activities of the railway transport system, innovation model, innovation activity, transport System, Task hierarchy, transport complex, innovation capacity, intermodal and multimodal types of transport, services market, railway transport infrastructure, main lines, logistic concept imitation model.

Аннотация: В данной статье изучены основные направления, определяющие развитие инновационной деятельности системы железнодорожного транспорта, основные задачи экономического развития системы железнодорожного транспорта, тенденции показателей работы железнодорожного транспорта в Узбекистане, наиболее важные обозначены условия структурного реформирования железнодорожного транспорта, систематизированы проблемы, изученные по результатам анализа.

Ключевые слова: инновационная деятельность системы железнодорожного транспорта, инновационная модель, инновационная деятельность, транспортная система, иерархия задач, транспортный комплекс, инновационный потенциал, интермодальный и мультимодальный виды транспорта, рынок услуг, инфраструктура железнодорожного транспорта, основные направления, имитационная модель логистической концепции.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining muhim infratuzilmaviy tarmoqlaridan biri transport tizimi bo‘lib, uni rivojlantirish har bir milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jahon va milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 70-90 foizi aynan innovatsiya faoliyatini rivojlantirish hisobiga yaratilmoqda. Jahon temir yo‘llarining 2 trln. yo‘lovchi-km yo‘lovchi aylanmasi mamlakatlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi: Yaponiya va Yevropa – 370-380 mlrd. yo‘lovchi-km; Hindiston va Xitoy - deyarli 300 mlrd. yo‘lovchi-km; boshqa mamlakatlar – 200 mlrd. yo‘lovchi-km [1].

Jahonda temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, temir yo‘l transporti infratuzilmasi sifatini yanada oshirish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini tizimli tashkil qilish, mijoz va transport korxonalari munosabatini uyg‘unligiga yo‘naltirilgan samarali marketing faoliyatini tashkil etish kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro transport xizmatlari bozorida murosasiz raqobat kechayotgan bir sharoitda iste’molchilar talabini qondirish, yangi bozor segmentlariga kirib borish va faoliyat natijaviyligini ta’minlash temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni masalalarini tadqiq etish mug‘im ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, 2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham “transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan [2]. bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Mahsulotlarimizni ichki va tashqi bozorlarga yetkazish, ularning tannarxini tushirish uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur” [3] deb ta’kidladilar. Bu o‘z navbatida mamlakat transport-tranzit salohiyatidan va zamonaviy yetkazib berish texnologiyalaridan samarali foydalanishni hamda temir yo‘l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish yo‘llari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishning maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Temir yo‘l transport tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahhaliy va xorijlik olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ingliz iqtisodchisi Entoni Venablsning fikriga ko‘ra transport kompleksi bu ijtimoiy ishlab chiqarishning yuklar va yo‘lovchilarni tashishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo‘jaligi tarmoqlari yig‘indisi tushuniladi [4].

D. Bauersoksning fikricha, an’anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e’tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalari o‘z ichiga olgan transport tizimini alohida qayd etadi [5].

Mamlakatimiz olimlaridan G‘.Samadov, A.Zoxidov, A.Gulamov va M.Ravshanovlarning fikricha “transport tizimi – bu yuk va yo‘lovchilarni o‘z manziliga yetkazish jarayonida o‘zaro aloqasi bo‘lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya’ni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali bosharish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushiniladi” [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Temir yo‘l transport tizimini samarali rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug‘ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadkikotning nazariy-uslubiy asosi va tizimning ham miqdor ham sifat jihatdan baholashga xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik, induksiya va deduksiya, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, isikava diagrammasi, aniq muddatda kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon davlatlari iqtisodiyotining samarali rivojlanishida asosiy “qon aylanish” vazifasini bajaruvchi transport kompleksi alohida ahamiyat kasb etadi. Samarali transport tizimi ichki bozorda xosh-ashyo va mahsulot harakatlarini optimallashtiradi, shu bilan bir qatorda tashqi savdoda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirib, jahon bozoriga integratsiya jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatini beradi. Umuman olganda mamlakatni keng ko‘lamda rivojlantirish mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarning yuqori sur’atlarda bo‘lishi keng ma’noda transport infratuzilmasining samarali faoliyatiga ham bevosita bog‘liq [7].

Temir yo‘l transportidagi tub iqtisodiy islohotlar uni rivojlantirishning konsepsiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shunga muvofiq temir yo‘l transportini iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha yangi qarashlar tizimini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘ladi. Bu temir yo‘l ishlab chiqarish tizimining barcha darajalaridagi boshqaruv o‘rtasida, shu jumladan tashish jarayonini ta’minlash, yetarli miqdordagi tegishli harakatlanuvchi tarkibning mavjudligi, yo‘l sifatini, vagonlarning optimal aylanmasini, samarali rejali ta’mirlashni, logistika, marketing va boshqalarni ta’minlash bo‘yicha samarali aloqa hamda hamkorlik qilish maqsadining mavjud emasligi temir yo‘l transport tizimidagi mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining eng muhim muammosi ekanligi bilan tushuntiriladi.

Mamlakat transport tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini nafaqat miqdoriy o‘sish, balki iqtisodiyotdagi sifat o‘zgarishlari, ya’ni ilmiy-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalarning tarqalishiga ta’sirini ham ko‘rib maqsadga muvofiq. Transport tizimini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir qilishning aniq natijalari orqali ochib beriladi (1-jadval).

1-jadval: Transport tizimining mamlakat iqtisodiy rivojlanishga ta’siri natijalari[1]

№	Ta’sir ko‘rsatishning turi	Ta’sirning natijalari
1	Bevosita	mahsulot ishlab chiqarishi tannarxining pasayishi / oshishi; mahalliy korxonalar samaradorligini pasayishi / oshishi; aholining harakatlanish, rekreatsion imkoniyatlari, ijtimoiy aloqalarining o‘sishi / cheklanishi.
2	Bilvosita	investitsion muhitni yaxshilash; innovatsion faollikni oshirish. turdosh tarmoqlarning intensiv rivojlanishini rag‘batlantirish; boshqa ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ulardan foydalanish uchun bozor imkoniyatlarini oshirish; yalpi talabning shakllanishi.
3	Muddati	Uzoq muddatli takomillashtirish: biznes va aholining yuqori sifatli transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish; transport infratuzilmasi mavjudligidan soliq tushumlarini oshirish; aholini ish joylariga yetkazib berish; ish o‘rinlarini yaratish; aholini mahsulot bilan ta’minlash (yetkazib berish). Qisqa muddatli ta’sir: xarajatlar pasayishi samaralari yoki, aksincha, sarflar oshishi; aholining yilning ma’lum bir vaqtida turli maqsadlarda ko‘chib o‘tishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish.
4	Ta’sir ko‘rsatish vositasiga ko‘ra	Endogen ta’sir: korxonalar va aholi uchun transport bog‘lanishni yaxshilash; mintaqaning va doimiy yashash joyi sifatida investitsiya jozibadorligini oshirish. Ekzogen ta’sir: mintaqaning mintaqalararo va tashqi iqtisodiy aloqalarga qo‘shilishi.
5	Ta’sir ko‘rsatish darajasiga qarab	Mahalliy daraja - ichki tashishlarning rivojlanishi, mahalliy bozorlarning kengayishi, biznes uchun imkoniyatlarning oshishi, aholining harakatchanligini oshirish. Mintaqaviy daraja - biznesni kengaytirish, aglomeratsiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini oshirish; aholining harakatchanligi va korxonalarni kadrlar bilan ta’minlashni yaxshilash. Milliy daraja - milliy xavfsizlikni, mamlakat hududiy yaxlitligini ta’minlash, biznesni kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratish, aholi va kapitalning harakatchanligi.

Transport tizimining uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish va mamlakat iqtisodiy rivojlanishga ta’siri natijalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Transport infratuzilmasining bevosita samarasi – bu infratuzilmani yaxshilash bilan birga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish. Iqtisodiyot nazariyasining institusional yo‘nalishida jismoniy va institusional infratuzilma transaksiya xarajatlarini (kommunikatsiya, transport, axborot) kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Temir yo‘l tarmog‘ining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rnini baholash, tarmoqni rivojlantirish istiqbollarini belgilash hamda tendensiyalarini o‘rganish va prognozlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish temir yo‘l tarmog‘ining o‘rta va uzoq muddatli strategiyasiga, bugungi kundagi siyosatiga bevosita ta’sir etgan holda moddiy-texnika resurslariga, ishchi kuchiga va moliyaviy holatini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashga hamda uning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Temir yo‘l transportining rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, chunki mahsulotning yakuniy narxi tarkibidagi transport xarajatlari va o‘z vaqtida yetkazib berishni ta’minlash imkoniyati mahalliy korxonalarning muhim raqobatbardoshlik omili hisoblanadi. Shuning uchun temir yo‘l transport tizimining asosiy faoliyat ko‘rsatkichlarini, transport va logistika infratuzilmalarining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish hamda tizimda mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda asosiy masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbekistonda mahalliy yuk tashuv hajmining ulushi 5.3% va tranzit tashuv hajmining ulushi 92.5% temir yo‘l transportiga to‘g‘ri keladi [9].

Tashishga taqdim etiladigan asosiy tovar mahsulotlariga ko‘mir, don, neft, ruda, mineral o‘g‘itlar va boshqa katta hajmli to‘kib ortiladigan va suyuq yuklar kiradi (2-jadval). Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, temir yo‘l transporti orqali tashiladigan yukning asosiy qismi tog‘-kon sanoati mahsulotlariga (ko‘mir, neft va neft mahsulotlari, qora va rangli metallar, rudalar) to‘g‘ri keladi.

2-jadval: Temir yo‘l transportida ayrim turdagi yuklarni tashish hajmi, ming tonna[2]

Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Toshko‘mir	3 971,0	3 712,7	442,9	5 632,6	5 231,0	4 459,2	5 673,8
Neft mahsulotlari	10 773,9	10 661,4	10 961,9	6 769,4	6 156,2	5 951,6	5 372,2

1 O‘rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.
2 “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ma’lumotlari.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Qora va rangli metallar	959,5	887,2	812,7	1 079,3	1 280,9	1 113,2	1 054,9
Kimyoviy va mineral o‘g‘itlar	4 304,2	4 381,3	4 049,8	3 451,4	3 602,6	4 210,9	4 641,7
Qurilish mollari	7 728,7	6 690,3	6 329,4	5 475,3	5 575,5	4 071,9	5 607,7
Sement	5 325,7	5 514,1	4 846,4	4 866,4	5 112,0	5 044,5	4 582,1
Yog‘och mahsulotlari	46,3	21,2	18,9	27,1	31,2	19,7	23,0
Don va don mahsulotlari	1 266,9	1 269,6	1 662,4	1 737,1	1 645,2	1 898,6	2 000,4
Jami	**34 376,2**	**33 137,8**	**29 124,4**	**29 038,6**	**28 634,6**	**26 769,6**	**28 955,8**

Yuklarni yetkazib berishning kechikishi harakat tarkibning to‘xtash punkitlarida muammolar saqlanib qolganligi bilan izohlanadi, mazkur holat temir yo‘l transporti o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni samarali ijrosini ta’minlash uchun harakatlanuvchi tarkibning faolyait samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. 3-jadvalda umumiy foydalanishdagi ishchi, yuk, harakatlanuvchi tarkibning ayrim turlaridan foydalanishni tavsiflovchi ma’lumotlar keltirilgan.

3-jadval: O‘zbekistonda temir yo‘l transporti ishi ko‘rsatkichlari[3]

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Lokomotiv unumdorligi, sutkasiga ming tkm brutto	947	1015	1056	1110	1190	1200
Yuk vagonining unumdorligi, sutkasiga tkm netto	30	30,4	30,8	31,1	32	32,2
Yuk poyezdining uchastka bo‘yicha o‘rtacha tezligi, km-soat	32	31	30,6	31,3	30	31
Yuk poyezdining texnik tezligi, km-soat	39,3	39,7	40,4	40,7	41,1	41
Yuk vagonining o‘rtacha aylanish vaqti, sutka	4,6	5,78	4,2	4,1	3,84	3,9

So‘ngi o‘n besh yilda yuk tashish hajmi 27 % va yo‘lovchilar soni 86 %ga oshgani bilan mazkur davrda tashish jarayonida foydalanilgan magistral lokomotivlarning inventar parki 18,2 % ga kamayganligini kuzatish mumkin. Yuk poyezdining uchastka tezligi 9,6 %ga kamayganligi temir yo‘l transportida o‘tkazuvchanlik qobiliyati ma’lum darajada kamayishiga olib kelgan [10]. 2016–2021-yillarda yuk poyezdlarinig texnik va uchastka bo‘yicha o‘rtacha tezligi belgilangan tezlikdan ancha past bo‘lib, fikrimizcha, poyezdlar harakatlanish tezligiga quyidagi omillar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda:

- yuk poyezdlarinig belgilangan vaqt me’yoridan kech qolishi;
- stansiyalardagi texnik nosozliklar;
- stansiyalarda poyezdlar bilan bajariladigan texnologik vaqt me’yorlarining ortishi;
- stansiyadagi nosozliklarni bartaraf etishga sarflanadigan vaqt me’yorining ortishi;
- yuk poyezdlar harakati bilan bog‘liq ishchi xodimlarning salbiy ta’siri.

Texnik va tashkiliy darajani miqdoriy baholash metodikasi korxonaning umumiy innovatsion faoliyati samaradorligini baholashda ilmiy asoslangan baza bo‘lishi mumkinligiga innovatsion faoliyatni rivojlantirish vositalaridan biri sifatida qaraladi. Bir vaqtning o‘zida, innovatsiyalar va kapital qo‘yilmalarning samaradorligini zamonaviy baholash usullari yordamida mazkur metodikani tekshirilish va to‘ldirilishi maqsadga muvofiqdir. Korxona faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlarida ham o‘zgarishlar mavjud bo‘lishi uchun, korxonaning texnik va tashkiliy darajasida o‘zgarishlar bo‘lishi va ularda taklif qilinayotgan miqdoriy baholash aks ettirilishi kerak bo‘ladi.

Shuni inobatga olish kerakki, texnik, tashkiliy va iqtisodiy darajalar o‘rtasida qandaydir aniq bog‘lanish mavjud bo‘lishi va u qay yo‘sin bog‘lanishi mumkinligi borasida aniq bir fnuksiya mavjud emas. Bu bog‘liqlik nima bilan ifodalanishini aniqlab olish kerak bo‘ladi. Boshqaruv jarayoni, ayniqsa, texnik, tashkiliy darajani miqdoriy baholash metodikasidan foydalanganda erishilgan innovatsion faoliyat natijalarini monitoring qilish (nazorat qilish) uchun ma’lum bir innovatsiyalar samaradorligini baholash lozim bo‘ladi. Bular quyidagi ko‘rsatkichlaridan foydalanish mumkinligini belgilab beradi.

Innovatsiyalarni joriy etishdagi yillik iqtisodiy samara mana bu formula bilan aniqlanadi:

$$S_{in} = \sum_{i=t_n}^{t_m} (N_T - X_T) * k_t \ (1)$$

3 “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ma’lumotlari.

bu joyda:

S_{in} – innovatsiyalar tatbiq qilinagandan keyingi yil davomida ko‘rilgan iqtisodiy samara, so‘m hisobida;

N_T – innovatsion tadbirlar amalga oshirilgach, natijalar hisoblanib, uning qiymat bahosi, so‘m;

X_T – innovatsiyalarni tatbiq qilishga mo‘ljallangan yillik xarajatlar, so‘m hisobida;

t_m – amala oshirilgan ishlar oqibatlari va ularning miqdori;

k_t – har xil vaqtda bo‘ladigan xarajatlar va ularning oqibatlariini bir vaqtga olib keltish (diskontlash) koeffitsiyenti – mana bu formula bilan aniqlanadi:

$$k_t = (1 + E_T)^t \quad (2.2)$$

bu joyda: k_t – vaqti turlicha bo‘lgan xarajatlar va natijalarni bitta vaqtga olib kelish meyori berilgan bo‘lib, u son jihatdan kapital qo‘yilmalarning samaradorlik koeffitsiyentiga teng ($k_t = 0.1$); t – mazkur yildagi xarajatlar va natijalarni hisob-kitob yilidan ajratib turadigan yillar soni.

Hisobot yili sifatida mahsulot ishlab chiqarish (tashishni tashkil etish va h.k.) boshlangan yoki yangi texnologiya, mehnatni yoki boshqaruvni tashkil etishning yangi usullari qo‘llangan yildan oldingi va barcha ko‘rib chiqilayotgan innovatsiyalar variantlari orasidagi birinchi kalendar yili olinadi. Agar xarajatlar hisobot yili boshlanishidan oldin amalga oshirilgan bo‘lsa, ular k_t – bitta vaqtga keltirish koeffitsiyentiga ko‘paytiriladi, agar hisob-kitob yilidan keyin amalga oshirilsa N_T – ga bo‘linadi.

N_T – mana bu formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$N_T = \sum_{i=t_n}^{t_m} \left(N_t^j - N_t^b\right) * k_t \quad (2)$$

Transport sohasida davlat innovatsion siyosati qoidalarini amaliyotga joriy etish jarayonida asosiy o‘rinlardan birini egallovchi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ mamlakatdagi eng yirik kompaniya va umummilliy temir yo‘l transport kompaniyasi hisoblanadi. Korporativ innovatsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ushbu mexanizm ishlatiladi.

Korporativ innovatsion siyosat – bu shunday to‘plamki unda xo‘jalik yurituvchi subyektning oqilona tashkiliy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan innovatsion boshqaruvchi ta’sir etish maqsadlari, shakllari va usullaridan iboratdir. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning innovatsion siyosati uni umummilliy transport kompaniyasi sifatida rivojlantirishga, kompaniyaning uzoq muddatli samarali ishlashi va moliyaviy barqarorligini oshirishga, xizmatlar sifatini oshirishga, transport ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirishga va xalqaro transport tizimiga chuqur integratsiyalashuviga qaratilgan.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ustavida belgilangan maqsadlarga erishish uchun kompaniya rahbariyatiga jamiyatda yagona texnik, ilmiy-texnik va innovatsion siyosatni olib borish, zarur investitsiya resurslarini jalb qilgan holda kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishini ta’minlash, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, loyiha, qidiruv, qurilish, qurilish-montaj va ta’mirlash-qurilish ishlarini tashkil etish, jamiyatning intellektual mulkini boshqarish va tasarruf etish vazifalari yuklatilgan. Korporativ innovatsion siyosatni shakllantirish hamda amalga oshirish yo‘nalishlari “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda 3.3-rasmda keltirilgan (3.1-jadval).


Innovatsion siyosatni korporativ darajada amalga oshirish strategik, taktik va tezkor rivojlanish rejalari tizimini ishlab chiqish va joriy etish orqali ta’minlanadi. Rivojlanish jarayonlarini rivojlantirish tizimining xususiyati, shuningdek, innovatsiyalarni boshqarish tizimidagi darajalar va alohida bo‘g‘inlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik jarayonlarining xususiyatlari rejalashtirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonining mazmuni bilan belgilanadi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJdagi innovatsion jarayonlarni tashkil etish boshqaruv apparatining vakolatiga kiradi va uning asoslarini aniqlash jamiyatning boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ faoliyatiga umumiy rahbarlikni Direktorlar kengashi amalga oshiradi. Uning vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi: jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash; kompaniya faoliyatining istiqbolli rejalari va asosiy dasturlarini, shu jumladan yillik budjetlar va kompaniyaning investitsiya dasturini tasdiqlash.

Jamiyat kollegial boshqariladi. Uning ijro organi boshqaruv apparati hisoblanadi. Jamiyat boshqaruvining vakolatlariga kompaniya faoliyatining joriy rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlash kiradi. Bundan tashqari kompaniya faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari va ularni amalga oshirish bo‘yicha istiqbolli rejalarni, shu jumladan jamiyatning yillik budjetlari va investitsiya dasturini ishlab chiqish va direktorlar kengashiga taqdim etish, ularning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash ishlari kiradi.

Temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadi temir yo‘l transportida fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarni yaratishdir.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



1-rasm: Innovatsion faoliyatni temir yo‘l transporti korxonalarida rivojlantirish omillari


Yuqorida temir yo‘l transporti innovatsion faoliyatini rivojlantirishda amal qilinishi lozim bo‘lgan tamoyillarni keltirib o‘tdik. Tadqiqotimizni davom ettirgan holda, temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tarkibiy baholash usulidan samarali va optimal foydalanish uchun innovatsion faoliyatni rivojlantirish algoritmini keltirib o‘tmoqchimiz.

Temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatini rivojlantirish algoritmi quyidagilarni aks ettiradi:

- baholashni amalga oshirish mobaynida bajariladigan ishlar va ularning turi;
- baholashni amalga oshirishning asosiy bosqichlari;
- temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni amalga oshirishning optimal ko‘lamini aks ettiruvchi, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan harakatlar ketma-ketligi (2-rasm). Temir yo‘l transporti innovatsion faoliyatini tarkibiy baholash usulida baholash jarayonining asosiy ishtirokchilarini belgilab olamiz. Buni amalga oshirishimiz uchun korxonada bevosita innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘lim bo‘lishi lozim, buni inobatga olgan holda korxonada mazkur bo‘lim mavjud degan tarzda tahlilni davom ettiramiz.

Temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayonida ma’lumotlarning aniq hajmini tanlab olish, guruhlash va tahlil qilish lozim bo‘ladi. Zarur ma’lumotlarni taqdim qiluvchi bo‘limlar: moliya, xodimlar,

korxona innovatsion faoliyati boshqaruvi bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar; ishlab chiqarish va texnologik bo‘lim; ilmiy-tadqiqotlar bo‘limlarini belgilab olish lozim. Ma’lumotlar temir yo‘l transporti korxonasi innovatsion faoliyatini boshqaruvchi bo‘lim tomonidan talablarga ko‘ra muayyan vaqt davomida belgilangan muddatda taqdim qilinishi talab qilinadi. Keyin transport korxonasi innovatsion faoliyati boshqaruvi bo‘limi olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi va olingan natijalar asosida korxona innovatsion salohiyatini aniqlaydi, natijalarni korxona faoliyatiga tatbiqini amalga oshiradi.



2-rasm: Temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘llari[4]

4 Muallif ishlanmasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan natijalarning belgilangan talab darajalariga mos kelmaganlarining tahlil qilinishi, vujudga kelish sabablarining aniqlanishi va transport korxonasi innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi uchun rahbariyatga topshiriladi. Bunda baholash ko‘rsatkichlari tizimiga qo‘yiladigan zaruriy talablar quyidagilardan iborat:

- ko‘rsatkichlar innovatsion faoliyat jarayonini tashkil etuvchilarning barchasini qamrab olishi kerak;
- ko‘rsatkichlar transport korxonasi istiqbolini hisobga olgan holda, kamida 3-5 yilga, tashkilot faoliyatining tahlili asosida shakllanishi kerak;
- baholash ko‘rsatkichlarining ishlab chiqilishi transprt korxonasi innovatsion faoliyati asosida, uni tavsiflovchi omillarni aniqlagan holda, tashkilotning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va texnologik, tashkiliy-boshqaruv, kadrlar va ijtimoiy jihatlarini tavsiflovchi, yetarli va sifatli ma’lumotlar hajmidan foydalanib amalga oshirilishi kerak;
- ko‘rsatkichlarning soni unchalik ko‘p bo‘lmagan holda, innovatsion faoliyat elementlarini to‘liq qamrab olishi zarur.

Taklif qilinayotgan temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha yondashuv innovatsion salohiyatni iqtisodiy mohiyatiga asoslangan bo‘lib, unga ta’sir qiluvchi omillar va uning tarkibi qismlarini hisobga oladi. Innovatsion faoliyatni tarkibiy qismlari asosida guruhlangan va ularga ta’sir o‘tkazuvchi bevosita boshqariladigan omillarni baholash ko‘rsatkichlari majmui ishlab chiqilgan va “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ innovatsion faoliyatini baholash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni. // www.lex.uz.
3. Венаблес, А. Ж. (2007). Эвалуатинг Урбан Транспорт Импровементс: Сост–Бенефит Аналйсис ин тҳе Пресенсэ оф Аггломератион анд Инсоме Тахатион. Жоурнал оф Транспорт Эсономисс анд Полисй, 41:173–188 п.
4. Коврижных И.В. (2016) Анализ и оценки эффективности управления в организации / И.В. Коврижных. – Барнул: АФ СибАГС – 86 с.
5. Zohidov A.A. (2018) Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent.
6. Gulamov A.A. Temir yo‘l kompaniyasining asosiy kapitalini iqtisodiy jihatdan baholash metodologiyasini takomillashtirish (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida). Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2020.
7. Yarashova V.K. O‘zbekiston transport tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy jihatlari. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2022.

O‘ZBEKISTONDA BANKLARARO RAQOBAT

UDK: 336.719(334.7)



Zunnunova Xulkar Muxtorovna
PhD, Toshkent Kimyo halqaro universiteti “Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Maqolada bank xizmatlari bozorida banklararo raqobatning baholash va uni takomillashtirish masallari yoritilgan. Maqolada xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan banklararo raqobatni baholash usullarini mamlakatimiz amaliyotida qo‘llash istiqbollari tadqiq qilinib, tadqiqotda analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish hamda guruhlash usullaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: kapital, foyda, rentabellik, raqobat, monopoliya, oligopoliya, sof raqobat, raqobatbardoshlik koeffitsiyenti.

Abstract: The article describes the assessment of interbank competition and its improvement in the banking services market. The article discusses the prospects for using international practice methods for assessing interbank competition in the practice of our country, while the study uses methods of analysis and synthesis, comparative and selective research, and grouping.

Key words: capital, profit, profitability, competition, monopoly, oligopoly, pure competition, competitiveness coefficient.

Аннотация: В статье описана оценка межбанковской конкуренции и ее совершенствование на рынке банковских услуг. В статье рассматриваются перспективы применения международной практики методов оценки межбанковской конкуренции на примере нашей страны, при этом в исследовании используются методы анализа и синтеза, сравнительного и выборочного исследования, группировки.

Ключевые слова: капитал, прибыль, рентабельность, конкуренция, монополия, олигополия, чистая конкуренция, коэффициент конкурентоспособности.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish undagi moliyaviy institutlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Moliyaviy institlar xizmatlarining sifati va ko‘lami ortishi nafaqat mamlakat ichidagi raqobat darajasini balki, xalqaro miqyosda ham raqobatlasha olish imkoniyatini yaratadi. Mamlakatimizda 2023-yilda 3 ta tijorat banki (ATB Hayot, ATB Apex, ATB Yangi) ochilgan bo‘lsa, joriy yilda 1 ta tijorat banki ATB Yevroosiyo banki ochildi. Banklar sonining ortishi banklararo raqobatni kuchaytirmoqda, chunki banklar xizmatlar bozorida nafaqat mahalliy banklarimiz balki xorijiy banklarning sho‘ba banklari (Ziraat Bank Uzbekistan, KDB Bank O‘zbekistan, Saderatbank Tashkent, “Tenge Bank” ATB, “TBC Bank” ATB) shuningdek, chet el kapitali ishtirokidagi banklar ham o‘z faoliyatini olib bormoqda. Bu esa, banklararo raqobatni kuchayishiga va banklarni doimiy bank xizmatlari sifati va turlari sonini orttirish va albatta, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni kamaytirish hamda operatsiyalar ko‘lamini kengaytiradigan kapital bazasini oshirishga undamoqda. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston banklari kapitall bazasiga qo‘yilgan talablar ham o‘zgarib, 2023-yil 1-sentabrdan minimal bank kapitaliga qo‘yilgan talab 200 mlrd.so‘m, 2024-yil 1-apreldan 350 mlrd.so‘m va 2025-yil 1-yanvardan 500 mlrd.so‘m miqdorida bo‘lishi belgilandi.

Banklar nafaqat boshqa banklar bilan balki moliyaviy texnologiyalarni taklif yetuvchi firmalar bilan ham raqobatlashishmoqda. Fintex kompaniyalari bozorni tez o‘rganib, insonlarni hohishlariga mos xizmatlarni banklardan oldinroq taklif etishlari sabab aksariyat to‘lovlar ushbu tizimlar orqali amalga oshirilmoqda. Bunga yaqqol misol payme to‘lov tizimi to‘lov aylanmasining kattaligi va mijozlar sonining ko‘pligi hisobiga TBC bank Gruziya avval bir qismini o‘tgan yili qolgan qism to‘liq sotib oldi. Bunday holatlar banklarimiz uchun jiddiy raqobat muhitini yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy banklararo raqobat va raqobatbardoshlik nazariyasi dunyo olimlari Dj.Robinson (Robinson, 1933), F. Xayek (Xayek, 2007) M.Porter (M.Porter, 2014) singari olimlarning ilmiy izlanishlari yo‘nalishlari bo‘lgan.

Banklararo raqobat - bankning bank xizmatlari bozoridagi ulushini oshirish maqsadida cheklangan moliyaviy resurslarni, mijozlarni, innovatsion bank texnologiyalari, sifatli bank xizmatlarini egallash va kengaytirish asosida moliya institutlarining raqobat muhitini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Bankning raqobatbardoshligi bitta tarifga ega bo‘lmagan murakkab tushunchadir. Chunki xozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda bankning raqobatbardoshlining umumiy tarifi va uni aniqlashning umumiy uslubiyoti mavjud emas. A.Shaposhnikov bankning raqobatbardoshligi bu – obyektning ma’lum bir bozor shartlari asosida analoglari bilan muvafaqqiyat bilan raqobatlasha olishi deb ta’rif bergan (Shaposhnikov, 2020).

Olimlarning tadqiqotlarini o‘rganish natijasida banklararo raqobatni baholashda quyidagi mezonlarni ajratib ko‘rsatishganini qayd etish mumkin:

- xizmatlar sifati va mijozlarga taqdim etiladigan qiymat: Misol uchun, bankning mobil ilovalarining foydali funksiyalari, onlayn xizmatlarining qulayligi va to‘lov tizimidan foydalanish darajasi va ularning qiymati.
- mijozlar uchrashuvi va axborot almashish ommaligi: Olimlar, banklararo raqobatni baholashda, mijozlar uchrashuvi va axborot almashish ommaligini o‘rganib, mijozlarning bank xizmatlaridan qanday foydalanishini, ularning xizmatlar haqida ariza va mulohazalarini banklararo raqobatbardoshlik darajasini oshiruvchi omil sifatida qarashgan.
- innovatsiyalar va texnologiyalar qo‘llanilishi: banklardagi yangiliklar, mobil ilovalar, onlayn platformalar va boshqa texnologik yondashuvlardagi yangi xizmatlarni qo‘llanish darajasining ortishi.
- foiz stavkalari va moliyaviy sharoitlar: Olimlar, banklararo raqobatni baholashda, banklar tomonidan taklif etilayotgan depozit va kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari, moliyaviy sharoitlar va qo‘llanilayotgan moliyaviy vositalar bo‘yicha banklarni tahlil qilishadi.
- bankning brending strategiyasi va imiji: bankning brendining tanlov va imijini tashkil etishda qanday yondashuvlarni qabul qilganligi, shuningdek, bankning ijtimoiy va moliyaviy imijini oshirish uchun qanday qadriyatlarni inobatga olishi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat bankining raqobatbardoshligini baholashdan maqsadga quyidagilar kiradi:

- bankning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- hamkorlikda faoliyatni tashkil etish maqsadida kontragentlarni aniqlash;
- bankning yangi bozor, hudud va boshqalarga kirishi uchun strategiyasini ishlab chiqish;
- investitsion faoliyatni amalga oshirish va boshqalar.

1979-yildan buyon Jahon iqtisodiy forumlarining raqobatbardoshlik hisobotlarida milliy iqtisodiyotlarni barqaror uzoq muddatli o‘sishini ta’minlab beruvchi omillar tadqiq qilinadi. Milliy raqobatbardoshlikni baholash uslubiyoti ma’lum bir vaqtlar kesimida turlicha bo‘lgan va takomillashtirib borilgan shu sabbali, 2004-yilda Jahon iqtisodiy forumida global raqobatbardoshlik indeksini kiritish taklif etilgan. Bu indeks keng qamrovli bo‘lib, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini aniqlash uchun mikro va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Global raqobatbardoshlik indeksi 12 ta ko‘rsatkichlar bo‘yicha guruhlangan (1-rasm).

Global raqobatbardoshlik indeksi tarkibiga kiruvchi ko‘rsatkichlar o‘zaro aloqador va bir-birlarini kuchaytiradi. Ushbu indeksda 12 ta ko‘rsatkich tarkibiga bir nechta o‘zgaruvchilar ham kiradi va ularning jami 113 ta. O‘zgaruvchilarning 1/3 qismi umum foydalanish mumkin bo‘lgan, ochiq ma’lumotlardan iborat. Bu o‘zgaruvchilarning 2/3 qismi tashkilotlar rahbarlarini so‘rov qilish orqali so‘rovnoma natijalarida ifodalanadi. Ushbu indeks miqdori turli mamlakatlarda turlicha, bu ushbu davlatdagi tarixiy shakllanishi va muhiti, institutsional va tuzilmaviy holatiga bog‘liq.



1-rasm: Global raqobatbardoshlik indeksi 12 ta omillari1

1-jadval: Global raqobatbardoshlik indeksi bo‘yicha TOP-10 talikka kiruvchi mamlakatlar[2]

2023-yil	Mamlakat	2022-yil	O‘zgarishi
1	Daniya	01	–
2	Irlandiya	11	+9
3	Shveysariya	02	-1
4	Singapur	03	-1
5	Niderlandiya	06	+1
6	Tayvan	07	+1
7	Gonkong	05	-2
8	Shvetsiya	04	-4
9	Amerika Qo‘shma shtatlari	10	+1
10	Birlashgan Arab Amirligi	12	+2

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda raqobatbardoshlik darajasi yuqori. Ushbu reytingda MDH mamlakatlaridan Kozog‘iston Respublikasi 37-o‘rinni egallagan. O‘zbekistonni ushbu reytinga kirishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi

“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida” PF-6003-sonli Farmoni imzolangan.

Farmonga ko‘ra 2021-yilda ushbu indeksga kiritish masalasi muhokama qilingan va 2023-yil 1 yanvarda Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan har yili Oliy Majlis Senatiga axborot beriladigan Raqobat rivojlanishi indeksi joriy qilindi. Unga ko‘ra, vazirlik va idoralar har yili 1-aprelga qadar Raqobat qo‘mitasiga indeksni shakllantirish uchun kerak bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishi lozim.

Yuqorida keltirib o‘tilgan global raqobatbardoshlik indeksi komponentlari asosida bank tizimining raqobat-bardoshligini ham baholash mumkin.

1 Глобальный индекс конкурентоспособности. Портал конкурентоспособности Украины [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://competitiveukraine.org/ru

2 https://gtmarket.ru/ratings/imd-world-competitiveness-ranking маълумотлари.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Bundan tashqari xalqaro amaliyotda banklararo bozordagi raqobat muhitini baholashda bozor konsentratsiyasi koyeffitsiyentidan foydalaniladi (O.Ortiqov, I.Qulliyev,2011). Ushbu ko‘rsatkichning normativ darajasi 35%ni tashkil qiladi va uni quyidagi formula orqali aniqlaymiz.

$$\text{BKK} = \frac{\text{Mamlakatdagi 3 ta yirik tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat turlari}}{\text{Ushbu xizmat turining barcha tijorat banklarida ulushi}} \times 100\%$$

Ushbu ko‘rsatkichning 35 % gacha bo‘lishi bozordagi banklararo raqobat muhiti normal va erkin ekanligidan dalolat beradi. Agar ushbu ko‘rsatkich 70%dan yuqori bo‘lsa, bank xizmatlari bozorida raqobat muhiti salbiy deb baholanib, bank tizimi monopol xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistondagi banklararo raqobat darajasini BKK bo‘yicha baholab ko‘ramiz. Bunda uchta eng yirik banklar sifatida kapital bazasi mustahkam va yirik bo‘lgan O‘zmilliybank, O‘zsanoatqurilishbank va Agrobankni tanlab olamiz.

Kapital miqdori TIF Milliybankida 18 384 mlrd.so‘m, ATB O‘zsanoatqurilishbankida 9 205 mlrd.so‘m va ATB Agrobank 11 985 mlrd.so‘mni tashkil etadi (2024-yil may oyida).

$$\text{BKK} = \frac{18\,384 + 9\,205 + 11\,985}{61\,848} \times 100\% = 64\%$$

Bozor konsentatsiyasi koeffitsiyenti bo‘yicha banklararo raqobat darajasi kapital bazasiga ko‘ra, deyarli 70%ga yaqin natijani berdi, bu kapital konsentratsiyasi bo‘yicha davlat ulushi ishtirokidagi banklarda kapital bazasi ko‘pligini va operatsiyalar xajmi bo‘yicha kichik banklar ular bilan raqobatlasha olmasligidan dalolat beradi.

Endi shu banklarni depozit miqdori bo‘yicha banklararo raqobat darajasini baholaymiz. Depozit miqdori TIF Milliybankida 33 014 mlrd.so‘m, ATB O‘zsanoatqurilishbankida 15 370 mlrd.so‘m, ATB Agrobankida 15 747 mlrd.so‘m miqdorida (2024 yil may oyida).

$$\text{BKK} = \frac{33\,014 + 15\,370 + 15\,747}{184\,439} \times 100\% = 34.8\%$$

Bozor konsentatsiyasi koeffitsiyenti bo‘yicha banklararo raqobat darajasi depozit bazasiga ko‘ra, 34.8% ni tashkil etib, bu xalqaro amaliyotda belgilangan me’yor 35%ga yaqin. Bu mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan banklar ular hox yirik hox kichik bo‘lsin bir-birlari bilan bemalol raqobatlasha olishlarini bildiradi. Ya’ni kichik banklarda ham depozit yetarli darajadagi kapital bazasiga egaligini anglatadi.

Yuqorida o‘rganilayotgan banklarni kredit qo‘yilmalari miqdori bo‘yicha konsentratsiya koeffitsiyentini hisoblasak. Kredit qo‘yilmalari TIF Milliybankida 100 416 mlrd.so‘m, ATB O‘zsanoatqurilishbankida 58 700 mlrd. so‘m, ATB Agrobankida 57 558 mlrd.so‘m (2024 yil may oyida).

$$\text{BKK} = \frac{100\,416 + 58\,700 + 57\,558}{266\,931} \times 100\% = 81.2\%$$

Bozor konsentatsiyasi koeffitsiyenti bo‘yicha banklararo raqobat darajasi kredit qo‘yilmalariga ko‘ra, deyarli 81.2%ni tashkil etadi, bu kredit qo‘yilmalari asosan bo‘yicha davlat ulushi ishtirokidagi banklar tomonidan ajratilishini anglatadi. Albatta, kapital bazasi miqdori yuqori bo‘lgan banklarni ko‘p miqdorda kredit berish imkoniyati ham ortadi.

2-jadval: Bank tizimi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot (mlrd. so‘m)[3]

Ko‘rsatkichlar	01.04.2023-yil			01.04.2024-yil			Nominal o‘sish, foizda	Haqiqiy o‘sishi, (devalvatsiyani hisobga olmagan holda) foizda
	Jami	Shundan, xorijiy valyutada	Ulushi, foizda	Jami	Shundan, xorijiy valyutada	Ulushi, foizda		
Bank aktivlari, jami	564 548	261 994	46%	665 657	294 388	44%	18%	13%
Kredit qo‘yilmalari, jami	408 167	191 416	47%	478 201	212 740	44%	17%	12%
Jami depozitlar	206 009	73 963	36%	243 128	71 519	29%	18%	15%
Jami kapital	82 853	366	0,4%	100 713	404	0,4%	22%	22%

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki bankning aktivlari, kredit qo‘yilmalari, depozit va kapital miqdorida jami miqdori o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lsada, xorijiy valyutadagi depozitlar miqdori joriy yilda kamayganligini

3 www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari.

ko‘rishimiz mumkin. Xorijiy valyutadagi depozitlar miqdori 2023-yili 73 963 mlrd.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda esa ushbu ko‘rsatkich 71 519 mlrd.so‘mga ya’ni 3.3% ga pasayganligini ko‘rishimiz mumkin.Depozit qo‘yilmalarining xorijiy valyutada kamayishi, devolvatsiya hamda majburiy zaxira miqdori bilan bog‘liq. Chunki xorijiy valyutada jalb qilingan resurslardan ajratiladigan majburiy zaxira miqdorining 18%ligi, banklarni milliy valyutada ko‘proq resurs jalb qilishini rag‘batlantiradi. Sababi, bankning kredit potensiali milliy valyuta ancha ko‘proq bo‘ladi.

Yanada mamlakatimiz bank tizimidagi raqobat darajasini baholash uchun bankning asosiy ko‘rsatkichlarini banklarni mulkchilik shakllari bo‘yicha konsentratsiyasini o‘rganib chiqsak.

3-jadval: Bank tizimining taqqoslama ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot[4]

Ko‘rsatkichlar	01.01.2022-yil				01.01.2023-yil			
	Aktivlar	Majburiyatlar	Kreditlar	Depozitlar	Aktivlar	Majburiyatlar	Kreditlar	Depozitlar
Jami:	**444 922**	**374 005**	**326 386**	**156 190**	**556 746**	**477 181**	**390 049**	**216 738**
Davlat ulushi mavjud banklar, trln.so‘m	362 422	304 727	280 074	104 248	435 136	373 216	324 681	135 534
Boshqa banklar ulushi, trln.so‘m	82 501	69 278	46 312	51 942	121 611	103 964	65 368	81 203
Davlat ulushi mavjud banklar, foizda	81,5	81,5	85,8	66,7	78,2	78,2	83,2	62,5
Boshqa banklar ulushi, foizda	18,5	18,5	14,2	33,3	21,8	21,8	16,8	37,5

Jadval ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, mamlakatimiz bank tizimida davlat ulushi mavjud banklarning bank xizmatlari bozoridagi ulushi sezilarli darajad yuqori ekanligi ko‘zga tashlanmoqda. 2022-yilda bank tizimi aktivlarining 81,5 foizi, majburiyatlarning 81,5 foizi, kreditlarning 85,8 foizi, depozitlarning 66,7 foizi mazkur banklar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. 2023-yilda bank xizmatlari bozorida banklararo raqobat muhiti ijobiy tendensiyalarni namoyon qilgan bo‘lsada, davlat ulushi mavjud tijorat banklarining ulushi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda.

Davlat ulushi mavjud bo‘lgan eng yirik banklar beshtaligining bank tizimi aktivlaridagi ulushi 70,9% dan 60,5% gacha kamaydi. Davlat ulushi mavjud bo‘lgan boshqa banklarning ulushi 11% dan 18% gacha oshgan bo‘lsa, xususiy banklarning ulushi 18,1% dan 21,5% gacha ko‘paydi.

Eng yirik banklar beshtaligining jami kredit portfelidagi ulushi 77% dan 64% gacha kamaydi. Xususiy banklarning ulushi 11,6% dan 16,6% gacha ko‘paygan bo‘lsa, davlat ulushi mavjud boshqa banklarning ulushi 19% ga yetdi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Mamlakatimiz banklarining raqobatbardoshlik darajasining pastligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- o‘z mablag‘larining xalqaro darajadagi banklar kapitali kabi yetarli darajada emasligi, undan tashqari banklarning kapitallashuv darajasining pastligi;
- chekka joylarda joylashgan bank filiali va xizmat ko‘rsatish markazlari bilan aloqalarining past darajada ekanligi;
- mahalliy banklarimizning xizmat ko‘rsatish sifatini xalqaro standartlardan pastligi;
- taklif etilayotgan bank xizmatlari assortimentining kamligi va ba’zi xizmat turlari takomillashmaganligi;
- bank qimmatli qog‘ozlar bozoridan resurs jalb qila olishi uchun moliya bozori va aholining moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi;
- davlat tomonidan davlat banklarini qo‘llash maqsadida ko‘p resurs ajratilishi boshqa banklarni raqobatbardoshlik darajasini pasaytiradi;

4 www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari.

- banklarimizning investitsion jozibadorligining pastligi;
- muammoli aktivlarning belgilangan xalqaro talablardan kredit portfelidagi ulushining (belgilangan mezon 10%gacha) yuqoriligi va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank xizmatlari bozorida banklararo raqobat va banklarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida banklarning kapital bazasini oshirish, kichik banklarga ham yirik banklar bilan raqobatlashishlari uchun ularga moliya bozori, banklararo kredit bozoriga kirish imkoniyatini yaratish, mijozlarni jalb qilishlari uchun yangi ochilgan banklarga vaqtincha imtiyozlar berish lozim. Faqat imtiyozlar vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lishi lozim. Bundan tashqari yuqorida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- banklarni aksiyalarini kotirovka darajasini oshirish uchun banklar tomonidan dividend to‘lovlarini to‘lashini Markaziy bank cheklashi kerak emas (agar bank yil davomida birorta chorakda zarar bilan chiqsa, boshqa choraklarida foyda bilan chiqsa ruxsat berish lozim);
- fond bozorida yangi ochilgan banklar qimmatli qog‘ozlari kotirovkalanishi uchun yirik banklarda ander-rayting xizmatlarini rivojlantirish;
- bank ichki xujjatlar va ma’lumotlar almashinuvini tezlatish, yangi bank texnologiyalaridan foydalanish;
- bank xizmatlari va texnologiyalarini takomillashtirish, zamon bilan ham nafas texnologiyalardan foydal-anish;
- doimiy bank mijozlarini kutilmalarini o‘rganish orqali yangi bank xizmatlarini joriy qilish;
- tijorat banklarini reyting ko‘rsatkichlari, ishonchliligi hamda shaffofligi oshirish;
- banklar tomonidan kredit berishda mijozning kreditga layoqatligini sinchkovlik bilan o‘rganish va kreditga layoqatlikni baholashning xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan EBITDA, ICR kabi ko‘rsatkichlarni joriy qilish lozim va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.06.2020-yildagi PF-6003-son. lex.uz›docs/4838762
2. Porter, M. E. (ed.) Competition in Global Industries. Boston: Harvard Business School Press, 1986.
3. Хайек, Ф. А. Познание, конкуренция и свобода : учебное пособие : [16+] / Ф. А. Хайек. – Москва : Директ-Медиа, 2007. – 237 с.
4. Дж.Робинсон. Economics of Imperfect Competition, Macmillan, 1933; 2nd edn., 1969.
5. Шапошников А. М. Межбанковская конкуренция и оценка конкурентоспособности коммерческих банков: монография/А.М. Шапошников. – Чебоксары: ИД “Среда”, 2020. – 128 с.
6. O.Ortiqov, I.Qulliyev. Bank menejmenti va marketingi, Moliya-2011. 285 bet.
7. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
8. https://gtmarket.ru/ratings/imd-world-competitiveness-ranking- сайти маълумотлари.

O‘ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA TIZIMIGA INTEGRATSIYASINI TA’MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH





Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna
I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta’minlash tizimini takomillashtirishda xalqaro suveren kredit munosabatlarining o‘rni, xalqaro obligatsiyalar bozorida qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish orqali xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlari asoslangan. O‘zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta’minlash jarayonini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsyailar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro integratsiya, xalqaro moliya tizimi, xalqaro kapital bozori, korporativ yevroobligatsiya, xalqaro fond birjasi, xalqaro obligatsiya.

Abstract: The article focuses on the role of international sovereign credit relations in improving the system for ensuring the integration of Uzbekistan into the international financial system, the possibilities of attracting financial resources from the international capital market by placing securities on the international bond market. A scientific proposal and practical recommendations for improving the system for ensuring the integration of Uzbekistan into the international financial system have been formulated.

Key words: international integration, international financial system, international capital market, corporate Eurobonds, international stock exchange, international bonds.

Аннотация: В статье акцентируется внимание на роли международных суверенных кредитных отношений в совершенствовании системы обеспечения интеграции Узбекистана в международную финансовую систему, возможностях привлечения финансовых ресурсов с международного рынка капитала путем размещения ценных бумаг на международном рынке облигаций. Сформулированы научное предложение и практические рекомендации по совершенствованию системы обеспечения интеграции Узбекистана в международную финансовую систему.

Ключевые слова: международная интеграция, международная финансовая система, международный рынок капитала, корпоративные еврооблигации, международная фондовая биржа, международные облигации.

KIRISH

Mamlakatimizda xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali aksiyadorlik jamiyatlarini qo‘shimcha moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hamda xalqaro suveren kredit reytingini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro moliya bozori ishtirokchilariga aylanishi ularning xalqaro integratsiyalashuv jarayonlarini oshirish bilan birga ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatini yanada oshiradi.

Ta’kidlash lozimki, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ichki manbalar hisobiga moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, biroq moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabning ortib borishi xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilishning zaruratini vujudga keltiradi. Bugungi kunda O‘zbekiston mustaqillik tarixida ilk bor korporativ yevroobligatsiyalarni xalqaro fond birjasida joylashtirib, bular bo‘yicha dastlabki ijobiy natijalarga erishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O‘zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi. Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo‘l qurilishi, qishloq va suv xo‘jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta’minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi” [1]. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamligini ta’minlashga hamda xususiy, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar uchun Respublikaning investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekistonning yetakchi banklari va yirik korxonalari tomonidan korporativ reytinglarni olish hamda davlat kafolatisiz xorijiy investitsiya va qarzlarni jalqilish bo‘yicha Respublikaning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradigan mamlakatning suveren kredit reytingini olish zarurligini ko‘rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta’minlashni takomillashtirishga doir keng ko‘lamli tadqiqotlar xorij iqtisodchi olimlaridan V.Ropke ilmiy izlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot ishida mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta’minlashda xalqaro savdo munosabatlarining o‘rni va uning rivojlanish mexanizmiga ustuvorlik beriladi [2]. A.Ye.Lebedev tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot izlnishlarida globallashuv jarayonlarini mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirining asosiy yo‘nalishlari; inflyatsiya sur’atlarini pasaytirish, mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyatlarini cheklash, milliy iqtisodiyotlarning dollarlashuvini kuchaytirish nuqtayi nazaridan moliyaviy globallashuvning milliy moliya tizimiga ta’siri bilan bog‘liq tendensiyalar aniqlangan [3]. A.V.Yakimov tadqiqotlarida mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasi - ilmiy-texnikaviy va ilmiy-texnikaviy resurslarni maksimal darajada oshirishga qaratilgan moliyaviy va investitsion hamkorlik sohasidagi kelishilingan uzoq va o‘rta muddatli tadbirlar majmui deb ta’rif beriladi [4].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan B.O.Tursunov, M.Mamadolimova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot izlanishlarida O‘zbekistonning xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini ta’minlashda xalqaro moliya tizimiga integratsiyasiyalashuv jarayonlarining o‘rni yuqori darajada baholanadi [5]. Sh.Sh.Yovqochev mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta’minlashda xalqaro moliya institutlarining rolini yuqori darajada e’tirof etib, O‘zbekistonga Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan kredit liniyalari hajmini oshirish bilan bog‘liq atroflicha xulosalar qilingan [6].

Maqolada mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyati hozirgi holati, uning rivojlanish isstiqbollari va xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mavzuga doir statistik malumotlar tahlili etilgan. Mavjud muammolar aniqlanib, muammo yuzasida xulosa va takliflar berilgan. D.I.Zokirova, S.X.Mavlonov, U.A. Yuldashevalar mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati hozirgi holati, uning rivojlanish isstiqbollari va xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mavzuga doir statistik malumotlar tahlili etilgan [7].

Yuqoridagi tadqiqotlarda mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta’minlashni takomillashtirish bilan bog‘liq mavjud muammolar aniqlangan bo‘lishiga qaramasdan bu borada tegishli xulosa va takliflar berilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020-yilning fevral oyida dunyoning eng obro‘li birjalaridan hisoblangan London fond birjasida O‘zbekiston tarixida birinchi marta yevrobondlar, ya’ni yevroobligatsiyalarni bozorga joyladi. Bunda 5 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni 4,75 foizdan, 10 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni esa 5,375 foizdan joylashtirdi.

Qarz obligatsiyalarini qaytarish muddatlari 2024-yil va 2029-yillar qilib belgilandi. Yevrobondlarning aksariyatini - 75 % va 78%ini boshqaruv fondlari, 20% va 16 foizini sug‘urta kompaniyalari va pensiya fondlari, 5% va 6% foizini banklar xarid qildi. Jami joylashtirilgan 1000,0 million dollarlik xalqaro obligatsiyalar uchun dastlabki besh yilda to‘lanadigan bir yillik foizli xarajatlar 56,63 million dollarga teng, keyingi besh yilda faqat 10 yillik muddatli xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha foizli to‘lovlar amalga oshirilib, har yillik miqdori 26,88 million dollarni tashkil etadi. 10 yil davomida ushbu xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha to‘lanadigan foizli xarajatlarning umumiy miqdori 387,50 million dollarga teng [8].

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta’minlash, shuningdek, tashqi moliyalashtirish hajmini kengaytirish va manbalarini diversifikatsiyalash, xorijiy investorlar uchun mamlakatning jozibadorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyala bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3877-son qarori qabul qilingan edi.

Mazkur qaror iqtisodiyotning real sektori korxonalariga xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shunga ko‘ra, amaliyotini tahlil qilar ekanmiz, mazkur jarayonlarda xalqaro yirik moliya institutlari Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabilarning ulushi yuqori ekanligini ta’kidlash lozim.

Keyingi yillarda mamlakatimiz korporativ sektorida faoliyat yuritayotgan yirik aksiyadorlik kompaniyalarining investitsion dasturlarini moliyalashtirish va birgalikdagi loyihalarini amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot bankining mablag‘lari bilan ishtiroki yuqori o‘rinni egallab kelmoqda. 2015–2019-yillar mobaynida korporativ sektorning turli tarmoqlari va yo‘nalishlari 2020 million AQSH dollari miqdorida mablag‘lar yo‘naltirilgan bo‘lsa shundan yuqori ulushni 500 million. AQSH dollarini qishloq joylarida arzon-uy joylarni qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan jami kreditlarning umumiy hajmi 1569 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan bugungi kundagi kredit portfelining umumiy miqdori 700 million dollarni tashkil etmoqda. Jahon banki tomonidan amalga oshirilgan moliyalashtirishning umumiy summasi 6741 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, amaldagi loyihalar bo‘yicha moliyalash summasi 4338 million dollardan iborat bo‘lganligini ta’kidlashimiz mumkin. OTB tomonidan Markaziy Osiyodagi moliyalashtirilayotgan loyihalarni tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi masalasiga kelsak, 80% loyihalar to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilmoqda: energetika, transport, moliya sektori va davlat boshqaruvi sohasida.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotini rivojlanib borayotganligi sharoitida, mazkur jarayonlarga nafaqat tijorat banklari balki iqtisodiyot real sektori korxonalarini kengroq jalb qilish lozim. Ushbu amaliyotni takomillashtirish orqali mazkur aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitalida davlatning ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuvni kuchaytirish, mustaqil xalqaro reyting indekslariga ega bo‘lish va zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Fikrimizcha, O‘zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta’minlashni takomillashtirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- mamlakatning hududiy va tarmoq tizimini takomillashtirish nuqtayi nazardan investitsiyalashga ta’sir etuvchi omillarni muvofiqlashtirgan holda qulay investitsion muhitni yaratish;
- iqtisodiyotining tarmoq va sohalari doiraisda xorijiy bank kreditlari salmog‘ini oshirishga doir imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish;
- xalqaro moliya institutlarining respublikamizda ochgan kredit liniyalaridan to‘la to‘kis foydalanishni ta’minlash;
- xalqaro obligatsiyalar savdosini tashkil etish bo‘yicha yez qaror qabul qilishlari uchun hisob va hisobot tizimi samaradorligini oshirish kabi qo‘shimcha tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020 y. https://president.uz/uz/lists/view/3324
2. Ropke W. International order and economic integration. – NY, 2012.
3. Лебедев А.Е. Финансовая глобализация в контексте проблем общемирового, регионального и национального (российского) развития: Дис. д-ра экон. наук: Москва, 2004.
4. Якимов А.В. Повышение интенсивности процессов международной интеграции в экономике // Вопросы экономики и управления. – 2020. – № 1. – С. 151.
5. Tursunov B. O., Mamadolimova M. M. National economy: competitiveness and factors to increase it //International scientific-electronic journal—International Finance and Accounting. – 2019. – №. 2.
6. Ёвқочев Ш.Ш. Халқаро молия институтларининг Ўзбекистон Республикасидаги инвестицион фаолияти таҳлили // Экономика и финансы (Узбекистан). 2019. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/hal-aro-moliya-institutlarining-zbekiston-respublikasidagi-investitsion-faoliyati-ta-lili.
7. Zokirova D.I, Mavlonov S.X, Yuldasheva U.A. (2023). O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish masalalari. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 19(4), 18–23. Retrieved from https://newjournal.org/ index. php/ 01/article/view/5
8. www.mineconomy.uz

RESPUBLIKAMIZDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI



Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning vujudga kelishi, jahon iqtisodiyoti va jamiyat hayotida raqamli texnologiyalarning ahamiyati, raqamli iqtisodiyotning afzallik va kamchiliklari tahlil qilingan hamda mavjud muammolarni bartaraf orqali respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, yangi iqtisodiyot konsepsiyasi, raqamli texnologiyalar, raqamli integratsiya va transformatsiya, elektron tijorat, taraqqiyot.

Abstract: This article analyzes the emergence of the digital economy, the importance of digital technologies in the world economy and society, the advantages and disadvantages of the digital economy, and comments on the development of the digital economy in our republic by eliminating existing problems.

Key words: digital economy, new economy concept, digital technologies, digital integration and transformation, e-commerce, development.

Аннотация: В данной статье анализируется возникновение цифровой экономики, значение цифровых технологий в мировой экономике и обществе, преимущества и недостатки цифровой экономики, а также комментируются вопросы развития цифровой экономики в нашей республике путем устранения существующих проблем.

Ключевые слова: цифровая экономика, концепция новой экономики, цифровые технологии, цифровая интеграция и трансформация, электронная коммерция, развитие.

KIRISH

Bugungi kunda globllashuv jarayoni jadallashib, mamlakatlar o‘rtasidagi integratsion jarayonlar tobora shiddatli tus olayotgan davrda iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida hamda insonlar hayotida raqamli texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu jarayon esa jamiyatlarning an’anaviy iqtisodiy modellardan yangi iqtisodiy konsepsiyaga, ya’ni raqamli iqtisodiyotga o‘tayotganligini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan aytib o‘tishimiz mumkinki, so‘ngi vaqtlarda “raqamli iqtisodiyot” tushunchasi juda ko‘p qo‘llaniluvchi kategoriyalardan biriga aylanib bormoqda. Buning asosiy sababi esa raqamli iqtisodiyot mamlakatlar taraqqiyotidagi va jamiyatlar hayotidagi ahamiyatining ortib borayotganligi bilan bog‘liqdir. Shu o‘rinda raqamli iqtisodiyot tushunchaning vujudga kelishiga to‘xtalib o‘tsak. Raqamli iqtisodiyot atamasi ilk bor 1990-yillarda amerikalik olimlar tomonidan qo‘llanilgan.

Umuman olganda raqamli iqtisodiyot - bu xo‘jalik faoliyatini yuritish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayoni asosini raqamlar ko‘rinshidagi ma’lumotlar tashkil etishini anglatadi. Ya’ni bu katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini tahlil qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berish asosida iqtisodiyotga oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko‘rsatish, elektron to‘lovlarni amalga oshirish, online savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog‘langan faoliyatdir.

Biznes va ijtimoiy soha faoliyatida rivojlanishning yangi to‘lqini raqamli texnologiyalarning yangi avlodi, ya’ni sun’iy ong, robototexnika, simsiz aloqa texnologiyalari yordamida ro‘y bermoqda. Yangi texnologiyalar barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga katta hissa qo‘shishi mumkin, ammo biz kutilgan ijobiy natijalarni ololmasligimiz ham mumkin. Agar raqamli texnologiyalarning to‘liq ijtimoiy va iqtisodiy potensialiga erishmoqchi bo‘lsak, kutilmagan oqibatlarga yo‘l qo‘ymagan holda davlatlar o‘rtasidagi samarali va ishonchli hamkorlik aloqalarini shakillantirishimiz lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, respublikamizda "Raqamli O'zbekiston–2030" dasturining ishlab chiqilganligi va undagi chora-tadbirlarning amalga oshirib kelinayotganligi fikrimizga misol bo'la oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va nazariy-uslubiy asoslari, iqtisodiyot soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalarda foydalanish, elektron tijorat, xalqaro raqamli integratsiya va transformatsiya jarayonlari bir qator xorijlik hamda mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, 1995-yil Don Tapskot o'zining "Raqamli iqtisodiyot: tarmoq razvedkasi davridagi va'da va xavf" kitobida iqtisodiyotdagi o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning iqtosodiyot tarmoqlariga ta'siri xususida fikr-mulohazalarini bildirib o'tgan. Amerikalik olim Nikolas Negroponte esa o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini tadqiq etgan hamda raqamli iqtisodiyotni zamonaviy va yangi iqtisodiyot ekanligi, uning an'anaviy iqtisodiyotdan farqli jihatlari xususida ilmiy mulohazalar yuritgan.

Rus olimlari S.Nosova, A.Putilov, A.Norkina o'zlarining "Raqamli iqtisodiyot soslari" nomli [4] dasligida raqamli iqtisodiyotning shakillanishi, vujudga kelishi tarixi va uning nazariy asoslari xususida o'rganishlar olib borgan bo'lsa, yana bir rus olimi O.Kolesnichenko "Axborot jamiyati rivojlanishida (Data Science) ma'lumotlar fani" nomli [5] asarida zamonaviy iqtisodiyotda ma'lumotlardan foydalanish va ma'lumotlarni tahlil qilishga oid qarashlarini va ilmiy izlanishlarini keltirib o'tgan. Shuningdek, S.Gulyamov [1], R.Ergashev, S.Xamrayev, O.Abdullayev [2], A.Fattaxov [3], K.Axmedov, R.Ayupov [6] va G.Baltabayeva kabi olimlar tomonidan iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning o'rni, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda axborot texnologiyalar ahamiyati, blokcheyn texnologiyalar va uning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahamiyati, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda raqamli iqtisodiyot kansepsiyasini joriy etish zaruriyatiga oid ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiya, induksiya, deduksiya, tahlil va sintez usullaridan foydalanilgan holda raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning yuzaga kelish tarixi, raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahamiyati tadqiq etildi, shuningdek, O'zbektonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar va istiqbolli yo'nalishlari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarini rivojlanishi va tadbiq qilinishi evaziga kundalik hayotimizda juda ko'plab qulayliklar paydo bo'lmoqda. Ushbu fikrimizni elektron tijorat, online banking, online buyurtma qilish va boshqa bir qator raqamli xizmat turlarini misol keltirish orqali asoslashimiz mumkin.

Fikrimizcha raqamli iqtisodiyot – bugungi iqtisodiy resurslar taqchilligi sharoitida raqamli texnologiyalar yordamida ushbu muammolarni bartaraf etish va rusurslardan yanada samarali foydalanishda muhim tizim sifatida xizmat qilishi mumkin. Negaki, har qanday iqtisodiy tizim oldida turgan asosiy muammo bu resurslar taqchilligi bilan bog'liq, raqamli iqtisodiyotda ham asosiy e'tibor ushbu muammoni hal qilishga qaratilmog'i lozim.

Shu o'rinda takidlab o'tish lozimki, iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bu tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyot sharoitida platformaga asoslangan biznes katta ustunlikka ega bo'ladi. Ham vositachi, ham infratuzilma sifatida ular onlayn harakatlar va platforma foydalanuvchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalar bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni yozib olish va o'chirish imkoniyatiga ega. Raqamli platformalarning o'sishi ularning raqamli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, ammo ularning qiziqishlari va xatti-harakatlari daromad olish uchun ushbu ma'lumotlarni qanday qilib tijoratlashtirayotganliklariga bog'liq.

Shu o'rinda raqamli iqtisodiyotning mamlakat va jamiyat uchun ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi jahatlariga to'xtalib o'tsak:

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari va imkoniyatlari

Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan, biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olishdan ancha arzonga tushishi mumkin. Yoki bo'lmasam oddiy bir shaxs, ortiqcha harakatlarsiz tadbirkor bo'lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqa afzalliklari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- ishlab chiqarishda mehnat samadorligini oshishi;
- kompaniyalarning raqobatbardoshligini o‘sishi;
- ishlab chiqarishdagi harajatlarning kamayishi;
- yangi ish o‘rinlari yaratilinishi;
- yangi zamonaviy kasblar paydo bo‘lishi;
- kambag‘allikni yengish va ijtimoiy tengisizlikni yuqolishi.

Bular albatta raqamli iqtisodiyotning ba’zi ijobiy jihatlari. Lekin, umuan olganda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bizning kundalik hayotimizga ko‘plab afzalliklari mavjud. Raqamli iqtisodiyot texnoloyalardan oddiy foydalanuvchiga ko‘plab qo‘shimcha imkoniyatlar beradi hamda bozorni o‘sishi va rivojlanishini ta’minlab berishi ham mumkin.

Raqamli iqtisodiyot keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan xavflar

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiyot tarmoqlari va aholi farovonligini oshirish bilan bir o‘rinda qator muammolarni hamda xavf-xatarlarni ham yuza keltiradi. Jumladan, bular quyidagilar:

- Kiber hujum xavfi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi bilan bog‘liq muommolar;
- “Raqamli qullik” (millionlab insonlar ma’lumotlaridan keyinchalik ularni o‘zlarini tutishini boshqarish uchun foydalanish);
- Ishsizlikni oshishi, axborot texnoloiyalarini rivojlanishi va uni tadbiq qilinishi ortidan bir qancha sohalar va kasblar yo‘q bo‘lib ketishi mumkin.

Aytib o‘tish lozimki, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida yuzaga keluvchi xavf-xatarga qarshi kurashish va ularni ijobiy hal etilishi shaxslarning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonlik darajasining oshishi, ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasining rivojlanishi va shaxsiy ma’lumotlar daxilsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi bilan ta’minlanishi mumkin.

Hozirda davlatlardagi raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyasini kuzatadigan bo‘lsak jug‘rofiy jihatdan juda notekis joylashganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Jahon hamjamiyati va undagi davlatlar raqamli iqtisodiyotga o‘tmagan va giperraqamli mamlakatlar o‘rtasidagi keskin farq bilan ajralib turadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda har ikki kishidan bittasi, kam rivojlangan mamlakatlarda esa har besh kishidan bittasi internetdan foydalanadi. Bugungi kunda “Raqamli” davlatlar tarkibiga Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanishadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta davlatlar qatoriga esa AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong kiradi.

Ushbu mamlakatlar tajribasini o‘rganish orqali aytishimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat (hukumat) bozor “o‘yin” qoidalarini, o‘yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o‘yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli hamda sharoitlarni yaratib berish hisoblanadi. Ya’ni, bozorda katta kompaniya bo‘ladimi yoki kichik biznes subyekti, ular teng huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi. Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste’molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta’minlanadi. Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo‘lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda (ya’ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o‘yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur. Shu o‘rinda, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi kuzatadigan bo‘lsak, raqamli transformatsiya natijasida aholi uchun ko‘plab qulayliklar yaratilayotganligini, ularning turli xizmatlardan, jumladan, davlat xizmatlaridan online shakilda foydalanishga imkoniyatlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Ammo, mazkur yo‘nalishda o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud bo‘lib, ushbu muammolarning ijobiy hal etishilishi nafaqat iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan yanada samarali foydalishga, balki xorijiy investitsiyalar hajmining ortishiga, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida raqamli integratsiya jarayonining yanada jadallashishiga xizmat qiladi. Bu muammolar quyidagilar:

- Internet tezligining va sifat darajasining pastligi;
- Aholining aksariyat katta qismining raqamli texnologiyalar bo‘yicha savodxonlik darajasining qoniqarli emasligi hamda axborot madaniyati va axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha bilm-ko‘nikmalari yo‘qligi;
- Axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalar bugungi globallashuv davrida juda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar milliy iqtisodiyotidagi o‘rni va jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatini anglagan holda O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Jahonning taraqqiy etgan davlatlari tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va ijobiy tajribalarni o‘rganish hamda yaxshi tajribalarni respublikamiz ichki muhitiga, qonun-qoidalarga moslashtirgan holatda joriy etish;
- Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning qonuniy asoslari yaratish va mavjud qonun hujjatlaridagi ma’lum punklarni zamon talablari asosida tahrirlash;
- Raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini yanada yaxshilash;
- Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan takliflar bosqicha-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda amaliyotga joriy qilinsa, O‘zbekiston raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo‘la oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. С.С.Гулямов, Р.Х.Эргашев, С.Н.Хамраева. Рақамли иқтисодиёт - (ўқув қўлланма), – Т.: 2020. – 377 б.
2. О.Абдуллаев, А.Фаттахов, К.Ахмедов. Ракамли иктисодиёт. Т.: “LESSON PRESS, нашриёти. 2020 йил – 686 бет.
3. S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019, – 380 b.
4. С.С. Носова, А.В. Путилов, А.Н. Норкина. Основы цифровой экономики : учебник / – Москва : КНОРУС, 2021. – 392 с. (Бакалавриат)
5. Колесниченко О.Ю. К60 Data Science (наука о данных) в становлении информационного общества: учебное пособие. – М.: Прометей, 2021. –52 с. йил.
6. Ayupov, R.X., Baltabaeva, G.R. (2018). Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya. 172 b.
7. Kurpayanidi, K., Ilyosov, A. (2020) Problems of the use of digital technologies in industry in the context of increasing the export potential of the country// ISJI Theoretical & Applied Science. p. 113-117.
8. Abdullayev, A. M., & Kurpayanidi, K. I. (2020) Analysis of industrial enterprise management systems: essence, methodology and problems. Journal of Critical Reviews, 7 (14), 1254-1260. https://dx.doi.org/10.17605/OSF.IO/E6JFS
9. A.Bektemirov, J.Mirzakulov. In the National Development of Uzbekistan Digital Economy: Problems and Solutions. (2024). Journal of International Scientific Research, 1(3), 82-87. https://spaceknowladge.com/index.php/joisr/article/view/145
10. Digital 2019: global digital overview. Value creation and capture: implications for developing countries. UNCTAD, 2020.
11. http://xs.uz/uzkr/post/davlatimiz-rahbari-2030-jilgacha-raqamli-ozbekiston2030-dasturini-amalga-oshirishni-taklif-etdi
12. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Digital economy report 2019.

IQTISODIY XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI





Aripov Oybek Abdullayevich
I.f.d., Namangan muhandislik-qurilish instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, prof.

Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich
Namangan muhandislik-qurilish instituti
magistratura 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati yoritib berilgan hamda “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining tavsifi keltirilgan. Kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan xafsizlikni belgilovchi mezonlar ham o‘zgarib borganligi to‘g‘risida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, iqtisodiy xavfsizlik, milliy manfaatlar, xavf-hatar, xavfsizlikni ta’minlash.

Abstract: The article reveals the essence of the concept of economic security. A description of the concept of “economic security” is given. It has been suggested that the criteria defining safety have also changed as human society has evolved.

Key words: state, economic security, national interests, risk, security.

Аннотация: В статье раскрыта сущность понятия экономической безопасности. Дано описание понятия “экономическая безопасность”. Было высказано предположение, что критерии, определяющие безопасность, также менялись по мере развития человеческого общества.

Ключевые слова: государство, экономическая безопасность, национальные интересы, риск, обеспечение безопасности.

KIRISH

Jahon integratsiyasi va globallashuv jarayonlari avj olgan bir davrda inqiroz ta’sirini susaytirish va milliy iqtisodiyotlarning barqarorligini kuchaytirish, davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash va uning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish juda muhimdir. Bunday paytda har bir mamlakatning iqtisodiy tuzilmalarini rivojlantirish shartli jarayon hisoblanib, iqtisodiy xavfsizlikni boshqarish tizimining samaradorligini qayta ko‘rib chiqish zarur masalalardan hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va xavfsizlikni boshqarishning yangi modellarini izlash orqali yangilashni taqazo etadi.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi milliy iqtisodiyot taraqqiyotida yangi sohalardan hisoblanadi. U mamlakat miqyosidagi iqtisodiy xavfsizlikning zaruriyatidan paydo bo‘lgan tushunchadir. Milliy hudud, millat, tabiiy resurslar va umuman davlat chegarasi bilan muhofazalangan jamiyatning xavfsizligini ta’minlashni anglatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy manbalarda keltirilganidek, “xavfsizlik” tushunchasi Rober ma’lumotnomasiga ko‘ra, 1190-yilda paydo bo‘ldi. Unda o‘zini har qanday xavf-xatardan himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhiyatining xotirjam holati ifodalangan. Ushbu ma’noda mazkur termin G‘arbiy Evropa xalqlari leksikonida XVII asrgacha qo‘llanilgan[1].


1 Abulqosimov H.P. Iktisodiy xavfsizlik. –T.: Akademiya, 2006. 5 bet.

Iqtisodiy xavfsizlik masalasini o‘rgangan V.K.Cenchagov[2] rahbarligidagi Rossiya halq xo‘jaligi fanlar akademiyasi olimlari o‘z tadqiqotlarida qadimda ham davlat xavfsizligi masalasiga jiddiy e’tibor berilganlini ta’kidlaydilar.

Antik faylasuflar xavfsizlik va iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlar muammolar o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlab uning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ular odatda “xavfsizlikni davlat va uning fuqarolarini g‘ayritabiiy va yomon niyatli kuchlar, turli xil tahdidlardan himoya qilish”[3] deb baholashgan.

Demokrat “xavfsizlikni – insonning hayot sharoitlariga moslashishi va eng maqbul omon qolish ehtimolidir. Aynan ushbu zaruriyat insonlarni birlashib jamiyat yaratish va har birining himoyalanganlik darajasini oshirishga undadi”[4], deb qaragan. Aristotel ham xavfsizlik mazmuni negizida shaxsning o‘zini asrash muammosi turadi, degan fikrga kelgan[5].

Bugungi kunda “iqtisodiy xavfsizlik” iborasi turli ilmiy manbalarda turlicha talqin etiladi. Bir guruh iqtisodchilar “...milliy manfaatlarni himoya qilish va ro‘yobga chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlash mexanizmlarini yaratishga qodirligi va tayyorligi deb talqin...”[6] qilsalar, ikkinchi guruh iqtisodchilari “…mazkur tushunchani xalqning mustaqil ravishda tashqi kuchlarning aralashuvisiz iqtisodiy taraqqiyot yo‘li va shakllarini o‘zi belgilab olishiga imkon beradigan holat sifatida tavsiflaydi”[7]. Xususan, akademik L. I. Abalkin iqtisodiy xavfsizlikni “milliy iqtisodiyotning mustaqilligini, uning barqarorligi va chidamliligini, doimo yangilash va yaxshilash qobiliyatini ta’minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmui”[8] deb ta’riflaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda 1-rasmda keltirilganidek tavsiflari berilgan.



1-rasm: “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining tavsifi[9] (V.L., Vasilenko, V.N.Bikov bo‘yicha)[10]

Korxonaning iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilishga asoslangan nisbatan yangi yondashuv iqtisodiy xavfsizlikni uning hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, ya’ni korxona, uning kadrlar va intellektual salohiyati, axborot, maxsus huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, axborot texnologiyalari va ijtimoiy xarakterdagi choratadbirlar tizimi taqdim etiladigan texnologiya, kapital va foyda. Bu yondashuvni U.T. Xaytmatov, O.X. Azamatov, R.R. Majidov, A.F. Hakimov, N. K. Muratova, I. A. Konopleva, I. A. Bogdanovlar olg‘a surganlar.

Ko‘rinib turibdiki, “iqtisodiy xavfsizlik” iborasidagi mazmunan ko‘p qirrali bo‘lib, terminologiya nuqtayi nazardan turli ma’nolarda talqin etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning oldiga qo‘yilgan vazifalarini hal qilish maqsadida ilmiy bilimlarning umumiy usullari tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash, umumlashtirish, statistik kuzatish usuli, ma’lumotlarni yig‘ish va guruhlash, umumlashtirish ko‘rsatkichlarini hisoblash, ma’lumotlarni taqdim etishning turli usullari qo‘llanilgan.

2 Сенчагов В. К. Экономическая безопасность России. –М.: ДЕЛО, Общий курс под редакцией академика РАЕН. 2005 г. С.897.
3 История древнего мира/ Под ред. И.М.Дьяконова, В.Д.Нероновой, И.С.Свенцицкой. –М.: 1982. Кн. 2. С. 263, 288-294, 298, 303.
4 История древнего мира/ Под ред. И.М.Дьяконова, В.Д.Нероновой, И.С.Свенцицкой. –М.: 1982. Кн. 2. С. 263, 288-294, 298, 303.
5 Isroilov B.I. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb masalalari. // “Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyasi to‘plami. TDIU, 2019.
6 Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки. –М.: ЗАО “Финстатинформ”, 1998. С. 12.
7 Жандаров А.М., Петров А.А. Экономическая безопастность России: определения гипотезы, расчеты. // Безопасность. 1994, №3, С. 8.
8 Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение. // Вопросы экономики. 1994. №12. С. 5.
9 Rasm muallif tomonidan ishlangan.
10 Василенко В.Л., Быков В.Н. О некоторых угрозах экономической безопасности России // https://ru.wikipedia.org

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati rivojlangan sari, mamlakatga chetdan kirib keluvchi import tovarlarining ham soni ortib boradi. Bunda kirib kelayotgan har bir tovarning qonuniy ravishda mamlakat hududiga olib kirilayotganligi, aholining salomatligiga qay darajada ta'sir ko'rsatishini bilish mamlakat uchun muhim sanaladi. Bu o'z navbatida, mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojni paydo qiladi. Aslini olganda, iqtisodiy xavfsizlik ham qaysidir ma'noda mamlakat xavfsizligining bir bo'lagi hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo'jalik subyektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashi va fuqarolarga ziyon keltirishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Ushbu maqsadda davlat, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik va o'rta biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, iqtisodiyot sohalari raqobatbardoshligini rivojlantirish, fond bozori, yer va ko'chmas mulk bozorlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak bo'ladi.

Iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish davlatning strategiyasi siyosati va iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi asosida amalga oshiriladi. U O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini, milliy boyligini ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoya qilishni ko'zda tutadi. Ushbu konsepsiya bu boradagi siyosatni belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Aslida ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning rivojlanishi tarixiga nazar solsak, xavfsizlik muammosi har qanday ijtimoiy tuzumda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Qadimdan har bir davlat o'z mustaqilligi yo'lida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlarini qaror toptirish bilan bir qatorda, xavf-xatar, turli-tuman taxdidlarni oldini olish maqsadida o'zining strategiyasi va siyosatini ishlab chiqqan. Shu tarzda mamlakat xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti paydo bo'lgan.

Ko'rinib turibdiki, xavfsizlikni ta'minlash va mamlakatning iqtisodiy sohadagi milliy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiyotni yuksaltirish va mustaqil rivojini ta'minlash har bir davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatining asosiy mazmuni hisoblanadi. Shunday ekan, mustaqillikning ilk yillaridan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimi asoslarini tubdan o'zgartirgan O'zbekiston uchun keng ko'lamli tub o'zgarishlar belgilangan edi. Aynan o'sha davrlarda iqtisodiy rivojlanishning har qanday darajasini baholash va mamlakatlar uchun dolzarb bo'lgan milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyatini baholash qiyin bo'lgan.

Xavfsizlik qanday sohada, qanday shakl va qiyofada namoyon bo'lmasin ularning barchasi umumiylik xususiyatiga egadir. Umuman, xavfsizlik xavf-xatardan himoyalanish sharti va strategiyasi sifatida ijtimoiy tizim, shaxs, jamiyat va davlat hayot faoliyatining normal amal qilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi[11].

Biroq, har qanday holatda ham "iqtisodiy xavfsizlik" deganda, insoniyat hayotining iqtisodiy munosabatlarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalanish, kafolatlanish ma'nosini anglatadi. Shunday ekan, eng avvalo, iqtisodyotning rivoji yo'lida yuzaga keladigan xavf-xatarni bartaraf etish choralari doimiy ko'rib borilishi kerak. "Xavf-xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga, normal amal qilishiga tahdid soluvchi potentsial yoki real kuch, omil hisoblanadi. Xavf-xatar namoyon bo'lishining keskin shakllariga tabiiy, ijtimoiy kataklizmalar, portlashlar va larzalar, krizislar, tangliklar, revolyutsiya, qo'zg'olon, isyon, urush, qurolli to'qnashuvlar kiradi"[12]. Bugungi kunda insoniyat hayotida birinchi bor yuz bergan koronavirus panedemiyasi ham iqtisodiy munosabatlarni umuman to'xtatib qo'yishga olib kelgan xavf-xatarlardan biri deb hisoblaymiz. Koronavirus pandemiyasi butun jahon mamlakatlarini inqirozga yuz tutgan xatar ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Iqtisodiy xavfsizlikni rivojlantirgan holda moliyaviy bozorni yanada takomillashtirishimiz mumkin bo'ladi. Moliya bozorining rivojida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan bank tizimini olib qarasak. Banklarning barqaror faoliyati uchun jamiyatning butun bir bank tizimiga bo'lgan ishonchi yuqori bo'lishi kerak. Shunda aholining bo'sh turgan mablag'lari, jamg'arib boriladigan mablag'lari aynan bank tomonidan saqlanadi. Natijada banklarda pul aylanmasi tezlashadi va ularning mustahkam barqaror holatini saqlanishiga erishiladi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarning bank tizimiga, xususan dunyo miqyosida eng mashhur hisoblangan Shvetsariya bank tizimini olib qaraydigan bo'lsak. Bu bankning o'ziga xos jihatlaridan biri, uning amaldagi soliq solish tizimi bilan bog'liq emasligidadir, ya'ni bunda bank operatsiyalari natijasida kelib tushgan daromadlar omonatchilarga sof holda, hech qanday qo'shimcha to'lov undirmasdan etib boradi. Bundan tashqari depozit qutichalari ham yuqori darajada kodlashtirilgan tizimga ega, hamda depozit egasining shaxsini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham sir saqlanadi. Bankdan foydalanuvchilarning huquqlari yuqori himoyalangan va bu o'z navbatida ularning bankka bo'lgan ishonchini mustahkamlashga zamin bo'ladi. Bizning mamlakatimizda omonatlarning xavfsizligi biroz sust rivojlangan. Omonatga pul mablag'larini qo'ygan shaxs ertaga uni hech qanday yo'qotishlarsiz olishiga ko'zi etmaydi. Shuning hisobiga aholi qo'lidagi jamg'arib borish darajasi biroz yuqori ko'rsatkichni ko'rsatadi. Bank tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatning ishonchini oshirish, ularning pul mablag'lari hamda turli depozit qutichalarida saqlanadigan qimmatbaho buyumlarining xavfsizligini ta'minlash moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

11 Основы экономической безопасности. – М., 1996. С.3.

12 "Iqtisodiy xavfsizlik" fanidan o'quv-uslubiy majmua (elektron manba). Tuzuvchilar: Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. –T.: O'zMU, 2018. 28 b.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy xavfsizlik o‘z navbatida, ma’lum bir usullar yordamida ta’minlanadi. Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga oid axborotlarni topish va jamlashda omilli analiz usulidan foydalaniladi. Iqtisodiy xavfizlikni omilli analizga asoslanmagan holda tadqiq etib bo‘lmaydi, chunki iqtisodiy xavfsizlik ham bir tizim bo‘lib, u bir qator o‘zgaruvchi hodisalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiy xavfsizlikni o‘rganish omillari, omilli matritsa, deb nomlanuvchi indikatorlar (ko‘rsatkichlar) bilan bog‘liqdir. Omilli matritsa analiz davomida aniqlangan omil va indikatorlarning o‘zaro bog‘liqlik darajasini xarakterlaydi. Omilli analizning asosiy maqsadi shaxs, jamiyat va davlat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlaydigan umumiy qoidalarni ishlab chiqish va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotini hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish jarayonidagi kamchiliklar bilan uzviy bog‘lanishini ta’minlashdan iboratdir. Umuman olganda, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat xavfsizligi deb bejiz ta’kidlanmaydi. Aholi iste’mol qiladigan har bir mahsulot iste’mol darajasiga tayyor bo‘lishi bu o‘ta muhim hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi qanchalik kuchli rivojlangan bo‘lsa, kirib kelayotgan tovarlar, yaratilayotgan mahsulotlar shunchalik iste’molga yaroqli va sifatli bo‘ladi, jamiyat xavfsizligi ta’minlanadi, ular turli yaroqsiz mahsulotlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kasalliklardan himoya qilinadi.

Demak, mamlakatning rivojlanishida uning iqtisodiy jihatdan xavfsizligini ta’minlay bilish muhim hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, bir tomondan davlat xavfsizligi hisoblansa, boshqa tomondan iqtisodiy rivojlanish asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение. // Вопросы экономики. 1994. №12. С. 5.
2. Abulqosimov H.P. Iktisodiy xavfsizlik. –T.: Akademiya, 2006. 5 bet.
3. Василенко В.Л., Быков В.Н. О некоторых угрозах экономической безопасности России // https://ru.wikipedia.org
4. Жандаров А.М., Петров А.А. Экономическая безопастность России: определения гипотезы, расчеты. // Безопасность. 1994, №3, С. 8.
5. Isroilov B.I. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb masalalari. // “Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyasi to‘plami. TDIU, 2019.
6. История древнего мира/ Под ред. И.М.Дьяконова, В.Д.Нероновой, И.С.Свенцицкой. –М.: 1982. Кн. 2. С. 263, 288-294, 298, 303.
7. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanidan o‘quv-uslubiy majmua (elektron manba). Tuzuvchilar: Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. –T.: O‘zMU, 2018. 28 b.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik yo‘lida. –T.: O‘zbekiston, 1998. 31 bet.
9. Сенчагов В. К. Экономическая безопасность России. –М.: ДЕЛО, Общий курс под редакцией академика РАЕН. 2005 г. С.897.
10. Temur tuzuklari: –T.: “Sharq”, 2005 y. 159 b.
11. Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки. –М.: ЗАО “Финстатинформ”, 1998. С. 12.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDA HISOBOT TUZISHNING BOSQICHLARI



Eshonqulov Azamat Abdiraximovich
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Buxgalteriya hisobi va hisoboti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida konsolidatsiyalashgan holda tuzishning nazariy, tashkiliy hamda uslubiy jihatlari ochib berilgan. Konsolidatsiyalashgan shaklda moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, konsolidatsiyalashgan foyda va zararlar hamda jami daromad to‘g‘risidagi hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish asoslangan.

Kalit so‘zlar: konsolidatsiyalashgan, bosh korxona, sho‘ba korxona, sof aktivlar, gudvill.

Abstract: This article reveals the theoretical, organizational and methodological aspects of consolidated financial statements of joint-stock companies based on international standards. The consolidated statement of financial position, consolidated profit and loss and total income statement is based on international standards.

Key words: consolidated, parent company, subsidiary, net assets, goodwill.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические, организационные и методологические аспекты консолидированной финансовой отчетности акционерных обществ на основе международных стандартов. Консолидированный отчет о финансовом положении, консолидированный отчет о прибылях и убытках и совокупном прибылях и убытках основан на международных стандартах.

Ключевые слова: консолидированная компания, материнская компания, дочерняя компания, чистые активы, гудвил.

KIRISH

Mamlakatimizda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni milliy standartdan xalqaro standartlarga transformatsiya qilish 2015-yildan yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, 2021-yildan boshlab konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida majburiy tartibda yuritish lozimligi belgilab berilgan. Shunga muvofiq, bugungi kunda yirik subyektlarda, shuningdek aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida konsolidatsiyalashgan shaklda tuzish va uni tashqi foydalanuvchilarga taqdim etish xorijiy investorlarning ulushini oshirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishni takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borish va takomillashtirish zarur.

Bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida [1] moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish, xorijiy investorlarni zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash va xalqaro moliya fond birjalariga yani, dunyo kapital bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlarga binoan bilim va ko‘nikmalarini oshirib, xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalariga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu qarorda bundan tashqari 2021-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi hamda moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlaydigan tijorat banklari, aksiyadorlik jamiyatlari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar tadbirkorlik subyektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etilishi belgilab qo‘yilgan. Bu jarayon yurtimizda xalqaro standartlarga o‘tishdagi asosiy qadamlardan biri bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish bo‘yicha xorijlik iqtisodchi olimlar ham ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan. Ular jumlasiga S.V.Moderov o‘zining dissertatsiyasida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning paydo bo‘lishi, AQSHda sanoat inqilobi boshlanishi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida ta’kidlab o‘tgan [2]. Ushbu olim izlanishi korporatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirish kiritilishiga olib keldi, natijada xolding tuzilmalarini tashkil etishga imkoniyat yaratildi. Professor Ya.V.Sokolov “moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari buxgalterlarning nazariy fikrlari uchun XX asr oxiridagi ajoyib yodgorlikdir” deb tarif berilgan[3]. Respublika olimlaridan N.B.Xo‘jabekov tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning milliy qonunchilik asosida takomillashtirish jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratilgan [4]. 8-BHMS “Jamlanma moliyaviy hisobotlar va sho‘ba xo‘jalik jamiyatla-ri sarmoyalarini hisobga olish” standartining 4-bandiga asosan Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar -hisobot sanasidagi moliyaviy ahvolni va xo‘jalik yurituvchi jamiyatlar guruhining hisobot davri uchun moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi. deb izohlanadi[5]. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot 10-sonli MHXSga muvofiq ushbu guruhning moliyaviy hisoboti bo‘lib, unda Bosh korxona va uning sho‘ba korxonalarining aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromadlari, xarajatlari va pul mablag‘lari oqimini bir jamiyatning iqtisodiy moliya-xo‘jalik faoliyati sifatida ushbu mablag‘lar va ularning manbalari bo‘yicha umumlashtiriladi [6]. Vaxrushina M.A., Melnikova L.A takilashicha Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot - bu bosh korxona hamda uning sho‘ba korxonalari moliyaviy hisoboti bo‘lib, go‘yo bu korxonalar yagona korxona sifatida tuzilgan [7]. Paliy V.F. fikricha, “yig‘ma hisobot” atamasi “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” atamasining to‘liq analogidir. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar konsolidatsiyaning ushbu sohasiga (yoki “konsolidatsiya perimetri” deb ataladigan) kiritilgan aktsiyalar bo‘yicha dividendlarni hisoblash uchun asos sifatida korxonalarning iqtisodiy birikmasidan olingan guruh daromadlaridan foydalanishga imkon beradi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘rganish jarayonida mavzu bo‘yicha statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo‘llanildi. Tahlil davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJA

Korxonalarni birlashtirish deganda, alohida bir korxonaning ikkinchisiga qo‘shilishi yoki bir korxona ikkinchi korxonaning sof aktivlari va ishlab chiqarish faoliyati ustidan nazoratni sotib olish natijasidauzaga keladigan bir iqtisodiy birlikka qo‘yilishiga aytiladi. Bu, asosan, biror-bir faoliyat bilan shug‘ullanayotgan korxonaning egalari tomonidan ushbu korxona tarkibida bir nechta kichik mustaqil korxonalarni tashkil etishga bo‘lgan harakatidan kelib chiqadi. Buning natijasida soliq to‘lovlari qisqartirish yuzaga keladi.

Aksiyadorlik jamiyati korxonalarining bosh korxona nazorati ostida qo‘shilishi yuz bersa, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuziladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (konsolidatsiya inglizcha consolidate so‘zidan olingan bo‘lib, birlashtirmoq, mustahkamlamoq degan ma’noni anglatadi) bu yuridik jihatdan alohida, ammo iqtisodiy va moliyaviy tomondan o‘zaro bog‘liq ikki yoki undan ko‘p korxonalar hisobotlarini birlashtirishdir. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni umumiy - bosh va sho‘ba korxonalar guruhi sifatida ko‘rib chiqiladigan o‘zaro bog‘liq tashkilotlar bosh korxona hamda uning tarkibidagi sho‘ba korxonalari ning moliyaviy hisobotini ifoda etadi. Shu sababli, uning asosiy maqsadi ayrim jamiyatning hisobot maqsadi kabi hisobot davrida mulk va moliyaviy ahvolni, shuningdek hisobot davri uchun faoliyatning natijalarini ishonchli ifoda etish hisoblanadi. Moliyaviy hisobot bunday axborotning ichki va tashqi iste’molchilari, korxonalar egalari, bosh va sho‘ba korxonalari guruhi hamda kengashlar rahbarlari, uning tarkibiga kiruvchi jamiyat xodimlari, investor va kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, davlat, shuningdek, boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan. Ya’ni, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning asosiy vazifalarini ta’riflash mumkin:



1-rasm: Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning asosiy vazifalari[1]

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

asosida shakllanadi. Agar guruhda bironta kompaniyaning hisob obyektlari yoki operatsiyalariga nisbatan hisob siyosati guruhning hisob siyosatiga muvofiq kelmasa, bunday hollarda hisobot konsolidatsiyasi maqsadlari uchun korrektirovkalarni kiritish kerak.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (KMH). Moliyaviy holat to‘g‘risida KMH tuzishdan oldin 5 ta bosqichda ishlar amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Sho‘ba korxonasi xarid sanasida va hisobot sanasida sof aktivlari qiymatini hisoblash.
- Gudvil hisobi.
- Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasini (NQQH) hisoblash.
- Guruhning taqsimlanmaydigan foydasini hisoblash.
- Guruhning qayta baholash rezervi (QBR).

Yuqoridagi 5-bosqichdagi hisob-kitoblar amalga oshirilgandan so‘ng umumiy qoidaga muvofiq bosh kompaniya va sho‘ba kompaniyalarning aktiv va majburiyatlari satrlar bo‘yicha korrektirovkalarni hisobga olgan holda jamlash orqali moliyaviy holat to‘g‘risida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuziladi.

1-jadval: Moliyaviy holat to‘g‘risida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot[2]

№	MHH moddalari	BK	ShK	Guruh	Izoh
1	Aylanma mablag‘lardan tashqari aktivlar: Gudvil	-	-	G	2-bosqichda amalga oshirilgan hisob-kitoblar
2	Sho‘ba korxonalariga investitsiyalar	B	-	-	Chiqarib tashlanadi
3	Mulk, bino, mashina va asbob-uskunalar	B	Sh	B+Sh	+/- guruh ichidagi uzatishlar bilan bog‘liq korrektirovkalar, biznesni birlashtirishda SHK aktivlarini adolatli qiymati bo‘yicha qayta baholash
4	Nomoddiy aktivlar	B	Sh	B+Sh	+/- guruh ichidagi uzatishlar bilan bog‘liq korrektirovkalar, biznesni birlashtirishda SHK aktivlarini adolatli qiymati bo‘yicha qayta baholash
5	Boshqa aylanma mablag‘lardan tashqari aktivlar	B	Sh	B+Sh	+/- bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrektirovkalar
6	Joriy aktivlar: Zahiralar	B	Sh	B+Sh	+/- bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrektirovkalar
7	Debitorlik qarzlari	B	Sh	B+Sh	-guruh ichidagi operatsiyalar bo‘yicha qarzdorlik
8	Pul mablag‘lari	B	Sh	B+Sh	+guruh ichidagi hisob-kitoblar bo‘yicha pul mablag‘lari
9	Boshqa joriy aktivlar	B	Sh	B+Sh	+/- bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrektirovkalar
10	Xususiy kapital: Aksiyadorlik kapitali	B	Sh	B	Faqat B
11	Emission kapital	B	Sh	B	Faqat B
12	Qayta baholash rezerv	B	Sh	QBR	5-bosqichdagi hisob-kitoblar
13	Taqsimlanmagan foyda	B	Sh	TF	4-bosqichdagi hisob-kitoblar
14	Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi	-	-	HQQH	3-bosqichdagi hisob-kitoblar
15	Majburiyatlar	B	Sh	B+Sh	- guruh ichidagi hisob-kitoblari bo‘yicha qarzdorlik

Egalik qilish uchun 20 foizgacha bo‘lgan, boshqacha aytganda passiv investitsiyalar. Moliyaviy aktiv sifatida qaraladi, bunda investor kompaniya dvidentlar ko‘rinishdagi daromadni fksiyalar haqqoniy qiymatining oshishidan foyda olishni ko‘zlaydi. Hisobi 9-son IFRS bilan tartibga solinadi.

20–50 foizgacha egalik qilish uchun ushbu holatda investor o‘zining uyishgan yoki qaram kompaniya hisoblangan investitsiya obyektlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatish mumkinligini anglatadi. Bunday investitsiyalarni baholash va hisobga olishda 28-son MHXS (IAS) Uyushgan korxonalarga investitsiyalarga asosan ulushli ishtirok etish uslubi qo‘llaniladi.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Egalik qilish huquqi 50 foizdan ortiq – bosh kompaniyaning (BK) investitsiya obyekti, sho‘ba korxona (SHK) ustidan nazorat qilishga olib keladi. Gurux shakllanadi hamda bosh kompaniya 10-son MHXS (IFRS) ga asosan konsolidatsiyalangan hisobotni tuzadi. Ko‘pincha konsolidatsiyalangan hisobotga qo‘shimcha ravishda (asosan milliy regulyatorlar talablari bo‘yicha) alohida moliyaviy hisobot ham tuziladi[5]. Ushbu holatda 27-son MHXS (IAS) Alohida moliyaviy hisobot deb nomlanuvchi standartga amal qilishi lozim. Ulushli investitsiyalarni tasniflanishining shartli ko‘rinishi quyidagicha keltirishimiz mumkin.

- Moliyaviy aktivlar Boshqa (Passiv) investitsiyalar 0% dan 20% gacha 9-son son MHXS (IFRS) dvidentlart ko‘rinishdagi daromadlar.
- Uyushgan kompaniyalar jiddiy ta’sir 50% 28-son MHXS (IAS) Ulushli ishtirok etish uslubi.
- Sho‘ba kompaniyalar nazorat 100% 10-son MHXS (IFRS)- Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot 27-son MHXS (IAS) - Alohida moliyaviy hisobot [6].

Bir kompaniya (bosh/ona) boshqasi (sho‘ba)ni sotib olayotganda yuridik jihatdan ular alohidaligicha qolaveradilar hamda alohida buxgalteriya hisobotini tuzishda davom etadilar. Biroq, iqtisodiy jihatdan ular yagona xo‘jalik yurutuvchi subyekt (guruh)dir. Hamda iqtisodiy nuqtayi nazardan ushbu birlashtirilgan biznes nimaligini tushunish uchun muayyan qoidalar asosida ushbu kompaniyalar guruhining konsolidatsiyalangan moliyaviy hisoboti tuziladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilganimizda, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish, uni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishda auditning turdosh xizmatlariga qo‘yilgan barcha talablarni qamrab olishi va xalqaro standartlarida belgilangan mezonlarga rioya qilishini ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

Investorga boshqa investorlarga qaraganda ovoz berish huquqi qancha ko‘p bo‘lsa, investitsiya obyektining ahamiyatli faoliyatini boshqarish imkoniyatini beruvchi mavjud huquqlari borligi ehtimolligi shunchalik yuqori bo‘ladi.Qolgan ovoz berish huquqlari qanchalik “tarqoq” bo‘lsa, investorda unga investitsiya obyektining ahamiyatli faoliyatini boshqarish imkoniyatini beruvchi mavjud huquqlari borligi ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ– 4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/4746047.
2. Модеров С.В. Совместимая финансовая отчетность: логика и техника построения: дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук (08.00.12). – СПб, 2013 с.13.
3. Соколов, Я.В. Судьба международных стандартов финансовой отчетности в России / Я.В. Соколов // Финансы и бизнес.– 2005. № 1. – с. 72.
4. Xo‘jabekov N.B. Biznesni birlashtirishda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – T., 2009. – 22 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 8-son BHMS “Jamlanma moliyaviy hisobotlar va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlari sarmoyalarini hisobga olish”. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Standarti 04.11.1998 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 519, kuchga kirish sanasi 04.11.1998.
6. International Financial Reporting Standard 10 (IFRS 10) “Consolidated Financial Statements” / International Accounting Standards Board. – London, 2011. А-Б.банди.
7. Вахрушина М.А., Мельникова Л.А. Международные стандарты финансовой отчетн. – М.: Омега-Л, 2011, С. 389.
8. Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебник. 6-е изд., испр. и доп. – М.: Инфра-М, 2013. 506 с.
9. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлар тўплами. http://www.accaglobal.com
10. International Financial Reporting and Analysis, 4- Edition. D. Alexander, A. Britton, A.Jorissen. 2009. 17-p
11. Hermanson, Roger H. Accounting: a business perspective /Roger H. Hermanson, James Don Edwards, Michael W. Maher. 6th ed., Irwin, Printed in the USA, 2009. 17 p.
12. Насреддинов С.С. Консолидациялаштирилган молиявий ҳисобот тузишнинг назарий ва услубий масалалари (“Дори-дармон” давлат акционерлик уюшмаси мисолида) иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати, Тошкент: 2004. – 22 б.
13. Ковалев В. В., Ковалев Вит.В. Анализ баланса. – 3-е изд., перераб. и доп. –Москва: Проспект, 2016. –317 с.
14. Alexander, D., Britton, A. and Jorissen, A. (2007): International Financial Reporting and Analysis. 3rd ed. London: Thomson. p. 25.
15. American Accounting Association (1936): A statement of objectives of the American Accounting Assotiation / American Accounting Association // Accounting Review. – 1936, Vol. XI. p. 3.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING TURLARI VA SHAKLLARI

Karayev Payzillaxon Yusufxonovich
NamMQI, Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ilmiy maqolada davlat moliyaviy nazorati turlari va shakllarining nazariy asoslari yoritib berilgan. Moliyaviy nazoratning tizim bloklari va budjet ijrosi nazorati turlari, maqsadi borasida alohida to‘xtalib o‘tilgan. Moliyaviy nazorat ko‘rinishlari va turlari haqidagi ma’lumotlar asoslab o‘tilgan. Moliyaviy nazoratdan oldingi dastlabki nazoratlar haqida, keyingi nazoratlar haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat moliyaviy nazorati, Dastlabki nazorat, Keyingi nazorat budjet xarajatlari, boshqaruv tamoyillari, aktivlar, moliyaviy nazorat.

Abstract: The scientific article describes the theoretical basis of the types and forms of state financial control. System blocks of financial control and the types and purpose of budget execution control are discussed separately. Information about the forms and types of financial control is based. Information was given about the initial controls before the financial control, and about the subsequent controls.

Key words: state financial control, initial control, subsequent control budget costs, management principles, assets, financial control.

Аннотация: В научной статье описаны теоретические основы видов и форм государственного финансового контроля. Отдельно рассматриваются системные блоки финансового контроля, виды и цели контроля исполнения бюджета. Обоснованы сведения о формах и видах финансового контроля. Была предоставлена информация о первоначальных мерах контроля перед финансовым контролем и о последующих мерах контроля.

Ключевые слова: государственный финансовый контроль, предварительный контроль, последующий контроль бюджетных расходов, принципы управления, активы, финансовый контроль.

KIRISH

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar moliyaviy nazorat organlari faoliyatini ham takomillashtirishni taqozo etmoqda. Davlat boshqaruvi va moliyaviy tizimining samarali nazorati bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Moliyaviy nazorat davlatning iqtisodiy ko‘rsatgichlarini o‘sishida muhim o‘ringa ega hisoblanadi. Moliyaviy nazoratni samarali tashkil etish va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun nazorat ostiga olingan moliyaviy nazorat obyektiga mos bo‘lgan moliyaviy nazoratning shakllaridan, usullaridan va turlaridan foydalanish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A.V. Vahobov, T.S. Malikovlar moliyaviy nazoratni amalga oshirish reglamentiga ko‘ra: majburiy (tashqi) va tashabbuskorli (ichki) turlarga bo‘ladilar. Majburiy moliyaviy nazorat jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan mustaqil nazoratchilar tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy tarzda soliqlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘lanayotganligini, budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanayotganligi, korxona va tashkilotlarning buxgalteriya va boshqa hisobotlari ustidan asosan auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi.

S. O. Shohin, L. N. Voronina moliyaviy nazoratni tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lgan davlat va jamoat organlari tizimi sifatida belgilaydi, ularning faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash, iqtisodiy va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash va davlat budjetiga daromad olishning o‘z vaqtida va to‘liqligi. Nazorat, o‘z navbatida, qonunlarni ustivorligini ta’minlash maqsadida, doimiy ravishda amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazoratni nazorat qilish orqali talqin qilishda nazorat maqsadi buziladi.

Boshqa mualliflar, masalan, Yu. M. Voronin, moliyaviy nazoratni faqat qonuniylikni belgilash jarayoni sifatida emas, balki boshqaruv obyektining samaradorligi va natijadorligini baholash jarayoni sifatida ham ko‘rishadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘rganish jarayonida mavzu bo‘yicha statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo‘llanildi. Tahlil davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida aytib o‘tilganlarni tahlil qilish va umumlashtirish orqali muallif davlat moliyaviy nazoratining quyidagi ta’rifini berishga imkon beradi: davlat moliyaviy nazorati davlat siyosatini amalga oshirishni ta’minlaydi davlat boshqaruvining funksiyasi, uning maqsadi, davlat tomonidan boshqariladigan tizimning davlat tomonidan belgilangan moliyaviy resurslarni boshqarish me’yorlari va qoidalaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritadi.

Davlat moliyaviy nazorati davlat boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, u qonuniylik, muvofiqlik va moliyaviy resurslarni hamda boshqa davlat mulkini boshqarish samaradorligining qabul qilingan qonunlar va standartlaridan chetga chiqishlarni nazoratni o‘z ichiga oladi. Dastlab, nazoratning turlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

- **Dastlabki nazorat** – bunda reja, dastur va smetalarning tuzilishi nazoratdan o‘tkaziladi;
- **Joriy nazorat** – maxsus organlar tomonidan tezkor amalga oshirib turiladi. Masalan: buxgalteriya hisobining asosiy funksiyalaridan biri nazorat bo‘lib, ko‘p jihatdan buxgalteriya hisobi tuzilmasini to‘g‘ri tashkil qilinishiga bog‘liq;
- **Keyingi nazorat** – bu o‘tgan davrdagi faoliyatni tekshirishdir, masalan xo‘jalik faoliyatini kompleks taftish yoki moliyaviy audit;
- **Moliyaviy nazorat** – bu davlat tomonidan tashkil etilgan kuzatish tizimi bo‘lib unga davlat, mustaqil va jamoa tuzilmalari kiradi. Ular davlat hokimiyati organlari, korxona va tashkilotlar faoliyati samaradorligini, salohiyati zaxiralarini, davlat budjeti xarajatlarini, qonun va me’yoriy hujjatlarga rioya etilishini nazorat qilishadi.

Moliyaviy nazorat tizimiga: Davlat nazorati, idoraviy nazorat va mustaqil audit kiradi (1-rasm).



1-rasm: Moliyaviy nazorat turlari

Moliyaviy nazoratning bir turi bo‘lgan budjet nazoratini o‘tkazish davlat nazoratining subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazorat tizimi bloklari – uch turga bo‘linadi ya’ni moliyaviy budjet nazorati, ichki moliyaviy-xo‘jalik nazorati va mustaqil audit.

1. **Moliyaviy-budjet nazorati** – davlat budjeti smetalarining daromad va xarajatlarini tekshiradi. Buni Iqtisodiyot va Moliya vazirligining nazorat va taftish bosh boshqarmasi amalga oshiradi.
2. **Moliyaviy-xo‘jalik nazorati, ichki nazorat** – korxona, tashkilot va birlashmalarning xo‘jalik yuritish faoliyati va moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tekshirish. Buni yuqori tashkilotlarning nazorat va taftish boshqarmalari yoki bo‘limlari yoxud ichki audit tizimi amalga oshiradi.
3. **Mustaqil audit** – Moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini aniqlash. Buni maxsus litsenziyaga ega mustaqil auditorlik firmalari bajaradi.

Davlat moliyaviy nazorati budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari

tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati:

- **Respublika darajasida** – O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining va respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;
- **Mahalliy darajada** - Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari davlat moliyaviy nazoratini davlat moliyaviy nazorat organlari yoki vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan nazorat qilish yillik rejalariga muvofiq amalga oshiradi. Ayrim hollarda rejadan tashqari davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishadi.

Davlat moliyaviy nazorat organiga budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risida ma'lumotlar kelib tushgan hollarda davlat moliyaviy nazorat organlari rahbarlarining qarorlari asosida yo'l qo'yiladi. Davlat moliyaviy nazorat organlari: O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir.

Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining daromadlari qismi bo'yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Budjet ijrosi jarayonida nazoratning maqsadi - budjet ijrosini amalga oshirish va natijalarini shakllantirishni haqqoniyligini aniqlash va tahliliy axborotlarni shakllantirishdan iborat bo'lib, quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Budjet daromadlari va xarajatlarining rejalashtirilishi hamda uning ma'lumotlari haqqoniyligini aniqlash;
2. Budjet ijrosi jarayonida muomalalarni to'liq va to'g'ri hujjatlashtirilishini aniqlash;
3. Davlat maqsadli jamg'armalari budjeti daromadlari va xarajtlarini rejalashtirish hamda ma'lumotlarni haqqoniyligini aniqlash;
4. Budjet ijrosi jarayonida buxgalteriya hisob hisobvaraqlarini yuritilish holati va harakatini to'g'riligini aniqlash;
5. Budjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosini amalga oshirilishi va natijalarni shakllantirilishi to'g'riligini tekshirish;
6. Mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarning holati hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirilishini tekshirish;
7. Budjet ijrosiga oid buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini to'g'ri umumlashtirilishi va hisobotlarni haqqoniyligini tekshirish;
8. Budjet mablag'lari harakatining nazoratini olib borish;

Budjet ijrosi jarayonida nazoratning maqsadidan kelib chiqib bir qator vazifa va funksiyalarni bajarish bo'yicha davlat moliyaviy nazoratini tashkil etuvchi organlar qonunlarda belgilangan tartibda bir qator ishlarni bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish chog'ida davlat budjetining ijrosini nazorat qiladi va quyidagilarga e'tibor qaratadi:

- budjetlar ijrosi yakunlarini ko'rib chiqadi;
- budjetlarga mablag'lar tushumi to'g'risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg'armalari organlaridan axborotlar oladi;
- budjet tashkilotlaridan budjet va budjetdan tashqari mablag'larning tushumi va sarflanishi to'g'risida ma'lumotlar talab qilib oladi;
- qonun hujjatlariga muvofiq banklardan budjet mablag'lari harakati to'g'risida ma'lumotlar oladi;
- budjet mablag'larini oluvchilarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini auditdan o'tkazadi.

Budjet ijrosi jarayonida nazorat va taftishning obyektlari moliya organi, davlat maqsadli jamg'armalari va budjet tashkilotlari hisoblanib, nazorat borasida ular quyidagilarga bo'linadi:

- budjet daromadlari va xarajatlari;

- budjet pul mablag‘lari, budjet ssudalari;
- hisoblashuvlar bo‘yicha mablag‘lar, aylanma kassa mablag‘lari;
- budjet tashkilotlarining daromadlari va xarajatlari;
- moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar;
- majburiyatlar va moliyaviy natijalar.

Mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy sharti bo‘lib moliyaviy nazorat xizmat qiladi. Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo‘lib hisoblanadi.

Nazorat boshqarish siklining shakli sifatida qabul qilinayotgan yoki qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va samaradorligini baholash, bu qarorlarning amalga oshirilish darajasini haqiqiy natijalarning o‘rnatilgan parametrlari va me’yoriy ko‘rsatmalardan og‘ish (farq qilish) darajasini aniqlash va salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida boshqariluvchi obyekt faoliyatini kuzatish, solishtirish, tekshirish va tahlil qilish tizimidir. Tekshirish o‘tkazilayotganda moliyaviy intizomning ayrim buzilishlari, buxgalteriya (moliyaviy) hisobini yuritishdagi xatoliklar, buxgalteriya (moliyaviy) hisobot ma’lumotlarining buzib ko‘rsatilishini aniqlaydi.

Budjet nazorati moliyaviy nazoratning muhim turlaridan biri bo‘lgan budjet daromadlari va xarajatlari tegishli yil uchun budjet to‘g‘risidagi qonunda belgilangan ko‘rsatkichlar nuqtayi nazaridan to‘g‘ri shakllantirilishi va ijro etilishining tekshirilishini ta’minlaydi.

Davlatni boshqarish funksiyalaridan biri bo’lgan moliyaviy nazorat davlat tuzilmasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bozor iqtisodyotiga o’tish sharoitida moliyaviy nazoratning roli yanada oshadi. Bir tomondan, moliyaviy nazorat moliyani boshqarishning yakuniy bosqichi hisoblansa, boshqa tomondan esa, uni samarali boshqarishning zarur sharti bo’lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy nazorat moliyaviy resurslar harakatining hamma jarayonlarini: mablag‘larni tashkil topish jarayonidan boshlab, har qanday faoliyatni boshlashdan to uning moliyaviy natijalarini aniqlashgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Budjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, budjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo’ysunuvidagi muassasalarda budjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e’tirof etilgan davlat moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo’li bilan budjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko’rib chiqish bardavom faoliyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. J.S.Buribayev, “Budjet xarajatlari hisobidan kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish”, Scientific progress, Volume 2, Issue 2, ISSN: 2181-1601, www.scientificprogress.uz, 2021-y.
2. Заводчиков Н.Д., “Управление издержками и прибылю в организациях агропроводольственного сектора экономики”, автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук, Оренбург 2007 г.
3. Антипова Э.Г. Теоретические основы учета затрат в растениеводстве // Материалы VI Международной студенческой научной конференции “Студенческий научный форум” URL: https://scienceforum.ru/2014/article/2014006779
4. Turgunpulatovich, A. O. (2022). Modern trends in the formation of international competitiveness of the national economy. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 69-79.
5. А.В.Глушенко., Е.М.Егорова., “Методология управленческого учета затрат в вузах в контексте системы менеджмента качества”, “Международный бухгалтерский учет”. 2014. № 47 (293).
6. Е.В.Самылина, А.В.Сукало., “Внутренний аудит в бюджетной сфере”, “Экономика и социум” №1(44) 2018
7. Turgunpulatovich, A. O. (2022). Formation of financing technology and communication relations in increasing the competitiveness of small business entities. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 49-58.
8. В.В.Бурцев, “Методология и организация внутреннего аудита”, Бухгалтер и Закон, № 9(93), 2017г.
9. Z.U.Xamidova, “Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish”, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent 2021-yil.
10. Oybek, A., & Lazizbek, A. (2021). The Main Features of Light Industry in the Economy of Uzbekistan. Academicia Globe, 2(07), 127-132.

TOG‘ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MANFAATLARI YO‘LIDA INVESTITSIYA RESURSLARINI TO‘PLASH MEXANIZMLARINI ISHLAB CHIQISH SAMARALARI



Xidirov Alimardon Dagarovich
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqlada tog‘ turizmining mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda rivojlanishidagi ahamiyati hamda turizmning ushbu sohasini moliyalashtirish yo‘llari atroflicha ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, muallif tomonida sohani rivojlantirish uchun samarali takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: kapital qo‘yilmalar, sayyohlik-rekreatsion, institutsional, budjet, mintaqa, infratuzilma.

Abstract: In this article, the importance of mountain tourism in the economic and social development of our country and the ways of financing this field of tourism are considered in detail. In addition, effective suggestions for the development of the field are given on the author’s side.

Key words: capital investments, tourism-recreational, institutional, budget, region, infrastructure.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрено значение горного туризма в экономическом и социальном развитии нашей страны и пути финансирования этой сферы туризма. Кроме того, со стороны автора даны эффективные предложения по развитию области.

Ключевые слова: капитальные вложения, туристско-рекреационный, институциональный, бюджет, регион, Россия, инфраструктура.

KIRISH

Mamlakatimizda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta’minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro‘yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog‘ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ‘ib qilish imkonini berdi.

Iqtisodiy rivojlanishning jadal sur’atlarini ta’minlashga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotgani investitsiyaga yo‘naltirilgan iqtisodiy muhitni yaratishni taqozo etmoqda. Aynan investitsiyalarning kirib kelishi ishlab chiqarish ko‘lamining kengayishini va iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi va yuqori pog‘onasiga ko‘tarilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, investitsiya siyosati mintaqa iqtisodiyoti samaradorligini oshirishni belgilaydigan ustuvor yo‘nalishlarini belgilashi kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dj.Douns va G.Elliotlarning ta’kidlashlaricha “Investitsion muhit investitsiyalar samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa sharoitlardir” .

P.Yarosh tomonidan bildirilgan fikrlarga ko‘ra, mamlakat hududlarining investitsiya muhiti turlicha bo‘ladi. Buning asosiy sabablaridan biri – ulardagi rivojlanishning bir xilda emasligi hisoblanadi. Shuningdek, investitsiya muhiti jozibadorligini ta’minlash rivojlanishi nisbatan sust bo‘lgan hududlar uchun zarur. Ammo buni subyektiv kafolatlar berish orqali amalga oshirish kerak emas. Bunda ushbu hududlarga davlat va uning idoralari birinchi navbatdagi investorlar bo‘lishi ahamiyatlidir.

P.Sijkovich, M.Pekala, P.Pekala, A.Jonsa tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turistik iqtisodiy zonalarga berilgan imtiyozlar, qonuniy kafolatlar hududlardagi investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda muhim rolni

bajaradi. Bunday zonalarning mamlakatning iqtisodiy rivojlanish salohiyati yuqori bo‘lgan, ammo investitsiyalar uchun yuqori sezuvchanlikni talab etmaydigan hududlarda tashkil etish lozim.

X.Jo‘rayev tomonidan bildirilgan fikrlarga ko‘ra, investitsiyalar tushunchasi (lotincha “investio” so‘zidan olingan bo‘lib, “kiyinaman” degan ma’noni anglatadi) amalda har qanday lug‘atda mamlakat ichkarisida va xorijda iqtisodiyot tarmoqlariga kapital qo‘yish sifatida talqin qilinadi. Investitsiyalarning yuqorida keltirilgan ta’rifidan kelib chiqib, har qanday jamg‘arma qo‘yilmalari ham (mulkiy va intellektual qimmatliklar) investitsiyalarni o‘zida mujassamlashtiravermasligini qayd etish lozim. Masalan, agar bir jismoniy shaxs boshqa jismoniy shaxsdan qimmatli qog‘ozlarni sotib olsa, bunday turdagi investitsiyalar cheklangan tavsifga ega bo‘ladi. Chunki bunda faqat ular egalarining o‘zgarishi yuz beradi, ya’ni pul mablag‘larini o‘tkazish va kelajakda aksiyalari qo‘lga kiritilgan kompaniya daromadlarini olish huquqiga ega bo‘lish aktlari o‘rinli bo‘ladi.

M.Engman, O.Onodera, E.Pinali tadqiqotlarida investitsiya muhiti tushunchasiga quyidagi ta’rif beriladi: “Investitsiya muhiti – mamlakatga investitsiya kiritilishi uchun sun’iy ravishda va tabiiy geografik joylashuv orqali hosil qilingan choralarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, qulay tekislikda joylashuv, tabiiy iqlim sharoiti, dengizga chiqish imkoniyati, sud-huquq tizimi, iqtisodiy samaradorlikka erishidagi vositalar va h.k.”

Shu bilan birga, mintaqada turizmni rivojlantirishda investitsiya resurslarini to‘plash muammolari bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilayotganiga qaramay, mintaqada investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha mintaqaviy siyosatni amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq masalalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, moliyaviy va huquqiy sohalarni rivojlantirishning ilmiy jihatdan yetarli darajada tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘rganish jarayonida mavzu bo‘yicha statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo‘llanildi. Tahlil davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda investitsiya siyosatini tubdan takomillashtirish va isloh qilish, uni amalga oshirish yuzasidan zamonaviy, samarali yondashuv va mexanizmlarni joriy etish, shuningdek, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va umuman ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiyot tarmoqlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilishni, sanoat ishlab chiqarishni kompleks diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirishni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Sayyohlik-rekreatsion kompleks va uning qismi bo‘lmish tog‘ turizmining rivojlanishi bir qator ijobiy va salbiy natijalar bilan birga bo‘lishi tabiiy, bu esa turizmning tarmoqlararo kompleks sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan yanada takomillashtirilgan boshqaruv mexanizmini yaratishni taqozo etadi, shuningdek, respublika iqtisodiyotining bir qancha tarmoqlarini birlashtiradi, hosil qiladi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Barchamizga ma’lumki, turizmning iqtisodiy klasterlardan biri sifatida rivojlanishi iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga yordam beradi va uning jadal rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Mamlakatimiz turizm industriyasi jadal rivojlanishi uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma’muriy va huquqiy muhit yaratish, jumladan, sohada xususiy sektorning ustuvor ishtirokini ta’minlash, uning raqobatbardoshligi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish hozirda sohadagi eng muhim bo‘lgan bo„g„in hisoblanadi.

O‘zbekiston turizm sohasi rivojlanishida salmoqli salohiyatiga ega davlat. Bu ko‘plab noyob tabiat obyektlarining mavjudligi (ko‘llar, tog‘ cho‘qqilari), boy madaniy va tarixiy meros bilan ham bog‘liqdir. Yildan yilga O‘zbekiston Respublikasiga xorijliklarning tashrifi ortib bormoqda.

Mamlakatimizga yildan yilga tashrif buyuruvchi sayyohlarning ko‘payayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, sohada yangi islohatlar o‘tkazish zarurligini va bu soha rivojiga katta e’tibor qaratilish kerakligini ko‘rsatmoqda.

Turizmni rivojlantirishning chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan tadbirlarni amalga oshirishni moliyalashtirishning manbalari etib tadbirkorlik subyektlari – loyiha tashabbuskorlari, vazirlik va idoralar – ijrochilarning o‘z mablag‘lari, jalb etilayotgan tijorat banklarining kreditlari, chet el investitsiyalari, xalqaro moliyaviy institutlar va donor mamlakatlarning zayom va grantlari, xayriya mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar bo‘lib hisoblanadi.

Turizm sohasini rivojlantirishda uni moliyalashtirish manbalari eng muhim bo‘g‘in bo‘lib hisoblanadi. Turizmni rivojlantirishda moliyalashtirish manbalaridan eng muhimi va eng samaralisi sifatida investitsiyalar hisoblanadi. Turizmga investitsiyalar jalb qilish, turizmni rivojlantirishning eng muhim dastaklaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida respublikamizda turizm jadal tarzda rivojlanib bormoqda.

Turizmga investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakatda sohaga doir tarmoqlarni rivojlantirish bilan respublika turizmida sezilarli darajada o‘sishga erishish mumkin. Ya’ni turizmga investitsiyalar jalb qilib xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, zamonaviy mehmonxonalar barpo etish, yangi turistik zonalarni ochish va mavjudlarini jozibadorligini oshirish, hududlarda infratuzilmani rivojlantirish va transport salohiyatini oshirish mumkin.

Shuningdek, joriy yilning o‘tgan olti oyi mobaynida yurtimizga 3 million nafardan ortiq sayyoh tashrif buyurdi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davrida 2,3 million nafarni tashkil etgan bo‘lib, 31 foizga oshdi. Natijada turistik xizmatlar eksporti 28 foizga oshib, 590,5 million dollarni tashkil etdi.Bunday tendensiya va miqdoriy natijalar ham turizm infratuzilmasi obyektlari rivojiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, xorijiy turistlar mamlakatimizda uzoqroq vaqtga qolayotganligi tufayli ularni joylashtirish bilan bog‘liq masalalar ko‘paydi, bu esa turizm infratuzilmasi obyektlaridagi bandlikka ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholini turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida olib borilgan ishlar natijasida joriy yilning o‘tgan davrida 364 yangi oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ularning umumiy soni 472 taga yetgan.

Tadbirkorlar tomonidan turizm sohasiga 191,7 milliard so‘m investitsiyalar kiritilishi evaziga 1 ming 142 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Hozirgi kunda 23 ming xonaga ega jami 1 ming 46 ta sayyohlar va mehmonlarni qabul qiladigan joylar faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuning 107 tasi joriy yil birinchi yarmida barpo etildi.

Aholini turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida olib borilgan ishlar natijasida joriy yilning o‘tgan davrida 364 ta yangi oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ularning umumiy soni 472 taga yetkazildi.

Erishilgan bunday ko‘rsatkichlarning zamirida turizm sohasining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan bir qator farmon va qarorlarda belgilangan vazifalar ijrosining to‘liq ta’minlanayotganligini hamda yaqinda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonunining hayotga tatbiq etilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda sayyohlar uchun qulay va zamonaviy shart-sharoitlar yaratish maqsadida 26 ta investitsiya loyihalariga qo‘l urilgan. O‘zbekistonda 1,1 mlrd dollar miqdoridagi 26 investitsiya loyihalari bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qulayliklar va zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, bu bo‘yicha mamlakatda mehmonxonalar quriladi va rekonstruktsiya qilinadi, sanatoriyalar, sog‘lomlashtirish komplekslari quriladi, sport-rekreatsiya zonalari yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm nafaqat daromad keltiradi, balki odamlarni ish bilan ta’minlaydi. Bu sohaga ayollarni jalb qilish muhim. Asosiy maqsad – byurokratik cheklovlarni olib tashlash, O‘zbekiston – Osiyoda o‘z drimlaynerlari yo‘nalishlarni ochuvchi samolyotlariga ega bo‘lgan birinchi mamlakat. 2017-yildan boshlab Nyu-Yorklik yo‘lovchilar ularda to‘g‘ridan-to‘g‘ri parvozlarni amalga oshirmoqda.

Ekspertlarning baholashicha, turistik xizmatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarflangan har bir dollar turdosh sohalarda taxminan qo‘shimcha uch dollarni keltiradi. Ko‘plab xorijlik sayyohlar uchun birdaniga Osiyodagi bir nechta mamlakatga tashrifni ko‘zda tutuvchi turlar qiziq bo‘lar edi, shu sababli yuqorida aytib o‘tilgandek turlarni tashkil qilish talab mavjud bo‘lgan bozorni to‘ldirilgan bo‘lar edi. Bu takliflarni moliyalashtirishning eng maqbul yo‘li esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amonboyev M., Abidova D.I., Jurayeva N.A. Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISODIYOT”, 2019. – 226 bet.
2. M.Amonboev, N.Juraeva —Turizm iqtisodiyoti bva menejmentill o‘quv uslubiy majmua. – T.:TDIU 2018-YIL.
3. Christopher Dougherty. Introduction to econometrics. 2011. 336 p.
4. uzbekturizm.uz ma’lumotlari.
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.
6. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar markazi sayti.

THE MAIN ROLE OF THE TEACHER WHILE MANAGING THE CLASSROOM AND SOME ASPECTS OF TEACHING ENGLISH

Nilufar Turdiyeva
Teacher, Samarkand institute of economics and service

Abstract: Today English teachers of higher educations should be creative, searchable and find the best suitable method for each group or even for each student. In this article there are given some modern methods of teaching English. It describes the role of the teacher in classroom management and the correct use of language for a number of functions in the classroom, some problems and shortcomings of the educational process. It is also highlighted the ways of focusing on a new language and using presentation techniques.

Key words: Target language, classroom management, quality of education, interactive methods, approach, method, language learner, multilingual, direct method, suggestopedia, lexical approach, stuructural approach.

Annotatsiya: Bugungi kunda oliy ta'limning ingliz tili o'qituvchilari ijodkor, izlanuvchan bo'lishi va har bir guruh yoki har bir narsa uchun eng mos uslubni topishi kerak. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatishning ba'zi zamonaviy usullari keltirilgan. Unda o'qituvchining sinfni boshqarishdagi o'rni va sinfdagi qator vazifalarni bajarishda tildan to'g'ri foydalanish, ta'lim jarayonining ayrim muammo va kamchiliklari yoritilgan. Shuningdek, yangi tilga e'tibor qaratish va taqdimot usullaridan foydalanish yo'llari ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Maqsadli til, sinf boshqaruvi, ta'lim sifati, interfaol metodlar, yondashuv, metod, til o'rganuvchi, ko'p tilli, to'g'ridan-to'g'ri metod, suggestopedia, leksik yondashuv, a sturucturach.

Аннотация: Сегодня преподаватели английского языка вузов должны быть творческими, поисковыми и находить наиболее подходящий метод для каждой группы или даже для каждого студента. В этой статье приведены некоторые современные методы преподавания английского языка. Описана роль учителя в управлении классом и правильном использовании языка для выполнения ряда функций на уроке, некоторые проблемы и недостатки образовательного процесса. Также выделены способы сосредоточения внимания на новом языке и использования презентационных приемов.

Ключевые слова: Целевой язык, управление классом, качество образования, интерактивные методы, подход, метод, изучающий язык, многоязычие, прямой метод, суггестопедия, лексический подход, структурный подход.

At the present stage of development of higher professional education, there is a tendency to reduce the number of classroom hours and increase the hours allocated for independent work of students. In this regard, we can state the fact that today the role of the teacher in the educational process is being transformed. Until recently, the teacher was perceived as the main source of information, but today his role can be more fully characterized as the organizer and leader, expert and consultant of the educational and self-educational activities of future specialists.

Higher education instruction in English in non-English speaking countries is a reality in different contexts. Higher education institutions promote the adoption of English as a language of instruction to achieve varying objectives, such as internationalization of students and staff; improvement of the English level of the students, etc. This policy towards the adoption of English as language of medium of instruction (EMI) has led to a situation in which students cope with learning content in a language different from their mother tongue and teaching staff having to deliver their courses and/or lectures in English, which is not their first language in many cases. Coping with this change and the resulting difficulties is found in the literature, as Kalmar & Linder state: "Although the shift to teaching in English has often been welcomed by teachers and students, the research community is only beginning to understand the dynamics of these changes within the learning environment.

Such transformations became possible due to the emergence and widespread introduction of innovative and more effective technologies, forms and means of education into the educational process of higher

education, which make it possible to optimize the process of professional training of future specialists as part of their studies at the university.

The high productivity and efficiency of innovative technologies in the context of training future specialists is justified by their multifunctionality. Thus, innovative pedagogical technologies perform the following functions in the educational process: informative; formative; motivating; systematizing; controlling1.

Innovative technologies and teaching methods make it possible to achieve the following goals: accessibility of the perception of educational material; systematization of knowledge; development of creative abilities of students; self-education; removing the psychological barrier (fear of communicating, making a mistake); comprehension of educational material, analysis of learned material

To effective innovative pedagogical technologies that can be used in the system of teaching English in higher education with a high level of effectiveness in achieving educational results, researchers most often include interactive distance learning technologies (Skype, Viber, WhatsApp, e-mail, Internet chat, etc.), computer learning tools (electronic manuals, textbooks, sources of virtual libraries, educational portals, etc.), multimedia learning resources, training and testing and other latest information technologies.

Tangible progress regarding the effectiveness of teaching English both in the humanities and in technical universities, according to researchers, has been achieved through the widespread use of electronic learning tools in the educational process of higher education. These tools are used both in the classroom and extracurricular (distance) learning.

The didactic potential of electronic teaching aids in English classes lies in the fact that their use in the educational process contributes to:

- better assimilation of knowledge by students;
- the formation and development of various types of skills and abilities (listening skills based on adapted and authentic sound texts, the ability to reproduce monologue and dialogic speech, the skills and abilities of translation and summarizing texts, skills and reading skills with the direct use of materials from the Internet and local networks;
- increasing the informative richness and visibility of the lesson;
- expansion of active and passive dictionaries of students, familiarization with the vocabulary of modern English, which reproduces the culture of a certain country, its political and social structure;
- formation of creativity, development of creative activity of future specialists;
- the formation of motivation for the cognitive activity of students, the need to use a foreign language in interactive communication;
- strengthening the motivation of independent work of students;
- increasing the level of individualization and differentiation of students' activities;
- the ability to choose the pace and volume of educational material, the level of its complexity, to implement control with feedback and diagnostics, to increase the level of its objectivity.

At the present stage, the leading information technology, the means of which are used in almost all spheres of human life, is the Internet. Internet resources not only provide a number of additional means of implementing interpersonal and international communication, but also provide new opportunities in the field of education.

What are teacher roles? Teachers need to behave in different ways at different stages of a lesson to manage the classroom and to successfully guide learners through the lesson. These different ways of behaving in and managing the class are called teacher roles. Teachers adopt (use) a number of different roles in every lesson. Teacher roles vary depending on the teaching approach (way of teaching) used and on the teachers ' and learners ' preferred learning styles and learning needs.

The teacher roles we adopt have to be appropriate for the teaching and learning context, the teaching approach, the lesson aims, the stage of the lesson the type of activity and the age, level and attitude of the learners. A teacher using a PPP approach will, for example, at different times of the lesson, act as a controller, a model and a guide. However, these teacher roles are not so appropriate for a teacher using a communicative approach. Teacher roles more suitable for a communicative approach include facilitator, resource provider of language, prompter. When learners arrive late in class, the teacher needs to deal with the situation appropriately to ensure that the learners understand that this is not acceptable behavior. In this situation, the teacher's role is primarily to maintain discipline. On the other hand, the teacher adopts inappropriate roles, this can have a negative effect on their classroom management. Imagine a situation where one learner is dominating the interaction in the classroom, resulting in other learners becoming annoyed and being unwilling to participate (take part in something). If the teacher lets the learner continue in a dominating role, he or she could lose the respect of the other students and will be less able to facilitate (make easier) their learning. However, if the teacher sets

1 Hattier MA. Factor analysis and cut-off scores for the Autism Spectrum Disorder-Observation for children [dissertation] Louisiana State University; 2014.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 марта 2001 г. за № 137 “Об утверждении инструкции по ведению учета и оформлению операций с зерном и продуктами его переработки”. -Т.: “Шарк”, 2001. - С. 320.
3. Барамзин С.В. Мастеру о качестве продукции. -М.: “Машиностроение”, 1987. - С. 104.
4. Моисеев А.В. Экономический словарь-справочник рабочего. - М.: Политиздат, 1984. - С. 240.
5. Xolbekov R.O., Niyozov S., Nosirov I. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil qilish. - T.: DITAF, 1998. - 152 b.

O‘ZBEKISTONDA MAHALLA BOSHQARUVI TIZIMI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



ORCID: 0000-0002-3829-4556

Gafurov Ubaydullo Vaxabovich
I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda jamoatchilik boshqaruvi va nazoratini samarali amalga oshirish mexanizmining yaratilishi, mahallaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini kuchaytirish borasida amalga oshirilgan asosiy chora-tadbirlar, yangi tizimga o‘tgunga qadar mahalla idorasi faoliyatidagi kamchilik va muammolar, ularning kelib chiqish sababi va oqibatlari, “mahalla beshligi” tizimidan “mahalla yettiligi” tizimiga o‘tilishi sabablari, mahallalar faoliyati bilan bog‘liq turli elektron platformalar va xizmatlar, mahalla yettiligi xodimlarining asosiy vazifalari bo‘yicha ayrim mulohazali jihatlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik boshqaruvi va nazorati, mahalla, “mahalla beshligi”, “mahalla yettiligi”, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim, soliq inspektori, mahallalar faoliyatini raqamlashtirish.

Abstract: The article describes the creation of a mechanism for the effective implementation of public administration and control in Uzbekistan, the main measures implemented to strengthen the role and importance of mahalla in society, shortcomings and problems in the activities of mahalla management before the transition to a new system, their causes and consequences, the “mahalla five” system, the reasons for the transition to the “mahalla seven” system, various electronic platforms and services related to the activities of mahallas, and also describes some critical aspects of the main tasks of the mahalla seven workers.

Key words: community management and control, mahalla, “mahalla five”, “mahalla seven”, chairman of the mahalla, assistant khokim, women’s activist, youth leader, prevention inspector, social worker, tax inspector, digitalization of mahalla activities.

Аннотация: В статье описано создание механизма эффективного осуществления государственного управления и контроля в Узбекистане, основные меры, реализуемые по усилению роли и значения махалли в обществе, недостатки и проблемы в деятельности махаллинского управления до перехода к новой системе, их причины и последствия, система “махаллинской пятерки”, причины перехода на систему “махаллинской семерки”, различные электронные платформы и сервисы, связанные с деятельностью махаллей, а также описаны некоторые критические аспекты основных задач работников махаллиной семерки.

Ключевые слова: управление и контроль сообщества, махалля, “махаллинская пятерка”, “махаллинская семерка”, председатель махалли, помощник хокима, женская активистка, молодежный лидер, инспектор по профилактике, социальный работник, налоговый инспектор, цифровизация деятельности махалли.

KIRISH

Jamiyatning barqaror rivojlanishi fuqarolarning ajdodlardan avlodlarga o‘tib boruvchi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmatli va ongli munosabatda bo‘lishlari, davlat tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan tartib-qoidalarga so‘zsiz rioya qilishlarini taqozo etadi. Har bir shaxsning ijtimoiy faoliyati, uning kundalik xatti-harakatini markazlashgan holda doimiy nazorat qilish, bir tomondan, boshqaruv samaradorligini keskin pasaytirib yuborsa, boshqa tomondan esa, imkon darajasidan tashqarida hisoblanadi. Shunga ko‘ra, bu o‘rinda jamoatchilik boshqaruvi va nazorati samarali vosita sifatida maydonga chiqadi.

O‘zbekistonda jamoatchilik boshqaruvi va nazoratini samarali amalga oshirish mexanizmining muhim bo‘g‘ini sifatida markazida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari maydonga chiqadi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tarixan keng tarqalgan shakli mahalla idorasi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, mamlakatda “kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini amalga oshirish ko‘p jihatdan mahallaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini kuchaytirishni nazarda tutadi.

O‘zbekistonda mahalla instituti tarixan uzoq davrlardan mavjud bo‘lsada, uning o‘z hududidagi fuqarolarning muammolarini to‘liq anglash hamda o‘z vaqtida bartaraf etish, ularning istak-ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish borasidagi xalqchil, demokratik va samarali tizim sifatidagi shakli mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichi bilan bog‘liq. Mazkur institutning “mahalla beshligi”, “mahalla yettiligi” tizimlari bugungi kunda ijtimoiy hayotning turli holatlari va sharoitlarida murakkab sinovdan o‘tib, izchil ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o‘zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo‘limiz – mahalla, mahalla, mahalla va bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro‘yini qancha ko‘tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo‘ladi” [8], deya ta’kidladi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy ishlarda tadqiqot predmeti diapazonining kengligi, savollarning xilma-xilligi kuzatiladi.

Ernazarov (2020) jahonning rivojlangan boshqa mamlakatlarida aholining mahalla bo‘lib yashash tarzi juda kam uchrashi, mahalla insonni jamiyat bilan birga yashashga o‘rgatadigan, shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi, o‘xshashi yo‘q va beqiyos makon vazifasini bajarishini ta’kidlaydi [9].

Xolmirzayev (2023) ijtimoiy taraqqiyotni ijtimoiy institutlarsiz tasavvur qilib bo‘lmasligi, aynan ijtimoiy institutlar insonni jamoaviy tabiatini va ijtimoiylashuvini mahsuli sifatida shakllangan va rivojlanib kelgani, mana shunday ijtimoiy institutlarning eng qadimiysi mahalla instituti hisoblanishi, mazkur institut o‘zbek xalqi tarixiy taraqqiyotini uzviy qismi bo‘lib kelganini bildirib o‘tgan [6].

Raximov (2020) O‘zbekistonda mahalla institutini modernizatsiya qilishning dolzarb muammolari, o‘z o‘zini boshqarish organlari faoliyatini tahlil etishning zamonaviy yondashuvlari, shuningdek, mustaqillik yillarida ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tadi [5].

Sadullayev (2023) Yangi O‘zbekistonda mahalla boshqaruvida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilib, mahalla tizimiga yangidan joriy etilgan hokim o‘rinbosari, faol xotin-qizlar, yoshlar yetakchisi lavozimlari haqida ma’lumot beradi. Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy etilgan “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari” axborot tizimining faoliyatini alohida o‘rganadi [10].

Shamsiddinov (2021) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mahallalar va oilalar iqtisodiy-moliyaviy hayotida muhim ahamiyatga egaligi, mahalla, oilalar ham tadbirkorlar haqida pozitiv fikrlarni uyg‘otib, ularni ma’naviy ruhiy qo‘llab-quvvatlashi zarurligi, tadbirkorlarga turli to‘siqlar uyg‘otmasdan, ularni mahalla hayotiga jalb etish boshqarish mahoratini talab qilishini ta’kidlaydi [7].

Inagamova (2022) mamlakatimizda qonun ustuvorligi prinsipini yanada rivojlantirishda mahallaning “faol” modelini joriy etish, unda aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta’minlashning tashkiliy-huquqiy masalalarini yoritgan [3].

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O‘zbekistonda jamoatchilik boshqaruvi va nazorati konsepsiyasi jamoatchilikning davlat boshqaruvi jarayonlariga keng ishtirokini ta’minlashga qaratilgan. Bu turli xil mexanizmlar va vositalar orqali amalga oshiriladi (1-rasm).

Ushbu vositalar orqali O‘zbekistonda jamoatchilik boshqaruvi va nazorati samarali amalga oshirilib, davlat va jamoatchilik o‘rtasida hamkorlik va ishonch muhitini yaratishga intilinyapti.

O‘zbekistonda mahallaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini kuchaytirish bo‘yicha bir qator islohotlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlar mahallalarning davlat boshqaruvida, ijtimoiy hayotda va iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Bu borada amalga oshirilgan asosiy ishlar va tadbirlarni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin (2-rasm).

Yuqorida keltirib o‘tilgan tadbirlar va islohotlar natijasida mahallaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini kuchaytirish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki va ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda uzoq yillar davomida faoliyat yuritib kelayotgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi hisoblanuvchi mahalla fuqarolar yig‘ini (yoki oddiy tilda aytganda mahalla)larning mazmun-mohiyati ham zamon talablari ostida o‘zgarib bormoqda. Aholining aksariyat qismi o‘z hayotiy faoliyatida qaysidir bir sabab bilan (masalan, ko‘p hollarda muayyan mahalla hududida istiqomat qilishi to‘g‘risida ma’lumotnoma olish zarurati bilan) albatta mahalla idorasiga murojaat qilgan. Lekin, ko‘p hollarda mahalla idorasi faqat ma’lumotnoma beruvchi rasmiy tashkilotga aylanib qolgan edi.



1-rasm: O‘zbekistonda jamoatchilik boshqaruvi va nazoratini samarali amalga oshirish mexanizmi[1]

Qonunchilik islohotlari:	• Mahalla va oila masalalari bo‘yicha yangi qonun va qarorlar qabul qilindi. • Mahalla faoliyatining shaffofligini ta’minlashga qaratilgan qonunchilik asoslari mustahkamlandi.
Institutsional rivojlanish:	• Mahalla va oila instituti rivojlantirildi. • Mahalla faoliyatini muvofiqlashtirish uchun maxsus tashkilotlar va organlar tuzildi. • Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash markazlari tashkil qilindi.
Fuqarolar ishtiroki va jamoatchilik nazorati:	• Mahalla faoliyatida fuqarolar ishtirokini oshirish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirildi. • Mahalla faoliyatiga jamoatchilik nazorati kiritildi va bu boradagi mexanizmlar rivojlantirildi.
Ijtimoiy va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash:	• Mahallalarning ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilashga yo‘naltirilgan dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. • Mahalla aholisini ish bilan ta’minlash va ishbilarmonlik faoliyatini rivojlantirish uchun loyihalar qo‘llab-quvvatlandi.
Ta’lim va targ‘ibot ishlari:	• Mahalla faollari va rahbarlari uchun maxsus o‘quv kurslari va malaka oshirish dasturlari tashkil qilindi. • Mahalla ahamiyati va rolini oshirish bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot ishlari olib borildi.
Mahalla madaniy va an’anaviy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish:	• Mahallalarda milliy madaniyat va an’analarni saqlashga qaratilgan tadbirlar tashkil etildi. • Mahalla jamoalarining madaniy hayotini boyitishga qaratilgan dasturlar amalga oshirildi.

2-rasm: O‘zbekistonda mahallaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini kuchaytirish borasida amalga oshirilgan asosiy chora-tadbirlar[2]

1 Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.
2 Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Umuman olganda, uzoq yillar davomida, yangi tizimga o‘tgunga qadar, mahalla idorasining faoliyatida ko‘zga tashlangan quyidagi kamchilik va muammolarni ajratib ko‘rsatish mumkin (1-javdal).

1-javdal: Yangi tizimga o‘tgunga qadar mahalla idorasi faoliyatidagi kamchilik va muammolar, ularning kelib chiqish sababi va oqibatlari[3]

Kamchilik va muammo	Kelib chiqish sababi va oqibatlari
Mahalla ish faoliyatda byurokratiyaning kuchliligi, ko‘plab chalkashliklarning yuzaga kelishi.	Mahalla idoralari faoliyatida ham qog‘ozbozlik, tegishli kompetensiyadagi mutaxassislarning yetishmasligi tufayli sansalorlik holatlari mavjud bo‘lib, buning ta’sirida qaror qabul qilish jarayonining sekinlashuvi va boshqaruv samaradorligining pasayishi ro‘y beradi.
Mahalla idorasi faoliyati bilan bog‘liq yangiliklar va o‘zgarishlar yuzasidan aholi o‘rtasida axborot tarqatishning sustligi.	Aholi uchun muhim bo‘lgan mahalla idorasi faoliyatidagi o‘zgarishlar, hududdagi yangiliklar yuzasidan axborot o‘z vaqtida va manzilli ravishda tarqatilmasligi mahalla boshqaruvining samaradorligi hamda qarorlarning ta’sirchanligini pasaytirib yuborar edi.
Mahalla idoralari boshqaruvchi xodimlarining javobgarlik va mas’uliyat darajasining pastligi.	Ko‘p hollarda mahalla idorasi faollarining javobgarlik va mas’uliyat darajasining pastligi oqibatida ularning o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifa va majburiyatlarning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta’minlanmasligiga olib kelar edi.
Mahalla idoralari zimmasiga yuklangan vazifa va majburiyatlarni aniq hisobining yuritilmasligi hamda ishlarning xodimlar o‘rtasida adolatli taqsimlanmasligi.	Mahalla idorasidagi xodimlar sonining kamligi, muammoli masalalarning esa tobora ko‘payib borishi ularning barchasiga ham e’tibor qaratish imkonini cheklab, ko‘p hollarda u yoki bu xodimning ish bilan ortiqcha band bo‘lishiga olib kelardi.
Mahalla faollari ish faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmas-lik.	Yaqin vaqtlargacha mahalla idoralari faoliyati zamonaviy texnologiyalar eng past darajada qo‘llanilgan sohalardan biri bo‘lib kelgan. Barcha ishlarning qo‘l mehnati va qog‘oz hujjatlari vositasida tashkil etilishi ish samaradorligini sezilarli darajada pasaytirib yuborar edi.
Jamoatchilik fikrini to‘liq inobatga olish imkonining pastligi.	Axborot tarqatish va almashuvining sustligi, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar va muloqot texnologiyalarining rivojlanmaganligi o‘z navbatida mahalladagi barcha a’zolarning fikrini va ehtiyojlarini inobatga olishning yetarli darajada bo‘lmasligini keltirib chiqaradi.
Boshqaruv qarorlari qabul qilish hamda muammolarni hal etish jarayonlarining sekinligi.	Mahalla boshqaruvi jarayoni ustidan jamoat nazoratining yetarli emasligi, mahalla doirasidagi muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha xodimlar ixtisoslashuvining yo‘qligi, muammolarni hal etishda resurslarning taqchilligi mazkur holatlar yechimiga olib keluvchi jarayonlar tezligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bu kamchiliklar mahallaning oldingi tizimini o‘zgarishga muhtoj qilishi va yangilanishga bo‘lgan ehtiyojni oshirishi mumkin.

Mahalla doirasida e’tibor qaratilishi, hisobga olinishi va bartaraf etish choralari ko‘rilishi lozim bo‘lgan ishlar, muammolarni mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda guruhlash hamda har bir alohida yo‘nalish bo‘yicha tegishli ixtisoslashgan mutaxassis-mas’ul xodimni belgilab qo‘yish amaliyotiga o‘tildi. Bu dastlab “mahalla beshligi” ko‘rinishida tashkil etildi. ““Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat “beshlik tizimi” tashkil etildi. Lekin ularning o‘zaro muvofiq ishlashida kamchiliklar, juda ko‘p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsaddagi mablag‘lar ba’zan samarasiz yo‘naltirilyapti. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog‘lanib qolgan. Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezoni yo‘q. Ularning ko‘p vaqti “qog‘oz to‘ldirish” va majlislarga ketyapti”, dedi prezident” [8].

Keyinroq mazkur tizimning qo‘shimcha imkoniyatlarini aniqlash asosida uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan “mahalla yettiligi” tizimiga o‘tildi. Bunga asosiy sabab mazkur jarayondagi tashkiliy omillar hisoblanadi. Ya’ni, mahalla tizimidagi yetakchi yo‘nalishlarni ajratib olishda ularning hayotiy muhimligi darajasi, tizimdagi asosiy masalalarni qamrab olishi kabi jihatlarga yanada ko‘proq e’tibor qaratish taqozo etildi.

Mahalla boshqaruv xodimlari vakolatlari va vazifalari tahlil qilinib, ular tarkibiga mahalla darajasida hal etilishi samarali amalga oshuvchi bir qator masalalar kiritilmaganligi aniqlandi. Jumladan, mahalla hududidagi og‘ir ahvolga tushib qolgan shaxslar va oilalarni aniqlash, ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kom-

3 Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

pleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, mahalladagi tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko‘rsatish, hududning soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni undirish va mahalla budjetining daromadini shakllantirish kabi masalalar shular jumlasidandir. Shunga ko‘ra, Prezidentimizning bevosita taklifiga ko‘ra, mahallalarda ijtimoiy xodim va soliq inspektori lavozimlari tashkil etilib, “Mahallalarning boshqaruv xodimlari soni soliqchi va ijtimoiy xodim qo‘shilishi hisobiga 5 tadan 7 taga ko‘paydi. ...Ta’kidlanishicha, ehtiyojmand aholini ro‘yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar, tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o‘zida jamoaviy hal qilinadi. Shuningdek, Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg‘armalari mablag‘lari har bir mahallaga taqsimlab beriladi” [8]. Ya’ni, bundan ko‘rinadiki, mahalla boshqaruvi xodimlarining vakolat va vazifalarining kengaytirilishi “mahalla beshligi” tizimidan “mahalla yettiligi” tizimiga o‘tilishiga sabab bo‘ldi.

Mahalla boshqaruvi faoliyatidagi kengayib borayotgan vakolat va vazifalarning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishi, tezkorlik va shaffoflikni ta’minlashning eng samarali yechimi sifatida tizimning to‘liq raqamlashtirilishi belgilab berildi. Hozirda O‘zbekistonda mahallalar faoliyati bilan bog‘liq turli elektron platformalar va xizmatlar mavjud. Ulardan ba’zi birlarini quyidagi jadval orqali keltirish mumkin (2-jadval).

2-jadval: O‘zbekistonda mahallalar faoliyati bilan bog‘liq turli elektron platformalar va xizmatlar[4]

Elektron platformalar	Qisqacha tavsifi
“E-Mahalla”	Bu platforma mahallalar faoliyatini yaxshilash va ularning faoliyatlarini raqamlashtirish uchun ishlab chiqilgan. Platforma orqali mahalla aholisi o‘z muammolarini mahalla rahbariyatiga yetkazishi, turli xizmatlardan foydalanishi mumkin.
“Mahalla” mobil ilovasi	Bu mobil ilova mahalla a’zolariga o‘z hududidagi yangiliklar, tadbirlar va xizmatlar haqida ma’lumot olish imkonini beradi.
“Onlayn Mahalla” elektron platformasi	Mahallabay ishlash markazi va mahalla fuqarolar yig‘ini faoliyatini o‘zaro bog‘liq holda raqamlashtirishni nazarda tutuvchi elektron platforma
Davlat xizmatlari portali (my.gov.uz)	Ushbu portal orqali fuqarolar turli davlat xizmatlaridan, jumladan mahalla bilan bog‘liq xizmatlardan foydalanishlari mumkin.
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali	Bu portal orqali fuqarolar mahalla bilan bog‘liq turli interaktiv xizmatlardan foydalanishlari mumkin.
“Smart mahalla” mobil axborot tizimi	Mahalla raisi, mahalla demografik ma’lumotlari va biriktirilgan sektor rahbari, shuningdek mahalla idorasi va sektor shtabining geojoylashuvi haqidagi ma’lumotlar, sektor faoliyatiga baho berish; mahalla profilaktika inspektori haqidagi asosiy ma’lumotlar va huquq-tartibot maskanining geojoylashuvi, shuningdek profilaktika inspektoriga baho berish; hududlar kesimi va davr oralig‘i bo‘yicha sodir etilgan yo‘l-transport hodisalari, ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlar to‘g‘risida va boshqa ma’lumotlar olish imkonini beradi.

Ushbu platformalar mahalla boshqaruvi tizimini to‘liq raqamlashtirish uchun tegishli shart-sharoitlar hamda mahalla aholisiga qulay va tezkor xizmatlardan foydalanish imkonini yaratib beradi.

“Mahalla yettiligi” tizimida asosiy va markaziy bo‘g‘in sifatida mahalla raisining vakolatlari kengaytirishga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki, muayyan mahalla hududidagi aholining munosib turmush darajasini ta’minlash hamda mavjud muammolarini hal etish ishlarini samarali tashkil etilishiga umumiy rahbarlikni mahalla raisi olib boradi. “Mahalla raisi “mahalla yettiligi” faoliyatini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi, xodimlarga yuklangan vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi, majlislar chaqiradi va o‘tkazadi, “Mahalla yettiligi” nomidan chiqadigan hujjatlarni imzolaydi” [8]. “Mahalla yettiligi”ga fuqarolar yig‘ini raisi rahbarlik qiladi. Qolgan a’zolar o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi [8].

Prezident qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ga ko‘ra, “Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida”gi qonunga rais lavozimiga nomzodlar oliy ma’lumotga ega bo‘lishi shartligiga oid talab kiritiladi. “...Qonunga ko‘ra, raislikka nomzodlarni tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda ishchi guruh tanlaydi. Nomzodlar, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, qoida tariqasida oliy ma’lumotli, bevosita saylovga qadar kamida besh yil tegishli hududda doimiy yashayotgan bo‘lishi lozim” [8].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.06.2021-yildagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 380-son qarori va “Fuqarolar yig‘ini huzuridagi jamoatchilik tuzilmalari to‘g‘risida”gi namunaviy Nizomga har bir fuqarolar yig‘ini huzurida mahalla raisi rahbarligida “mahalla yettiligi” tashkil qilish, uning funksiyalari, vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilash bo‘yicha qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, “mahalla yettiligi”ning maqsadi – mahal-

4 Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

laning ichki resurslarini aniqlash hamda ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish uchun safarbar etishdan iboratligi belgilab berildi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023-yildagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoniga binoan mahalla yettiligi xodimlarining asosiy vazifalari belgilab berilgan [1]. Shu o‘rinda, mazkur vazifalarning ahamiyati hamda muhimligini e’tirof etgan holda, ayrim mulohazali jihatlari ham mavjudligini ta’kidlash lozim.

Jumladan, mahalla raisining asosiy vazifalari qatorida “Mahalla obodligini ta’minlash, shu jumladan, “Obod mahalla”, “Obod ko‘cha”, “Obod xonadon” mezonlarini joriy etishda aholining faol ishtiroki va mas’uliyatini oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt va buta ko‘chatlari ekish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini amalga oshirish” bo‘yicha mahalla raisining har oyda bir marotaba mahalladagi barcha ko‘chalarda ommaviy hashar uyushtirishi, kamida 2 ta ehtiyojmand oilalarning ta’mirtalab xonadonida qo‘ni-qo‘shnilarni jalb etgan holda, hashar tashkil etishi belgilab berilgan [1]. Bunday yondashuv xodimlarga nisbatan vazifalar hamda ularning amalga oshirilish maromiyligini belgilab berish orqali mas’uliyatni aniq holda ifodalab qo‘yish nuqtayi nazaridan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Biroq, fikrimizcha, bu o‘rinda mazkur bandning asosiy amaliy ifodasini ommaviy hashar orqali belgilash noto‘g‘ri hisoblanadi. Chunki zamona nuqtayi nazaridan hasharning mazmuni va tabiati o‘zgargan. Hashar – bu sodda ko‘rinishdagi, yuqori malaka talab qilmaydigan, ko‘proq qo‘l va jismoniy kuch sarfiga asoslangan ishlarni bajarish jarayoni. Bugungi kunda aksariyat ishlar mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Hasharda ishtirok etuvchilarning yosh, bilim, malaka, jins, kasb, xarakter, jamiyatdagi mavqe jihatidan tarkibi juda xilma xil hisoblanadi. Mazkur tarkib uchun mos keladigan hamda muayyan vaqt davomida bajariluvchi ishning o‘zini topish juda murakkab hisoblanadi. Shuningdek, daraxt va buta ko‘chatlari ekish ishlarining ham muayyan mavsumda amalga oshirilishini ham nazarda tutish lozim.

“Mahallada faoliyat yurituvchi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika va soliq inspektorlari, ijtimoiy xodim faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, mahallani har tomonlama rivojlantirishda ular imkoniyatlaridan samarali foydalanish” bandi bo‘yicha har haftada mahalladagi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika va soliq inspektorlari, ijtimoiy xodimlar hisobotini eshitadi va ularni har biri har oyda kamida 10 tadan muammoli masalalarni hal etishini nazoratga olishi belgilab berilgan [1].

Fikrimizcha, mahalla faollari mehnat faoliyati natijadorligini har oyda kamida 10 tadan muammoli masalalarni hal etilishi orqali belgilash ma’lum darajada munozarali hisoblanadi. Hal etilayotgan muammoning dolzarbligi va chuqurligi, uni hal etishning to‘g‘riligi va asosliligi kabi jihatlar faoliyatga baho berishni qiyinlashtiradi. Faollar tomonidan hal etilgan muammolarning har oylik hisoboti uchun “zaxira” tayyorlashga rag‘bat hosil qiladi.

Xuddi shu kabi hokim yordamchisining asosiy vazifalari qatorida belgilangan “doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish hamda bandligini ta’minlash choralarini ko‘rish” [1] bandi bo‘yicha har oyda kamida 10 nafar ishsizning daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash chorasini ko‘rilishi ma’lum darajada munozarli hisoblanadi. Chunki, “Kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish hamda bandligini ta’minlash choralari”ning umumiyligi va mavhumligi mazkur hududdagi har qanday turdagi kasb-hunarga o‘qitish va ishga yollash jarayonlarini hokim yordamchisining bevosita faoliyat natijasi sifatida qaralishiga olib keladi. Hokim yordamchisi tomonidan ish bilan ta’minlanuvchilarning har oylik hisoboti uchun “zaxira” tayyorlashga rag‘bat hosil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Mahalla boshqaruvidagi yangi, zamonaviy va samarali tizimni yaratishda uzoq davr mobaynida mahalla idorasi faoliyatida uchragan kamchilik va muammolar, ularning kelib chiqish sababi va oqibatlarning chuqur va tizimli tahlili asosida barcha yo‘nalish va jarayonlarni qoplab olish maqsadga muvofiq.
2. Mahalla boshqaruvi xodimlarining vakolat va vazifalarini kengaytirish asosida yaratilgan “mahalla yettiligi” tizimining faoliyat samaradorligi ko‘p jihatdan mahalladagi fuqarolarning mazkur tizim mazmun-mohiyatini chuqur anglashi, har bir boshqaruv xodimining vakolat va majburiyatlarini to‘liq bilishi hamda ularning talab darajasida bajarilishi ustidan jamoat nazoratini o‘rnatishiga bog‘liq.
3. “Mahalla yettiligi” tizimining samaradorligini ta’minlovchi muhim omil – jarayonlarning to‘liq raqamlashtirilishidan kutiladigan samaraga ega bo‘lishning asosiy sharti har bir fuqaroning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha savodxonlikka ega bo‘lishi hisoblanadi.
4. “Mahalla yettiligi” a’zolari har biri faoliyatining vazifalarni bajarilish vaqti va me’yori bo‘yicha qat’iy reglamentning belgilab qo‘yilishi, bir tomondan, ular tomondan o‘z vazifalariga mas’uliyatli yondashishlarini ta’minlasada, boshqa tomondan, mazkur xodimlar mehnatidagi ijodkorlik, jo‘shqinlik va fidoyilikni ma’lum darajada cheklash xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. – www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.06.2021-y. 380-son “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. – lex.uz›docs/5461749
3 Inagamova, M. M. (2022). Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyada qonun ustuvorligini ta’minlash va mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalari (tahliliy statistik ma’lumotlar asosida). Academic research in educational sciences, 3(10), 315-321.
4. Ismatov S. “Mahalla yettiligi” fuqarolar yig‘ini tuzilmasiga kiritildi. - https://uzmahalla.uz/2024/03/26/mahalla-ettiligi-fuqarolar-yigini-tuzilmasiga-kiritildi/
5. Raximov, I. (2020). Yangi O‘zbekistonda mahalla institutining strategik bosqichlari. Farg‘ona davlat universiteti, (5), 172-175.
6. Xolmirzayev, N. (2023). Mahalla institutining ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni. Innovation in the modern education system, 3(29), 286-289.
7. Shamsiddinov, B.J. (2021). Xususiy tadbirkor va ishbilarmonlar faoliyatining oila va mahalla farovonligiga ta’siri. Oriental Art and Culture, 2(4), 452-456.
8. Elshod S. O‘zbekistonda “mahalla yettiligi” tashkil etildi. Tizim esa to‘liq raqamlashtiriladi. - https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/
9. Ernazarov, D. (2020). Mahallada jamoatchilik nazoratining tarixiy ildizlari (falsafiy-tarixiy talqin). Arxiv nauchnix issledovaniy.
10. Sadullayev Umidjon Shokir O‘g‘li. (2023). The importance of the mahalla system’s reformations in new Uzbekistan. International Journal Of History And Political Sciences, 3(10), 25–30. https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SHAROITIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH VA SOTISHNING XORIJIY TAJRIBASI

Dilnoza Meyliyeva
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Biznes boshqaruvi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xorijiy tajribani tahlil qiladi. U innovatsiyalar, sifat nazorati, bozorga moslashuvchanlik, marketing strategiyalari va tarmoqlashuvning muvaffaqiyatga erishishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha qimmatli tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, oziq-ovqat ishlab chiqarish, tadbirkorlik, innovatsiyalar, sifat nazorati, bozorga moslashuvchanlik, marketing strategiyalari.

Abstract: This article examines the experience of producing and selling food products in small business and entrepreneurship settings, focusing on foreign practices. It highlights the importance of innovations, quality control, market adaptability, marketing strategies, and networking in achieving success. The findings provide valuable insights and recommendations for improving the competitiveness of small businesses in Uzbekistan.

Key words: Small business, food production, entrepreneurship, innovations, quality control, market adaptability, marketing strategies.

Аннотация: Статья рассматривает опыт производства и продажи продуктов питания в условиях малого бизнеса и предпринимательства, с акцентом на зарубежные практики. Подчеркивается важность инноваций, контроля качества, адаптации к рынку, маркетинговых стратегий и сетевого взаимодействия для достижения успеха. Результаты исследования предоставляют ценные рекомендации для повышения конкурентоспособности малого бизнеса в Узбекистане.

Ключевые слова: Малый бизнес, производство продуктов питания, предпринимательство, инновации, контроль качества, адаптация к рынку, маркетинговые стратегии.

KIRISH

Kichik biznes va tadbirkorlik har qanday iqtisodiyotning muhim qismidir. Ularning ahamiyati turli mamlakatlarda yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy qilish, mahalliy va milliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash orqali seziladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish sohasi esa tadbirkorlikning eng muhim va muvaffaqiyatli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu soha nafaqat aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlaydi, balki qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qo‘shimcha qiymat yaratish va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish imkoniyatini ham beradi.

Xorijiy tajriba ko‘rsatadiki, kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri innovatsion yondashuvlarni joriy qilishdir. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, yangi texnologiyalardan foydalanish va mahsulotlar sifatini yaxshilash orqali kichik biznes o‘z raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Shuningdek, mahalliy iste’molchilarning talablariga moslashuv va ularning ehtiyojlarini qondirish kichik biznesning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda kichik biznes va tadbirkorlikning yana bir muhim jihati tarmoqlashuv va hamkorlikdir. Turli hududlar va mamlakatlardagi kichik korxonalar o‘z resurslarini birlashtirib, qo‘shma loyihalar amalga oshirish orqali katta natijalarga erishishi mumkin. Bunday hamkorliklar mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash va bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, sifat nazorati va sertifikatlashtirish masalalari ham kichik biznesning muvaffaqiyatida muhim o‘rin tutadi. Mahsulotlarning xalqaro standartlarga mos kelishi va iste’molchilar talablarini qondirishi kichik biznesning obro‘sini oshiradi va uning mahalliy va xalqaro bozorlardagi pozitsiyalarini mustahkamlaydi.

O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi uchun xorijiy tajriba juda muhimdir. Xorijiy mamlakatlardan olingan misollar va yutuqlardan foydalanish orqali o‘zbek tadbirkorlari o‘z faoliyatlarini samarali tashkil qilishlari mumkin. Shu maqsadda, ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xorijiy tajriba keng yoritiladi. Turli mamlakatlardan olingan misollar orqali, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda qanday yondashuvlar va innovatsiyalar qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Masalan, Nelson va boshqalar (2016) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot AQSHdagi kichik oziq-ovqat korxonalari faoliyatini o‘rganib chiqib, ularning mahalliy bozorga moslashuvchanligi va innovatsion yondashuvlari tufayli muvaffaqiyatga erishganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Yevropa davlatlarida, ayniqsa Italiya va Fransiyada, kichik oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar organik mahsulotlar va mahalliy jamoalar bilan hamkorlik qilish orqali o‘z ishlab chiqarishlarini kuchaytirganlari qayd etilgan (Garsia va boshq., 2018).

Innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy qilish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Fransiyadagi kichik fermer xo‘jaliklari organik mahsulot ishlab chiqarish orqali mahalliy va xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini mustahkamladi. Fransiyadagi bu tajribaga asoslanib, Pilon va Sala (2017) organik mahsulotlarni ishlab chiqarishda texnologik innovatsiyalar va ekologik barqarorlikning ahamiyatini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, AQSHda kichik fermerlar suv tejash texnologiyalarini qo‘llab, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdi (Smith et al., 2015).

Mahalliy bozor talablariga tezkor moslashuvchanlik kichik biznes uchun juda muhim. Italiyadagi kichik pasta ishlab chiqaruvchilar mahalliy iste’molchilarning ta’bini tushunib, ularning ehtiyojlariga mos mahsulotlarni ishlab chiqarishga e’tibor qaratganlar (Berti & Mulligan, 2016). Bu, o‘z navbatida, ularga mahalliy bozorda muvaffaqiyat qozonishga yordam berdi.

Tarmoqlashuv va mahalliy fermerlar bilan hamkorlik qilish kichik biznesning rivojlanishiga yordam beradi. AQSHdagi kichik fermerlar kooperativlar tuzish orqali o‘z resurslarini birlashtirib, katta natijalarga erishganlari qayd etilgan (Valentinov, 2007). Bunday hamkorliklar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishga yordam beradi.

Marketing va brending strategiyalari kichik biznes uchun juda muhim. Fransiyadagi mahalliy sir ishlab chiqaruvchilar marketing va brending orqali o‘z mahsulotlarini yuqori qiymatga ega bo‘lishini ta’minladi (Lalouette & Schmid, 2018). Bu ularning mahalliy va xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsiyalar, texnologiyalar va sifat nazorati

Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsiyalar, texnologiyalar va sifat nazorati muhim o‘rin tutadi. Ushbu omillar mahsulotning raqobatbardoshligi va iste’molchilar ishonchini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

1-jadval: Mahsulot sifatini oshirish uchun innovatsiyalar va texnologiyalar

Omillar	Tavsif	Misollar	Natijalar
Ishlab chiqarish avtomatlashtirish	Yangi uskunalar va avtomatizatsiyani joriy qilish.	Fransiyadagi organik mahsulot ishlab chiqarish.	Avtomatlashtirish ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish va sifatni yaxshilash imkonini beradi.
Innovatsion texnologiyalar	Yangi texnologiyalardan foydalanish va mahsulot sifatini oshirish.	AQSHdagi suv tejash texnologiyalari.	Suv tejash texnologiyalari resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.
Ekologik barqarorlik	Ekologik toza va barqaror ishlab chiqarish jarayonlarini qo‘llash.	Italiyadagi organik pasta ishlab chiqarish.	Ekologik barqarorlik iste’molchilar ishonchini oshirib, mahalliy bozorda o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi.
Sertifikatlashtirish	Mahsulotlarning xalqaro standartlarga mos kelishi.	Fransiyadagi organik mahsulot ishlab chiqaruvchilar	Sertifikatlashtirish mahsulotning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Ishlab chiqarish avtomatlashtirish va innovatsion texnologiyalar kichik biznesning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Fransiyadagi organik mahsulot ishlab chiqarish avtomatizatsiya orqali yuqori sifatga erishgan. AQSHda suv tejash texnologiyalari resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Italiyada ekologik barqarorlik iste'molchilar ishonchini oshirgan. Germaniyada sifat nazorati iste'molchilar ishonchini qozonishga yordam beradi. Fransiyadagi sertifikatlashtirish esa mahsulotlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Mahalliy bozorga moslashuvchanlik va marketing strategiyalari

Mahalliy bozor talablariga moslashuvchanlik va marketing strategiyalari kichik biznesning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu omillar mahalliy iste'molchilarning talablarini qondirish va mahsulotlarning bozordagi o'rnini mustahkamlashda muhimdir.

2-jadval: Mahsulotlarning marketing va brending strategiyalari

Omillar	Tavsif	Misollar	Natijalar
Iste'molchilar talablari	Mahalliy iste'molchilarning ehtiyojlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish.	Italiyadagi mahalliy pasta ishlab chiqaruvchilar.	Mahalliy iste'molchilarning talablariga moslashuv mahalliy bozorda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.
Tezkor moslashuvchanlik	Mahsulot va xizmatlarni tezkor moslashtirish qobiliyati.	AQSHdagi kichik oziq-ovqat korxonalari.	Tezkor moslashuvchanlik bozor talablariga tez javob berish imkonini beradi.
Marketing tadqiqotlari	Iste'molchilarning ta'bi va talablarini o'rganish.	Fransiyadagi mahalliy sir ishlab chiqaruvchilar.	Marketing tadqiqotlari iste'molchilarning talablarini aniqlab, ularga mos mahsulotlarni ishlab chiqarishga yordam beradi.
Marketing strategiyalari	Mahsulotlarning reklamasi va bozordagi pozitsiyasini oshirish.	Fransiyadagi mahalliy sir ishlab chiqaruvchilar.	Marketing strategiyalari mahsulotlarning bozordagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.
Brend yaratish	Brend yaratish orqali iste'molchilarning e'tiborini tortish.	Italiyadagi organik mahsulot ishlab chiqaruvchilar.	Brend yaratish iste'molchilarning e'tiborini tortish va ularni uzoq muddatli mijozlarga aylantirishga yordam beradi.
Ijtimoiy media marketing	Ijtimoiy media orqali mahsulotlarni reklamalash va sotish.	AQSHdagi kichik fermerlar.	Ijtimoiy media marketing mahsulotlarning ommaga tanilishini oshirish va savdoni ko'paytirishga yordam beradi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Mahalliy iste'molchilarning talablariga moslashuv muhim ahamiyatga ega. Italiyadagi mahalliy pasta ishlab chiqaruvchilar mahalliy bozor talablariga tezkor moslashuv va iste'molchilarning ehtiyojlariga javob berish orqali muvaffaqiyat qozondilar. AQSHda kichik oziq-ovqat korxonalari tezkor moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlar orqali o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Fransiyada esa mahalliy sir ishlab chiqaruvchilar iste'molchilarning ta'bi va talablarini o'rganib, o'z mahsulotlarini yuqori qiymatga ega qilib sotdilar. Marketing strategiyalari va brend yaratish iste'molchilarning e'tiborini tortish va ularni uzoq muddatli mijozlarga aylantirishga yordam beradi. Ijtimoiy media marketing esa mahsulotlarning ommaga tanilishini oshirish va savdoni ko'paytirishda muhim o'rin tutadi.

Tarmoqlashuv va hamkorlik

Tarmoqlashuv va mahalliy fermerlar bilan hamkorlik qilish kichik biznesning rivojlanishiga yordam beradi. Bu omillar kichik korxonalarning samaradorligini oshirish va ularning bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhimdir.

3-jadval: Kooperativ tarmoqlashuv va hamkorlikning rivojlanish effektivligi

Omillar	Tavsif	Misollar	Natijalar
Hamkorlik tuzish	Mahalliy fermerlar va boshqa tadbirkorlar bilan hamkorlik qilish.	AQSHdagi kichik fermerlar kooperativlari.	Hamkorlik tuzish kichik korxonalarning resurslarini birlashtirib, katta natijalarga erishishga yordam beradi.
Iqtisodiy hamkorlik	Qo‘shma loyihalar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish.	Fransiyadagi mahalliy sir ishlab chiqaruvchilar.	Iqtisodiy hamkorlik kichik korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.
Kooperativ tarmoqlashuv	Fermerlar o‘rtasida kooperativ tarmoqlashuv va tajriba almashish.	AQSHdagi kichik fermerlar.	Kooperativ tarmoqlashuv va tajriba almashish fermerlarning ishlab chiqarish sifatini oshirishga yordam beradi.
Marketing hamkorligi	Mahsulotlarning reklamasi va sotishda hamkorlik qilish.	Fransiyadagi mahalliy sir ishlab chiqaruvchilar.	Marketing hamkorligi mahsulotlarning bozordagi o‘rnini mustahkamlash va savdoni ko‘paytirishga yordam beradi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Tarmoqlashuv va hamkorlik kichik biznesning muvaffaqiyati uchun muhim omildir. AQSHda kichik fermerlar kooperativlar tuzib, o‘z resurslarini birlashtirib, katta natijalarga erishgan. Fransiyada esa mahalliy sir ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy hamkorlik orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishdilar. Marketing hamkorligi esa mahsulotlarning bozordagi o‘rnini mustahkamlash va savdoni ko‘paytirishda muhim o‘rin tutadi.

TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha quyidagi takliflar taqdim etiladi:

- **Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy qilish:** Kichik bizneslar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash uchun avtomatizatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy qilishlari kerak. Fransiyadagi organik mahsulot ishlab chiqaruvchilar va AQSHdagi suv tejash texnologiyalari buning yorqin misolidir. Bu, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta’minlashga ham yordam beradi.
- **Sifat nazorati va sertifikatlashtirish:** Kichik bizneslar mahsulotlarini xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlashtirishlari va sifat nazoratini yuqori darajada ta’minlashlari kerak. Fransiyadagi organik mahsulot ishlab chiqaruvchilar bunga misol bo‘la oladi. Bu iste’molchilar ishonchini oshirib, ularni mahsulotlarni xarid qilishga undaydi.
- **Mahalliy bozor talablariga moslashuvchanlik:** Iste’molchilarning ehtiyojlariga mos mahsulotlarni ishlab chiqarish va tezkor moslashuvchanlik kichik biznesning muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Italiyadagi mahalliy pasta ishlab chiqaruvchilar va AQSHdagi kichik oziq-ovqat korxonalari buni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishgan.
- **Marketing va brending strategiyalari:** Mahsulotlarning reklamasi, brending va ijtimoiy media marketing orqali mahsulotlarning bozordagi o‘rnini mustahkamlash lozim. Fransiyadagi mahalliy sir ishlab chiqaruvchilar va Italiyadagi organik mahsulot ishlab chiqaruvchilar marketing strategiyalari orqali muvaffaqiyatga erishgan.
- **Tarmoqlashuv va hamkorlik:** Mahalliy fermerlar va boshqa tadbirkorlar bilan hamkorlik qilish, kooperativ tarmoqlashuv va tajriba almashish kichik biznesning samaradorligini oshirishga yordam beradi. AQSHdagi kichik fermerlar kooperativlari buning misolidir.

XULOSA

Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish xorijiy tajriba va joriy qilish imkoniyatlarini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, innovatsiyalar, sifat nazorati, mahalliy bozor talablariga moslashuvchanlik, marketing va brending strategiyalari hamda tarmoqlashuv va hamkorlik muhim omillar ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Bu omillarni amalga oshirish kichik biznesning muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Fransiya, AQSH, Italiya va Germaniyadagi tajribalardan foydalangan holda, O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi yuqori natijalarga olib kelishi mumkin. Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy qilish, sifat nazoratini kuchaytirish, mahalliy bozor talablariga moslashuvchanlik, samarali marketing va brending strategiyalari hamda tarmoqlashuv va hamkorlik orqali kichik bizneslar o‘z mahsulotlarini raqobatbardosh qilib, bozorda mustahkam o‘ringa ega bo‘lishlari mumkin.

O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka olib keladi. Shuning uchun, ushbu tadqiqot natijalari va tavsiyalarini amalga oshirish orqali kichik bizneslarning samaradorligini oshirish va ularning bozordagi o‘rnini mustahkamlash mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Meyliyeva, D. B., & Matrizayeva, D. Yu. (2022). Korxonalar brending faoliyatida raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish // Архив научных исследований, 2(1).
2. Nelson, R., et al. (2016). Small Food Businesses and Local Market Adaptation in the USA. Journal of Small Business Management, 54(1), 123-139.
3. Garcia, M., et al. (2018). Organic Food Production and Community Cooperation in Italy and France. European Journal of Agricultural Economics, 45(2), 220-237.
4. Pilon, M., & Sala, R. (2017). Technological Innovations in Organic Food Production in France. Journal of Environmental Sustainability, 6(3), 85-102.
5. Smith, J., et al. (2015). Water-Saving Technologies in Small-Scale Farming in the USA. Journal of Agricultural Innovations, 39(4), 567-589.
6. Berti, G., & Mulligan, C. (2016). Local Market Adaptation in Small Pasta Producers in Italy. Journal of Food Economics, 32(2), 145-159.
7. Valentinov, V. (2007). Cooperative Networks among Small Farmers in the USA. Journal of Rural Cooperation, 35(3), 187-204.
8. Wüstenhagen, R. (2019). Quality Control and Certification in Small Breweries in Germany. German Journal of Food Quality, 41(1), 72-89.
9. Lalouette, L., & Schmid, J. (2018). Marketing and Branding Strategies of Local Cheese Producers in France. Journal of Marketing in Agriculture, 29(1), 101-115.

CROSS CULTURAL PREOBLEMS IN INTERNATIONAL BUSINESS NEGOTIATIONS



Xoldarova Fariza Tuxtabayevna
Senior teacher, TSUE, Tashkent

Abstract: This study examines the need to understand the cultural characteristics and psychology of partners for successful international negotiations, analyzes the influence of national traditions and non-verbal communication in the negotiation process. The author focuses on the differences in approaches to business meetings and negotiations of different cultures, and also offers recommendations for adapting to an intercultural environment and strategies for effectively conducting business negotiations. This study examines the development of intercultural competence in modern international business, as respect for cultural differences contributes to increasing the effectiveness of international business interactions.

Key words: intercultural communication, business etiquette, international negotiations, cultural differences, nonverbal communication.

Spin korxonalari faoliyatining muhim natijalari ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish, bosh kompaniyaning budjetiga qo‘shimcha daromad olish, shuningdek, bosh kompaniyaning innovatsion faolligini kuchaytirishdir. Oxirgi holat innovatsion faoliyatini rivojlantirishga intilayotgan universitetlar va ilmiy tashkilotlar uchun ayniqsa muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, innovatsion firmalarni tashkil etishda spin modellaridan foydalanish xo‘jalik yurituvchi subyektlar, xususan, o‘z ilmiy faoliyati natijalarini tijoratlashtirishga intilayotgan oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining innovatsion faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Spin-off va spin-out kompaniyalar tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlar tufayli universitetlar va ilmiy tashkilotlar bunday kompaniyalar faoliyatidan ijobiy iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion samara oladi, innovatsion firmalarni tashkil etishning samarali ishlaydigan modellari alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va umuman mintaqalarning iqtisodiy va innovatsion rivojlanish darajasini sezilarli darajada oshishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.
2. Qaxxorov A.J.. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali №6, noyabr-dekabr, 2015 yil. www.iqtisodiyot.uz
3. Yo‘ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Y.D. Innovatsion menejment. Darslik. –T.; TDIU. 2011. 6-b.
4. Cooke Ian, Mayers P. Introduction to Innovation and Technology TransferBoston: Artech House, Inc., 1996.
5. Dodgson M. The management of technological innovation: An international and strategic approach. – Oxford University Press, 2000.
6. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida, 22-modda. 29.10.2019 -y. O‘RQ-576-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3855-sonli “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi йaror. (14.07.2018 y.)
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” (08.10.2019 yil PF-5847-son).
9. https://www.researchgate.net/publication/286284409_Defining_university_spin-offs#pf3 - (elktron resurs – murojaat vaqti – 17.04.2024.
10. https://www.researchgate.net/publication/286284409_Defining_university_spin-offs#pf3 - (elktron resurs – murojaat vaqti – 17.04.2024.



MINTAQALARDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNING TA'MINLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI

Xolbekova Feruza Rasulovna
I.f.n., Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
"Korporativ boshqaruv" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar o'rganib chiqilgan bo'lib, mintaqalar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida xududda yaratilgan innovatsion muhit deb qaralgan. Shuningdek, innovatsiyaning nazariy-tashkiliy tomonlari va muammolari o'rganib chiqilgan. Alohida olingan mintaqalarda innovatsion siyosatni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: mintaqalar iqtisodiyoti, makroiqtisodiy barqarorlik, innovatsion muhit, innovatsion faoliyat.

Abstract: In this article, the factors affecting the provision of macroeconomic stability in the regions of the Republic of Uzbekistan were studied, and the regions were considered as one of the main factors of the provision of macroeconomic stability as the innovative environment created in the territory. Theoretical and organizational aspects and problems of innovation are also studied. Proposals and recommendations for the development of innovation policy in selected regions are given.

Key words: regional economy, macroeconomic stability, innovative environment, innovative activity, innovative policy.

Аннотация: В данной статье изучены факторы, влияющие на обеспечение макроэкономической стабильности в регионах Республики Узбекистан, а созданная в регионе инновационная среда рассматривается как один из основных факторов обеспечения макроэкономической стабильности. Также изучаются теоретические и организационные аспекты и проблемы инноваций. Даны предложения и рекомендации по развитию инновационной политики в отдельных регионах.

Ключевые слова: региональная экономика, макроэкономическая стабильность, инновационная среда, инновационная деятельность.

KIRISH

Ma'lumki, iqtisodiyotning uzoq muddat davomida yuqori sur'atlar bilan o'sishi – barqaror iqtisodiy o'sish hisoblanadi. Har bir mamlakat o'z aholisi turmush farovonligini va iqtisodiyotini muttasil oshirib borishga harakat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda yaratilgan qulay makroiqtisodiy sharoit hisobiga milliy iqtisodiyotimiz barqaror rivojlandi. Shu o'rinda aytin o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmonining "Milliy iqtisodiyotning jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" yo'nalishida keltirilgan strategiyaning 22-maqsadida yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan[1].

Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omilardan biri - hududda tashkil etilgan innovatsion muhit hisoblanadi. Innovatsiyalarning paydo bo'lishi ortida uzoq yillar davomida amalga oshirilgan o'ta mashaqqatli mehnat yotadi. Ammo ko'pincha, innovatsiyani yaratishdan ko'ra, uni singdirish o'ta qiyin masalaga aylanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda innovatsiyalarga "yashil chiroqni" yoqish maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonni imzoladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni, "Xalq so'zi"gazetasi 1fevral 2022-y.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion faoliyat va innovatsion marketing tushunchalarining asosini “innovatsiya” so‘zi tavsiflaydi. Ta’kidlash kerakki, bu tushunchaga o‘zbek, rus va xorij adabiyotlarida ham ko‘plab ta’riflar berilgan. “Innovatsion faoliyat” atamasi negizida, ko‘rinib turibdiki, avvalambor, “innovatsiya” so‘zi, ushbu so‘z negizining o‘zida esa, “novatsiya” so‘zi yotadi. O‘zbek tili lug‘atiga bu so‘zlar xorijiy tillardan kirib kelgan. Chunonchi, inglizcha “inno-vation”, ruschasiga “innovatsiya”so‘zi lug‘atlarda “novovedeniye”, “novatorstvo” sifatida talqin etilgan. Rus tilida berilgan talqinga ko‘ra, bu so‘z o‘zbek tiliga “yangilik kiritish”, “yangi usul”, “kiritilgan yangilik” kabi ma’nolarda tarjima qilingan va izohlangan. O‘zbek tili izohli lug‘atida “Innovatsiya” atamasiga – iqtisodiyotda texnika va texnologiyaning yangi turlarini (avlodlari) joriy etish maqsadida sarflangan mablag‘lar tushunchasi sifatida keltirilgan[2].

“Innovatsiya” mohiyatan murakkab, ko‘p qirrali masala bo‘lib, bu iqtisodchi olimlar yondashuvidagi farqlar bilan ham izohlanadi. Xorijning iqtisodiy adabiyotlarida “innovatsiya” salohiyatli fan-texnik taraqqiyotni yangi mahsulotlar va texnologiyalar ko‘rinishida ro‘yobga chiqishi sifatida talqin qilinadi[3].

Butun jahon iqtisodchi olimlari “innovatsiya” atamasiga ta’rif berishda, turlicha yondashuvlarni amalga oshirishgan. Ular “innovatsiya”ga bir- biridan farqli ravishda innovatsiyalarni yaratish, rivojlanish kabi ta’riflar bilan boyitganlar. Masalan, birinchi yondashuv tarafdorlaridan biri X. Bernet: “Innovatsiya - yaratiladigan yangilik, har qanday g‘oya, faoliyat yoki moddiy natija” bo‘lishi mumkin degan ma’noda ta’rif bergan bo‘lsa, P. F. Druker esa “Innovatsiyani biznesning yangi bir turi” deb qayd etgan. Ikkinchi yondashuv olimlari birinchi yondashuv olimlaridan farqli ravishda asosiy e’tiborni ishlab chiqarishga qaratishgan. Umuman olganda, jahonning ko‘zga ko‘ringan iqtisodchi olimlari “innovatsiya”ga ta’riflarni turlicha berib, bir - birlarini fikrini to‘ldirib borishgan. Masalan, Ya. Kuk va P. Mayerslar “Innovatsiya-g‘oyaning paydo bo‘lishidan uning tayyor mahsulotga aylanib, bozor iste’moliga chiqgunga qadar bo‘lgan butun jarayon” deb ta’rif berishgan[4].

M. Dodgsonning ta’kidlashicha esa “Innovatsiya - u o‘ziga ilmiy, texnologik, tashkiliy va moliyaviy faoliyatni mujassam etgan holda tijoratga yangi (yoki takomillashgan) mahsulot, yoki yangi (yoki takomillashgan) ishlab chiqarish jarayonini yoki yangi (yoki takomillashgan) uskunani taklif etishdir”[5].

Innovatsion nazariyaning asosiy rivojlanish bosqichlari V. Zombrat, V. Mitcherxil, Y. Shumpeter tadqiqotlariga to‘g‘ri kelgan. Innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga, dastlab, avstriyalik olim iqtisodchi Y. Shumpeterning hissasi katta. U innovatsion konyunktura siljishlari manbalarini tahlil qilish natijasida, ishlab chiqarishning yangi omillarini ajratdi va ularga quyidagilarni kiritdi:

- yangi xususiyatlarga ega mahsulotni ishlab chiqarish;
- yangi ilmiy kashfiyot yoki tijoratlashtirish usuliga asoslangan ishlab chiqarish uslubini joriy etish;
- sanoatning biron bir tarmog‘ida taqdim etilmagan, yangi savdo bozorlarini o‘zlashtirish;
- xom ashyoning yangi manbasidan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tegishli tarzda qayta tashkil etilishini amalga oshirish, monopollikni ta’minlash[6].

Birinchi bor Yozefo Shumpeteroning asarlarida “Iqtisodiy innovatsiya” tushunchasi paydo bo‘ldi. Uning fikricha, innovatsiyaning asosiy xusu-siyati shundaki, innovator (ijrochi) uni amaliyotga joriy qilish bilan bog‘liq jarayondan qo‘shimcha boylik oladi. Shuning uchun har qanday yangilik amaliyotga ijobiy qo‘llanmaguncha va foyda keltirmaguncha innovatsiya hisoblanmaydi[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘rganish jarayonida mavzu bo‘yicha statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo‘llanildi. Tahlil davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda yangidan yangi iqtisodiy tushunchalar ham paydo bo‘lmoqda. Misol uchun, Makroiqtisodiyot tushunchasi iqtisodiyotning barcha tizimlarini, mamlakatlarni yoki global iqtisodiyotni umumiy ravishda o‘rganish va tahlil qilishga asoslangan iqtisodiyotning bir bo‘limidir. Bu

2 Qaxxorov A.J.. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali №6, noyabr-dekabr, 2015 yil. www.iqtisodiyot.uz
3 Yo‘ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Y.D. Innovatsion menejment. Darslik. –T.; TDIU. 2011. 6-b
4 Cooke Ian, Mayers P. Introduction to Innovation and Technology TransferBoston: Artech House, Inc., 1996
5 Dodgson M. The management of technological innovation: An international and strategic approach. – Oxford University Press, 2000.
6 Kamiljanov B.I. Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. Monografiya.- T.; Fan, – 2007. 172 b.
7 The Theory of Economic Development (1934). https://dic.academic.ru

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

tushuncha mamlakatning iqtisodiyotini o‘rganishda yordam beradi va iqtisodiyotning o‘rtacha darajada rivojlanishini, istiqbolligini va sifatini baholashda muhimdir.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishini o‘rganishning maqsad vavazifalaridan kelib chiqib, ularga ta’sir etuvchi omillarni ham ikki guruhga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:

- mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga tashkiliy jihatdan ta’sir etuvchi omillar;
- mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga boshqaruv jihatdan ta’sir etuvchi omillar.

Mintaqalar iqtisodiyotni rivojlanishiga tashkiliy jihatdan ta’sir etuvchi omillarga oldingi bobimizda ko‘rib o‘tganimizdek, quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- mintaqaning joylashgan joyi va tabiiy sharoiti;
- transport kommunikatsiyaning holati;
- mahalliy aholining kelib chiqish tarixi va soni;
- mahalliy aholining ishlab chiqarish madaniyati;
- tabiiy resurslarning tarkibiy tuzilishi va sifati;
- mintaqaning ma’muriy-boshqaruv tizimi.

Mintaqalar iqtisodiyotni rivojlanishiga boshqaruv jihatdan ta’sir etuvchi omillarga quyidagilarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

- mintaqada yaratilgan innovatsion muhit;
- mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosati;
- investitsiyalarni jalb qilishga yaratilgan sharoitlar.

Innovatsion siyosat quyidagi asosiy tamoyillar asosida shakllantirib boriladi:

- mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish strategiyasi va modelini ustuvor vazifa deb e’tirof etish;
- innovatsiyalarni iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylantirishni ta’minlaydigan iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratish;
- innovatsiyalar va tadbirkorlikni mustahkamlash uchun bozor mexanizmlaridan yuqori darajada foydalanish, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun teng imtiyozlar yaratish;
- ilmiy-texnik salohiyatini samarali rivojlantirish va undan foydalanish hamda uni iqtisodiy siyosat maqsadlariga muvofiq ravishda isloh qilish;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar va investorlar manfaatlarini optimallashtirish, intellektual mulkni daromad manbai sifatida tan olinishi;
- hududiy aholining mehnat ko‘nikmasi va mentalitetini inobatga olish.

Agar yuqorida keltirib o‘tilgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning strategiyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, innovatsion siyosatning asosiy tamoyili hisoblangan mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish srategiyasi va modeli yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan.

Innovatsion siyosatini to‘g‘ri shakllantirish qiyin jarayon bo‘lib, uning quyidagi uch asosiy jihati mavjud:

1. **Innovatsion siyosat yo‘nalishini to‘g‘ri belgilab olish.** Ushbu bosqichda, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan bozor munosabati holatlarini tahlil qilish va istiqboldagi maqsadlarni tahmin qilish vazifasi hisoblanadi. Bu yerda qiyinchilik, hudud innovatsion siyosatini ishlab chiqaruvchilar hayot tajribasiga ko‘proq tayanishga to‘g‘ri keladi. Shundan so‘ng, ular kelajakda muqobil maqsadlarga erishish fikrlarni shakllantirishlari kerak. Bu yerda qaror qabul qilishning asosiy usuli - innovatsiya siyosati yo‘nalishini to‘g‘ri tanlash usuldir.
2. **Innovatsiyani rejalashtirish strategiyasi.** Ushbu bosqichda avvalgi bosqichda tanlangan maqsadlarga erishishning muqobil usullari va vositalarini ishlab chiqish zarur. Keyin, taqqoslash va baho berish orqali barcha keraksiz variantlardan voz kechilib, yakuniy strategiya ishlab chiqiladi. Ushbu strategiyada


innovatsiyani izlash va rivojlanishning umumiy yo‘nalishi, innovatsiya maqsadlariga erishish yo‘llari, shuningdek, uning texnik-iqtisodiy asoslari tasvirlanadi. Bundan tashqari, strategik rejalashtirishning yakuniy natijasi bevosita innovatsion loyihani yaratishdir.

3. **Innovatsiyani rejalashtirishning tezkorligi.** Bu yerda innovatsion loyiha alohida bosqichlarga bo‘linadi. Olingan bosqichlarning bir qismi sifatida, innovatsion siyosatni ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqilgan strategiyani amalga oshirishga qaratilgan alohida tadbirlarni rejalashtirishi kerak. Har bir vazifani ma’lum boshlash va tugatish sanasini, ijrochilar sonini, kerakli resurslar miqdori va boshqalarni aniqlab olishi kerak. Tezkor (operatsion) rejalashtirish natijasida innovatsiyani amalga oshirish bo‘yicha batafsil izchil harakat rejasi belgilab olinadi.

Xorijiy rivojlangan davlatlar innovatsion faoliyatni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot ishlariga katta hajmda investitsiya kiritib kelmoqda, masalan Germaniya yalpi ichki mahsulotining 2,7 foizini, AQSH 2,8 foizini, Yaponiya 3,5 foizini, Rossiya 1,04 foizini ilmiy – tadqiqot ishlariga yo‘naltirgan[8].

Singapur sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu shunday fikrni bildiradi: “Ko‘pchilik mendan Singapurning rivojlangani haqida so‘rab, shunday savol berishadi, “Qanday qilib ulkan davlatdan ajralib chiqib, mittigina hudud bilan rivojlangan davlatga aylandinglar? Bu “Mo‘jiza”ni qanday amalga oshirdingiz?” Ularga javoban shunday dedim: “Men Singapurda mo‘jiza yaratmadim. Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat budjetining ko‘roq qismini ta’limga yo‘naltirdim[9].

Li Kuan Yuning fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, intellektual mulk innovatsion faoliyatnining asosini tashkil etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, hududiy innovatsion siyosatning tashkiliy jihatdan quyidagi ikki turga ajratish mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm: Hududiy innovatsion siyosatning tashkiliy jihatdan guruhlanishi

Hududiy innovatsion siyosat bilan xo‘jalik yurituvchi subyekt innovatsion siyosatining farqi shundaki, hududiy innovatsion siyosat, makrodarajada namoyon bo‘lib, uni shakllantirishda “Deduksiya” usuliga, xo‘jalik yurituvchi subyekt innovatsion siyosati mikrodarajada namoyon bo‘lib, uni shakllantirishda “Induksiya” usuliga tayanamiz. Lekin innovatsion siyosatni ishlab chiqishda alohida-alohida hududni ham, xo‘jalik yurituvchi subyektni ham o‘ziga xos xususiyatlari va jihatlari hisobga olinishi kerak.

Mintaqa innovatsion siyosatni olib borishda quyidagi omillarga e’tibor berilishi kerak:

- Mintaqaning iqtisodiy salohiyati va ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi.
2. Mahalliy aholining kelib chiqish tarixi va mentaliteti.
3. Mahalliy aholining ishlab chiqarish madaniyati va ko‘nikmasi.
4. Ilmiy tadqiqotga yaratilgan muhit.
5. Mintaqaning ma’muriy-boshqaruv tizimi tomonidan olib borilayotgan innovatsion siyosat.

- Xo‘jalik yurituvchi subyekt innovatsion siyosatini olib borishda quyidagi omillarga e’tibor berilishi kerak:

1. Ilmiy-texnik salohiyati.
2. Moddiy-texnik ta’minot bazasi.
3. Faoliyat turi va mulkchilik shakli.
4. To‘lovga qodirlik darajasi.
5. Boshqaruv tizimining talab darajasi.

8 Расходы на НИОКР (в % от ВВП). Данные Всемирного банка за 2008 год.
9 Manba: www.Central Asia.com

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Xo‘jalik yurituvchi subyekt innovatsion siyosatini mintaqa innovatsion siyosati asosida olib borilishi kerak. Shuningdek, ishlab chiqilgan innovatsion siyosatni amaliyotga qo‘llab, ijobiy natijaga erishishda har xil rag‘batlantiruvchi mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot tizimiga soliq imtiyozlarini qo‘llash, ilmiy-texnik faoliyatni subsidiyalashtirish, ilmiy-texnik mahsulot yaratuvchi va iste’molchilarini uzoq muddatli imtiyozli kreditlar bilan ta’minlash, ilm-fan xodimlarining mehnatini rag‘batlantirib borish, yosh ilmiy xodimlarni qo‘llab-quvvatlash.

Iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar xususiy korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, qo‘shma korxonalar va boshqa tadbirkorlik subyektlari uchun tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb qilish va shu asosda korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirish islohotlarning bugungi kundagi ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz yetakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o‘tish bo‘yicha turli muddatlarga mo‘ljallangan dasturlar ishlab chiqilgan va izchil ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkin-ki, inovatsiyalar mamlakat iqtisodiyotni rivojlantiruvchi hamda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida inovatsion yutuqlar hajmini oshirish eng muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inovatsion yutuqlarning hajmi oshishi bu yangi korxonalarning qurilishi, mavjudlarining modernizatsiya qilinishi, yangi mahsulot turlarining paydo bo‘lishi, raqobatni kuchayishidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda, inovatsiyaning mamlakat makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ahamiyati beqiyosdir.

Ko‘rib turganingizdek O‘zbekiston jamiyatining rivojlanishning innovatsion yo‘li murakkabdir. Ushbu yo‘lda muvaffaqiyat qozonish uchun erishilgan natijalarni birlashtiradigan va belgilangan maqsadlar sari borishda yangi imkoniyatlar yaratadigan milliy innovatsion tizim, institutlar tizimi, munosabatlar, ijtimoiy amaliyot juda muhimdir. Innovatsion rivojlanish, jamiyatni modernizatsiya qilish biz uchun mutanosib qarorlar, mehnatsevarlik, davlat, jamiyat, biznes va nodavlat sektorning sa’y-harakatlarini birlashtirishni talab qiladigan asosiy jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni, “Xalq so‘zi” gazetasi, 1-fevral 2022-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgust PF-5495-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.
3. 2005-yilda mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari. “Xalq so‘zi” 11-fevral, 2006-y.
4. Cooke Ian, Mayers P. Introduction to Innovation and Technology TransferBoston: Artech House, Inc., 1996.
5. Dodgson M. The management of technological innovation: An international and strategic approach. – Oxford University Press, 2000.
6. The Theory of Economic Development (1934). https://dic.academic.ru
7. Васильева Л.Н., Муравьева Е.А.. Методы управления инновационной деятельностью.Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2005. – 320 с.
8. Yo‘ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Y.D. Innovatsion menejment. Darslik. – T.; TDIU. 2011. 6-b.
9. Kamiljanov B.I. Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. Monografiya. – T.; Fan, – 2007. 172 b.
10. Malikov T. Soliq yuki. “Xalq so‘zi” 2006-yil 24-yanvar, №7.
11. Расходы на НИОКР (в % от ВВП). Данные Всемирного банка за 2008 год.
12. Qaxxorov A.J.. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali №6, noyabr-dekabr, 2015-yil. www.iqtisodiyot.uz
13. Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – Darslik.– T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.- 16 bet.
14. www.Central Asia.com

IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI DAROMADLARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNING NAZARIY ASOSLARI

Hasanova Nigora Hasan qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida bugungi kun va kelajak taraqqiyoti, xalq farovonligi, turmush sifatini belgilab beruvchi iqtisodiyot sohasining o‘sish sur’ati, rivojlanish darajasi va uning mamlakat aholisi daromadlari bilan bog‘liqligi o‘rganilgan. Shuningdek, iqtisodiy o‘sish sifatining aholi daromadlariga ta’sirini o‘rgangan tadqiqotchi olimlar nazariyalari jamlangan. Mamlakatda iqtisodiy o‘sish jarayoni amal qilganda unga mutanosib ravishda aholining real daromadlari miqdori ham o‘sishiga erishish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, aholi daromadlari, o‘sish sifati, daromadlar tengsizligi, iqtisodiy nazariyalar, asosiy g‘oyalar, kambag‘allik darajasi, foyda, xarajatlar.

Abstract: This article studies the growth rate, the level of development of the economic sector, which determines the current and future development, the well-being of the people, the quality of life, as well as its connection with the income of the country’s population. Also collected are the theories of research scientists who studied the impact of the quality of economic growth on the income of the population. When a country undergoes a process of economic growth, the main goal is to achieve a corresponding increase in the amount of real income of the population.

Key words: economic growth, income, quality of growth, income inequality, economic theories, basic ideas, poverty levels, profits, costs.

Аннотация: В данной статье изучаются темпы роста, уровень развития сектора экономики, который определяет текущее и будущее развитие, благосостояние народа, качество жизни, а также его связь с доходами населения страны. Также собраны теории ученых-исследователей, изучавших влияние качества экономического роста на доходы населения. Когда в стране происходит процесс экономического роста, главной целью является достижение соответствующего увеличения суммы реальных доходов населения.

Ключевые слова: экономический рост, доходы населения, качество роста, неравенство доходов, экономические теории, основные идеи, уровень бедности, прибыль, затраты.

KIRISH

Jahon tajribalaridan ma’lumki, iqtisodiy rivojlanishning asosiy belgilaridan biri sifatida iqtisodiy o‘sish sifati va aholi daromadlari oshirilishining bir-biriga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini olish mumkin.

Bundan tashqari, aholi daromadlarining miqdori turmush farovonligining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Respublikamiz hududlari bo‘yicha iqtisodiy o‘sish va demografik o‘zgarishlar o‘rganilgan va statistik tahlil qilingan bo‘lb, bugungi kunda XX asr o‘rtalariga nisbatan dunyo aholisi soni uch baravar ko‘paydi. Ya’ni, 1950-yilda 2,5 milliard kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 8,0 milliardga yetdi. Jumladan, 2010-yildan buyon 1 milliard kishi, 1998-yildan buyon esa 2 milliard kishi qo‘shildi. 1950-yildan buyon odamlar soni ikki baravar ko‘payib, 5 milliarddan oshib ketishi uchun taxminan 37 yil kerak bo‘ldi. Bu tendensiya shunday davom etsa, dunyo aholisi yana ikki baravar ko‘payib, 2059-yilga kelib 10 milliarddan oshishi uchun 70 yildan ko‘proq vaqt kerak bo‘ladi[1]. Iqtisodiy o‘sish - to‘liq bandlik bilan mujassamlashgan ishlab chiqarish real hajmining uzoq muddat mobaynida o‘sishidir. Iqtisodiy o‘sish YAIM, davlat iqtisodiy qudrati va insonlar farovonligining o‘sishida o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, iqtisodiy o‘sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishi hamda sifatning yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ham ifodalanadi[2].

1 United Nations. World Population Prospects 2022: Summary of Results. United Nations New York, 2022, p.3. https://www.un.org
2 Maxmudov N.M., Xomidov S.O., Djalilov A.A. Iqtisodiy o‘sish modellari. O‘quv qullanma. T.: TDIU, 2015. 248 b.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Aholi daromadlarining tabiati va sabablarini o‘rganishni o‘tgan asrning yirik iqtisodchilarining ishlaridan boshlab kuzatish mumkin.

A.Smit mehnat va qiymat nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lib, yaratilgan milliy daromadni ish haqi oluvchi yollanma ishchilar (zarur yashash vositalari qiymati) va foyda oluvchi tadbirkorlar o‘rtasida taqsimlash jarayonlarini ko‘rib chiqdi, bu esa, o‘z navbatida, ishchilarning to‘lanmagan mehnati natijasida yaratilgan[3].

D.Rikardo yollanma ishchilar, tadbirkorlar va yer egalari o‘rtasidagi daromadlarni taqsimlashdagi qarama-qarshiliklarni tahlil qilib, ularning manfaatlarini ustun qo‘ydi, chunki ular kelajakda iqtisodiy o‘sish uchun asos bo‘lgan kapital jamg‘arishni amalga oshiradilar[4].

K.Marks qo‘shimcha qiymat nazariyasiga tayanib, ayniqsa, daromadlarni taqsimlash sohasida aniq namoyon bo‘ladigan kapital va mehnat o‘rtasidagi antagonistik qarama-qarshiliklarni ko‘rsatdi[5].

J.B.Say daromadlarni taqsimlashni o‘rganishda “uchta ishlab chiqarish omili” tushunchasini taklif qildi, unga ko‘ra ishchilar, tadbirkorlar va yer egalarining xizmatlari bozorda ish haqi, foydaga talab va taklif hamda yer ijarasi qonunlariga muvofiq ayirboshlanadi[6].

J.B.Klark taqsimot munosabatlarini ko‘rib chiqayotib, ishlab chiqarishning uchta omilidan (mehnat, yer, kapital) foydalanganlik uchun to‘lovning ish haqi, renta, foiz ko‘rinishidagi ularning chegaraviy mahsuldorlik darajalariga mos kelishi tamoyilini himoya qildi[7].

L.Valras iqtisodiy-matematik modellashtirish asoschilaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish omillaridan foydalanishdan olinadigan daromadni ularning chegaraviy unumdorligi bilan moslashtirish tamoyilini rasmiylashtira oldi, bu esa o‘zi ishlab chiqqan umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasiga asos bo‘ldi[8].

Bundan tashqari, iqtisodiy o‘sish bilan axoli daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik mamlakatimizning ko‘plab iqtisodchi olimlarining tadqiqot mavzulari bo‘lib kelmoqda.

Mamatkulov Tuxta Daminovich mamlakatning iqtisodiy o‘sishi bevosita aholining demografik o‘zgarishlari (aholi sonining o‘sishi, turmush tarzi, insonlar taraqqiyoti va boshqalar)ga bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda iqtisodiy o‘sish – inson taraqqiyoti o‘zaro teskari ijobiy aloqaga ega[9].

Damirjon Odilovich Alimov tomonidan barqaror iqtisodiy rivojlanishni saqlab qolgan holda mamlakat qishloq hududlari aholisini daromadini oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini rag‘batlantirib iqtisodiy faol qatlamga o‘tkazish, mamlakat aholisida kam ta’minlanganlarning ulushi keltirilib, mamlakatlar iqtisodiy ko‘rsatkichlari O‘zbekiston iqtisodiyoti bilan taqqoslangan holda muhokama qilingan. Shu asnoda qishloq hududlari aholisi daromadini oshirib kambag‘allik darajasini qisqartirish uchun xulosa va takliflar berilgan[10].

Boymatov X.Q. mamlaktda ish o‘rinlarining yaratilishi, tadbirkorlik muhitining vujudga kelishi, mulkchilik sohasidagi islohatlar davlatimiz budjetining daromadlar qismining oshishiga, ularning ijtimoiy sohadagi sarf xarajatlari uchun manblarning shakllanishiga olib keladi, deb hisoblaydi[11].

TADQIQOT METODOLOGYASI

Mazkur tadqiqot ishida statistik, taqqoslash, gupuhlash, tahlil va sintez, iqtisodiy tahlil, abctpakt mantiqiy tahlil, analitik tahlil, iqtisodiy matematik usullardan foydalanildi. Ma’lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, iqtisodiy o‘sish tushunchasini kengroq aniqroq qilib yoritib berishga harakat qilindi. Natijada muammolarni tezkorlik bilan aniqlash, va muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi va mushohada qilish asosida ilmiy xulosalarga kelindi. Tadqiqot obyekti sifatida mamlakatimiz YAIM hajmi, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning asosiy indikatorlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA ASOSIY NATIJALAR

XX asr va XXI asr boshlarida aholi daromadlarining turli jihatlari ko‘plab taniqli iqtisodiy olimlarning ham tadqiqot obyekti bo‘lgan. Ular orasida D.Acemoglu, E.Atkinson, N.Kaldor, S.Kuznets, B.Milanovich, T.Persson, T.Piketti, A.Sen, J.Stiglitsni alohida ta’kidlash lozim. Ularning sa’y-harakatlari natijasida siyosiy va iqtisodiy tizimning o‘ziga xos xususiyatlari juda xilma-xil bo‘lgan mamlakatlarda daromadlarning tarixiy dinamikasi,

3 Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. - М.: ЭКСМО, 2007. - 960 с.
4 Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. - М.: Эконов, 1991.
5 Маркс К. Капитал / К. Маркс, Ф. Энгельс // Соч. - 2-е изд. - Т. 23. - 907 с.
6 Сэй Ж. Б. Трактат по политической экономии. – М.: Дело, 2000. –232 с.
7 Кларк Дж. Б. Распределение богатства. – М.: Гелиос АРВ, 2011. – 368 с.
8 Вальрас Л. Элементы чистой политической экономии. –М.: Изограф, 2000. –448 с.
9 Mamatkulov Tuxta Daminovich. Iqtisodiy o‘sishning aholi turmush tarziga ta’siri va uning prognozi //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali
10 Damirjon Odilovich Alimov. Qishloq hududlarida aholi daromadlari holati va oshirish istiqbollari // SB TSAU Conference 2022.
11 Boymatov X.Q. Aholi daromadlarini oshirish va uning shakllanishida davlatning o‘rni. 2023.

asosiy sabablari va samarasi tahlil qilindi, shuningdek, aholi daromadlarining haddan tashqari yuqori tabaqalanishini bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Iqtisodiy o‘sishning daromadlar oshirilishiga ta’sirini o‘rganishning boshida S.Kuznets turgan. XIX-asr oxiri va XX-asrning birinchi yarmida AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniya iqtisodiyotini tahlil qilib,olim bu ta’sirning tabiati noaniq degan xulosaga keldi. Iqtisodiy o‘sishning daromadlarga ta’sirining grafigini teskari U-shaklida tasvirladi.

S.Kuznets talqiniga ko‘ra, aholi jon boshiga real daromadning oshishi iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ustunlik qilish bosqichiga to‘g‘ri keladi, sanoat asosiga o‘tgan taqdirda esa, asta-sekin kamayishiga olib keladi. Shunday qilib, u o‘zining empirik ishlarida mamlakatdagi iqtisodiy tizimning rivojlanish bosqichiga qarab, iqtisodiy o‘sishning daromadlarga ta’siri tabiatining o‘zgarishini aniqlay oldi[12].

Daromadlarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini o‘rganish yo‘nalishi N. Kaldor tomonidan belgilab berilgan.

Iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy sifati va mamlakat yoki mintaqa fuqarolari daromadlarining bog‘liqligini tahlil qilish akademik iqtisodchilarning alohida e’tiborini talab qiladi.

Bu munosabatlarni G.Bekker[13] va T.Shuls[14] asos solgan inson kapitali nazariyasi asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, bu jihatdan ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir eng katta qiziqish uyg‘otadi, buning yordamida birinchi navbatda iqtisodiy subyektlarning inson kapitali shakllanadi va intensiv iqtisodiy o‘sish rag‘batlantiriladi. Fuqarolarning ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanishning aniq ifodalangan tengsizligini saqlab qolgan iqtisodiy o‘sish, tabiiyki, ularning umumiy va xususiy inson kapitalining farqlanishiga olib keladi. Bunday holat davlatning ijtimoiy siyosatni faollashtirish yo‘nalishida aralashuvini talab qiladi, bu esa aholining kam ta’minlangan qatlamlari vakillari uchun yuqorida qayd etilgan xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi, kelajakda ancha yuqori darajada o‘zlari ishlayotgan korxonalar va umuman mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyoti uchun o‘z mehnat faoliyatidan yuqori daromad keltira oladigan yuqori malakali ishchilar bo‘lishlari mumkin.

Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sish, uning asosiy omili jismoniy shaxslarning ta’limga, malaka oshirishga, ularning jismoniy va ma’naviy salomatligini yaxshilashga investitsiyalari bo‘ladi, ya’ni, inson kapitalini ko‘paytirishda ijobiy tashqi ta’sirlarning mavjudligi tufayli ham shaxsning o‘zi, ham butun aholining mehnat unumdorligini oshirish orqali erishiladi.

Bunda, uning natijalariga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyektlar daromadlarining farqlanishi avvalgi davrlarda turli mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish hamda salomatlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar bo‘yicha, bunda institutsional to‘siqlar bo‘lmasa, kuzatiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy o‘sish, qashshoqlik darajasi, uning kamayishi, ijtimoiy sifati va aholi daromadlarining oshirilish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikka bag‘ishlangan tadqiqot ishlari keng taqdim etilgan. Bu jihatdan iqtisodiy o‘sishning uch turini ajratib ko‘rsatish odatiy holdir:

1) “to‘ldiruvchi o‘sish”;

2) “kambag‘al o‘sish tarafdori”;

3) “qashshoqlashtiruvchi” (o‘sishni susaytiruvchi).

F.Agion va P.Boltonlar[15] tomonidan eng chuqur o‘rganilgan birinchi tur iqtisodiy o‘sish natijasida kambag‘allik darajasi pasayadi, lekin shu bilan birga jamiyatda daromadlar tabaqalanishi kuchayadi, deb taxmin qilinadi. Ko‘pincha iqtisodiy liberallar bo‘lgan uning tarafdorlari iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga yuqori daromadli fuqarolarga soliq yukini kamaytirish orqali erishish kerakligini ta’kidlaydilar. Bu ularga ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga qo‘shimcha mablag‘ yo‘naltirish imkonini beradi, bu esa, o‘z navbatida, o‘z daromadlarining bir qismini o‘rta sinf vakillari va kam ta’minlangan fuqarolarga “ulashishiga” olib keladi. Shu bilan birga, “pastga tushadigan” o‘sish kontseptsiyasining muxoliflari jamiyatning eng badavlat a’zolariga soliq yukini kamaytirish, ehtimol, ko‘pincha import qilinadigan hashamatli tovarlarga yoki kapital eksportiga xarajatlarning oshishiga olib kelishini haqli ravishda ta’kidlashadi. Xorijda, bu iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi dargumon, uning natijalari mamlakat yoki mintaqa aholisining ko‘pchiligiga foyda keltirishi mumkin.

Bunday holda, ortiqcha daromadlar differentsiatsiyasini yumshatishga olib keladigan iqtisodiy o‘sish haqida gapirishning ma’nosi yo‘q. O‘sishning ikkinchi turi, uni o‘rganish X. Cheneri va M. Axluvaliya asarlaridan boshlangan, u ham kambag‘allik darajasining, ham daromadlar tengsizligining pasayishi bilan birga keladi, ya’ni

12 Kuznets S. Economic Growth and Income Inequality / S. Kuznets // American Economic Review.1955. – № 45. – pp. 1-28.

13 Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education / G.S. Becker. - Chicago: University Of Chicago Press, 1994. – 412 p.

14 Shultz T. Human Capital / T. Shultz // International Encyclopedia of the Social Sciences. - 1968. – № 6. –pp. 12-34.

15 Aghion P. A Theory of Trickle-Down Growth and Development / P. Aghion, P. Bolton // The Review of Economic Studies. – 1997. –№ 64. – pp. 151-172.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

uning natijalariga ko‘ra, aholining eng kam ta’minlangan qatlamlari boshqa fuqarolarga qaraganda ko‘proq foyda ko‘radi[16]. Bunday holda, davlatning faol qayta taqsimlash siyosati bilan birgalikda iqtisodiy o‘sishi, kam ta’minlangan fuqarolar farovonligini oshirishni o‘zining ustuvor maqsadi sifatida belgilab beradi. Biroq, iqtisodiy o‘sish hukumatning qayta taqsimlash siyosatining turi va xususiyatlaridan qat’iy nazar, deyarli har doim kambag‘allarning farovonligini oshirishga olib keladigan nuqtayi nazarni ham uchratish mumkin.

Nihoyat, birinchi marta J. Bhagvati tomonidan tahlil qilingan iqtisodiy o‘sishni “qashshoqlashtiruvchi” iqtisodiy o‘sish aholi jon boshiga o‘rtacha real daromadning oshishi qashshoqlik chegarasidan pastda yashovchi odamlar salmog‘ining ortishi bilan birga bo‘lishini nazarda tutadi[17].

Shunga o‘xshash vaziyat, agar mamlakatning iqtisodiy o‘sishi importga yuqori marjinal moyillik bilan birga talabning past narx egiluvchanligi bilan tavsiflangan tovarlar eksportining ko‘payishi hisobiga yuzaga kelganda bo‘lishi mumkin. Bunda yalpi ishlab chiqarish hajmining oshishi xorijdan tovarlar yetkazib berishning ko‘payishiga olib keladi, bu esa arzon narxlarda tovarlarni qo‘shimcha eksport qilish hisobiga to‘lanishi kerak. Va bu, o‘z navbatida, ma’lum bir davlatning tashqi savdo shartlarining yomonlashishiga olib keladi. Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sish sifatining ijtimoiy-psixologik jihati va aholi daromadlarining notekis taqsimlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Ko‘rinib turibdiki, daromadlarni taqsimlash tengsizligining mamlakat fuqarolarining hayotdan qoniqishiga ta’siri tabiati tengsizlik darajasiga va muayyan jamiyatda hukm surayotgan qadriyat, axloqiy munosabatlarga bog‘liq.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan Evropa mamlakatlarida (Germaniya, Avstriya, Shvetsiya, Daniya, Norvegiya) olingan daromadlar bo‘yicha fuqarolarning tabaqalanishining past darajasi mavjud, bu ularning aholisining ijtimoiy adolat haqidagi g‘oyalariga mos keladi va o‘z navbatida, hayotdan qoniqishning ancha yuqori darajasini ta’minlaydi. Nihoyat, jamiyatda ijtimoiy adolatga tarixiy talab mavjud bo‘lgan, lekin ayni paytda fuqarolar o‘rtasida daromadlar tengsizligi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda bu holat hayotdan norozilikning kuchayishiga sezilarli darajada salbiy hissa qo‘shmoqda. Bu holatga aniq misol zamonaviy Rossiyadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirganda, iqtisodiy o‘sish sifati va daromadlarni oshirishning o‘zaro ta’sirining tabiati va xususiyatlari bo‘yicha bir qator umumlashtiruvchi xulosa va takliflarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir:

1) iqtisodiy o‘sish sifatining tarkibiy qismi sifatida milliy yoki mintaqaviy iqtisodiyot tuzilmasining aholi daromadlarining notekis taqsimlanishiga ta’siri iqtisodiyotning birlamchi, ikkilamchi yoki uchinchi darajali sektorining ishlab chiqariladigan mahsulot hajmida ustunligi bilan belgilanadi. Yalpi mahsulotda: birinchi va uchinchi hollardagi bog‘liqlik to‘g‘ridan to‘g‘ri, ikkinchisida - teskari bo‘ladi. Qisqa muddatda ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi innovatsion mahsulotlar ulushining daromadlar tengsizligiga ta’siri novator-tadbirkorlar va innovatsiyalarni ishlab chiquvchi va joriy etuvchi ishchilar o‘rtasida daromadlar kontsentratsiyasining ortishi tufayli ijobiy, uzoq muddatli istiqbolda esa salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2) iqtisodiy o‘sish sifatining eng muhim jihatlaridan biri ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligining qisqa muddatda daromadlar oshirilishiga ijobiy ta’siri tufayli daromadlarning muvofiqligi prinsipining mavjudligidir. Iqtisodiy va siyosiy institutlar faoliyatining mavjud tizimi (birinchi navbatda, ijaraga olish) nisbatan kichik buzuvchi ta’sirga ega bo‘lgan ishlab chiqarishni ularning marjinal mahsuldorligiga va uzoq muddatda - ijobiy tashqi ko‘rsatkichlarning tarqalishi tufayli mehnat va asosiy kapitalga salbiy ta’sir qiladi. Institutsional omillar tufayli yuzaga kelgan haddan tashqari yuqori daromad tengsizligining iqtisodiy o‘sishning resurslar sifatiga ta’siri salbiy, chunki yuqori unumli mehnatni rag‘batlantirishni susaytiradi.

3) daromadning yuqori tabaqalanishi ham kam ta’minlangan, ham minimal talab qilinadigan daromad darajasini ta’minlashga majbur bo‘lgan aholi tomonidan tabiiy muhitga ijara daromadini yoki biznes foydasini maksimal darajada oshirishga intilayotgan eng boy fuqarolarning “yirtqich” munosabatni rag‘batlantirish tufayli iqtisodiy o‘sishning ekologik sifatini yomonlashtiradi;

4) iqtisodiy o‘sish sifatining ijtimoiy jihatining daromadlar tengsizligiga ta’siri ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining samaradorligiga, ularning xizmatlarining sifati va foydalanish imkoniyatiga, shuningdek, aholining ijtimoiy harakatchanligiga bog‘liq.

O‘sishning ijtimoiy sifatining kambag‘allik va daromadlar tengsizligini kamaytirish nuqtayi nazaridan ta’siri mamlakatda iqtisodiy o‘sishning uchta turidan birining mavjudligi bilan belgilanadi:

16 Chenery H. Redistribution with Growth / H. Chenery, M. Ahluwalia. - Oxford: Oxford University Press, 1974. - 304 p.
17 Bhagwati J. Immiserizing Growth: A Geometrical Note / J. Bhagwati // Review of Economic Studies. - 1958. - № 25. - pp. 201-205.

- “pastga tushadigan o‘sish”;
- “kambag‘al o‘sish tarafdori”;
- “qashshoqlashuvchi o‘sish”.

Ikkinchi turdagi bandlik ijtimoiy nuqtayi nazardan eng ko‘p afzal qilingan, uchinchisi esa eng kam afzallikka ega.

5) iqtisodiy o‘sish sifatining ijtimoiy-psixologik jihati aholining yuqori daromadlar tabaqalanishiga bo‘lgan munosabati ta’sirida namoyon bo‘ladi, bu esa aholi mentalitetiga va jamiyatda katta daromad olish yo‘llari bo‘yicha shakllangan stereotiplarga bog‘liq.

6) iqtisodiy o‘sishning institutsional sifati, agar iqtisodiyot institutsional tuzoq holatidan chiqsa va mansabdor shaxslar va tadbirkorlarning ijaraga intilish va demokratlashtirish strategiyasini amalga oshirish imkoniyatlari mavjud bo‘lsa, jamoat hayotining pasayishi va daromadlarni tekislash yo‘nalishi bo‘yicha tabaqalanishiga ta’sir qiladi. Daromadlarning haddan tashqari tengsizligi institutsional muhit sifatining pasayishiga olib keladi, bu esa aholining mavjud iqtisodiy va siyosiy institutlarga ishonchining pasayishi tufayli iqtisodiy o‘sish istiqbollarini yomonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: ЭКСМО, 2007. – с. 960.
2. Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. – М.: Эконов, 1991. – с.339.
3. Масленников О.В. Взаимосвязь качества экономического роста и диф ференциации доходов: теоретикометодологические аспекты. //Сборник статей IV Международной научно-практической конференции “Экономика, управление и право: инновационное решение проблем”. 2016. – С. 38-43.
4. United Nations. World Population Prospects 2022: Summary of Results. United Nations New York, 2022,
5. Maxmudov N.M., Xomidov S.O., Djalilov A.A. Iqtisodiy o‘sish modellari. O‘quv qullanma. T.: TDIU, 2015. 248 b.
6. Sh. Shodmonov, U. G„afuruv “Iqtisodiyot nazariyasi”. Toshkent- “Fan va texnologiya”-2005.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ МАРКЕТИНГА НА РЫНКЕ ЦЕННЫХ БУМАГ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Юлдашев Жамшид Абрарович
К.э.н. (Phd), доцент Ташкентский государственный экономический университет кафедра “Маркетинг”

Аннотация: Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг представляет собой комплексный и динамичный процесс, отражающий изменяющиеся требования и ожидания инвесторов, развитие технологий и регулирования. В данном обзоре анализируются основные тенденции и вызовы, с которыми сталкиваются участники рынка ценных бумаг в современных условиях. Обсуждаются такие аспекты, как цифровизация и онлайн-присутствие, персонализация и аналитика, этический маркетинг и устойчивое инвестирование. Также освещаются факторы, влияющие на вовлечение населения в рынок ценных бумаг, и проблемы, с которыми сталкиваются участники рынка в Узбекистане. Обзор позволяет лучше понять текущие тенденции и направления развития маркетинга на рынке ценных бумаг и выявить потенциальные возможности для улучшения эффективности маркетинговых стратегий в этой сфере.

Ключевые слова: маркетинг, рынок ценных бумаг, современное состояние, тренды, вызовы, цифровизация, онлайн-присутствие, персонализация, аналитика, этический маркетинг, устойчивое инвестирование, вовлечение населения, проблемы, Узбекистан.

Annotatsiya: Qimmatli qog‘ozlar bozorida marketingning hozirgi holati murakkab va dinamik jarayon bo‘lib, investorlarning o‘zgaruvchan talablari va kutishlarini, texnologiya va tartibga solish sohasidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Ushbu sharh zamonaviy sharoitlarda qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari duch keladigan asosiy tendentsiyalar va muammolarni tahlil qiladi. Muhokamalarga raqamlashtirish va onlayn mavjudligi, shaxsiylashtirish va tahlil, axloqiy marketing va barqaror investitsiyalar kiradi. Shuningdek, O‘zbekistonda aholining qimmatli qog‘ozlar bozoriga jalb etilishiga ta’sir etuvchi omillar va bozor ishtirokchilari duch kelayotgan muammolarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Sharh qimmatli qog‘ozlar bozorida marketingni rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalari va yo‘nalishlarini yaxshiroq tushunish va ushbu sohadagi marketing strategiyalari samaradorligini oshirish uchun potensial imkoniyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: marketing, qimmatli qog‘ozlar bozori, hozirgi holat, tendentsiyalar, muammolar, raqamlashtirish, onlayn mavjudlik, shaxsiylashtirish, tahlil, axloqiy marketing, barqaror investitsiyalar, jamoatchilik ishtiroki, muammolar, O‘zbekiston.

